

# ADABIYOT

6

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*



Yangi nashr

Toshkent – 2022

UO'K 821.512.133(075.3)  
KBK 83.3(5O')ya72  
M 54

**Tuzuvchilar:**

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov

**Mas'ul muharrir:**

**Shuhrat Sirojiddinov** – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU rektori,  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**

**Uzoq Jo'raqulov** – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU “Jahon adabiyoti” ka-  
fedrali mudiri, filologiya fanlari doktori.

**Ravshanbek Egamberdiyev** – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 22-maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent:  
Respublika ta'lif markazi, 2022. – 224 b.

UO'K 821.512.133(075.3)  
KBK 83.3(5O')ya72

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiysi  
Respublika ta'lif markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-8170-6-7

© Respublika ta'lif markazi, 2022

# KIRISH. BADIY MATNNI TAHLIL QILISH BOSQICHLARI

Bu mavzuda biz:

- badiiy matnni tahlil qilish bosqichlariga xos xususiyatlarni o'rganamiz.

Biz adabiyot darslarida o'zbek va jahon so'z san'ati vakillarining turfa asarlaridan tarkib topgan badiiy matnlarni mutolaa qilamiz. Badiiy matn boshqa turdag'i matnlardan (masalan, axborot matnlari yoki ilmiy matnlardan) farq qiladi.

Adabiyot darslarida badiiy asarni tushunish uchun uch bosqichli tahlil usulidan foydalanamiz:

## Mutolaadan oldin:

- Boshqa fanlardan olgan bilimlaringizni yoki o'zingizga tanish holatlarni eslang – ular sizga asarni tushunishga yordam beradi.
- Asar sarlavhasiga e'tibor bering.
- Asarda nimalar haqida gap ketishi mumkinligini o'ylab ko'ring.

## Mutolaa davomida:

- Asardagi voqealarni kuzating. "Nima uchun?" degan savolni o'ylab ko'ring. Voqealarning keyingi rivojini taxmin qilib ko'ring.
- Asardagi obrazlarga, asarning muhim o'rinaliga, yozuvchi nima demoqchi ekaniga e'tibor bering. Bunda sizga matn ichida berilgan savollar yordam beradi.
- Asarda tasvirlangan voqealarni, qahramonlarni, manzarani xayolingizda xuddi "kino ko'rayotgandek" tasavvur qiling – bu ham asarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

## Mutolaadan so'ng:

- Asar haqidagi oldingi va keyingi tasavvurlaringizni solishtiring.
- Asar haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring.
- Asar qahramonlari va voqealariga baho bering.
- Asardan nimalarni o'rganganingiz, qanday xulosaga kelganingizni o'ylab ko'ring.

Ushbu uch bosqichli tahlil usulini Erkin Malikning "Nima qilib qo'yding, Sherzod?" hikoyasi misolida ko'rib chiqaylik.

## NIMA QILIB QO'YDING, SHERZOD?

*Erkin Malik*

Solijon aka ko'z kasallikkleri shifoxonasida ancha yotib, davolandi. Nihoyat shifo topib, uyiga qaytadigan bo'lib qoldi. Ammo og'ir, bosiq bu odam nimagadir uyi-ga ketishga oshiqmas edi. O'ziga bog'liq bo'limgan bir narsa ipsiz bog'lab turardi.

## Birinchi bosqich – mutolaadan oldin.

– Asar sarlavhasiga e'tibor beramiz. Qaysi hollarda birovga: "Nima qilib qo'yding?" deymiz?

– O'ylab ko'ramiz: Sherzod qanday bola bo'lishi mumkin? U nima ish qilib qo'ygan deb o'ylaysiz?

– Taxmin qilib ko'ramiz: asar nima haqida bo'lishi mumkin?

## Ikkinchi bosqich – mutolaa davomida.

– Asarni o'qiy boshlaymiz. Matn ichida berilgan savollarga javob berish orqali asardagi obrazlarga, asarning muhim o'rinaliga, yozuvchi nima demoqchi ekaniga e'tibor beramiz.

### NIMA QILIB QO'YDING, SHERZOD?

*Erkin Malik*

Solijon aka ko'z kasallikkleri shifoxonasida ancha yotib, davolandi. Nihoyat shifo topib, uyiga qaytadigan bo'lib qoldi. Ammo og'ir, bosiq bu odam nimagadir uyi-ga ketishga oshiqmas edi. O'ziga bog'liq bo'limgan bir narsa ipsiz bog'lab turardi.

*Nima uchun Solijon aka uyiga ketishga shoshilmayapti? Uni "ipsiz bog'lab turgan" narsa nima bo'lishi mumkin?*

Kasalxonani, unda yotgan kishini tasavvur qilamiz. Odatda kasalxonada uzoq vaqt davolangan kishi ruxsat berilishi bilan uyiga oshiqadi. Biroq hikoya qahramoni Solijon aka uyiga shoshilmayapti. Buning sababi nimada bo'lishi mumkin? Yuqorida-gi savol bizni shu haqda o'ylab ko'rishga undaydi.

*U kasalxonada kimnidir kutayotgan bo'lishi mumkin...*

*Shifokor bilan sog'lig'i haqida gaplashmoqchi bo'lishi mumkin...*

*Uni uyida hech kim kutmayotgan, yolg'iz bo'lgani uchun uyiga oshiqmayotgan bo'lishi mumkin...*

Ayrim holatlarda savolning javobi asarning keyingi o'rinalarda bayon qilingan bo'ladi. Bunday vaziyatlarda biz oldinroq bergen javoblarimizni asardagi voqealar bilan qiyoslab, o'zimiz yoki o'qituvchimiz yordamida muayyan xulosalar chiqarishimiz mumkin.



Uning o'y-fikri jarrohlik xonasida. Kasalxona yo'laklari bu kuni bir muncha tinchib qoladi. Sababi oq xalat kiyganlarning ko'pchiligi ichkarida bo'lishadi. Solijon akaning o'y-xayollari jarrohlik xonasida ham deb bo'lmas edi. U go'yo shaharning ko'p qavatli uylari orasidan Sherzod degan bolani izlardi.

*Nima sababdan Solijon akaning o'y-fikri jarrohlik xonasida? U nima uchun Sherzodni "izlayotgan" bo'lishi mumkin?*

Asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidagi o'rnini topish ham muhim. Buning uchun obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zлari, xatti-harakatlariga) e'tibor berishimiz kerak.

Sherzod yerga ursa, ko'kka sapchiydigan, tinib-tinchimas bola. Maktabga ham yolchitib bormaydi. Og'zidan saqich, qo'lidan cho'zma tushmaydi. Cho'ntagi to'la tosh. Undan uchib-qo'nib yurgan qushlar ham bezillaydi. U halitdan toshbag'ir deb nom chiqargan. Ajab, Sherzod haqida ko'pchilik nega shunday deb o'ylaydi? U shunaqa bo'lib tug'ilganmi? Sherzod kamdan kam xursand bo'lib yuradi. U uyiga kirishga shoshilmaydi. Ko'chada yuraversam deydi. Adasi ichadi, oyisi bilan urush-janjal qilaveradi. Sherzod ham adasiga o'xshab o'rtoqlariga baqiradi, arzimagan narsani bahona qilib, ularni do'pposlaydi. Ulug'bekni ham tutvolib urdi. Ulug'bek uylariga qochib chiqdi-da, balkondan turib uni so'kdi. Shunda Sherzod cho'zmasini ishga soldi. Tosh Ulug'bekning o'ng ko'zini jarohatladi.

*Sherzod sizda qanday taassurot qoldirdi? U chindan ham toshbag'ir bo'lib tug'ilganmi? Nima uchun u kamdan kam holatlarda xursand yuradi? Solijon aka Sherzodni nima sababdan "izlayotgan" edi?*

Asardagi obrazlarga tavsif berishda undagi dalillarga suyanamiz. Matndagi Sherzodning xarakteri tasvirlangan o'rnlarga e'tibor bersak, u haqida shunday deyilgan:

- U yerga ursa, ko'kka sapchiydigan, tinib-tinchimas bola.
- Maktabga ham yolchitib bormaydi.
- Uning og'zidan saqich, qo'lidan cho'zma tushmaydi.
- Uning cho'ntagi to'la tosh.
- Undan uchib-qo'nib yurgan qushlar ham bezillaydi.

Demak, "Sherzod yaxshi bola emas, u – ko'cha bezorisi" degan xulosaga kelishimiz mumkin, to'g'rimi? Ammo badiiy asarni o'qishda voqealarga faqat bir tomonlama qarash yaramaydi. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, asar voqealarining, voqealarni harakatga keltiruvchi obrazlar yoki qahramonlarning ham turli qirralari bo'lishi mumkinligini unutmasligimiz lozim.

Quyidagi ma'lumotlar Sherzod haqida matnda aytilmagan gaplar ustida ham o'ylab ko'rishga ehtiyoj tug'diradi:

- Sherzod kamdan kam xursand bo'lib yuradi.
- U uyiga kirishga shoshilmaydi, ko'chada yuraversam deydi.
- Dadasi ichadi, oyisi bilan urush-janjal qilaveradi.

*Demak, balki, Sherzodning dadasi ichib, urush-janjal qilavermaganida, u ham bunday bezorilik qilmasmidi? Balki, kimdir Sherzod bilan do'stlashib, uni biron narsaga qiziqtirganida, u vaqtini bezorilik bilan emas, foydali ishlar bilan o'tkazgan bo'larmidi?*

Badiiy asarni turlicha talqin qilish, tushunish mumkin. Muallif odatda hamma fikrini ochiq-oydin aytmaydi. Qahramonlar ismi, nutqi, harakatlari, narsa-buyumlar va

tabiat manzaralari tasviri, matndagi kalit so'z va so'z birikmalari – bularning hammasi bizga yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrlarni tushunishga yordam beradi.

Aslida badiiy asar aynan mana shu – ochiq aytilmagan, yashirin fikrlarni kashf qilish, asarning turli xil talqinlarini topish bilan ham qiziqdir.

Ulug'bekni Solijon aka yotgan xonaga olib kirishdi. Ular shu yerda tanishishdi.

– Isming Ulug'bek ekan, Ulug'bek kimligini bilasanmi? – deb so'radi Solijon aka.

– Bilaman, u kishi podsho bo'lganlar, keyin yulduzlarni ko'p o'rganganlar. Men ham yulduzlarni o'rganishni yaxshi ko'raman.

– Qiziq-ku, – dedi Solijon aka, – yulduzlarni qandoq qilib o'rganib bo'ladi?

– Qutb yulduzini bilasizmi?

– Eshitganman, lekin u haqda hech narsa bilmayman.

– Kechasi adashib qolgan odamlar, kemalar, hatto qushlar ham Qutb yulduziga qarab yo'llarini aniqlab oladilar, – dedi Ulug'bek.

– Mabodo sen Cho'pon yulduzi haqida gapirmayapsanmi? – so'radi Solijon aka.

– Cho'pon yulduzi boshqa. Qutb yulduzi boshqa. Cho'pon yulduzi tong mahali ko'rindi. Qutb yulduzi kechasi bilan bir joyda turadi. Osmondag'i hamma yulduzlar uning atrofida aylanadi. Qutb yulduziga qarab, boshqa yulduzlarning harakati o'rganiladi.

– Qoyil, – dedi Solijon aka hayratlanib, – ismingga munosib bola ekansan.

*Solijon aka va Ulug'bek o'rtasidagi suhbatdan nimalarni angalingiz? Nima uchun ular aynan Cho'pon, Qutb yulduzları haqida suhbat qurishdi? Mashhur bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek bilan asar-dagi oddiy bola – Ulug'bek o'rtasida bog'liqlik bor deb o'ylaysizmi?*

Ular o'rtasida bunaqa suhbatlar tez-tez bo'lib turar, Ulug'bekning quvnoqligidanmi, ko'zidagi jarohati ham yodidan ko'tarilib ketardi. Biroq Ulug'bekning o'ng ko'zi kun sayin ich-ichiga botib, puchayib borardi.

– Sen o'ng ko'zingni oolib yur. Bo'lmasa, tuzalgandan keyin ham ko'zingni qisib yuradigan bo'lib qolasan, – deb dashnom berardi Solijon aka. Ammo Ulug'bekni oldinda jarrohlik amaliyoti kutayotganini eslaganda Solijon akaning yuragi orqaga tortib ketardi. Nahotki...

Bugun Ulug'bekni operatsiyaga olib kirib ketishdi. Aksiga olib, Solijon akaga ruxsat tegdi. Solijon aka xonani bo'shatdi-da, yosh do'sti Ulug'bekni kuta boshladi. Ishqilib, yarimjon bo'lib qolmasin-da! Shu yoshda dunyoga bir ko'z bilan qarab qolmasin-da... Nima qilib qo'yding, Sherzod?!

*Solijon aka nimadan qattiq tashvishda edi?*

E'tibor qilsak, berilgan savollar matnda bor ma'lumotlarni topishga emas, balki bor ma'lumotlar asosida "yozilmagan" narsalarni – yozuvchi ochiq aytmagan fikrlarni kashif etishga qaratilgan.

Misol uchun, yozuvchi asardagi bolani Ulug'bek deb atashi tasodif emas. Ulug'bek kelajakda buyuk olim Mirzo Ulug'bek kabi falakiyat ilmini o'rganmoqchi edi. Yozuvchi "Ulug'bek" ismi orqali bolaning aqlli, dono, zehnli ekaniga ishora qilyapti.

*"Kechasi adashib qolgan odamlar, kemalar, hatto qushlar ham Qutb yulduziga qarab yo'llarini aniqlab oladilar, – dedi Ulug'bek".*



Ulug'bek xuddi Sherzodga o'xshab adashib qolganlarning yo'lini yoritmoqchi bo'lgan yaxshi insonlar toifasidan edi. Ammo, afsuski, mana shunday iste'dodli bola bir umrga "dunyoga bir ko'z bilan qarash"ga majbur bo'lib qolishi mumkin.

### **Uchinchi bosqich – mutolaadan so'ng.**

Bu bosqichda matnni yaxlit tushunishimiz, umumlashtirishimizga imkon beruvchi savollar ustida o'ylab ko'ramiz. Bu savollarga javob berish jarayonida asar haqidagi avvalgi va keyingi tasavvurlarimizni solishtirishimiz, hayotiy tajribalarimiz va avval olgan bilimlarimizga tayanib tahlil qilishimiz mumkin.

*Asarda qanday g'oyalar aks etgan? Ulardan eng muhimi qaysi? Nima uchun bu g'oyani eng muhimi deb o'ylaysiz?*

*"Solijon", "Sherzod" kabi ismlar orqali ham yozuvchi qandaydir yashirin g'oyalarni ilgari surgan deb o'ylaysizmi? Bu ikki ism qanday ma'noni anglatishi mumkin?*

*Sizningcha, asar nima uchun shifoxona tasviri bilan boshlanadi?*

*Asar sarlavhasi haqidagi avvalgi va keyingi xulosalariningizni qiyoslang. Nimalar o'zgardi?*

*Solijon aka tilidan aytilgan "Shu yoshda dunyoga bir ko'z bilan qarab qolmasin-da..." degan gapni qanday tushundingiz?*

*Sherzod xarakteri tasvirida sizga eng kuchli ta'sir qilgan jihat qaysi? Nima uchun?*

*Solijon aka Sherzodni uchratib qolsa, unga nimalar degan bo'lardi? Sherzod Solijon akaga-chi?*

Badiiy asar matematik masala emas. Odatda asar bo'yicha qo'yilgan savollarning yagona to'g'ri javobi bo'lmaydi – bu savollarga har birimiz o'z dunyoqarashimiz va tajribamizdan kelib chiqib javob berishimiz, asardan o'zimiz uchun mustaqil xulosalar chiqarishimiz lozim. Shundagina biz o'zimizda adabiyot darslariga, kitob mutolaasiga ehtiyoj sezamiz.



## 1-fasl. HAR BIR KUN – SABOQ

Abdulla Qahhor. “O‘g‘ri”  
G‘afur G‘ulom. “Shum bola”  
Odil Yoqubov. “Yaxshilik”  
O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari”

### **Adabiy tushunchalar:**

- badiiy asar tili
- badiiy asarda voqealar bayoni
- badiiy tasvir vositalari: o‘xshatish
- yumoristik asar

### **Fanlararo aloqa:**

adabiyot va tarix

# ABDULLA QAHHOR. “O‘G‘RI”

Bu mavzuda biz:

- hikoyaning asosiy g‘oyalarini tahlil qilamiz;
- muallif tiliga xos xususiyatlarni aniqlaymiz.

## MUALLIF BILAN TANISHAMIZ



Abdulla Qahhor (1907–1968) – o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri. Uning bolaligi hozirgi Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahri atrofidagi qishloqlarda o‘tgan. U dastlab maktabda, keyinchalik o‘qtuvchilar tayyorlaydigan o‘quv yurtida, so‘ngra O‘rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil olgan.

Abdulla Qahhor shunday yozadi: “Bolaligimni o‘ylaganimda chalakam-chatti tush ko‘rgandek bo‘lar edim. ... Zehnimda shunga o‘xshagan qalqib yurgan xotiralardan tashqari qalqimasdan toshdek cho‘kib yotgan xotiralar ham hisobsizligidan uzoq zamon bexabar ekanman. Bundan meni Anton Pavlovich Chexov domla xabardor qildilar. Bundan

o‘ttiz yil burun Chexovning kitoblarini qo‘limdan qo‘ymasdan o‘qib chiqdim. Shunda alomat bir hodisa yuz berdi: shu bilan muhtaram ustod menga go‘yo mu borak ko‘zoynaklarini berdilar-u: “Mana buni taqib, o‘z xalqingning o‘tmishiga nazar sol!” – dedilar. Bolaligimda zehnimga cho‘kib qolgan xotiralar uyg‘ondi, yuzaga chiqdi, o‘sha vaqtdagi xalq hayoti ko‘z oldimga keldi. Mana shuning natijasi bo‘lib g‘am-g‘ussaga to‘la “O‘g‘ri”, “Tomoshabog”, “Bemor”, “Anor” kabi hikoyalar vujudga keldi”.

O‘ylab ko‘ring-chi, muallif nega bolaligidagi voqealarni “chalakam-chatti tush”-ga o‘xshatyapti?



Rus yozuvchisi, hikoyalar ustasi  
Anton Pavlovich Chexov.  
Abdulla Qahhor Chexovni o‘z ustozi deb hisoblagan.

## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

O'qimoqchi bo'lgan hikoyamiz "O'g'ri" deb nomlanadi.

*Biror-bir qadrli narsangizni yo'qotib qo'yganingizda qanday holga tushgansiz?*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududining bir qismi Turkiston deb atalgan va Rossiya imperiyasi tarkibiga kiran. "O'g'ri" hikoyasi shu davrdagi xalqimiz hayoti haqida hikoya qiladi. Tarixiy davr muhitini ko'rsatish uchun muallif hikoyada bir qancha eskirgan, hozirgi tilimizda ishlatilmaydigan so'zlardan foydalanadi:

oqposhsho – Rossiya imperiyasi hukmdorini xalqimiz shunday atagan;

ellikboshi – mahalla yoki ovul rahbari;

mingboshi – tuman yoki daha hokimi;

amin – bir necha qishloqni boshqargan amaldor;


pristav – politsiya boshlig'i;

tilmoch – tarjimon.

*O'ylab ko'ring-chi, nima uchun muallif hikoyani "O'g'ri" deb nomlagan? O'g'ri kim bo'lishi mumkin? Asarni o'qib bo'lgach, yana shu savolga qayting. Avvalgi va keyingi javoblariningizni qiyoslang.*



Toshkent. XIX asr oxiri



Hikoyani  
O'zbekiston  
xalq artisti Nabi  
Rahimov ijrosida  
tinglang

## O'G'RI (*O'tmishdan*)

*Otning o'limi – itning bayrami.  
Maqol*

Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og‘il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

“Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. ... Ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi”. O'ylab ko'ring-chi, nega ho'kiz dehqon uchun juda muhim hayvon bo'lgan?”

xatga tushadi –  
tortib olinadigan  
narsalar ro'yxati-  
ga qo'shiladi

Odamlar dod ovoziga o'rghanib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zлari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg‘aydi, it huradi, tovuqlar qaqqag‘laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig‘ishiga aql ishonmasligi to‘g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

*Qobil boboning holatiga e'tibor bering. Nega u "titraydi, tizzalari bukilib ketadi, ko'zları javdiraydi"?*

Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi; ne-gadir ustunni qimirlatib ham ko'rди, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

– Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyod sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

– Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

**taftish –  
tekshirish**

Odamlar o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rди. Qobil bobo qo'l qovushtirib uning ketidan yurar va yig'lar edi.

– Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu "xudo yallaqagur" shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

*Qobil bobo ellikboshiga nima uchun pul berdi? Ellikboshi Qobil boboga yordam berdimi?*

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekir-di, keyin bag'baqasini osiltirib kului.

– Ha, sigir yo'qoldimi?

– Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

– Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

– Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalogsini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kului.

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?

– Ola ho'kiz...

- Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?
- Qo'sh mahali...
- Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa, keta beradimi?

Amin “Yo'qolmasdan ilgari bormidi?”, “Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa, keta beradimi?” kabi savollarni nima maqsadda berdi deb o'ylaysiz? Ho'kizning qanday yo'qolganini surishtirmoqchimi yoki Qobil boboning ustidan kulyaptimi?

- Bisotimda hech narsa yo'q...
- O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa, qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!
- Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.
- Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib, – suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?
- Aminning bu gapi Qobil boboga “Ma, ho'kizing” deganday bo'lib ketdi.
- Kam bo'l mang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmatingizdamani.
- Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi.

Sizningcha, amin qanday odam? Nega u Qobil boboga “Yig'lama” yoki “Yig'lamang” emas, “Yig'lanmasin!” deyapti? Uning Qobil boboga biror yordami tegadi deb o'ylaysizmi?

**azayimxon** –  
afsun o'qib kasal-larni “davolovchi”, muammolarni “hal-qiluvchi” kishi

**obdastagardon** –  
duo o'qib o'g'rini topish

**arbob** –  
amaldor, yuqori lavozimdag'i shaxs

**kulankir** –  
zotli xo'roz (tovuq)

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir “duoning zo'ri bilan qufl ochadigan” azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinch kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepe sochi tikka bo'ldi:

- Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begin deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zar yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'irlari bo'shashib ketdi, keyin tutaqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi! “O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan”. “Yaxshilab tushuntirilgan” pristav bitta kulankir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga, “beto'xtov hokimga xabar beraman” demasdan, “aminga bor”, deb qo'ya qoldi. Amin “ellik-boshiga borilsin”, dedi.

– Gumaningizni ayting bo‘lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo‘lib, – kim olganini men bilmasam, avliyo bo‘lmasam! Olgan odam allaqachon so‘yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz, ko‘nchilikka borib, terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko‘nchilikka tushgan bo‘lsa, allaqachon charm bo‘ldi; xudo biladi, kavush bo‘lib bozorga chiqdimi...

– Endi bizga juda qiyin bo‘ldi-da. Peshonam sho‘r bo‘lmasa... – dedi chol yerga qarab.

– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig‘laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho‘kiz bo‘lsa, bir gap bo‘lar, xudo ajalga to‘zim bersin! Men qaynag‘amga aytayin, sizga bitta ho‘kiz bersin. Bitta ho‘kiz odamning xunimi?

*Ellikboshining Qobil bobo bilan birinchi va ikkinchi suhabatida qanday farqlarni sezdingiz? Ellikboshining asl maqsadi nima edi?*

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin “kichkinagina” sharti bor. Bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi...

paxtafurush –  
paxta  
sotuvchi

*Egamberdi paxtafurushning Qobil boboga qo‘ygan “kichkinagina” sharti nima bo‘lishi mumkin? Qobil bobo bu shartni bajara oladi deb o‘ylaysizmi?*



## MUHOKAMA QILAMIZ

1. “O‘g‘ri” hikoyasida o‘scha davrga xos qanday muammolar tasvirlangan? Jadvalni daftaringizda davom ettiring.

Muammo	Hikoyadan misol
Poraxo‘rlik (amaldorlarning arz bilan kelgan fuqarolar muammolarini hal qilish uchun pul yoki sovg‘a olishi)	Qobil bobo ho‘kizni topib berishi uchun ellikboshi, amin, pristavga pul va sovg‘a beradi
Savodsizlik	

2. Qobil boboning sarson-sargardon bo‘lishiga ko‘proq kim aybdor deb o‘ylaysiz? Bunday holatga tushmaslik uchun nima qilish kerak?

3. Asar matnidan oldin keladigan va uning asosiy g‘oyasini ochib berish uchun ishlatiladigan maqol yoki hikmatli so‘z epigraf deyiladi. “O‘g‘ri” hikoyasiga “Otning o‘limi – itning bayrami” maqoli epigraf qilib tanlangan. Bu hikoyada “ot” va “it” kim? Hikoyaga tayangan holda maqolning mazmunini tushuntirib bering.

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

1. Guruhlarga bo‘lining. “O‘g‘ri” hikoyasidagi o‘zingizga ma’qul bo‘lgan epizodni tanlang va shu asosda rasm chizing. Ijodingiz asosida taqdimot tayyorlang va uni guruhlarda muhokama qiling.

2. Tasavvur qiling, siz o‘scha zamonda Qobil bobo o‘rnidasiz. Ho‘kizni topish uchun qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?


## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: BADIY ASAR TILI

Har bir san‘at turi muayyan vositalar yordamida yaratiladi. Rassomlar o‘z asarlarini qalam yoki bo‘yoq yordamida, haykaltaroshlar – gips, bronza yoki tosh yordamida, yozuvchi va shoirlar esa so‘z yordamida yaratadilar. Badiy asarda muallifning maqsadi, asar voqealari kechayotgan vaqt va joyning asar mazmunitagi ahamiyati, asardagi obrazlarning xulq-atvori va ichki dunyosi so‘zlar orqali ochib beriladi. Muallif tanlagan so‘zlar bizga asarni, undagi qahramonlar va voqealarni tasavvur qilishga, “his qilishga” yordam beradi.

Misol uchun badiy asarda va tasviriy san‘atda kuz tasvirini solishtirishimiz mumkin.

“Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq

eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi". (Abdulla Qahhor, "Dahshat" hikoyasidan)



**"Kuzgi hovli".**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Pavel Benkov ishlagan surat

Demak, kuzak shamolini rassom daraxtlarning egilishi, barglarning sochilishi orqali tasvirlasa, yozuvchi "chiyillaydi", "g'uvullaydi", "vishillaydi" kabi fe'llar orqali ifodalaydi.

Ko'p hollarda muallif aytmoqchi bo'lgan fikrni asardagi voqeа yoki qahramonlar tasviri orqali bilib olish mumkin.

"O'g'ri" hikoyasidan qahramonlarning xatti-harakatlari, gaplari tasvirlangan o'rinnarni toping. Bu tasvirlar orqali muallif qahramonlarning tabiatiga xos qanday xususiyatlarni ochib bergen? Jadvalni daftaringizga ko'chiring va to'ldiring.

<b>Qahramon tasviri</b>	<b>Qahramon tabiatiga xos xususiyat</b>
Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kului.	Aminning qorni to'q, uning qorni och bilan ishi yo'q

Siz o'qigan hikoya tiliga xos yana bir muhim xususiyat – unda maqollar va iboralarning ishlatalishi. Hikoyada ishlatalgan maqol va iboralarni toping. Ularning asar g'oyasini ochishdagi ahamiyatini izohlashga harakat qiling. Siz mazkur hikoya uchun yana qanday maqollarni tavsiya qilgan bo'ldingiz? Nima uchun?

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

Abdulla Qahhor qalamiga mansub "Bemor" hikoya-sini o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.



# G‘AFUR G‘ULOM.

## “SHUM BOLA”

Bu mavzuda biz:

- yumoristik asar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz;
- asar va uning kino talqinini solishtiramiz;
- asarda voqealar bayonini tahlil qilamiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ



G‘afur G‘ulom (1903–1966) – XX asr o‘zbek adabiyotida munosib o‘ringa ega iste’dodli ijodkorlardan biri. Uning hajviy hikoyalari, yumorga boy qissalari kitobxonlar qalbidan chuqr joy olgan.

G‘afur G‘ulom Toshkentda dehqon oilasida tug‘ilgan. U o‘z tarjimayi holida shunday yozadi: “Otam adabiyot bilan juda qiziqar edi, uyimizga o‘zbek shoirlari va xattotlar kelib yurganini eses bilaman. Otam “Mirzo” va


“G‘ulom” taxalluslari bilan talay she’rlar yozgan. Amakim ham she’rlar yozar edi”. G‘afur G‘ulom to‘qqiz yoshida otasidan, 15 yoshida onasidan ayilib, yetimlik va moddiy muhtojlikda o‘tgan kunlarini quyidagicha xotirlaydi: “Kirmagan eshigim, qilmagan xizmatim, tutinmagan ishim qolmadi. Etikdo‘z kosibga shogird tushdim, bo‘lmadi. Birovning aravasini minib qishloqqa qatnadim, bo‘lmadi. Sariboy deganning olma bog‘ida qo‘riqchilik qildim, bo‘lmadi. Keyin tunuka qirqib, mayda chega mixlar yasay boshladim: ish avval tuzuk edi, keyin mazasi qochdi, tirikchilik o‘tmaydigan bo‘ldi”. Ro‘zg‘or tebratish yosh G‘afurning zimmasida qolgani sabab u oliy o‘quv yurtida o‘qiy olmadi, bir muddat maktabda va sakkiz oylik muallimlar tayyorlash kursida o‘qish imkoniga ega bo‘ldi, xolos.

Ammo G‘afur G‘ulom mustaqil o‘qish, ilmga, o‘rganishga bo‘lgan intilishi sabab o‘zbek xalqining sevimli ijodkoriga aylandi.

## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz mutolaa qiladigan asar “Shum bola” deb nomlanadi. Unda sizga tengdosh yetim bolaning taqdiri, sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

O'ylab ko'ring: “shum bola” deganda qanday bolani tasavvur qilasiz? “Shum bola” va “sho'x bola” o'rta-sida qanday farqlar bor? Mahallangizda yoki sinfdoshlar ringiz orasida ham shum bolalarni uchratganmisiz? Ularda boshqa bolalarga o'xshamaydigan qanday xususiyatlarni kuzatgansiz?



Asarda tasvirlangan voqealar XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi qishloqlarda bo'lib o'tadi. Asar qahramoni onasining qattiq koyishidan ranjib, uyidan chiqib ketadi va pul topish ilinjida turli ishlarga qo'l uradi.



XX asr boshlarida Toshkent

Asardagi “shum bola”ni qanday tasavvur qilyapsiz? Uni tasvirlang va berilgan parchani o'qib bo'lgach, avvalgi va keyingi xulosalar ringizni qiyoslang. Asar qahramoni haqidagi tasavvuringizda nimalar o'zgardi?



Qissaning  
audio variantini  
tinglang

## SHUM BOLA (qissadan parcha)

... Shu ondayoq xayr-xo'shni nasiya qilib biyobonga yo'l soldim. Osmon uzoq, yer qattiq edi. Qayerga ketib borayotganimni o'zim bilmas edim. Oldinda biror mo'ljallagan niyatim ham yo'q edi. Darbadarlikdan, o'zimning simobday beqaror sayoqligimdan juda o'kinar edim. Salgina bosiq, salgina o'yinqaroq bo'lmasam, hammaning ham nonini tuyu qilib bera olar edim. Ust-boshim but, qornim to'q, qayg'um yo'q bo'lar edi. Xayr, mayli, endi afsusning foydasi yo'q.

Asr bilan shom o'rtasida ro'paramdan katta bir daryo chiqib qoldi. Men bu yerlar bilan tanish bo'lmanim uchun bu daryoning qaysi daryo ekanini va ismini ham bilmas edim. Daryodan kechib o'tib bo'lmaniday, suzib o'tish undan ham mashaqqat edi. Orqaga qaytish mumkin emas. Daryo qirg'og'ida birorta ulovli yo'lovchini kutar edim.

Oldidan katta daryo chiqib qolgan mashhur sayyoohlarning ashularini suvning sharqiroq oqinlariga kuylar edim:

*Daryo toshqin, suvlar to'lqin,  
O'tolmayman-a, yor-yor.  
Otim oriq, manzil uzoq,  
Yetolmayman-a, yor-yor.*

*Otginamni oriq qilgan  
Shu mayda tosh-a, yor-yor.  
Rangginamni sariq qilgan  
U qalamqosh-a, yor-yor...*

*Daryolarning ul yuzida  
Uylaringiz-a, yor-yor.  
Oqarishib ko'rindi  
Bo'ylaringiz-a, yor-yor.*

*Ipdanmidi, ipakmidi  
Kiyganingiz-a, yor-yor.  
Bizlardan ham ortiqmidi  
Sevganingiz-a, yor-yor...*

*Daryolarning ul yuzida  
Oltin ko'za-ya, yor-yor.  
Oltin ko'za ko'tarmakka  
Bilak kerak-a, yor-yor.  
Bu daryodan kechish uchun  
Yurak kerak-a, yor-yor...*



— deb bir hovuch suvni lazzat bilan shimirib turgan edim, gard namoyon bo'ldi.

Bolaning yoshiga u qadar to'g'ri kelmaydigan mazkur xalq qo'shig'ini shum bola tilidan ayttirish orqali muallif nimani maqsad qilgan deb o'ylaysiz?

Gard orasidan oriq baytalga mingan bir uzumchi chol paydo bo'ldi. Men uning bariga yopishib, meni ham o'tkazib qo'yishini iltimos qildim. Uzumchi: "Otim oriq, yangi qulunlagan, yukim ko'p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashsa, uyat bo'ladi", deb baho na qilsa ham, xiralik qila berdim. Noiloj qolib, o'tkazib qo'yishga majbur bo'ldi.

Inson tabiatiga xos "xiralik" nimaning belgisi? Xiralikni ham shum bolalarga xos xususiyat deb ayta olamizmi?

Bu daryoning ismi Kalas deb atalar ekan. Hozir chiqqan o'rimiz daryoga nisbatan Quri Kalas qishlog'i deb nomlangan ekan. Borarga makonim, tanish-bilishim yo'q edi. Uzumchi g'ayribuddiyor ekanimni

**baytal** –  
urg'ochi ot

**bar** –  
ust kiyimning  
yon etagi

**qulun** –  
otning bolasi

**o'r** –  
tepalik, balandlik

**g'ayribuddiyor** –  
musofir

**bo'lis –**  
hokim, boshliq

**juvari go'ja –**  
bug'doy yoki  
makkajo'xoridan  
tayyorlanadigan  
ovqat

**dudmol –**  
mujmal  
**jaydari –**  
oddiy, kichkina

**1 pud –**  
taxminan 17  
kilogrammga  
teng og'irlik  
o'lchovi

**qadoq –**  
taxminan 410  
grammga teng  
og'irlik o'lchovi

**quv –**  
ayyor

fahmlab, ba'zi maslahatlarni berdi. Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqtি bo'lgani uchun menga o'xshash osh-tomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshididan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo'lboshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma chog'i xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

– Assalomu alaykum, – deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o'z o'rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog'i:

– Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganiningda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'lingni topib olarsan... – degan dudmol maslahat berdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

Yotishda ham shular o'rtasida qoldim. Yaxshi olmalarni joylab, uzoq shaharlarga yuboriladigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon karavot qildim. Boshimga olma o'raydigan yog'och qirindisidan yostiq qilib rohat-rohat uyquga ketdim...

Erta bilan bo'lisning oldiga bordim. Bir qancha silkillashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiq aralash, ona sutidan halol ikki pud o'n yetti qadoqdan olma beradigan bo'ldi.

*Boyning shum bolaga "xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiq aralash, ona sutidan halol ikki pud o'n yetti qadoqdan olma" berishi adolatdan edimi? Mazkur lavha o'sha davrdagi xalqning, jumladan, bolalarning og'ir turmushi haqida qanday tasavvurlar uyg'otdi?*

Shu paytda boyning avzoyini ko'rib, mening ham haromzoda tomirim urib qoldi. "Mendan nima ketdi, bir shart qo'yib qo'yay, bir kun boshimga biror ish tushib qolsa, shu bahona qutulib ketarman", degan xayol bilan: "Boy buva, – dedim, – endi-ku, savdomiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa, halol bo'lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo'yaganim yaxshi".

- Xo'sh, nima aybing bor? Siyg'oqmisan, tutqanoqmisan?
- Yo'q, aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo'lib qolgan, har zamon-har zamonda beixtiyor yolg'on gapirib qo'yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqi, mayli, siz aytgancha bo'lsin.
- Obbo bachchag'ar-ey, quv ko'rinasan-a, ha, mayli-mayli. Lekin ko'p yolg'onlamagin!

*Nima uchun Shum bola Sariboyga avvaldan aybini aytib qo'yishni istadi? Nega boy uning yolg'onchiligin bila turib ham ishga yolladi?*

Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirogovuch qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog' qo'riyman. Ba'zida xo'jayinga pul zarur bo'lib qolsa, xom-xatala olmalarni aravaga ortib, Darvoza, Sariog'och atroflaridagi bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to'g'rab bersa, mol yemaydigan olmalarni cho'lida, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doya alishaman.

Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng Xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi.

Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda "innaykeyin" deb so'raydigan odati bor edi. Ana shu "innaykeyin"-ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo'rg'onda ko'rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangilda, unga "qandil olma pishibdi", deb aytsangiz, u sizga "innaykeyin", deb savol beradi. Siz albatta: "Shu pishgan olmani terish kerak", deysiz. Yana Xudo qarg'agan "innaykeyin", deydi. Xayr, "Sotish kerak", deysiz. Yana "innaykeyin", deb so'rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom. "Innaykeyin" degan savolga hech hojat yo'q. Ana shunaqa o'rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak yeysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o'ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo'rg'onchasi, butun dov-dastgohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog'i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo'jayinga ma'qul tushib qolib, darrov o'sha yerdan bitta qirg'iz xotinni olib, bir borganda o'n-o'n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo'lib qoldi.

Olmalar pishib, to'kilib ketayotibdi, xo'jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-xashak yo'q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan "innaykeyin" savolidan hamma qo'rqed. Bir kuni kechqurun xizmatkorlar bilan o'tirib, qanday qilib boyni o'z joyiga chaqirib kelish to'g'risida maslahatlashdik, ham kim borishini o'ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki "innaykeyin" dardidan keyin boyning o'zini tinkasi qu'riydigan bo'lsin.

Chek menga chiqdi.

Erta bilan bir otga minib, boyning oldiga qarab yo'l soldim. Yo'l-yo'lakay ming xil xayollarga botib o'layman. Qanday qilib "innaykeyin"iga javob topish kerak? Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyponda kalla go'shti bilan nonushta qilib o'tirgan ekan. Salom berib, sekingina poygakka tushib o'tirdim.

**innaykeyin –**  
"undan  
keyin-chi"  
demoqchi

**chek –**  
(bu yerda)  
qur'a

Nima uchun xizmatkorlar Sariboyning oldiga Shum bola-ni yuborishga qaror qilishdi? Shum bola qanday qilib Sariboy-“innaykeyin”ning “tinkasini quritishi” mumkin deb o’ylaysiz?

dandon –  
fil suyagidan  
yasalgan

- Xo’sh?!
- Shunday o’zim, sizni sog‘inib, bir ko’rib kelay deb kelgan edim.
- Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandirsan, biror ishing bordir, xo’sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘yan shartim esimga tushib qoldi. “Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapi-rasan”, dedim-da, gap boshladim:

- Anavi, haligi, dandon soplilik pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so‘zdan keyin menga “innaykeyin” savoli yog‘ila boshladi.

- Xo’sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro‘zg‘orda mening pi-chog‘imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

- Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

- Iya?! – dedi boy. – Tozining terisini mening dandon soplilik pichog‘imda shilasanlarmi, o‘zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

- Shoshib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin, bekor ketmasin, deb terisini shilib oldik.

– Nima qilib o’ldi?

- Harom o‘lgan otning go‘shtidan ko‘p yeb qo‘yan ekan, bo‘kib o’ldi.

– Harom o‘lgan ot go‘shti qayoqda ekan?

- Ha, o‘zimizning to‘riq qashqaning go‘shtini yeb o’ldi-da, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

- Hay-hay, bola, og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o’ldi dedingmi? Xo’sh, to‘riq qashqa nima qilib o’ldi?

– Xomlik qilib o’ldi.

– Nimaga xomlik qiladi?

- Hech aravaga qo‘shilмаган ekan, biz uni aravaga qo‘shib, suv tashigan edik, zo‘riqib o’ldi.

- Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan bir boqib qo‘yan uloqchi otim bilan suv tashisanlarmi, padarla’natilar?



– Ha, o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib, bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradi-da!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi. Og‘zidan olib qo‘ydi-da, baqraygancha menga tikilib:

– O‘zing jinni-pinni bo‘ldingmi? O‘t tushdi deganining nima deganining, qayerga o‘t tushdi, nimaga tushadi?

– Sog‘man, xo‘jayin, o‘t, avvalo, og‘ilxonaga tushdi. Ot sho‘rliklarning hammasi nobud bo‘lib ketdi-da, xo‘jayin.

– Iya, og‘ilxonada o‘t nima qiladi?

– Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o‘t ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

– Axir omborda o‘t chiqadigan narsa yo‘q-ku? Bug‘doy bor edi, to‘g‘ri, guruch bor edi, to‘g‘ri, yog‘ bor edi, gazmol bor edi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

– Berdisini aytguncha shoshmang, xo‘jayin, omborga qo‘rg‘on-dan o‘tibdi. Og‘ilxonaga ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak. Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.

– Iya, hali qo‘rg‘on ham yondi, degin!

– Qo‘rg‘on ham yondi, ombar ham yondi, og‘ilxona ham yondi, ot-lar ham o‘ldi, itingiz ham o‘ldi, pichog‘ingiz ham sindi.

– Qo‘rg‘onga qayerdan o‘t ketibdi?

– Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

– Hoy, o‘zing jinni bo‘lib qolibsan, o‘g‘lim! Axir, mening dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o‘zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fanorlar qayoqqa ketibdi, kerosinni bo‘lsa, bir yilga yetarligini bochka-bochka zapas qilib qo‘ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar!

– Xo‘jayin, – deyman, – o‘zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshli o‘likning arvohiga sham yoqmay, lampa yoqiladimi? Kelgan arvoh nimaning shu’lasi bilan o‘ynashadi. Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo‘yiladi. Kelgan arvoh avval shoxga qo‘nib o‘tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirpirab turgan shu’lasi bilan o‘ynashadi.

Mening entak-tentak so‘zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go‘yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin, qo‘rqa-pisa so‘radi:

– Kim o‘ldi?

Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg‘ular chiqarib, ho‘ngrab yig‘lab yubordim.

– Kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboyvachcha, terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib, bir marta “dada”, dedi-yu, “g“iyq...” etib jon berdi.

Boy gaplarimning keyingi jumlalarini eshitdimi, eshitmadimi – bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yor-





Xayrulla Sa'diyev G'afur G'ulom asari  
asosida sahnalashtirilgan  
spektaklda Shum bola rolida

ayyuhanos –  
hayqiriq,  
dod-faryod

– Biz ham shunisiga hayronmiz-da, xo'jayin. Xudo beraman desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani ayting-a, bolani, nabiraginangizni ayting-a, xo'jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo'yganday o'shaning o'zginasi.

*Nima uchun Shum bola gapni Sariboyning “dandon sopli pichog'ining sinishi”dan boshladi? Uning ezma boyning g'azabidan omon qolish sabablarini qanday izohlaysiz?*

Boy ortiq chidab turolmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o'rimidan yeydigan kaltakni nasiya qilib jo'nab qoldim. Men-dan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan, alpang-talpang, bir ko'zi yerda, bir ko'zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab, yig'lab boy kelib qoldi.

“Yana biror falokat yuz berib qolmasin”, deb o'zimni chetga oldim. Boyning yig'lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham “bir balo bo'pti, shekilli”, deb uydan yig'lab chiqa boshladilar. Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi.

Yig'i tamom bo'lqandan keyin, bir-birlarini anglashib, surishtira boshladilar. Keyin ma'lum bo'lishiga qaraganda, na ot, na it o'lgan, na qo'rg'onchaga o't tushgan, na pichoq singan. Bo'riboyvachcha bo'lsa so'lakayini oqizib o'zi chiqib qoldi.

O'sha kuni men ko'rinxay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib, chal-pak qilib ko'tartirib olib keldi. Avval qurttakkina qilib yigirma qamchi ni bosh-ko'z aralash yedik. So'ngra so'radi:

di-yu, soqolini yulib, dodlab yig'lamoqqa boshladi.  
Men ham qo'shilishib yig'lar edim.

Bir nafas ayyuhannos solib yig'lagandan keyin men to'xtadim, boy ham to'xtadi. Boyning juda ham o'pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o'zimdan bir gap to'qimoqchi edim.

– Xo'jayin, – dedim, – Xudo beraridan qismasin, xafa bo'l mang, bordi-yu, o'g'lingiz o'lib, uyingizga o't tushgan bo'lsa, otlar o'lgan bo'lsa, it nobud bo'lgan bo'lsa, pichoq singan bo'lsa, hammasining o'rnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.

Boy g'iqillab turib so'radi:

– Xushxabering qursin, padarla'nat, qanaqa xushxabar?

– O'rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziyidigan bitta o'g'ilcha tug'dilar.

– Iya! – dedi boy ko'zlarining shox soqqasi chiqquday, – Adol opang hali erga chiqmagan-ku!

- Hoy itdan tarqagan, bu qilig‘ing nimasi?!
- Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay, xo‘jayin, har zamonda bir yolg‘on gapiramani, deb.
- Bu o’sha yolg‘oningmi?
- Lekin hammasi emas edi.
- Agar hammasi bo‘lmasa, butun yolg‘on qilsang, men xonavayron bo‘lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la’nat seni, qorning oshga to‘ymasin, juvonmarg bo‘ll! Haydang bu kazzobni!

Haydab chiqarmoqchi bo‘ldilar. Ketish oldida boydan haq talab qildim. Chunki boyning eshigida bir oy-u o’n to‘qqiz kun ishlagan ekanman. Haligacha bergen yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib berdi. Men shunga ham shukr qilib, namozshom yo‘lga tushdim.

*Shum bolaning yolg‘oni oshkor bo‘lgach, u Sariboyga bu “hammasi emas”ligini aytadi. Suhbat uzilib qolmaganda, shum bola uni yana qay tartibda davom ettirishi mumkin edi?*



“Shum bola” filmidan lavha (“O‘zbekfilm”, 1977-yil).  
Shum bola rolida – Abduraim Abduvahobov, Sariboy rolida – Vohid Qodirov

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Shum bola” asarining siz mutolaa qilgan bobida qanday muammolar ko‘tarilgan deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillashga harakat qiling.
2. Sizningcha, davr muammolari, xalqning og‘ir turmushi, insonga xos ijobjiy va salbiy xislatlar nima uchun aynan yetim bola nigohi orqali tahlil qilinadi?
3. Shum bolaning harakatlarini qanday baholaysiz? Asarni o‘qishdan avvalgi va keyingi tasavvurlaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi?
4. Shum bola Sariboyni aldab to‘g‘ri ish qildimi? Siz uning o‘rnida bo‘lganiningizda qanday yo‘l tutardingiz?
5. Shum boladan nimalarni o‘rgandingiz? Sariboydan-chi?

## JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

“Shum bola” asaridan berilgan parchani qismlarga ajrating. Har bir qismga sarlavha toping. Nima uchun aynan shunday sarlavha qo‘yganingizni izohlang.

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Shum bola” filmidan siz mutolaa qilgan bob lavhasini tomosha qiling. Shum bola va Sariboy obrazlarining badiiy asar va uning kinotalqinidagi farqli va o‘xshash jihatlarini topib, quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.



### 1-guruh: Shum bola

Shum bola	Asarda	Kinoda
Nutqi		
Tashqi qiyofasi		
Harakatlari		
Xarakteri		

### 2-guruh: Sariboy

Sariboy	Asarda	Kinoda
Nutqi		
Tashqi qiyofasi		
Harakatlari		
Xarakteri		

## YUMORISTIK ASAR HAQIDA BILIB OLAMIZ

Yumoristik asarda hayotdagi ayrim nuqsonlar, ba'zi kishilardagi kamchiliklar, salbiy jihatlar yengil kulgi (yumor) orqali tanqid qilinadi, fosh etiladi. Yumoristik asarda yozuvchi tanqid qilingan kamchiliklarni tuzatishga da'vat etadi. O'zbek adabiyotida Muqimiy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi ijodkorlarning asarlarida mana shunday yumorga xos xususiyatlarni ko'plab uchratish mumkin.

"Shum bola" asaridan olingan parchada humor bilan yo'g'rilgan o'rini larni topping. Asar qahramonlariagi qanday illatlar tanqid qilinmoqda? Nima uchun? Sabablarini izohlab, ulardagi kamchiliklarni tuzatish uchun tavsiyalar bering.

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: ASARDA VOQEALAR BAYONI

Badiy asarda muallif voqealarni turlicha bayon qilishi mumkin. Ba'zi asarlarda voqealar uchinchi shaxs nomidan, xuddi chetdan kuzatayotgan begona singari bayon qilinadi. Boshqa asarlarda esa biron-bir qahramon – voqealarning bevosita ishtirokchisi tilidan, birinchi shaxs nomidan aytib beriladi.

**Quyida berilgan parchalarni o'qing. Savollarga javob bering.**

Gap qo'shmay tursangiz, hammasini bir boshdan so'zlab beraman, bo'lgan voqea qanday yuz bergan bo'lsa, qasam ichib aytamanki, hech narsa qo'shmasdan, hech narsani olib tashlamasdan shundayligicha aytaman. Yolg'onchi emasman. Yolg'on gapirgan odamni ko'rsam, meni yetti kun hiqichoq tutadi. U yog'ini so'rasangiz, yolg'on gapirishni, birga o'nni qo'shib so'zlashni Hoshimga chiqargan. Hoshimni taniysizmi? Ro'zivoy akaning sartarosh o'g'lini tanimaysizmi? Yo'q, taniysiz. Hozir esingizga tushiraman. Uning to'g'risida To'xtaboyev degan yozuvchi kitob ham yozgan. O'sha kitobni maqtanchoq o'rtog'im Hoshim yana ham maqtanib yurish uchun ataylab yozdirgan. Yozuvchi amaki ta'tilini o'tkazish, shirin-shakar mevalardan yeb, soylarda maza qilib cho'milish uchun qishlog'imizga mehmon bo'lib keluvdilar. Hoshim uning soch-soqolini tekinga olib qo'ygan, atirlarning ham eng tozasi, eng xushbo'ylaridan sepgan bo'lsa kerak. Bundan tashqari, o'sha paytda Hoshimlarning ola sigiri tug'gan edi, yozuvchiga qatiq olib o'tganini qishloqdagi bolalar bir necha bor ko'rishgan ekan. Bo'lmasa, shuncha a'luchi bolalar bu yoqda qolib, borib-borib maqtanchoq Hoshim haqida kitob yozarmidi? ... Hoshim rosa maqtangan bo'lsa kerak. Hatto mening ham nomimni o'sha yozuvchi bir necha bor tilga olib o'tgan. O'qigan bo'lsangiz, esingizdadir, o'sha kitobda "Akbar bo'ri ushlabdi" degan bob ham bor. Bo'rining bolasini ushlab olganim to'g'ri, uni aravachaga qo'shib sirk tomoshasi ko'rsatmoqchi bo'lganim ham rost. Lekin Hoshimning shu bo'ri bolasiga mahliyo bo'lib Akbar yaxshi o'qiy olmay, oltinchi sinfda qolib ketdi, degani g'irt yolg'on.

Xudoyberdi To'xtaboyev,  
"Shirin qovunlar mamlakati" romanidan

Yomg'ir yog'ayotganda odam qattiq uxlaydi, deganlari rost ekanmi, Halima opa bugun o'g'li Erkinjonni uyg'otaverib charchab ketdi. Oxiri Erkinjon onasining qistovi kor qilib zo'rg'a ko'zini ochdi. O'shshayib o'rnidan turdi. Norozi bir kayfiyatda to'ng'illab, hali to'la-to'kis uyg'onmay, karaxtligicha, gandiraklab vannaga yo'l oldi. Nomiga chala-chulpa yuvingan bo'ldi. Qaytib uyga kirdi-da, yana karavotiga o'tirdi. Ko'zini lo'q qilib derazaga tikildi. Tashqarida yomg'ir shig'alab quyar, osmonni esa qop-qora bulut qoplab olgan edi.

Halima opa derazaning fortochkasini ochdi, xonaga zax va nam havo urdi. Erkinjon junjikib o'zini ko'rpaning tagiga oldi.

– Kiyinmaysanmi tezroq, Erkinjon, choying sovib qoladi, – dedi Halima opa.

Erkinjon indamadi. Shu havoda yomg'irda ivib maktabga borishga sira oyog'i tortmadi. Qani endi, issiqliqqa uyda maza qilib derazadan ko'chani tomosha qilib o'tirsa!

*Farhod Musajon,  
“Yomg'ir” hikoyasidan*

1. Qaysi parchada voqealar ishtirokchi – birinchi shaxs nomidan, qaysi parchada esa “begona” – uchinchi shaxs nomidan bayon qilinyapti?
2. Qaysi parchada biz voqealarni aytib berayotgan hikoyachi – roviyning voqealarga, boshqa ishtirokchilarga munosabatini sezishimiz mumkin?
3. Qaysi parchada hikoyachi – roviy voqealarga aralashmaydi?
4. Voqeaning birinchi shaxs va uchinchi shaxs nomidan bayon qilinishida yana qanday farqlarni sezdingiz?

*O'ylab ko'ring: “Shum bola” qissasida voqealar nima uchun aynan bosh qahramon nomidan bayon qilinadi?*

*Shum bolaning Sariboyni aldashi voqeasini uchinchi shaxs nomidan aytib ko'ring. Nimalar o'zgardi?*

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

*G'afur G'ulomning XX asr boshlaridagi xalqimiz hayotiga bag'ishlangan yana bir asari – "Mening o'g'rígina bolam" hikoyasini o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.*


Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil – o'n yetinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab "qora buvi" deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvun-to'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'rateganing kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentyabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo'roz qichqirig'i o'tgandan keyin, Yetti Qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovozda suhbatlashmoqda edilar...

uvun-to'da –  
eski-tuski,  
yirtiq-yamoq



Hikoyani  
to'liq o'qish  
uchun havola

## ODIL YOQUBOV. “YAXSHILIK”

Bu mavzuda biz:


- badiiy asarda obrazlar o’rtasidagi munosabatlar tasvirini muhokama qilamiz;
- badiiy matndan o’xshatishlarni topishni o’rganamiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Odil Yoqubov (1926–2009) – betakror asarlari bilan milliy adabiyot taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega faol va serqirra ijodkorlardan biri. U 1926-yilda Qozog‘istonda tug‘ilgan. Dastlab rus, keyinroq o‘zbek mакtabida o‘qigan. Odil Yoqubov rus tilini yaxshi bilgani uchun rus adabiyotining eng sara namunalarini juda kichik yoshdan asliyatda (rus tilida) o‘qiy olgan.


Odil Yoqubovning bolaligi og‘ir sinovlarda kechgan. O’n yoshida otasidan ajralgan. Ko‘p o’tmay, ikkinchi jahon urushi sabab xalq boshiga tushgan qiyinchiliklar yosh o’spirin Odilning bir iztirobiga ming iztirob qo’shgan. Yoshini katta ko‘rsatib, urushga ketgan, harbiy xizmatdan qaytgach esa Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil olgan.

Odil Yoqubov boshidan kechirgan voqealarni, xalq iztiroblarini, yaqin va uzoq tariximizni o‘zining ko‘plab asarlarida aks ettirdi.



## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qiydigan "Yaxshilik" hikoyasi Ikkinci jahon urushi paytidagi xalqimiz hayoti haqida hikoya qiladi.



*Ikkinci jahon urushi haqida nimalarni o'qigansiz yoki eshitgansiz?*

XX asrning 40-yillarida dunyoning ko'p davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston ham katta urush domiga tortildi. O'zbekiston hududida bevosita urush harakatlari olib borilmagan bo'lsa-da, ko'pchilik erkaklar, yigitlar qo'llariga qurol olib, jangga ketishdi. Shahar va qishloqlarda asosan ayollar, bolalar va qariyalar qolishdi. Ular urushga ketgan erkaklarning o'rniغا ham ishlar va yaqinlarining omonligidan darak beruvchi maktublarni intizorlik bilan kutar edilar.

O'sha paytda o'spirin bo'lgan Odil Yoqubov urushning mashaq-qatli kunlarini shunday xotirlaydi: "O'qishni tashlab, qo'lga ketmon olishga to'g'ri keldi. Ko'klamda dashtga chiqib yer haydadik, yozda suvchilik qildik, o'roq o'rdik, yalangoyoq tikan kechib, "eshak karvon"larda front uchun g'alla tashidik. Bu ham yetmagandek, urush cho'zilib, mash'um qoraxatlar kela boshlaganida ayollarning, yosh-yosh kelinchaklarning osmon-u falakni zir titratuvchi faryodlarini eshitib, qon qaqshadik, ular chekkan iztiroblarning guvohi bo'ldik".

*O'ylab ko'ring-chi, urush paytida yaqinlari frontga ketgan insonlar uchun eng katta yaxshilik nima bo'lishi mumkin? Eng katta yomonlik-chi?*

**front –**  
urush  
bo'layotgan  
hudud

**qoraxat –**  
jangchining  
urushda halok  
bo'lgani haqidagi  
maktub



Hikoya  
asosidagi  
radiodramani  
tinglang



## YAXSHILIK

Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro'y bergan bu og'ir voqeа emas, dilimda sal ma'yus va iliq hislar uyg'ongan yoz kuni esimga tushadi.

*Muallif qanday og'ir voqeа haqida hikoya qilib beradi deb o'ylaysiz?*

**palos** – qo'lda  
yoki mashinada  
tayyorlanan  
digan katta jun  
sholcha, tuksiz  
gilam

**chillaki** –  
ertapishar,  
ertagi

... Buvimning sersoya bog'i qarindosh-urug'larimizga, tog'amning yor-birodarlariga to'lgan: birov o'choq qurmoqda, birov o'tin yormoqda, birov hovliga suv sepib, so'riga palos yozmoqda. Kechqurun to'y!

Bu shodiyonadan hamma xursand, men ham yig'ilgan bolalarga qo'shilip shov-shuv ko'taraman, dam shotutga o'rmalab, kaptar uyalaridan tuxum qidiraman...

To'satdan mirzaterakka chirmashib o'sgan aymoqi tok orasidan bувимнинг босиб мешмонхонага қараб чопмоқчи боламан, лекин бувим қо'лимдан ушлаб то'xtатади, юнверига қараб секин дейди:

– Bor, mehmonxonaga eltib ber. Tog'ang bilan kelinoying... tatib ko'rishsin.

Men do'ppimni ko'kragimga bosib mehmonxonaga qarab chopmoqchi bo'laman, lekin bувим қо'лимдан ушлаб то'xtатади, юнверига қараб секин дейди:

– Mabodo... “o’tir”, deyishsa, o’tirmagin tag‘in. Bir nafas bo’lsayam birga bo’lishsin. Ertaga... – buvim lablari pirpirab, gapirolmay qoladi, ro’molining uchini ko’ziga bosadi-yu, imo qiladi: – Bor!

...Tog‘am ertaga urushga ketadi. U kecha kechqurun kelinoyimni Toshkentdan “olib qochib kelgan”. Qulog‘imga chalingan shivir-shivirlarga qaraganda, ular institutda birga o‘qishar ekan. Kechasi uyimiz xotin-xalajga to‘lib, kelinoyimni ko‘rolmagan edim, bugun ertalab podadan qaytayotib, buloq boshida ko‘rib qoldim.

*Buvi nima uchun lablari pirpirab gapira olmay qoldi?*

Tog‘am buloq bo‘yiga cho‘nqayib, yuzini yuvar, kelinoyim esa eg-nida atlas ko‘ylak, boshida chetlariga gunafsharang gul tikilgan ipak durra, yelkasida sochiq, qo‘lida chelak, uning yonida turardi.

Kelinoyim novcha, hatto tog‘amdan ham novcharoq, – men buni tog‘am yuvinib bo‘lib, qaddini rostlaganida payqadim, – uzunchoq yuzli, nozikkina qiz edi. Meni ayniqsa uning xiyol ma’yus qora ko‘zlar hayratda qoldirdi. Umuman uning butun vujudida, ochiq, muloyim chehrasida, o‘ychan tikilib turishida bo‘lakcha bir g‘amginlik bor edi.

Men ularga sezdirmay o‘tib ketmoqchi edim, tog‘am ko‘rib qolib, oldiga chaqirib oldi.

– Mana, tanishib qo‘ying, Munavvarxon, – dedi u. – Boya sizga aytgan jiyanim Mansurpolvon shu yigitcha bo‘ladi. Men ketganda birov sizni ranjitadigan bo‘lsa... shu yigitga aytib qo‘yasiz...

Kelinoyim chelakni chap qo‘liga olib, o‘ng qo‘lini menga cho‘zdi, qoshlarini chimirib, muloyim jilmaydi.

– Shunaqami? Tog‘angiz ketganda meni birov xafa qilsa... yon bosasizmi menga, Mansurjon?

Men qizarib, nimadir deb g‘udrandim. Mening o‘rnimga tog‘am javob berdi:

– Yon bosish ham gapmi, sizni ranjitgan odamning kallasini oladi jiyanim, labbay?

Kelinoyim menga qarab ko‘zini qisdi:

– Qo‘ying, hammani o‘zingizga o‘xshagan zo‘ravon deb o‘ylamang!

Tog‘am qah-qah otib kuldi. Men esam, ko‘nglim ajib bir hislarga to‘lib, o‘zimni bog‘ga urdim. O‘shandan beri ko‘z oldimdan kelinoyimning o‘ychan chehrasi, quloqlarimdan erkalab aytgan gaplari ketmas edi.

*Mansurning kelinoyisi sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakteri haqida nimalarni bilib oldingiz?*

... Qishloqi soddalikni qarang! Xayolimda hech narsa yo‘q, chop-ganimcha borib mehmonxonaning eshigini sharaqlatib ochibman! To‘nda o‘tirgan kelinoyim cho‘chib o‘girildi. Tog‘am boshini kelinoyim-

**durra** – ayollar  
boshiga o‘ray-digan kichik ro‘mol



**kelinsalom –**  
to'ydan keyin kelin  
kuyovning yaqinla-  
riga salom berishi  
marosimi

ning tizzasiga qo'yib, sochlarini o'ynab yotgan ekan, o'zini chetga oldi-yu, meni ko'rib yana tishlarini yarqiratdi:

- E, senmisan, polvon? Ke?
- Ha, shu... buvimlar uzum berib yubordilar...
- Buvinglarmi? – yana kului tog'am. – Qani, opke, uzum bo'lsa, maza qilib tushiraylik bir.

Men uzumni ularning oldidagi dasturxonga qo'yarkanman, kelinoyimning ko'zlarida halqa-halqa yosh ko'rdim. Uzumni qo'yib, darhol orqamga qaytmoqchi edim, kelinoyim ko'rsatkich barmog'i bilan ko'z yosolarini sidirib tashladi-da, qo'limdan ushladi.

- O'tiring, Mansurjon, birga uzum yeymiz.
- Tog'am ham istar-istamas taklif qildi:
- O'tir!

U bir bosh uzumni kelinoyimga tutarkan, menga ko'zini qisди:

- Bilasanmi, nimaga yig'layapti kelinoying! To'y eski-cha bo'lsin emish, chimildiqqa kirarmishlar...

– Ha, kirmoqchiman, – dedi kelinoyim.

– Ikki bukilib amma-xolalaringga salom bermoqchi emishlar...

Kelinoyim ingichka barmoqlari bilan uzum donalarini bitta-bitta uzib og'ziga solarkan:

– Nega kulasiz? – dedi. – Umrizmizza bir marta bo'ladigan to'y, hammasini ko'rsam deyman. Oyim bechoraniyam xafa qilmang. Mayli, chimildiq tutishsin, kelinsalom qilishsin, qizlar lapar aytishsin...

– Ana xolos! Salkam oliy ma'lumotli kelinoyingning gaplariga qara!..

– Oliy ma'lumotli bo'lsam, nima bo'pti? Axir siz ertaga urushga...

Kelinoyim gapirolmay yuzini chetga burdi.

– Xo'p, xo'p, taslim bo'ldik, azizim! Mayli, chimildiqqayam kiring, amma-xolalariniyam xursand qiling. Faqat yig'lamang, jonim. Qani, ko'z yoshingizni arting, bir jilmaying!.. – Tog'am kulib kelinoyimning sochlaridan tortqiladi. Lekin u ham to'lib turgani, o'ziga dalda berish uchungina zo'raki kulayotgani shundoq sezilib turardi... Ko'nglim bir xil bo'lib, sekin chiqib ketdim...

*Bolaning kelinoyisi haqiqatdan ham to'y udumlari sababli yig'lagan deb o'ylaysizmi? Mansurning ko'ngli nima uchun buzildi?*

**hazin –**  
g'amgin

Oqshom to'y bo'ldi. So'lim yoz kechasi qishloq bog'lari ustida ma'yus kuylar, ayriliq hislariga to'la hazin laparlar yangradi. Kelin ke layotganda (uni qo'shnimiznikidan chiqarishdi) darvoza oldiga gulxan yoqishib yigitlar yo'lga arqon tutishdi. Buvim, qo'lida bir hovuchcha tanga, dam yig'lab, dam kulib, kelinning boshidan pul sochdi. Qiz-yigitlar ayriliq va hijron alamini tamom unutmoqchi bo'lganday, tong

otguncha o'yin qilishdi. Ertalab esa guzarga yig'ilgan xaloyiq tog'am boshliq o'ttiz nafar yigitni ko'z yoshi va duolar bilan kuzatib qolishdi...

*Nega to'yda ma'yus, g'amgin kuy-qo'shiqlar yangradi? Buvining  
dam yig'lab, dam kulishiga sabab nima edi?*

Tog'am ketgandan keyin kelinoyim o'zini qayoqqa urishni bilmay, olamga sig'may qoldi. U xuddi olis va notanish joyga tushib qolgan kiyik bolasiga o'xshar, atrofida girgitton bo'lgan qarindosh-urug'lar bilan, hatto buvum bilan ham ko'p yozilib gaplashavermas, aksariyat bog'ni yolg'iz kezar, katta-katta ko'zlarini olis-olislarga tikib uzoq o'yga cho'mar edi.

Men ba'zan unga har xil kitoblar olib kelib berardim. U kitobni minnatdorchilik bilan olar, meni erkalar, lekin juda kam o'qir, yo o'qiy boshlasa ham, yarmiga yetmasdanoq yopib qo'yar edi. Faqat tog'amdan xat kelgan kunlari ko'zlar charaqlab, yashnab-yayrab ketar, katta bog'ning goh u yeri, goh bu yeridan uning mayin xirgoyisi eshitilar edi...

Shu zaylda bir hafta o'tdi. Keyin, o'qish boshlanguncha (u maktabga ishga joylashgan edi), uyda "yuragim siqilib ketadi" deb dashtga, bug'doy o'rog'iga chiqib ketdi.

Buvim qancha qistamasin, yalinib-yolvormasin, kelinoyim to o'qish boshlanmaguncha dashtdan qaytmadi. Men har kuni bo'lmasa ham, ikki-uch kunda bir xo'tigimga minib, buvum bergen ikki-uchta to'qoch, qo'rda ko'milgan uch-to'rtta jo'xori so'tasi, bir tovoq somsa va bir xurmacha qatiqni xurjunga joylab, dashtga, uning oldiga jo'nardim.

Kelinoyim og'ir mehnatga o'rganmagan shahar qizi emasmi, sal o'tmasdanoq ozib-qorayib ketdi. Qiynalib qolgani shundoq sezilib tursa-da, buviming "salomlariga" kulib javob berardi:

– Oyimlarni tinchitib qo'ying, Mansurjon. "Qiz-juvonlar orasida tuppa-tuzuk yuribdi", deng!..

Men unga dil-dilimdan xayrixoh edim. Qishloqda kecha-kunduz pochtachining yo'liga tikilib, o'zi bilan o'zi olishib yotgandan ko'ra bu keng dashtda hamdard, hamnafas tengdoshlari orasida hasratlashib, ular yig'lashsa yig'lab, kulishsa kulib yurgani yaxshi emasmi?

Dashtdagilarning ko'pchiligi xuddi kelinoyimday hijron dog'idan qalblari kabob yosh-yosh qiz-juvonlar edi. Ular xuddi hamma alam, hamma iztiroblarini mehnatdan olmoqchi bo'lganday, o'chakishib, jon-jahdlari bilan ishlashar, kechalari esa tun yarmigacha keng dashtni zir titratib mungli laparlar aytishar, frontdagи yorlariga atab qo'shiqlar to'qishar, sodda, lekin bo'lakcha bir samimiyatga to'la xatlar yozishar edi... Kelinoyim qizlarning iltimosi bilan ba'zan ularga "chiroyliroq" xatlar yozib berar, ba'zan she'rlar to'qir, shuning uchun ham hamma uni yaxshi ko'rар edi.

**girgitton  
bo'lish –**  
atrofida mehr  
bilan parvona  
bo'lish

**xo'tik –**  
eshakning bolasi

**to'qoch –**  
katta bo'g'irsoq,  
kulcha non

**qo'r –**  
mayda cho'g'  
aralash issiq kul

Kelinoyim meni ko'zi to'rt bo'lib qarshi olar, chunki tog'amning xatlarini aksariyat men olib kelar edim. Bunday paytlarda kelinoyim dag'allashib qolgan kichkina kaftlari bilan boshimni mahkam ushlab, ko'ksiga bosar, peshanamdan o'par, "Mening chin g'amxo'rim, xaloskorim!" deb erkalar, men esam uning yashnab ketgan chehrasini, sevinchdan chaqnagan tim qora ko'zlarini ko'rganimda boshim osmonga yetar, unga ko'proq yaxshilik qilsam, uni ko'proq quvontirsam der edim.

*Nima uchun Mansur kelinoyisiga xayrixoh edi deb o'ylaysiz?*

Kelinoyim shu ketganicha dashtdan o'qish boshlanishi arafasida qaytdi. Lekin o'qish bir hafta davom etar-etmayoq maktab yopilib, hamma paxta terimiga chiqib ketdi. Xuddi shu orada, sentyabrning o'rtalarida to'satdan tog'amdan xat uzilib qoldi.

Tog'am so'nggi xatida: "Erta-indin urushga kiramiz", degan edi, shu-shu, xat to'xtadi-qoldi.

Oradan o'n besh kunlar o'tganda tog'am bilan birga jangga kirgan bir hamqishloq yigitdan xat keldi. U yigitning yozishicha, tog'am yarador bo'lib, gospitalga olib ketilgan emish. Yigit buni o'z ko'zi bilan ko'rganini aytgan va tog'amning adresini so'ragan edi. Bu xat qorong'i tunda oftob chiqqanday hammaning dilini umidga to'ldirdi, ko'zlarini yana pochtachining yo'liga tikildi. Lekin oradan yaqin bir oy fursat o'tdi hamki, tog'amdan darak bo'lmasdi. Bu o'rtada haligi hamqishloq yigitta – uning o'zi ham yarador bo'lib, gospitalga tushgan edi – qancha-qancha xatlar yozildi. U yigit tog'am yarador bo'lganini, sanitarkalar uni okopdan ko'tarib olib chiqib ketganini o'z ko'zi bilan ko'rganini yana ta'kidladi. Lekin bundan nima foyda? Tog'amdan hamon darak yo'q edi.

Kelinoyim dastlabki paytlarda o'zini ancha dadil tutdi, umidsizlikka berilmaslikka harakat qildi. Lekin kunlar o'tgani sayin ezilib, axiri juda bo'shashib ketdi. Ayniqsa, hamqishloq yigitning xatlariga qaramay, gospitaldan dom-darak bo'lmasdi, tamom ruhi so'nib, ko'ngli cho'kib qoldi.

U daladayam qo'li ishga bormay, allaqanday parishon yurar, arzimagan narsagayoq yosh boladay lablari titrab, ko'ziga milt-milt yosh olar edi. Har kuni tushda, xuddi xat kelsa, darrov xabar berishmaydiganday, meni uyga jo'natar, so'ng rangi qochib, ko'zlarini mo'ltirab, yo'limni poylardi. Men uchun uning umid bilan javdirab turgan katta qora ko'zlariga qarab "yo'q" deb bosh chayqashdan katta azob yo'q edi!

*Mansurning kelinoyisidagi o'zgarishlarni tasvirlab bering. Bu o'z-garishlarning sababi nima edi? Tog'asiga nima bo'lgan bo'lishi mumkin?*

gospital –  
harbiylar  
shifoxonasi



okop –  
askarlarni  
dushmanidan  
pana qiladigan  
chuqurlik, o'ra

Odatda men uning ko'zlariga qarashga jur'at etolmay olisroqdan indamay o'tib ketardim, keyin uning tergan paxtalarini xirmonga tashirkanman, yo ariq bo'yidan sigirga pichan o'rarkanman, axiri bir kun tog'amdan xat kelishini va men bu xatni uzoqdan ko'rsatib, chopib kelishni orzu qillardim. Yursam-tursam, ko'z oldimdan shu manzara ketmas edi: kelinoyim xatni ko'rganda, albatta, quvonchdan yig'lar, keyin kuladi, so'ng meni quchoqlab bag'riga bosadi va biz hozirgidan ham inoq va mehribon bo'lib qolamiz!..

Men kelinoyim deyman-u, biroq undan ham buvimga qiyin edi. Har kuni kechqurun kelinoyim daladan qaytishi bilan mehmonxonaga kirardi-yu, o'zini sim karavotga tashlab yotib olardi, u ko'zini shiftga, bir nuqtaga tikib soatlarcha yotar, buvim esa, usiz ham yuragi laxcha-cho'g', qanday qilib uning ko'nglini olishni bilmay, ich-ichidan zil ketar, dam "noumid shayton, sabr qil, bolaginam!" deb koyigan bo'lar, dam o'zi bog'ni gir aylanib, yum-yum yig'lar, nazarimda, u hammasidan ko'ra kelinoyimning ketib qolishidan qo'rqr edi.

### Nima uchun Mansurning buvisiga kelinoyisidan ham qiyin edi?

Noyabrning o'rtalari edi. Lekin hali sovuq tushmagan, kunlar ilk kuzdagiday iliq, daraxtlarning tagi xazondan gilam to'shalganday qip-qizil, yalang'och bog'lar allaqanday ma'yus va sokin tuyuladi...

Ertalab tegirmonga borish uchun xo'tigimni egarlayotib oshxonadan kelinoyimning xurram ovozini eshitib qoldim.

– Oyijon! Meni aytdi dersiz – bugun xat keladi, – der edi u. – Tush ko'rdim. O'g'lingiz ot o'ynatib kepti.

– Inshoollo, aytganing kelsin, bolam...

Bir lahzadan keyin kelinoyim ozg'in yuzi allaqanday yorishib ketgan holda arpa aralash jo'xori solingan to'rvani buvim bilan ko'tarishib chiqdi. Qopni xo'tikka ortishga yordamlashar ekan:

– Tezroq qayt, jon qaynim, – deb kului. – Bugun qovoq somsaga to'yib, bir yayraylik!

Men ham ko'nglim suv ichganday bo'lib xo'tigimni choptirib ketdim. Tush bo'lmasdanoq jo'xorini torttirib qaytib kelganimda uyda hech kim yo'q edi. Unni oshxonaga tushirib, xo'tigimni yetaklab soyga ketdim.

Soyga yaqinlashib qolganimda keksa shotut tagidagi ulkan qabr oldida o'tirgan buvimga ko'zim tushdi. Buvim bu qabrda avliyo yotibdi derdi...

Buvim, tagida namat, xuddi erkaklarday cho'kkalab o'tirar, lablari nimanidir pichirlar, aftidan, iltijo qilar edi.

Men buvimni ilgarilari ham bir necha marta shu ahvolda ko'rgan-dim, lekin u odatda bomdod yo aksincha, namozshom paytlari shunday qilardi, bugun esa... tol tushda!..



**namat** –  
yung palos, kigiz  
**bomdod** –  
tong yorishish  
payti  
**namozshom** –  
kechqurun

Ko'nglim bir xil bo'lib soyga chiqdim, chiqdim-u, yana dilim yorishib ketdi. Soyda, tollar orasidagi buloq bo'yida kelinoyim qatiqlangan sochini suvga chayib o'tirardi.

U meni ko'rib beliga tushadigan mayin sochlaridagi suvni sidirib tashladi, tez turmaklab, o'rnidan turdi.

– Darrov qaytib qolibsan, qaynim? Hozir qalampir solib shunaqa bir qovoq somsa qilayki, mazasi og'zingda qolsin!

U tog'orasini ko'tarib bog'ga kirib ketdi, men esa xo'tigimni tu-shovlab soylikka qo'yib yubordim-da, buloq bo'yidagi qurib-qovjirab qolgan o'tga cho'zildim.

Qani endi kelinoyimning tushi o'ngidan kelsa-yu, pochtachi men-ga bir xat tashlab ketsa! Men uni chopacha kelinoyimga eltib bersam, uyimiz ustiga yig'ilgan qora bulutlar tarqab, oftob chiqqanni ko'rsam!

Sekin qaddimni rostlab bog'ga qaradim. Shotutning tagida buvum ko'rinas edi. Men avliyo boboning qabri yoniga borishga iymanib, uning ro'parasiga tiz cho'kdim. Ko'zlarim o'z-o'zidan yumi-lib, bolalikdagina bo'ladijan bo'lakcha bir samimiyyat va ehtiros bilan pichirladim:

– ... Kelinoyimning tushi rost chiqsin! Mehribon buvum bilan kelinoyimning ko'z yoshlarini quritgin, boshlariga tushgan g'am-g'ussadan soqit qil ularni...

Qulog'imga "Pochtachi! Pochtachi!" degan ovozlar kirganday bo'ldi. Cho'chib ko'zimni ochdim. Qichqirayotganlar – soyda sigir boqib yurgan bolalar edi. Pochtachi – bilagidan snaryad parchasi uzib ketgan qo'li qizil tayoqqa o'xshab qolgan yosh yigit – shal-pangquloq eshagini "xix-xix"lab soyning o'rtasida biz tomonga qarab kelardi.

Vahimali, ayni zamonda kuz oftobiday iliq bir tuyg'u vuju-dimni chulg'ab oldi. Shu topda men pochtachi biznikiga yo'l olganiga, tog'amdan xat olib kela-yotganiga zig'irday ham shubha qilmasdim!

O'rnimdan sakrab turdim. O'sha vahimali va qaynoq tuyg'uga bo'ysunib bog'ga otildim.

– Buvijon! Kelinoyi! Xat! Tog'amdan xat!

snaryad –  
o'q



Urush davridagi pochtachi haykali.  
Voronej shahri (Rossiya)

Frontdan keladigan maktublar odatda  
uchburchak shaklida bo'lgan

Uydan oldin qo'llari xamir buvim yugurib chiqdi, uning ketidan bir qo'lida taroq, bir qo'lida ko'zgu, sochlari parishon kelinoyim ko'rindi. Rangi devor, sochlari yozilgan, u yonimdan o'tib, men ko'rsatgan tomonga chopib ketdi, uning orqasidan xamir qo'llari bilan yelkasiga tushgan ro'molini to'g'rيلay-to'g'rيلay buvim yugurdi. Uchinchi bo'lib men chopdim. Lekin pochtachining biz tomonga burilmasdan qo'shni bog'ga o'ta boshlaganini ko'rdim, ko'rdim-u, allaqanday sovuq bir hisdan a'zoyi badanim muzlab, beixtiyor to'xtab qoldim.

Buloq boshiga borib qolgan kelinoyim oftobda ko'zgusini charaqlatib qo'lini siltadi:

– Sho'ttan uzata qoling xatni! Sho'ttan...

Ketma-ket buvim ham yetib bordi, hansirab-entikib dedi:

– Voy, qadamingga hasanot, pochtachi o'g'lim! Xatni bergin-u, o'zing darvozadan aylanib kira qol. Qovoq somsa qilayotuvdim, nasi-bangni yeb, suyunchingni opket, bolam...

**sho'ttan –**  
shu yerdan  
(shevada)

*Sizningcha, xat ko'proq kim uchun muhim edi? Nega?*

Pochtachi eshagini to'xtatdi. Xuddi soqolini silamoqchi bo'lganday qizil tayoqqa o'xshagan qo'lini qimirlatib qo'ydi, so'ng yuzini chetga burib po'ng'illadi:

– Qaysi xatni aytasiz?

– Xat-da, xat. O'g'limdan kelgan xatni aytaman, bolam!

Pochtachi boshini ko'tarmasdan:

– Nima qilay, – dedi sekin. – Xat o'g'lingizdan emas, gospitalning nachalnigidan ekan, xolajon. Biz uni... qishloq kengashining raisiga topshirdik...

Kelinoyim yalt etib menga qaradi. Uning ko'zlarida shunday bir qo'rquv, shunday bir dahshat bor ediki, men hech qachon o'rni to'lmaydigan yomon bir narsa ro'y berganini his qildim-u, o'rnimda qoqqan qoziqday qotib qoldim. Buvim esa hamon hech narsaga tushunmay:

– Voy, tentak-ey, – dedi kulib. – Uning boshlig'idan xat keladi-yu, qishloq kengashiga berasanmi, bolam?

*Nega Mansur kelinoyisining ko'zlarida dahshat va qo'rquvni ko'rdi? Kelinoyisi nimani sezdi deb o'ylaysiz?*



Pochtachi xuddi poygadan qolgan chavandozday jon-jahdi bilan eshagini savalab yo'liga ravona bo'ldi. Buvim uning ketidan yugurmoqchi bo'lgan edi, kelinoyim alam to'la bir ovozda:

– Oyijon! – deb qichqirib yubordi. – Oyijon!.. Qo'ying! Kerakmas!

– U shunday dedi-da, menga o'girildi, lablari titrab: – Topgan xushxabar shu bo'ldimi? – dedi-yu, nafasi yetmay tomog'ini siladi.

Men uning titragan lablariga qaray olmay boshimni egdim.

– Kechirasiz, – dedim o'pkam to'lib. – Men... men yaxshi niyat bilan sizga yaxshilik qilsam deb...

— Yaxshilik?! — kelinoyimning ko‘zлari oldin jiqla yoshga to‘ldi, so‘ng birdan o‘t chaqnadi: — Topgan yaxshililing shu bo‘lsa... Yo‘qol ko‘zimdan! Yo‘qol!

U bolta teggan yosh niholday ikki bukilib, oyog‘i ostidagi tikanga tiz cho‘kib qoldi. Boyatdan beri hushini yo‘qotib, bir keliniga, bir menga qarab turgan buvim unga otildi, men esam o‘zimni daraxtzorga urdim...

*Mansur pochtachi kelishini aytib noto‘g‘ri ish qildimi? Siz uning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz?*



Ikkinci jahon  
urushi voqealariga  
bag‘ishlangan  
“Ilhaq” filmidan  
lavha

Nahot kelinoyim buni tushunmasa?

Nihoyat, bir haftadan keyin buvim o‘zi meni chaqirib oldi. Men uning allaqanday cho‘kib qolgan jussasini, bir parcha bo‘lib qolgan yuzini ko‘rdim-u, o‘zimni uning bag‘riga otib, yig‘lab yubordim.

Men buvimga ko‘nglimdagи bor dardimni aytdim. Kelinoyimning diliga ozor berish uchun emas, tog‘amdan kelganiga ishonganim uchun, azbaroyi kelinoyimni quvontirish uchun shunday qilganimni, kelinoyimni hamon yaxshi ko‘rishimni, kerak bo‘lsa, undan jonimni ham ayamasligimni gapirib berdim...

Mehribon buvim! U mening iztiroblarimni tushundi. Kelinoyim bilan gaplashadigan bo‘ldi, yig‘lay-yig‘lay peshanamdan o‘pib, boshimni silab tinchitib qo‘ydi.

Bilmadim, buvim kelinoyim bilan gaplashdimi, gaplashgan bo‘lsa, u nima dedi, lekin kelinoyim ortiq bir marta ham menga qayrilib qaramadi.

Egnida ko‘k ko‘ylak, boshida ko‘k ro‘mol, u yaqin bir oy motam tutdi. Ko‘nglim xuhton, men kecha-yu kunduz uning yo‘lini poyladim, bir og‘iz so‘ziga zor, uydan chiqqanida ko‘zlariga tikildim, lekin u har safar meni ko‘rganda uzoqdan teskari burilib ketar edi. Bir oydan keyin kelinoyim o‘z eliga ketadigan bo‘ldi. Qarindoshlarimizdan bittasi xo‘jalikdan arava so‘rab chiqdi. Men loaqlal xayrlashar, aqalli yaxshi kunlar xotirasi uchun bir og‘iz bir gap aytar degan umidda ertalabdan yo‘lini poyladim.

Yig‘i-sig‘idan yurak bezor, kelinoyim bilan buvimming xayrlashgani ni ko‘rmaslik uchun soy bo‘yiga, birinchi bor tog‘am bilan kelinoyimni

Sal o‘tmay qishloq kengashidan odam chiqdi, bir lahzada xotin-xalaj yig‘ilib qiy-chuv, yig‘i-sig‘i boshlandi. Bir haftagacha buvimming uyidan odam arimadi, kecha-yu kunduz yig‘i tinmadi. Lekin hech kim, hatto buvim ham meni eslamadi. Men bir haftagacha dodimni aytdigan tirik bir jon topolmay, o‘zim bilan o‘zim olishdim. Axir... men chindan ham kelinoyimni dil-dilimdan yaxshi ko‘rganim uchun, uni bir quvontirish uchun, unga yaxshilik qilish uchun shunday qildim-ku! Xuddi shu kuni, xuddi shu soatda qoraxat kelganini qayoqdan bilay axir?

uchratgan buloq boshiga borib turdim. Arava qo‘zg‘alib, buloqqa yaqinlashganida sekin yo‘lga chiqdim. Kelinoyim, egnida qora palto, boshida qora shol ro‘mol, pichan to‘shal-gan shotili aravada menga teskari qarab o‘tirardi.

...Nahot kechirmasa? Nahot bir marta qayrilib ham qaramasa? Aqalli xayrashmasa? “Kelinoyi! Menga bir qarang! Mening dardimga qulq soling! Nima qilay, shunday bo‘ldi!.. Xohlasangiz, meni uring, o‘ldiring, bিroq... bir og‘iz bir nima deng! Men sizni... shunday yaxshi ko‘raman, shunday yaxshi ko‘raman!..”

Oramiz yaqin qolganda meni ko‘rgan aravakash chol kelinoyimga bir nima dedi. Kelinoyim sekin burilib qaradi, qaradi-yu, yana teskari o‘girildi. Nazarimda, uning yig‘idan qizarib, shishib ketgan ko‘zlari qayta yoshga to‘lganday bo‘ldi.

Arava yonginamdan o‘tib ketdi. Men, dilim qon, unga iltijo qilganimcha orqada qoldim. Arava tuyulishdan burilib ketdi, kelinoyim hatto qo‘lini ham siltamadi. U mening “yaxshiligim”ni kechirmagan, kechirolmagan edi.



Ikkinci jahon urushi voqealariga bag‘ishlangan “Ilhaq” filmidan lavha

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoya nima uchun “Yaxshilik” deb nomlangan? Sizningcha, muallif bu hikoya bilan nima demoqchi?
2. “Har safar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro‘y bergen bu og‘ir voqeа emas, dilimda sal ma‘yus va iliq hislar uyg‘ongan yoz kuni esimga tushadi”, – deydi Mansur. Nima uchun uning xotirasida bu mudhish voqeа emas, balki iliq yoz kuni muhrlanib qolgan?
3. Nega kelinoyisi Mansurdan qattiq xafa bo‘ldi? Nega uni kechira olmadi? Sizningcha, kelinoyisi uni kechirishi uchun Mansur nima qilishi mumkin edi?
4. Mansurning kelinoyisi haqidagi tasavvuringiz hikoyani o‘qib bo‘lgach o‘zgardimi? Agar “ha” bo‘lsa, qanday o‘zgardi?
5. Siz birovga chin dildan yaxshilik qilmoqchi bo‘lib, lekin natijasi kutganingizdek chiqmagan holatlarga duch kelganmisiz? Shunda siz qanday yo‘l tutgansiz?

## JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

Tasavvur qiling, bir necha yildan keyin Mansur va kelinoyisi uchrashishi di. Ular nima haqida gaplashishlari mumkin? Ular o‘rtasidagi suhbatni yozing. Sinfdoshlaringizga o‘qib bering. Qaysi juftlikning suhbatini eng ishonarli va ta’sirchan chiqdi?

## LOYIHA

Hikoyadan Ikkinchiji jahon urushi davri haqida nimalarni bilib oldingiz? Hikoyadagi qaysi o'rinnlar sizga urush paytidagi hayotni, insonlarning kechimlarini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam berdi?

Ikkinchiji jahon urushi paytidagi hayot haqida ma'lumot to'plang. Buning uchun kitoblarga yoki kinolarga murojaat qilishingiz, u davr haqida yoshi ulug' kishilardan so'rab olishingiz mumkin. To'plagan ma'lumotlariningiz va "Yaxshilik" hikoyasi asosida taqdimot tayyorlang.

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: O'XSHATISH

Badiiy asar o'quvchiga ta'sir qilishi, o'quvchi voqealari-hodisalar va qahramonlarni yaxshiroq tasavvur qilishi uchun mualliflar turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanadilar. Shunday vositalardan biri o'xhatish deyildi. O'xhatishda bir shaxs, narsa yoki holat boshqa narsaga o'xshatiladi, qiyoslanadi. O'xhatish orqali tasvirlanayotgan shaxs, narsa yoki holatning bir xususiyatiga alohida urg'u beriladi. Ko'p holatlarda o'xhatish "-dek", "-day" qo'shimchalari yoki "kabi", "o'xshab" so'zlarini orqali ifodalanadi.

*Quzg'unning qanotiday  
Qaro edi o'sha tun.  
Na milt etgan yulduz bor,  
Na yilt etgan bir uchqun.*

*Erkin Vohidov, "Nido" dostonidan*

Bu misolda shoir tunni quzg'un – qarg'asimonlar oilasiga mansub qushning qora qanotiga o'xshatib, o'quvchi e'tiborini tunning qop-qorong'i, zulmatligiga qaratmoqda.

*U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi.*

*O'tkir Hoshimov,  
"Urushning so'nggi qurbanii" hikoyasidan*

Bu misolda muallif sim bilan bog'liq tasvirni jonli, ta'sirli ifodalash uchun uni ilonga o'xshatyapti.

**"Yaxshilik" hikoyasidan o'xhatishga misollar topping. Bu o'xhatishlarda yozuvchi tasvirlanayotgan shaxs, narsa yoki holatning qaysi xususiyatiga urg'u bergan? Jadvalni daftaringizda to'ldiring.**

O'xhatishga misol	Shaxs, narsa yoki holatning xususiyati

**pushta** –  
egatlar (jo'yaklar)  
orasidagi joy

# MUSTAQIL O'QISH UCHUN

*Odil Yoqubovning xalqimiz tarixidagi og'ir damlarni tasvirlovchi yana bir asari – “Muzqaymoq” hikoyasini o'qib chiqishingizni tasiya qilamiz.*

O'sha oilamiz boshiga og'ir kulfat tushgan kuni, men, o'n yashar bola, nimadandir ko'nglim g'ash, uyimiz ro'parasidagi paxsa devorga chiqib, o'zimcha go'yo otga minib o'tirardim.

U mahalda biz Turkiston shahrining eng so'lim joylaridan biri – Lager ko'chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o'sha zamon imkoniyatiga ko'ra tuzukkina uyda istiqomat qillardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatlari ulkan darvoza orqali kiriladigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonodon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo'lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkinmachoq o'ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida “jon saqlardik”.

Oilamiz boshiga musibat tushgan o'sha mash'um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagи deyarli barcha kitoblarni uch-to'rt qopga solib, beda tagiga yashirgan-u, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo'ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim.

Bu suratlar ham juda g'alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga qilich va to'pponcha taqib olgan harbiy, ba'zilari esa ot o'ynatgan, qizil alvon ko'tarib dushman sari ot surib ketayotgan mard-u maydonlar bo'lsa ham, negadir barchasining ko'zлari o'yib olingan yoki yuzlariga ko'k siyoh tortilgan edi...

**paxsa devor –**  
pishtilgan loyni  
ustma-ust bosib  
qurilgan devor



Hikoyani  
to'liq o'qish  
uchun havola

# O'TKIR HOSHIMOV.

## "DUNYONING ISHLARI"

Bu mavzuda biz:

- hikoya g'oyasi va undan olgan xulosalarimizni muhokama qilamiz;
- badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganamiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

O'tkir Hoshimov (1941–2013) – o'zbek xalqining sevimli yozuvchilaridan biri. U Toshkent shahrida oddiy xizmatchi oilasida tug'ilgan.

Yozuvchi o'z ota-onasi haqida shunday eslaydi: "Otamdan qattiq hayiqar edik. Otam biron marta ham bir tarsaki urgani emas. Otamni qattiq izzat qilishni onam o'rgatgan. Onam esa juda mehribon... ko'chada biron bola yig'lab o'tirgan bo'lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biron sabab bilan biz – bolalarni qarg'asa, o'zi ham yig'lab yuborar, o'sha zahoti ko'nglimizni olishga harakat qilardi. U nihoyatda farishtali, diyonatli ayol bo'lgani uchun mahalla-ko'yda uni yosh-u qari birdek hurmat qilardi. Odamlar o'rtasida bu ajoyib inson "Poshsha oyi" degan nom bilan shuhrat topgandi".

Yozuvchi oddiy maktablardan birida o'qigan. Bolaligi Ikkinchi jahon urushidan keyingi ocharchilik, mamlakatdagi og'ir sharoitga to'g'ri kelgani sabab o'qishi bilan birga ro'zg'or ishlarida ota-onasiga ko'maklashgan. U maktabda o'qib yurgan kezlarida adabiyotga mehr qo'ygan va unda yozuvchi bo'lishga ishtiyoq uyg'ongan. Tinimsiz o'qib izlanishi, kitobga mehr-u muhabbati sabab O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror asarlari bilan o'chmas iz qoldirib ketdi.



## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

“Dunyoning ishlari” asari haqida muallif shunday yoza-di: “Bu qissa katta-kichik hikoyalardan iborat. Biroq ular-ning barchasida eng aziz odam – onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o’z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarining ismi o’zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan”.




*Yulduzlar to‘la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagи eng yorug‘ yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzları birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir.*

*O’tkir Hoshimov*

Siz biror marta onangizning qanday ayol ekani haqida o‘ylagamisiz? Onalarda bir-biriga o‘xshaydigan qanday umumiy jihatlarni ko‘rasiz? Onalarni oftobga o‘xhatilishini yana qanday sabablar bilan izohlagan bo‘lardingiz?

“Dunyoning ishlari” qissasidan biz o‘qiydigan hikoya “Eng og‘ir gunoh” deb nomlanadi.

“Eng og‘ir gunoh” jumlasini eshitganingizda xayolingizdan nimalar o‘tdi? Nima uchun hikoya “Eng og‘ir gunoh” deb atalgan bo‘lishi mumkin? Unda yozuvchi qanday gunoh haqida hikoya qiladi deb o‘ylaysiz?





Qissa asosidagi  
telefilmni  
tomosha qiling

## ENG OG‘IR GUNOH

### (“Dunyoning ishlari” qissasidan)

Kuz kirganini qishloq bolasining qo‘lidan bilsa bo‘ladi. Yong‘oq hali “paqqa” bo‘lib ajralmasdan turib, daraxtga tarmashib ketamiz. Xom yong‘oqning po‘stini tozalash oson emas. G‘adir-g‘udir g‘isht topib, ishqalayverasiz, ishqalayverasiz. Oxiri sap-sariq yong‘oq ajralib chiqadi. Ammo qo‘lingiz ham xina qo‘ygandek sarg‘ayib ketadi. Loy bilan ming marta ishqalab yuvsangiz ham foydasi yo‘q. Pishmagan yong‘oqning bitta yaxshi tomoni bor: og‘ir bo‘ladi. Uchi bilan dum tomonini yaxshilab ishqalab yog‘lasangiz, zoldirdek sip-silliq soqqaga aylanadi. Ana undan keyin “soqqaquvar” o‘ynayverasiz. Soqqa qancha kichkina bo‘lsa, shuncha yaxshi. Manaman degan yong‘oqqa qars etib uriladi-yu, o‘ziga uncha-muncha yong‘oq tegmaydi. Tuproq orasiga yashirinib yotaveradi. O‘yin-ku o‘z yo‘liga. Yong‘oqning yana bitta fazilati bor: qorinni to‘q tutadi. To‘rttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz.

*Nega yozuvchi hikoyani “xom yong‘oqning po‘stini tozalash oson emasligi” bilan boshladi? Bu tasvirlarning keyin bo‘ladigan voqealarga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?*

Endi o‘ylab qarasam, o‘sha – urush endi tugab, og‘irchilikning zahri ketmagan yillarda yaxshiyam meva-cheva bo‘lgan ekan. Odamlarning joniga shu ora kirgan ekan-da. Erta ko‘klamda sumalak, ketidan

ismaloq, keyin qarabsizki, tut pishadi. Ermon buvaning tuni! Mayiz deysizmi, shinni deysizmi, hammasi tutdan bo'ladi. Bundan keyin olma, uzum, kuzda – yong'oq. Ham ovqat, ham o'yin.

*Muallif qanday davr haqida hikoya qilyapti? "Og'irchilikning zahri ketmagan" so'zlarini qanday tushundingiz?*

Bir kuni Xo'ja, Toy, Vali to'rtovlashib rosa soqqaquvar o'ynadik. Jimitdekkina soqqam bilan bir do'ppi yong'oqni yutib oldim. O'yinga jo'raboshimiz ham aralashgan edi, uyam bir cho'ntak yong'og'idan ayrildi.

Kechqurun og'zim qulog'imga yetgudek bo'lib bir do'ppi yong'oq ko'tarib keldim. Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti – oyim o'g'irda tolqon qilyapti.

Nima uchundir onam tez-tez tolqon qilardi. Sababini keyin tu-shunganman. Non ko'pligi uchun emas, kamligi uchun tolqon qilisharkan. Tolqon to'yimli bo'ladi. Ikki qoshiq yeb, ustidan olma choy ich-sangiz, darrov nafsingiz qonadi.

*Bolaning yong'oq o'yinidan asl maqsadi nima edi?*

**o'g'ir**  
(hovoncha) –  
urib yanchish,  
tuyish uchun  
ishlatiladigan  
idish

Yong'oqni ko'tarib oshxonaga kirdim-u do'ppini uzatdim.

- Qayoqdan olding? – dedi oyim ko'zimga tikilib.
- Yutdim. Mang, tolqonga soling.

Bilaman, yong'oqli tolqonning ta'mi boshqacha bo'ladi. Yog' mazasi kelib turadi.

Onam do'ppi to'la yong'oqni qo'limdan olib, yelkamga qoqdi:

- Bor, sabr qilib turgin, hozir yong'oq tolqon qilib beraman.

Supadagi xontaxta oldiga borib o'tirdim. Dasturxonda to'nkarib qo'yilgan ikkita piyola bilan choynakdan bo'lak narsa yo'q edi. Zum o'tmay oyim boyagi tovoqda tolqon ko'tarib keldi. Bir qoshiq tolqon yeyishim bilan to'satdan soqqam esimga tushib qoldi. U cho'ntagimni qarayman – yo'q, bu cho'ntagimni qarayman – yo'q.

- Nima bo'ldi? – dedi oyim tipirchilayotganimni ko'rib.
- Soqqam qani?
- Qanaqa soqqa?
- Yutadigan soqqam!

Birdan ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. Oyim soqqamniyam qo'shib chaqib qo'ygan bo'lsa-ya!



*Nima uchun bolaning "ko'ngliga g'ulg'ula tushdi"?*

Og'zimda tolqon bilan oshxonaga yugurdim. Bir chekkada yarimta g'isht, yonida tesha yotibdi. Po'choqlar orasini titkilab, yutadigan soqqamning yaltiroq po'chog'ini topdim. Alamimdan chinqirib yubordim:

- Soqqamni nima qilib qo‘ydingiz?
- Supa tomondan onamning ovozi keldi:
- Nima bo‘pti?
- Nima qildingiz? – dedim alam bilan. – Soqqamni nima qilib qo‘ydingiz?!
- Oyim sekin tepamga keldi.
- Mana, – dedim po‘choqni ko‘rsatib. – Soqqamni chaqib qo‘yibsiz-ku!
- Oyim negadir kului:
- Qayoqdan bilaman. Qo‘y, bolam, akang boshqasini topib berar.
- Oyimning kulishi battar alam qildi.
- Kerakmas, kerakmas! – dedim oyog‘imni tipirlatib. – Yutadigan soqqam edi.
- Oyim boshimni siladi.
- Bilmabman-da, o‘g‘lim. O‘zing do‘ppisi bilan berding. Yur, choyingni ich! – U qo‘limdan tutib yana supaga olib chiqdi. Oldimga tolqoni tovoqni surib qo‘ydi. – O‘tir, ovqatlanib ol. Qorning ochib ketdi-ku!
- Tovoqni nari surdim.
- Yemayman!

*“Yutadigan” soqqa bolaning onasiga qo‘pollik qiladigan darajada muhim edi deb hisoblaysizmi? Shunga o‘xshagan yana boshqa soqqa topishi ham mumkin edimi?*



- Oyim tovoqni yana men tomonga surdi.
- Ol, bolam, shirin bo‘pti.
- Kerakmas! Kerakmas! Kerakmas! – Tovoqni qo‘lim bilan bir urgan edim, uchib avval supaga, undan yerga tushdi. Tolqon yer bilan bitta bo‘lib sochildi-da, tuproqqa qorishib ketdi.
- Birdan oyimning ko‘zida g‘azab chaqnadi. Shapalog‘ini yozib qulq-chakkamga yaqin keltirdi. Qo‘rquvdan ko‘zimni yumib oldim. Yo‘q, urmadi. Biroq labi titrab pichirladi:
- Non-ku bu, ahmoq! Gunoh bo‘ladi-ku!
- U sekin yerga tushdi. Sochilgan tolqonni kafti bilan sidirgan edi, tuproq aralashib chiqdi. Onam boshini ko‘tarib menga qaradi. Ko‘zlarida alam, ta’na bor edi.

*Onaning shu paytdagi holatini tasvirlovchi so‘zlarga e’tibor qiling. Nima uchun tolqonning to‘kilishi unga qattiq ta’sir qildi? Nega o‘g‘lini urmoqchi bo‘lib, urmadi?*

Birpasdan keyin opam, akalarim dasturxon atrofida yig‘ilishdi. Har bittasiga yarim qoshiqdan tolqon yo tegdi, yo tegmadi. Keyin dadam keldi, oyim oshxonadan bug‘i chiqib turgan bir lagan lavlagi ko‘tarib chiqdi. Lavlagi shirin narsa-yu, har kuni yegandan keyin jonga tegadi. Baribir non emas.

– Tolqon qilmadingmi? – dedi dadam bir bo'lak lavlagini puflab-puflab yer ekan.  
Qo'rquv ichida oyimga qaradim.

*Bola nima uchun qo'rqib ketdi? Sizningcha, ona otaning savoliga nima deb javob beradi?*

- Qiluvdim, – dedi u sekin.
- Qolmadimi?
- O'g'ir o'lgur ag'darilib ketdi, – dedi onam aybdor ohangda.
- Nima? – dadam lavlagi bo'lagini qo'lida tutgancha jahl bilan onamga qaradi.
- To'kilib ketdi, – dedi oyim boshini quyisolib.
- Padaringga la'nat! – dedi dadam sekin, ammo tahdidli ohangda. – Kap-katta xotin uvol qilib o'tirsang. Bilib qo'y, non ko'r qiladi seni! – U shaxt bilan o'rnidan turdi-da, bir hatlab supadan tushdi. Tez-tez yurib ko'chaga chiqib ketdi.

Men oyimga qaradim. U bo'lsa hamon bosh ko'tarmay o'tirar, ko'zlarida iztirob bor edi.

*Nega ona yolg'on gapirdi? U yolg'on gapirib to'g'ri qildimi? Agar haqiqatni aytganida voqeа qanday yakun topgan bo'lardi?*



"Dunyoning ishlari" telefilmidan lavha (1983-yil).  
Ona rolida Rixsi Ibrohimova

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Yozuvchining onalar haqida bunday ta'sirli asar yozishi sabablarini qanday izohlagan bo'lardingiz?
3. Onasining haqorat eshitishini ko'rib turib ham bolaning sukut saqlaganini oqlaysizmi? Bolaning o'rnida siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
4. O'z onangiz va asarda tasvirlangan ona obrazida qanday o'xshash va farqli jihatlarni kuzatdingiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillashga harakat qiling.
5. Asar sarlavhasi bilan bog'liq avvalgi va keyingi xulosalaringizda qanday farqlar ni ko'rdingiz? Nimalar o'zgardi? "Eng og'ir gunoh" deganda muallif nimani nazarda tutmoqda? Asardagi gunohkor kim?

## JUFT BO'LIP ISHLAYMIZ

Onangizga maktub yozing. Unda onangizga aytmoqchi bo'lgan, ammo shu paytga qadar aytolmagan gaplaringiz aks etsin. Maktubingizni sinfdagi eng yaqin dunganiz yoki do'stingizga o'qib bering.

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Onalarni ranjitishi mumkin bo‘lgan yana qanday gunohlar bor? Bu gunohlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Ularni qilmaslik uchun qanday tavsiyalar berasiz? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Og‘ir gunohlar	Oqibatlari	Tavsiyalar
Yolg‘on gapirish	Ishonch yo‘qoladi	Har qanday holatda ham rost gapirishni o‘rganing

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: BADIY MATNNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Badiiy matnlar (hikoya, qissa, ertak, she‘r va hokazo) boshqa turdagи matnlardan bir qancha xususiyatlari bilan farq qiladi. Shunday farqlardan biri – badiiy matnlarda muallifning tasvirlanayotgan kishilar, narsalar yoki voqealarga munosabati aks etishidir.

*Quyidagi matnni o‘qing. Undagi soqqa o‘yini tasvirini “Eng og‘ir gunoh” hikoyasi boshidagi o‘yin tasviri bilan solishtiring. Savollarga javob bering.*

### SOQQA O‘YINI

O‘yin ishtirokchilari ikki qatorga tizilib turishadi. Birinchi qatordagi o‘yinchilar qo‘lidagi to‘p (yoki soqqa)ni uzoqqa uloqtiradilar. Ikkinci qatordagi o‘yinchilar esa qo‘lidagi to‘p (yoki soqqa) bilan uni urishga harakat qiladilar. Agar o‘yinchi tekkiza olmasa, boshqa guruh o‘yinchisi tashlashiga ruxsat etiladi. Agar o‘yinchi tekkizsa, jamoaga bir ochko beriladi. Keyin navbat ikkinchi guruh o‘yinchisiga berilib, unga to‘p (yoki soqqa)ni uloqtirishga ruxsat etiladi.

O‘yinda kamroq xatoga yo‘l qo‘yib, ko‘proq ochko to‘plagan jamoa g‘olib hisoblanadi. Soqqa sifatida to‘p yoki dumaloq toshlardan foydalanish mumkin.

- “Eng og‘ir gunoh” hikoyasida o‘yin qanday tasvirlangan? Muallifning o‘yinga munosabatini bila olamizmi? Qaysi so‘zlar bunga yordam beradi?
- “Soqqa o‘yini” matnini badiiy matn deya olamizmi? Nima uchun?

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

*O'tkir Hoshimovning onalarga bag'ishlangan yana bir asari – "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini o'qishni tavsiya qilamiz.*

Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Al-laqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to'g'rida o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shin-ni dog'i qotgan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinish ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliy-di. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hov-lining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvullab qo'ydi...

**quroq** –  
turli mato  
bo'laklarini  
ulab tikilgan



Hikoyani  
to'liq o'qish  
uchun havola

"Urushning so'nggi qurboni" filmidan lavha.  
"O'zbekkino" milliy agentligi, 2018-yil



## FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TARIX

Bu mavzuda biz:

- badiiy asardagi tarixiy haqiqat va badiiy to'qimani farqlashni o'r-ganamiz.

**Matnlarni o'qing. Savollarga javob bering.**

Buyuk davlat arbobi Ulug'bek sultanat egasi (shoh) bo'lishi bilan birga ulug' olim ham bo'lgan.

Ulug'bek she'riyatni sevgan, tarix bilan shug'ullangan, biroq uning asosiy e'tibori astronomiya mashhg'ulotlariga qaratilardi. U Samarqandga o'z davrining mashhur olimlarini jalg qildi va ularning ko'magida Samarqandda rasadxona qurdirdi. Bu rasadxona o'sha davrda va undan ancha keyingacha o'z asbob-uskunalarini va o'tkazilgan tadqiqotlari jihatidan dunyoda beqiyos bo'lib qoldi. U o'sha davrning yirik olimlaridan bo'lgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchilar bilan hamkorlikda o'z rasadxonasida tinimsiz ishlab, "Ulug'bek ziji" ("Ziji jadidi Ko'ragoniy" – "Yangi astronomiya jadvallari")ni yaratdi. Bu asarda astronomiyaning nazariy asoslari yoritilgan va 1018 yulduzning vaziyatlari jadvali berilgan. Ulug'bek bu asari bilan butun dunyoga astronom olim sifatida tanildi.

*"Bolalar ensiklopediyasi"dan*



**Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasining bizgacha yetib kelgan qismi va olimlar tomonidan tiklangan maketi**

\* \* \*

Rasadxona atrofida Shamsibek tanimaydigan odamlar ko'p edi. Shuning uchun u yotsirab chetraqda turdi. Bir vaqt ixcham salsa o'ragan, Shamsibek tengi yigit unga yaqinlashib, salom berdi. Shamsibek uni tanidi. Bu kechagi kuni olampanohga navisandalik qilgan yigit, Aflatuni zamonning nabirasi Miram Chalabiy edi.

– Men Mahmud ibn Muhammadman. Shayx ul-ulamo sizni kutib olishni kaminaga topshirib edilar. Uzrkim, tashrifingizdan bexabar qolibman.

– Takallufingizdan boshim ko'kka yetdi. Agar yanglishmasam, shahriyor katta majlis qurishni ixtiyor qilgan ko'rindilar.

– Ha, qani, marhamat qilsinlar.

Bu damda boshqalar ham qasr tomonga yo'l olgandilar. Qasr oлidagi maydonchaga bir doira qilib gilamlar, gilamlar ustiga esa yakandoz va dasturxonlar to'shalgan, dasturxon usti noz-ne'matlar bilan to'la edi.

Kelganlar o'z izzatlariga yarasha joy tanlab o'tirdilar. Shamsibek poygakdan joy oldi. Miram Chalabiy uni biroz yolg'iz qoldirdi. Keyin qaytib keldi-da, omonat o'tirdi. Qasr tomonda Ulug'bek ko'rinishi hamon barcha o'rnidan turib, salomga shaylandi. Olampanoh salomlarni qabul qilgach, yana qayta o'tirdilar. Hamma Ulug'bekning so'z aytishi ni kutib, jim qoldi. Ulug'bek joyiga bordi-da, davraga nazar tashlab:

– O'g'lim Alouddin Ali Qushchi nechun ko'rinnmaydi? – deb so'radi.

Miram Chalabiy ildam o'rnidan turib, qulluq qildi:

– Batlimusi davron rasadxonada andak tutilib qoldilar. Daqiqa o'tmay yetib kelurlar, – dedi u.

Ulug'bek yaxshi, degandek bosh irg'ab, "dasturxonga marhamat qilinglar", deb qo'ydi.

*Tohir Malik,  
"Falak" qissasidan*

1. Sizningcha, "Falak" qissasidan olingen parchada qaysi qahramonlar haqiqatda yashagan tarixiy shaxslar, qaysilarini esa yozuvchi o'ylab topgan?

2. Sizningcha, biz o'qigan parchada yozuvchi tasvirlagan ziyofat voqeasi haqiqatda bo'lganmi? Nima uchun?

3. Ensiklopediyadan va qissadan olingen parchalarni solishtiring. Tarixchi olim va yozuvchining tarixiy shaxslar va voqealarni tasvirlashi da qanday farqlarni sezdingiz? Bu farqlarning sabablari nimada deb o'ylaysiz?

olampanoh – podshoh  
navisanda – kotib  
kamina – men  
yakandoz – bir qavatlil  
ko'rpača

Aflatuni  
Zamon –  
Qozizoda Rumi

Mahmud ibn  
Muhammad  
(Miram  
Chalabiy) –  
uning nabirasi,  
matematik va  
astronom olim

Ali Qushchi –  
matematik va  
astronom olim

shahriyor –  
podshoh

Batlimusi  
davron (davrimiz  
Ptolemyi) –  
Ali Qushchi  
andak –  
ozgina

# TAKRORLASH

**Matnni o'qing. Savollarga daftaringizda yozma javob bering.**



**ravoch –**  
tog'da o'sadigan  
poyasi sersuv,  
nordon o'simlik

**qiyiqcha –**  
belbob'

## JINTEPA

Bu voqeaga ancha bo'ldi. O'shanda oltinchi sinfda o'qirdim. Aniq esimda bor: aprel oyi edi. Tog'liklar ravochning toshbosdi degan turini yaxshi bilishadi. Ravoch endi o'sib kelayotganida bir tomonga yonboshlatib, ustiga tosh bosib qo'yasiz. Shunda oftob tushmagani uchun ravoch ham sersuv, ham chuchuk bo'lib o'sadi. Qishloq bolalari ravoch chiqishi bilan tanlab-tanlab ustiga tosh bostirib qo'yishadi.

Birovning toshbosdisiga birov tegmaydi. Qoida shu.

Aprel oyi bo'lgani uchun qishlog'imiz atrofidagi past-u baland tepaliklar, tog'lardagi ravoch bolalar o'rtasida allaqachon "bo'lishib" olingan edi. Faqat kunbotar tomondagi Jintepa cho'qqisiga hali hech kim chiqmagandi. Jintepa eng baland cho'qqi bo'lganidan unda qor kech erigan, ravoch ham kech chiqqan, buni bolalar bilishardi. Ammo bu cho'qqiga chiqishga har kimning ham yuragi betlayvermasdi. Biz kichkina paytimizdanoq Jintepa haqidagi har xil vahimali gaplarni eshitaverib, yurak oldirib qo'yandik. ...

...O'sha kuni yakshanba edi. O'rtog'im Adham bilan Jintepaga chiqib, ravochlarga tosh bostirib tushadigan bo'ldik. Yo'l olis bo'lgani uchun erta turdim. O'sha yoqda yermiz, deb bitta nonni qiyiqchaga tugib oldim. Adhamlarnikiga chiqsam, buvisi supada o'tirib olib non chakichlayotgan ekan. Uning ko'zi yaxshi ko'rmasa ham, qulog'i juda yaxshi eshitardi, Adham bilan pichirlashayotganimizni sezib qoldi.

– Nima? Jintepa? Hamma g'alva sen takadan chiqadi. – U qaddini rostlab menga o'qlov o'qtaldi. – Yo'ldan urma bolani! Ikkalangniyam jin chalib, og'zingni qiyshaytirib ketadi.

Adham ikkalamiz vaqt g'animatida juftakni rostlab qoldik. Ko'chaga chiqqanimilda ham Adhamning buvisi qattiq-qattiq koyiyotganini eshitib turdik.

– Hali dadang kelsin, bir urdirib tomoshangni ko'rmasam, yurgan ekanman. Jintepada balo bormi senlarga!

Ikkalamiz oldinma-keyin yo'lga tushdik. Jintepaning yo'li olis. Avval soydan o'tiladi. Keyin mol fermasining yonidan o'tib, qir oshamiz. Undan keyin uzumzor keladi. Undan ham o'tib yana qir oshamiz. Keyin archazor oralab chiqib ketilaveradi, ketilaveradi, oxiri Jintepaga chiqiladi.

Havo musaffo. Shundoqqina oyoq ostida qoqigullar, bo'tako'zlar ochilib yotibdi. Osmonda to'rg'ay tipirchilab, nafas olmay sayraydi.

Tanho burgut havoda vazmin suzib o'lja axtaradi. Ar-chazorga kirgunimizcha peshin bo'lib qoldi. Bir tomon-ga qiyshayib o'sgan kattakon archa ostida o'tirib nonni yeb oldik.

– Bulut chiqdi, – dedi Adham oyog'ini chalishtirib yotganicha, archa shoxlari orasidan osmonga qarab. – Tezroq yurmasak bo'lmaydi.

Chindan ham havo salqinlashib borar, osmon-da to'da-to'da bulutlar suzib o'tardi. Jintepaga chiqib borgunimizcha hamma yoqni bulut o'rabi oldi. Ammo cho'qqi ustidagi yalanglikka chiqishimiz bilan bulutni ham, shamolni ham unuttdik. Har yer-har yerda to'da-to'da bo'lib ochilgan lolalar shamolda chayqalib turar, xuddi olovdek lovullab ko'zni olardi. Ikkalamiz u yoqdan bu yoqqa yugurib lola terdik, endi bir qarich bo'lib o'sgan ravochlar ustiga tosh bostirdik.

– Men qirq bittasiga bostirdim, – dedi Adham harsillab. Uning pe-shanasi terlagan, katak ko'ylagining etagi shimidan chiqib ketgani uchun shamolda qanotdek silkinar edi.

– Men sanamadim, – dedim kuchayib borayotgan shamoldan baland kelish uchun baqirib.

Shu payt boshimiz ustida chaqmoq yarq etdi-yu, momaqaldiroq gum-burladi. Adham menga, men Adhamga qaradim. Qop-qora bulutlar bor-gan sayin pasayib kelayotganga o'xshar, shunday boshimiz ustidan qora tumandek shiddat bilan suzib o'tardi. Birpasda atrof g'ira-shira qorong'i bo'lib qoldi.

"Hozir jala quyadi", deb o'yladim u yoq-bu yoqqa alanglab. Atrofda yomg'irdan yashirinadigan na bir daraxt, na bir xarsang – hech nima yo'q edi. Yana momaqaldiroq gulduradi.

O'sha zahoti Adhamning dahshat to'la tovushi eshitildi:

– Rustam! Boshing yonyapti, Rustam!

Hayron bo'lib Adhamga qaradim-u dahshatdan qotib qoldim. Adham-ning sochlari tikka-tikka bo'lib ketgan, negadir sochi orasidan ko'kimtir cho'g' sachrab osmonga otilardi.

– O'zingni... boshing yonyapti! – dedim duduqlanib.

– Voydod! – Adham ko'zları olayib boshini changallagancha yugurib ketdi. Men ham toshlarga qoqilib-qoqilib uning ketidan chopdim. Mo-maqaldiroq tinimsiz gumburlar, ora-chora sukunat cho'kkanida sochlari-m o'zidan o'zi tikkayib, yonib ketayotganga o'xshar, Adhamni chaqiray desam, qo'rqqanimdan ovozim chiqmasdi.

Oradan qancha o'tganini bilmayman. Bir mahal yigirma qadamcha ol-dinda yugurib ketayotgan Adham bir narsaga qoqilib yiqilib tushdi. Men yetib kelganimda u hamon boshini changallagancha kiyiko'tlar orasida g'ujanak bo'lib yotardi.

– Tur o'rmingdan, Adham! – dedim yelkasidan tutib.

U qo'rquv bilan menga qaradi.

– Boshing yonib ketmadimi? – dedi yig'lamsirab.



– O'zingniki-chi?

Ikkalamiz beixtiyor boshimizni ushlab ko'rdik. Yo'q, hech qayerimiz yonmagan, sochimiz ham kuymagandi.

– O'z ko'zim bilan ko'rdim! – dedi Adham hamon qo'rquvdan ko'zlarri olayib. – Sochingdan olov chiqib ketdi. Xudo ursin, o'z ko'zim bilan ko'rdim.

– Men ham ko'rdim! – dedim Adhamning boshiga sinchiklab qarab.

– Sening boshingdan ham cho'g' chiqib ketdi. Soching o'zidan o'zi tikka bo'lib, cho'g' sachrab ketdi. Ko'kintir cho'g'.

Yana momaqaldiroq gumburladi. Yirik-yirik yomg'ir tomchilari shatirshutur qilib tusha boshladi.

– Ajina... – Adham sakrab o'rnidan turib ketdi. – Ajina chaladi. Qoch!

Yana avvalgidek u oldinda, men keyinda yugurib ketdik.

Ammo endi Adhamning boshidan cho'g' chiqmas, savalab yomg'ir yog'ar edi. Faqat mol fermasi oldiga kelgandagina sal nafasimizni rostladik. Qishloqqa kirganimizda yomg'ir tinib qolgan edi. Jintepa ustida quyosh botib borardi. ...

*O'tkir Hoshimov*

**1. Hikoya kimning nomidan bayon qilinyapti?**

- A) Adham                  B) Rustam                  D) Rustamning o'rtog'i

**2. Bolalar nima uchun Jintepaga bormoqchi bo'lishdi?**

- A) Ravoch terib kelgani                  B) Qor o'yнagani  
D) Ravochga tosh bostirgani

**3. Kattalar nima uchun bolalarning Jintepaga chiqishiga qarshi bo'lishdi?**

- A) Yo'li uzoq va xatarli bo'lgani uchun  
B) Bu joy haqida vahimali gaplar yurgani uchun  
D) U yerda jinlar ko'p bo'lgani uchun

**4. Adhamning buvisiga xos xarakterni ochib beradigan sifat yo-zing. Nima uchun aynan shu so'zni tanlaganingizni izohlang.**

Sifat: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_

**5. "Havo musaffo. Shundoqqina oyoq ostida qoqigullar, bo'tako'zlar ochilib yotibdi. Osmonda to'rg'ay tipirchilab, nafas olmay sayraydi. Tanho burgut havoda vazmin suzib o'lja axtaradi". Ushbu parchada badiiy matnga xos xususiyatlar uchun xizmat qiladigan so'zlar yoki so'z birikmalarini topib, yozing.**

6. Nima uchun bolalar cho'qqi ustiga chiqqanda hamma narsani unutishdi?

---

---

7. Bolalar nima sababdan qo'rqib ketishdi?

---

---

8. Muallif nima maqsadda hikoyani ravochga tosh bostirish tas-viri bilan boshlaydi?

---

---

9–10. Hikoyada ishlatalgan o'xshatishlarni toping. Muallif bu o'xshatishlarni nima maqsadda ishlatganini izohlang.

O'xshatish: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_

---

---

O'xshatish: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_

---

---

11. Keltirilgan parchani yumoristik asar deya olamizmi?

A) Ha

B) Yo'q

Nima uchun? \_\_\_\_\_

---

---

O'zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?

😊 10–11 taga: juda yaxshi!

😊 7–9 taga: yaxshi, lekin sal ko'proq ishlashim kerak!

😔 7 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!



## 2-fasl. SO‘ZDA SEHR BOR

Xalq og‘zaki ijodi: xalq qo‘shiqlari  
Alisher Navoiy. Ruboiylar  
Abay. “Yoshlikdan bilim izlab...”  
Avaz O’tar. “Har tilni biluv emdi...”  
Lengston Hyuz. “Rahmat sizga, xonim”

### **Adabiy tushunchalar:**

- xalq qo‘shiqlarining turlari
- qofiya va radif
- asar qahramonlari tavsifi

### **Fanlararo aloqa:**

adabiyot va ona tili

# XALQ OG‘ZAKI IJODI: XALQ QO‘SHIQLARI

Bu mavzuda biz:

- xalq qo‘shiqlariga xos xususiyatlarni o‘rganamiz;
- xalq qo‘shiqlarini turlarga ajratishni o‘rganamiz;
- bir qo‘shiqning turli variantlarini solishtiramiz.

*Qanday maqollar yoki topishmoqlarni eslay olasiz? Ularning mualiflарини bilasizmi?*

## XALQ OG‘ZAKI IJODI

Xalq og‘zaki ijodi namunalari – xalq ertaklari, qo‘shiqlar, maqlar, topishmoqlar dastlab og‘zaki shaklda paydo bo‘lgan va avloddan avlodga o‘tib, bugunga qadar yetib kelgan. Ular biror-bir yagona shoir yoki yozuvchi tomonidan emas, balki xalq tomonidan yaratilgani uchun ham “xalq og‘zaki ijodi” deb ataladi. “Xalq og‘zaki ijodi” atamasi o‘rnida “folklor” (inglizcha “folk” – “xalq”, “lore” – “donolik”) so‘zini ham qo’llash mumkin.

## XALQ QO‘SHIQLARI



*“Tangalik bolalar” filmidan lavhani tomosha qiling. Avval ham shunday qo‘shiqlarni eshitganmisiz? Bunday qo‘shiqlar sizda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otadi, qanday tasavvurlar hosil qiladi?*



Xalq qo‘shiqlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi shakllaridan biridir. Ayrim qo‘shiqlar kattalar tomonidan kattalar davrasida ijro etilgan bo‘lsa, ayrimlari bolalar uchun aytilgan (masalan, “alla”), ayrimlari esa bolalar tomonidan kuylangan. Misol uchun:

*Tokchaga bug‘doy sepuvdim,  
Undimikin-o, undimikin?  
Mashrabboy uydan chiqmaydi,  
Yotdimikin-o, yotdimikin?*

qo'shig'ini bolalar kechki payt o'rtoqlarini o'yinga chaqirish maqsadida aytishgan.

O'zbek xalq qo'shiqlarini turli xil guruhlarga ajratish mumkin.

**1. Mehnat qo'shiqlari** – biron ishni bajarish paytida ijro etiladigan qo'shiqlar. Misol uchun:

*O'rog'im olmos,  
O'rishdan qolmas.  
Sira ham tolmas,  
O'rmasam bo'lmas.*

Ushbu qo'shiq o'rim paytida ijro etilgan.

Boshqa bir misol:

*Ayri-ayri tuyoqqa, mayda-yo mayda,  
Ayri nag'al yarashar, mayda-yo mayda.  
Jilviragan quloqqa, mayda-yo mayda,  
Tilla sirg'a yarashar, mayda-yo mayda.*

Ushbu qo'shiq xirmonni yanchish paytida ijro etilgan.

**2. Mavsum-marosim qo'shiqlari** – turli mavsumlarda va bayramlarda (masalan, bahor yoki kuz kelganda), marosimlarda (masalan, to'ylarda), o'yinlarda ijro etiladigan qo'shiqlar. Misol uchun:

*Suz xotin, suzma xotin,  
Ko'lankasi maydon xotin,  
Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,  
Yer-u jahon ko'l bo'lsin.*

Ushbu qo'shiq qurg'oqchilik paytida yomg'ir chaqirish uchun o'tkazilgan marosimlarda ijro etilgan.

Boshqa bir misol:

*Ramazon aytib keldik eshicingizga,  
Qo'chqordek o'g'il bersin beshicingizga.  
O'choqda kul, karmonda pul,  
Chiqara qoling ming so'm pul.*

Ushbu qo'shiq Ramazon oyida asosan bolalar tomonidan aytildi.

Yana bir misol:

*Hazorali, hazorali,  
Oftobim, anbarim, xush keldingiz,  
Jonim, oltin parim, xush keldingiz,  
Hazorali, hazorali.  
Davlat boshingizda bo'lsin, xush keldingiz,  
Himmat qo'lingizda bo'lsin, xush keldingiz.*

Ushbu qo'shiq to'yda, kelinni kuyov uyiga olib kirishda ijro etiladi.

**3. Lirik qo'shiqlar** – biron-bir marosim bilan bog'liq bo'lma-gan, his-tuyg'ular va kechinmalarini ifodalash uchun ijro etilgan qo'shiqlar.

*Yo'l bo'lsin-a, yo'l bo'lsin,  
Bosgan izlaring gul bo'lsin...*

Xalq qo'shiqlarining boshqa turlari ham mavjud.



Quyida berilgan xalq qo'shiqlarini o'qing. Ularni qaysi guruhga (mehnat qo'shig'i, marosim qo'shig'i, lirik qo'shiq) tegishli deb o'ylaysiz? Qo'shiq kim tomonidan (kattalar, bolalar) ijro etilgan deb o'ylaysiz? Jadvalni daf-taringizda to'ldiring.

Qo'shiq	Qaysi guruhga tegishli?	Kim tomonidan aytilgan?
Havodagi hulkarman...		
Oq terakmi, ko'k terak?		
Omonyor		
Bizlar yor-yor aytaylik...		
Boychechak		

\* \* \*

Havodagi hulkarman,  
Badavlatga navkarman.  
Uch kunlikcha ishim bor,  
To'rt kunlikda bekorman.

Maymanoqda makoni,  
Tagi timda do'koni,

O'roq o'rgani ketdi  
Qizilsoyning dehqoni.  
  
Qiyo-qiyoyuringlar,  
Qiyilib qolsin poyasi.  
To'qrab-to'qrab yuringlar,  
To'qson qop chiqsin donasi.

\* \* \*

– Oq terakmi, ko'k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Gul terdik dasta-dasta,  
Bir-biriga payvasta.  
Bizga kerak odobli,  
A'luchi qiz Shohista!

– Oq terakmi, ko'k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Oy kerag-u, oy kerak,  
To'lib oqqan soy kerak.  
Bizga "Maqtov qog'oz"  
Olgan Hasanboy kerak!

– Oq terakmi, ko'k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– Maktab oldi bog' ko'cha,  
Bir yoni gulbog' ko'cha.  
Bizga kerak shaxmatda  
Nom qozongan Xadicha!

– Oq terakmi, ko'k terak?  
– Bizdan sizga kim kerak?  
– To'p o'ynar Ra'no, Tolib,  
Biri biridan g'olib.  
Bizga kerak chopishda  
Hech tengi yo'q Mutallib.

\* \* \*

Omonyor o'ynasangchi-yey, omonyor,  
Belingni bog'lasangchi-yey, omonyor.  
Davradagi raqqosaning, omonyor,  
Yuraklari jo'shibdi-yey, omonyor.  
Hay dod-ey, voy dod-ey, omonyor,  
Ochilib o'ynasangchi-yey, omonyor.  
Hay dod-ey, voy dod-ey, omonyor,  
Sochilib o'ynasangchi-yey, omonyor.

\* \* \*

Bizlar yor-yor aytaylik  
Birday bo'lib, yor-yor.  
Tong saharda ochilgan  
Gulday bo'lib, yor-yor.  
Davlatingning borida  
To'y qila ko'r, yor-yor,  
Ostonasi tillodan  
Uy qila ko'r, yor-yor.

\* \* \*

Boychechagim boylandi,  
Qozon to'la ayrondi.  
Ayroningdan bermasang,  
Qozon-tovog'ing vayrondir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechagim hillolik,  
Hamyon-hamyon tillolik.  
Hamma bozor – bir bozor,  
Atroflari lolazor.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,  
Tut yog'ochga osdilar,  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

\* \* \*

Xalq qo'shiqlari turli insonlar tomonidan turli vaziyatlarda va turli xil shaklda ijro etiladi, natijada bir qo'shiqning turli **variantlari** (talqinlari) yuzaga keladi. Misol uchun, allaning turli xil talqinlari mavjud.

*Bolaligingizda qanday allalar eshitgansiz? Nima uchun allani "sehrli qo'shiq"lar qatoriga kiritishimiz mumkin?*

*Quyida berilgan alla variantlarini solishtiring. Ularni musiqaga solib ko'ring. Sizga ko'proq qaysi alla yoqdi? Nima uchun?*

\* \* \*

Alla aytay, jonim bolam,  
Quloq solgin, alla.  
Shirin allam tinglab asta  
Uxlab qolgin, alla.

Yuzlaringga tomgan suvga  
Hayron bo'lma, alla-yo,  
Baxtimga sen katta bo'lgan,  
Xazon bo'lma, alla.

Istiqloling porloq sening,  
Jajjiginam, alla-yo,  
Baxtimga sen katta bo'lgin,  
Xazon bo'lma, alla.

Sevganimdan yodgorimsan,  
Oltin qo'zim, alla-yo,  
Men sho'rlikday to'kilmagin,  
Ko'rар ko'zim, alla.

\* \* \*

Alla aytay, jonim bolam, orom olgin, alla,  
Qo'zichog'im, tinglab nolam, uxbab qolgin, alla.  
Onang so'zin tingla, bolam, qulq solgin, alla,  
Mayli, olim bo'lma, ammo odam bo'lgin, alla.

Ko'zim nuri, ko'zlarimni nurin olgin, alla,  
Baxtimga tez katta bo'lgin, omon bo'lgin alla.  
Mehrim senda, kamoliningni tinglar qalbim, alla,  
Buloqdek jo'sh, maysalardek tez ulg'aygin, alla.

Onang ko'zi ko'zlaringga ziyo bo'lsin, alla,  
Otang so'zi so'zlaringga dunyo bo'lsin, alla.  
Toqatli bo'l, otangdayin mard o'g'lon bo'l, alla,  
Yurtingni sev, xalqing uchun qalqon bo'lgin, alla.



### LOYIHA ISHI

Guruhlarga bo'lining. Yoshi kattalardan xalq qo'shiqlari haqida ma'lumotlar yig'ing va xalq qo'shiqlari ijrosini audioshaklda yozib keling. Yig'ilgan materiallarni sinfda muhokama qiling.

## ALISHER NAVOIY. RUBOYLAR

Bu mavzuda biz:


- Alisher Navoiyning ayrim ruboylarini tahlil qilamiz;
- qofiya va radif haqida bilib olamiz.

Buyuk shoir, olim, davlat arbobi Alisher Navoiy (Nizomiddin Mir Alisher) 1441-yil 9-fevralda Hirotda tavallud topgan. Navoiyda ilm olishga ishtiyoq erta uyg'ongani bois to'rt yoshidan maktabda ta'lim olishni boshlagan. Iste'dodli, zehni o'tkir, xotirasi kuchli Alisher yetti yoshida Farididdin Attorning "Qush tili" ("Mantiq ut-tayr") asarini, olti mingdan ortiq hadisni yoddan bilgan. Ayni shu yoshidan g'azallar yoza boshlagan.

Alisher Navoiy o'zbek va fors tillarida badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratgani uchun "ikki tilli" shoir sifatida mashhur bo'lgan. Asarlari dunyoning juda ko'plab mamlakatlarida o'rganilgan va turli tillarga tarjima qilingan.

Navoiy Hirotda adabiyot, madaniyat va san'atning taraqqiy etishiga ham juda katta hissa qo'shgan: o'z hisobidan kutubxonalar va madrasalar qurdirgan, iste'dodli yoshlarning ilm olishlariga homiylik qilgan.

Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirotda vafot etgan.



Alisher Navoiy maqbarasi (Hirot, Afg'oniston)

*Alisher Navoiy hayoti va ijodiga daxldor qaysi ma'lumotlardan hayratlandingiz? Nima uchun? Buyuk inson bo'lish uchun nimalar qilish lozim deb o'ylaysiz?*

## ALISHER NAVOIY RUBOYLARINI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Alisher Navoiy asarlarini o'qiyotganimizda Navoiy davridagi o'zbek tili bugungi o'zbek tilidan farq qilganini e'tiborga olishimiz lozim.

1. Hozirgi tilimizda qo'llanmaydigan yoki kam qo'llanadigan so'zlar Navoiy davrida keng ishlatilgan. Misol uchun:

ag'yor – begona, dushman;  
g'ayr – boshqa, begona;  
g'arib – bechora;  
g'urban – musofirlik, begona yurt;  
shafiq – rahmdil, mehribon;  
shafqat – rahmdillik, mehribonlik.

2. Ayrim so'zlarning ma'nosi hozirigidan farq qilgan. Misol uchun, "jahl" so'zi "bilimsizlik, nodonlik" ma'nosida qo'llangan yoki "tuz" so'zining "to'g'ri, rost" ma'nosi ham bo'lgan.

3. Ayrim so'zlar va grammatik qo'shimchalarda ham farqlar mavjud. Misol uchun, "u" olmoshi "on" yoki "an" shaklida qo'llangan: uni – oni. "Bo'lmoq" so'zi esa "o'lmoq" shaklida, "-gin" qo'shimcha-si "-g'il" shaklida ishlatilgan: bo'lgin – o'lg'il.

Quyida ayrim qo'shimchalarining Navoiy davrida qanday shaklda ishlatilgani ko'rsatilgan:

Hozirgi o'zbek tilida	Navoiy davrida	Misol
-ga	-g'a	Boshni fido ayla ato qoshig'a ...
-dan	-din	El qochsa birov <u>din</u> , el yomoni bil oni ...
-man	-men	Jondin seni ko'p sevar <u>men</u> , ey umri aziz ...
-ib	-ubon	Xub el bila suhabat tutub <u>bon</u> xub o'lg'il ...
-dir	durur	Har nechaki ag'yor <b>durur</b> ...



Alisher Navoiy  
asarları qo'lyozmasi

Endi buyuk shoirning ayrim ruboilarini o'qiyimiz va tahlil qilamiz.

*Siz bilan 5-sinfda Zahiriddin Muhammad Bobur ruboilarini o'qigan edik. Eslab ko'ring-chi, ruboiy nima?*

*Quyidagi ruboiyni o'qing. Uning mazmunini hozirgi o'zbek tilida berishga harakat qiling.*

Har kimki suchuk so'z elga izhor aylar,  
Har nechaki ag'yor durur yor aylar.  
So'z qattig'i el ko'nglini ozor aylar,  
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

**suchuk** – shirin  
**ag'yor** – dushman  
**yor** – do'st  
**giriftor** – band, asir

*Shoir bu ruboiy bilan nima demoqchi? Uning asosiy g'oyasini bir gap bilan ifodalang. Qaysi kalit (asosiy) so'zlar ruboyning g'oyasini tushunishga yordam beradi?*

### JUFT BO'LIB ISHLAYMIZ

*Navoiy ruboilaridan namunalarni o'qing. Ulardagi asosiy g'o-yalarni aniqlashga harakat qiling. Quyidagi jadvalni daftaringizda to'ldiring.*

Ruboiy	Asosiy g'oya	Asosiy g'oyani ifodalaydigan kalit so'zlar
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		

\* \* \*

#### 1

Ko'nglungni orit barcha yomon xislatdin  
Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.  
Badxo'ylik ul vahshat erur shiddatdin  
Kim, elga xaloslik yo'q vahshatdin.

**oritmoq** – ketkazmoq, aritmoq  
**qiliq** – odat  
**rahmat** – marhamat, muruvvat  
**badxo'ylik** – qo'pollik  
**vahshat** – vahima, xavf-xatar

#### 2

Kim egri erur, tuzluk emas poyasi ham,  
Bor o'zudek egri sud-u sarmoyasi ham.  
Tuzluk ermas shifosi-yu voyasi ham,  
Kim, egri kishining egridur soyasi ham.

**tuzluk** – to'g'rilik, halollik  
**poya** – asos, poydevor  
**sud** – foyda, naf  
**voya** – foyda

**3**

Xub el bila suhbat tutubon xub o'lg'il,  
Yaxshini talab qilg'il-u mathub o'lg'il.  
Shirin so'z ila xalqqa marg'ub o'lg'il,  
Yumshoq de hadisingni-yu, mahbub o'lg'il.

**xub** – yaxshi  
**talab qilmoq** – istamoq,  
qidirmoq  
**matlub** – istalgan  
**marg'ub** – yoqimli  
**hadis** – so'z  
**mahbub** – sevimli

**4**

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,  
Ahvolida idbor nishoni bil oni.  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yamon-yamoni bil oni.

**idbor** – baxtsizlik  
**fe'l** – xulq, xarakter  
**ulus** – xalq, el

**5**

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.  
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,  
Bulbulg'a tikandek oshyon bo'lmas emish.

**shodmon** – shod, xursand  
**shafiq** – shafqatli, marhamatl  
**oshyon** – uy

**6**

Farzand ato nullug'in chu odat qilg'ay,  
Ul odat birla kasbi saodat qilg'ay.  
Har kimki atog'a ko'p riroyat qilg'ay,  
O'g'lidin bu ish anga siroyat qilg'ay.

**nullug'** – itoat, xizmat  
**rioyat** – hurmat  
**siroyat** – ta'sir, yuqish

**7**

So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,  
So'zdurki berur jonga xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

**nishon** – belgi  
**guhar** – gavhar  
**sharif** – aziz, qadrli

**8**

Johilki, hasad bo'lg'ay aning jahlig'a zam,  
Nur el ko'zidin anglasa o'z ko'zida kam.  
Ko'zlarni olishmoqqa chekib tig'i sitam,  
El ko'zini ham o'ygay-u, o'z ko'zini ham.

**johil** – bilimsiz, nodon  
**jahl** – bilimsizlik, nodonlik  
**zam** – qo'shish, jamlash  
**tig'** – xanjar, pichoq; jabr, alam  
**sitam** – jabr, zulm

*Alisher Navoiyning quyida berilgan hikmatlarini o'qing. Bu hikmatlar g'oya jihatidan qaysi ruboilarga mos keladi?*

\* \* \*

Vatan tarkini bir nafas aylama  
Yana ranji g'urbat havas aylama.

\* \* \*

Yaxshi kishilar birla tutar bo'l suhbat,  
To bergay amon sharirdin ul suhbat.

**amon** –  
qutulish, najot  
**sharir** –  
yomonlik

**vasf** – ta'rif,  
maqtov

\* \* \*

Agar tuzluk o'lsa kishining ishi,  
Ne vasf aylay olg'ay ishini kishi.

\* \* \*

Ham so'z ila elga o'lumdan najot,  
Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.

\* \* \*

Tiling bilan ko'nglingni bir tut.

## LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Alisher Navoiy ruboilyaridan birini tanlang. Bu ruboioyning asosiy g'oyasini tushunishga yordam beradigan rasm chizing yoki hikoya tuzing.

## QOFIYA VA RADIF HAQIDA BILIB OLAMIZ

**misra** –  
qator

She'riy asarlarda misralar odatda qofiyadosh so'zlar bilan tugaydi. Bu she'rning ohangdorligi, musiqiyligini ta'minlaydi. She'rlardagi misralar turlicha tartibda qofiyalanib kelishi mumkin. She'riy asarlardagi qofiyadosh so'zlar bir xil harflar bilan belgilanadi.

Misol uchun:

*Besh asrkim, nazmiy **saroyni**  
Titratadi zanjirband bir **sher**.  
Temur tig'i yetmagan **joyni**  
Qalam bilan oldi **Alisher**. (Abdulla Oripov)*

Ushbu she'rda birinchi qator uchinchi qator bilan (saroyni – joyni), ikkinchi qator to'rtinchi qator bilan (sher – Alisher) qofiyalanib kelgan. Demak, she'rning qofiyalanish tartibini **a-b-a-b** shaklida ifodalashimiz mumkin.

Mumtoz adabiyotimizdagи she'riy asarlarda odatda misralar yoki baytlar oxirida qofiyadan keyin bir xil so'z takrorlanib kelgan. Qofiyadan keyin takrorlanuvchi bu so'z **radif** deyiladi. Misol uchun:

*Ko'nglung istar yorlar birla hamisha shod **bo'l**,  
Medin-u kimdinki, ko'nglung istamas, ozod **bo'l**.  
(Alisher Navoiy)*

Ushbu baytda "bo'l" so'zi radif sifatida ishlatilgan.

She'riy asarlarning qofiyalanish tartibini tuzishda radifga emas, qofiyalarga e'tibor berish kerak.

*Darslikda berilgan ruboilyarning qofiyalanish tartibini tuzing. Ruboilyar qanday tartibda qofiyalanishi mumkin?*

## MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

*Quyida berilgan Alisher Navoiy hikmatlarini o‘qing. Ularda ilgari surilgan g‘oyalarni hayotiy misollar bilan izohlang.*

\* \* \*

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur,  
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.

\* \* \*

Ilmni kim vositayi joh etar,  
O‘zini-yu xalqni gumroh etar.

\* \* \*

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo,  
O‘zingga ravo ko‘rmaganni ravo.

\* \* \*

Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

\* \* \*


Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon,  
Ko‘p yemak birla bo‘lmag‘il hayvon.

\* \* \*

Yigitlikda yig‘ ilmning mahzani,  
Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani.

\* \* \*

Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a  
sazovor etar.



# ABAY. “YOSHLIKDAN BILIM IZLAB...”

## AVAZ O‘TAR.

## “HAR TILNI BILUV EMDI...”

Bu mavzuda biz:

- Abay va Avaz O‘tar she’rlaridagi g‘oyalar ifodasini qiyoslaymiz;
- fikrni dalillovchi esse yozishni mashq qilamiz.

### MA'RIFATPARVARLIK ADABIYOTI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHI)

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turkistonning (hozirgi O‘zbekiston va qo‘shti davlatlar) taraqqiyotda Yevropa davlatlaridan orqa-da qolishi, xalqning og‘ir turmushi o’sha davr ijodkorlarini e’tiborsiz qoldirmadi. Ular millatni savodli qilish orqali uni zulmdan qutqarish, hurnikka erishishni maqsad qilishdi va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini o‘z ijodlari orqali aks ettirdilar. Shu sabab ham bu davr adabiyoti ma’rifat-parvarlik davri adabiyoti deb ataladi.

### MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ



#### **Abay (1845–1904)**

Abay (Ibrohim Qo‘nonboyev) – qozoq adabiyotining yorqin vakili, ma’rifatparvar shoir, o‘qituvchi, faylasuf va bastakor. U 1845-yili hozirgi Qozog‘iston hududida tug‘ilgan. Dastlabki bilimni uyida olgan, keyin esa bir vaqtning o‘zida madrasa va rus mакtabida o‘qigan. Abay arab, fors kabi sharq tillarini yaxshi bilgan. Alisher Navoiy, Jomiy va boshqa sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodini sevib mutolaa qilgan.

#### **Avaz O‘tar (1884–1919)**

Avaz O‘tar – o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining taniqli vakillaridan biri. U Xiva shahrida tavallud topgan. Uning otasi saroyda oddiy sartarosh bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, adabiyotni, san’atni sevgan va zamonasining mashhur shoir va san’atkorlari bilan yaqin aloqada bo‘lgan. Avaz O‘tar dastlab maktabda, keyin esa Madamin Inoq madrasasida tahsil olgan. U madrasada o‘qib yurgan davridayoq she’rlar yoza boshlagan. She’rlarida ma’rifat, ozodlik,adolatsizlikka, zulmga qarshi kurash g‘oyalari yetakchilik qiladi. Avaz O‘tarning ko‘plab she’rlari qo‘shiq qilib kuylangan.



## MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

*Bilimning ahamiyati nimada? Bilimli bo‘lish nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?*

### **Abay**

\* \* \*

Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim,  
Xayrin bildim, biroq yuz o‘rgulmadim.  
Ulg‘ayganda qarasam, qo‘lim quruq,  
Kechikib qo‘l cho‘zdim-u, ulgurmadi.

Bilimsiz qolganimga kim gunohkor?  
Izlasam, bo‘larmidim munchalik xor?  
Odamzod tasallisi farzand ekan,  
Farzandimni bilimga qo‘ymadim zor...

Madrasaga berdim men adab uchun.  
Bilim uchun, nainki, mansab uchun!  
O‘zim ham yuksaklarga qanot qoqdim,  
Ayb bo‘lmas orzu uchun – talab uchun...

Kim aytar: yomon bo‘ldim, yo‘ldan qaytdim,  
Qozoqqa shirin-shirin o‘lan aytdim.  
O‘landa hech kim menga teng kelmadi,  
Lekin qadrim topolmay, o‘ksiyman jim...

*Mirtemir tarjimasi*

## MUHOKAMA QILAMIZ

**o‘lan** –  
odatda to‘ylarda, yig‘inlarda ijro etiladigan qo‘sishq

- “Ulg‘ayganda qarasam, qo‘lim quruq” jumlesi bilan shoir nima demoqli? Bilimsizlik va “quruq qo‘l” o‘rtasida qanday mantiqiy bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?
- “Bilimsiz qolganimga kim gunohkor? Izlasam, bo‘larmidim munchalik xor?” satrlarida shoir murojaati kimga qaratilgan? Bilimsiz qolishida kimni aybdor qilmoqda? Umuman, bolalarning vaqtida bilim olmay, savod-siz bo‘lib qolishiga kim yoki nima aybdor bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz?
- Shoir bilimning muhimligini ko‘rsatish uchun qanday vositalardan foydalanmoqda?
- She’rning oxirgi bandida shoir o‘landa hech kim unga teng kelmasa-da, “qadr topolmagan”idan kuyunmoqda. Buning sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
- Shoirning ushbu she’ridagi sizga eng kuchli ta’sir qilgan band yoki qator qaysi? Nima uchun?

***Avaz O'tar***

\* \* \*

**bani odam –**

odamlar

**robita –**

aloqa

**g'ayri –**

o'zga, chet

**yaktoyi****zamon –**

dunyoda

yagona

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositayi robitayi olamiyondur.

G'ayri tilini sa'y qiling bilgani, yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g'ayrat eting foida kondur.

Ilm-u fan uyig'a yuboringlar bolangizni,  
Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.

Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,  
Til bilmaganidan oni bag'ri to'la qondur.

**MUHOKAMA QILAMIZ**

- She'rda qanday g'oya ilgari surilmoqda? Fikringizni matn asosida dalillang.
- Nima uchun til bilish odamga jon bag'ishlaydi, olam bilan bog'laydi?
- Shoir nima uchun o'zga (xorijiy) tillarni yaxshi bilgan insonlarni "yaktoyi zamon" demoqda?
- Shoir til bilmagani uchun "bag'ri qon"ligidan azob chekmoqda. Tassavvur qiling, u til bilganida nimalarga erishishi mumkin edi?
- Ushbu she'rni qay jihatdan bugungi davr bilan bog'lash mumkin? Uning bugungacha e'tiborda bo'lishini, o'qilishini yana qanday xususiyatlar bilan bog'lagan bo'lardingiz?

**SOLISHTIRAMIZ**

- Juft bo'lib ishlang. Har ikki she'rdagi o'xshash va farqli jihatlarni toping. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

<b>Abay she'riga xos xususiyatlar</b>	<b>Avaz O'tar she'riga xos xususiyatlar</b>	<b>Har ikki she'rga xos xususiyatlar</b>

2. She'rlarga sarlavha tanlang. Tanlagan sarlavhalaringizni izohlang.
3. Qaysi she'rni yana qayta o'qishni, yod olishni istardingiz? Nima uchun?

## IJODIY ISH

Qaysi sohalar, fanlar kelajak uchun muhim deb hisoblaysiz? Bitta sohani tanlang va uning muhimligini isbotlaydigan ikkita sabab keltiring. Quyida berilgan namuna asosida esse yozing.

**Birinchi xatboshi** – essening umumiyl g'oyasini  
ochib beradigan bitta yoki ikkita gap

*Men kelajak uchun adabiyot muhim deb hisoblayman.*

**Ikkinchi xatboshi** – esedagi umumiyl g'oyani  
isbotlovchi fikr, bu fikrga dalillar (misollar)

*Adabiyot insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga va o'zaro hurmatga o'rgatadi. Adabiyot orqali biz o'zimiz va o'zgalarning his-tuyg'ularini, kechinmalarini anglashni o'rganamiz. Bu esa jamiyatda turli xil tushunmovchiliklarning, muammolarning oldini olishga yordam beradi.*

**Uchinchi xatboshi** – esedagi umumiyl g'oyani  
isbotlovchi yana bir fikr, bu fikrga dalillar (misollar)

*Adabiyot davlat va jamiyatning rivojlanishi uchun yangi g'oyalar beradi. Hozirgi kunda odatiy narsalarga aylangan texnologiya yutuqlari dastlab badiiy asarlarda tasvirlangan...*



# MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Quyidagi she'rlarni o'qing. Ulardagi asosiy g'oyalarni solishtiring. O'xshash va o'ziga xos jihatlarini matn asosida izohlang.

***Abay***

\* \* \*

Butun tunga tarqalar –  
Yaxshi ohang, shirin kuy.  
Dilga xil-xil o'y solar,  
Ohang suysang, menday suy!

Olam esdan chiqadi,  
Unutaman o'zimni.  
Ko'nglim ma'ni o'qadi,  
Deyolmayman so'zimni.

Cho'lda tashna suv topsa,  
Ichar uzala tushib.  
Bilmaydi, to qonguncha,  
O'tsalar ham turtishib.

Yaxshi ohang – kuydirar,  
Esga tushar o'tganlar.  
Go'yo tushingga kirar –  
Kuylab, yig'lab ketganlar...

Eski olam, qadim hol –  
Takror ayon bo'ladi.  
Har yon uchadi xayol,  
Mening ko'nglim to'ladi.

O'tmish og'usin ichib,  
Bo'laman boz mast – garang.  
Yolg'onlar chin ko'rinar...  
Ohang kuchiga qarang!

Boz meni alday boshlar –  
Har muttaham va har quv.  
Olamda men ichmagan –  
Aiting, qoldimi og'u?

*Mirtemir tarjiması*

***Avaz O'tar***

\* \* \*

Ayla yaxshi birla suhbat, ey Avaz,  
Toki topgaysan saodat, ey Avaz.

Do'stlarim bo'lsin desang ahli jahon,  
Xulqi xushlukni qil odat, ey Avaz.

Senda bor ersa agar rasmi vafo,  
Ko'rmag'ung juz javr-u kulfat, ey Avaz.

El qilur qasdi haloking begumon,  
Topsalar gar lahza fursat, ey Avaz.

Fikr xaylidin hazar aylar hama,  
Joh eliga aylar izzat, ey Avaz...

To jahonda bordur hosid, aylama  
Orzuyi izz-u muknat, ey Avaz.

**juz** –  
boshqa, o'zga

**joh** –  
martaba,  
mansab

**hosid** –  
hasadgo'y  
**muknat** –  
boylik

\* \* \*

Fidoyi xalqim o'lsun tanda jonim,  
Bo'lub qurban anga ruhi ravonim.

Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,  
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo'liga davron,  
Yurur ustimdin avlodni zamоним.

**fano** –  
yo'qlik, o'lim

Umidim: yashasin maktab bolasi,  
Alar har biri bir sheri jayonim.

**jayon** –  
qo'rmas

Na yaxshi o'ylakim, ma'qul-u manzur,  
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.

# LENGSTON HYUZ. “RAHMAT SIZGA, XONIM”

**Bu mavzuda biz:**


- “Rahmat sizga, xonim” hikoyasida ilgari surilgan g’oyalar ni muhokama qilamiz;
- qahramonlar xarakterini tasvirlovchi vositalarni topishni o’rganamiz.

## MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Lengston Hyuz (1902–1967) – AQSH adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakili, shoir, yozuvchi, dramaturg. U AQSHning Missouri shtatida qora tanlilar oilasida tug‘ildi. Bu paytda AQSHda qora tanlilarga nisbatanadolatsizlik, ularni “quyi tabaqa” sifatida ko‘rish odati hukmron edi. Ko‘p vaqtini buvisining qaramog‘ida o’tkazgan Lengston undan qora tanlilar ham hech kimdan kam emasligini, o‘z nasl-nasabi bilan g‘ururlanishni o‘rgandi. Buvisining tarbiyasi keyinchalik Hyuzga o‘z asarlarida “qora tanli ekanidan uyalmasdan o‘zligini ifoda etishiga” yordam berdi.

Maktabda o‘qib yurgan paytda Hyuz she’rlar va hikoyalari yoza boshladi, maktab gazetasini nashr qilishda faol qatnashdi. O‘rta maktabni bitirganidan keyin nufuzli Kolumbiya universitetiga o‘qishga kirdi, lekin jamiyatdagi qora tanlilarga bo‘lgan munosabat tufayli bu oliygohdan ketishga majbur bo‘ldi. Keyinchalik bir qancha joylarda ishladi, Linkoln universitetini bitirdi, boshqa davlatlarga sayohat qildi. 1930-yillarda O‘zbekistonga ham tashrif buyurdi.

Lengston Hyuz ko‘p vaqtini adabiyotga bag‘ishladi va oddiy insonlar taqdiri haqida ko‘plab asarlar yaratdi.





## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Lengston Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” hikoyasini o‘qiyimiz.

O‘ylab ko‘ring-chi, oxirgi marta kimga va nima uchun rahmat aytgansiz?

Hikoya voqealari XX asrning o‘rtalarida Harlemda – Nyu York shahrining (AQSH) asosan qora tanli aholi istiqomat qiladigan qismida bo‘lib o‘tadi. Asarda bir ayolning sumkasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan bola haqida hikoya qilinadi.



Kassius Kley (keyinchalik Muhammad Ali ismi bilan tanilgan mashhur bokschi) Harlem ko‘chalarida. XX asr o‘rtalari

Biron nojo‘ya ish qilganingizda atrofingizdagilar qanday tanbeh berishgan? Bu ishingiz to‘g‘ri emasligini tushuntirishda qanday yo‘l tutishgan?



## RAHMAT SIZGA, XONIM

To'ladan kelgan bir ayol yo'lak bo'ylab ichiga hamma narsa sig'adigan katta sumkasini ko'tarib ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo'q narsaning o'zi yo'q edi, albatta, odamning jonidan boshqa. Bog'ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olgancha ko'cha bo'ylab yolg'iz ketayotgandi. Soat tungi 11 lar edi, bir payt uning yoniga shuv etib bir bola yetib keldi va ayolning sumkasini yelkasidan yulib oldi. Ayol o'ziga kelmay turib, bog'ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzilib, bolaning qo'lidan tushib ketdi. Sumkaning og'irligidan muvozanatini yo'qotgan bola yiqilib tushdi va oyog'i jarohatlandi. Ayol esa bolaning yelkasidan ushlab jahl bilan turg'azdi.

— Qani, mening sumkamni olib bergin-chi, — dedi uni qo'yib yubormay. — Uyalmaysanmi-a?

Yoqasidan olingen bola duduqlandi:

- Men... men...
- Nega bunday qilding?
- Atayin qilmadim...
- Aldayapsan.

*Ayolning xatti-harakatlari sizda qanday taassurot qoldirdi? U haqidagi dastlabki fikringiz qanday?*

Bu paytda bir-ikki yo'lovchi ularga hayron bo'lib qaragancha o'tib ketdi. Ba'zilari esa turib olib ularni kuza boshladi.

- Seni qo'yib yuborsam, qochib ketasan, shundaymi?
- Aha... – dedi bola.
- Demak, qo'yib yubormayman!
- Juda afsusdaman, xonim. Meni kechiring!.. – g'udrandi bolakay.
- Xo'o'sh, juda kirligidan aftingga qarab bo'lmaydi. Seni o'zim bir ozoda qilib qo'ymasammi? Nima, uyingdagi birortasi yuzingni yuvib yur, deb aytmaydimi?
- Yo'q...
- Unda bekorga uchrashmabmiz. Bugun yuvinadigan kuning ekan,
- dedi ayol va qo'rqib turgan bolani qo'yib yubormay, o'zi bilan olib keta boshladi.

*Sizningcha, ayolning maqsadi nima? U bolani qayerga olib ketyapti?*

Bola o'n to'rt yoki o'n besh yashar, cho'pdek ozg'in, keda va ko'k jinsi kiygan edi.

– O'g'lim tengi ekansan. Senga nima yaxshi-yu, nima yomonligini o'rgatishim kerak. Avvalo, tarbiyani yuzingni yuvishdan boshlaymiz. Qorning ham ochdir?

- Yo'q, to'qman, meni qo'yib yuborsangiz bo'ldi.
- Seni o'z yo'limda tinchgina ketayotib men ushlab oldimmi?
- Yo'q...
- O'zing menga tashlanib qolding-ku, to'g'rimi? Endi meni – Luella Beyts Vashington Jones xonimni uzoq eslab yurasan!

Ayol uyiga yetib kelgach, bolani ichkariga kiritdi. Kiraverishda ki-chikkina oshxona joylashgan edi, ayol chiroqni yoqdi va eshikni ochiq qoldirdi. Bola qo'shnilarnidan eshitilayotgan ovozlar, kulgilarni bemalol eshita olardi. Ba'zi qo'shnilarning eshigi ularniki kabi ochiq edi, demak, bola bu ayol bilan yolg'iz emas. Ayol haligacha bolaning kiyimidan ushlagan ko'yi oshxona o'rtasida turardi.

- Isming nima o'zi, bolakay?
- Rojer.
- Demak, Rojer, hozir rakkavina oldiga borib, yuzingni yaxshilab yuvasan.

Nihoyat, ayol bolani qo'yib yubordi. Rojer bir ochiq eshikka, bir ayol tomonga, keyin yana ko'cha eshigiga qaradi-da, beixtiyor yuvinish uchun yo'l oldi.

*Royer nima uchun ochiq eshik – ko'cha tomonga emas, yuvinish uchun yo'l oldi?*



- Issiq suv tushguncha biroz kutib tur, – dedi ayol, – mana, toza sochiq.
- Meni politsiyaga topshirasizmi? – so‘radi bola yuzini yuvayotib.

*Royer nega: “Meni politsiyaga topshirasizmi?” – deb so‘radi? Nima uchun uning xayoliga bunday fikr keldi deb o‘ylaysiz?*

- Qo‘rqmay yuvinaver, bunaqa kir holingda sen bilan ko‘chaga chiqib bo‘larmidi? – dedi ayol. – Men uyimga yeish uchun biror taom tayyorlash niyatida tinchgina qaytayotgan bo‘lsam-u, sen esa sum-kamga yopishsang-a? Uyingdagi kechki ovqatga ham kech qolding...
- Mening hech kimim yo‘q...
- Unda birga ovqatlanar ekanmiz-da, menimcha, qorning ham ochqagan. Axir, shuncha “harakat” qilib, ochqamay bo‘ladimi?
- Men faqat zamsha tufli olmoqchi edim...
- Tuqli olish uchun hamyonimni o‘g‘irlash shart emasdi, o‘zimdan so‘rasang ham bo‘lardi, – dedi Luella xonim, – bir og‘iz so‘rasang bo‘ldi edi...
- Rostdanmi... xonim?!. – yuzidan suv tomib turgan bolakay ajab-lanib so‘radi beixtiyor.

Ular jim qolishdi... Uzoq jimlik cho‘kdi. Nihoyat, bola yuzini artdi, keyin nima qilishini bilmay, sochiqni olib yana artdi. Eshik hamon ochiq. Bir harakat qilsa, tamom, qochaveradi, qochaveradi...

*Royer Luella xonimning gapidan nega hayratlandi? Ayol eshikni nima maqsadda ochiq qoldirdi deb o‘ylaysiz?*

Ayol kursiga o‘tirib, birinchi bo‘lib gap boshladi:

- Yoshligimda men ham imkonim yetmaydigan narsalarga ega bo‘lishni juda xohlardim.
- Bola ajablanib ayolga qaradi.
- Lekin... hech kimning hamyonini o‘g‘irlamaganman, deyishimni kutyapsanmi? Yo‘q, bu haqda gapirmoqchi emasman. Shunday ishlar qilganmanki, imkon bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim...

*“Shunday ishlar qilganmanki, imkon bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim”. Luella xonim bu gapni nima maqsadda aytdi deb o‘ylaysiz?*

Xonaning narigi chetida gaz plita va muzlatkich bor edi. Ayol o‘rnidan turib, o‘sha tomonga ketdi. Ortiga qaramadi: ayol kursiga sum-kasini atay tashlab ketgan edi. Bola uni hoziroq olib, qochib ketishi mumkin bo‘lsa-da, ayol ortiga qarashni istamasdi. Bola buni sezdi va

ayol uni ko'rib turishi mumkin bo'lgan joyga borib o'tirdi. U Luella xonimning ishonchini yo'qotishni istamasdi.

– Do'konga chiqib, biror narsa olib kelib beraymi? – so'radi bola. – Sut yoki biror yegulikmi...

– Shart emas. Sut ichging kelyaptimi? Menda qadoqlangani bor, undan kakaoli ichimlik tayyorlab beraman.

– Ajoyib fikr, xonim.

*Luella xonim nima maqsadda hamyonini Rojerning oldiga tashlab ketdi? Rojer nima uchun ayolga yordamlashmoqchi bo'ldi?*

Ayol muzlatgichdan lima loviyalari va go'sht oldi. Yegulik, kakaoli ichimlik tayyorladi va hammasini dasturxonga qo'ydi. Ayol boladan uni noqulay ahvolga solishi mumkin bo'lgan qayerda yashashi, o'tmishi, yaqinlari haqidagi savollarni so'ramadi. Buning o'rniga u o'z kasbi – mehmonxonaning go'zallik salonidagi ishi, uni qanchalik sevishi haqidá aytib berdi. Keyin oldiga keluvchi mijozlar – malla, qizil sochli go'zal ayollar haqida gapirdi. Bolaga shirinlik bo'lagini uzatarkan:

– Yana biroz yeb ol, o'g'lim, – dedi mehribonlik bilan.

Ovqatlanib bo'lishgach, ayol bolaning qo'liga o'n dollar tutqazdi.

– Bunga o'zing xohlagandek zamsha tuflı sotib olgin. Lekin keyingi safar bu xatoni takrorlama – menga o'xshagan birortasining cho'ntagiga qo'lingni suqma. Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo'lga boshlamasin. Bugungi kun sen uchun unutilmas saboq bo'lishiga umid qilaman, o'g'lim!

*"Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo'lga boshlamasin". Bu gapni qanday tushundingiz?*


Ayol uni tashqariga kuzatib qo'ydi va eshikni yopdi.

Bola unga nimadir yaxshi gap aytgisi keldi, lekin munosib so'zlarni topolmadi. U ayolning uyiga kirib ketishini kuzatib qolarkan, pichirlab: "Rahmat sizga..." deya oldi xolos. Shundan so'ng ular boshqa uchrashmadilar.

*Nodirabegim  
Ibrohimova tarjimasi*



lima  
loviyalari



## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asarda qanday g'oyalar ilgari surilgan? Bu g'oyalardan qaysisini eng muhimi deb o'ylaysiz? Fikringizni matn asosida dalillang.
2. Luella xonim nima uchun Rojerni uyiga olib keldi? Faqat ovqat-lantirib, pul berish uchunmi? Uning Rojerga nisbatan munosabati sabab-lari nimada deb o'ylaysiz?
3. Luella xonim haqidagi fikringiz asarni o'qish davomida qay daraja-da o'zgardi? Rojer haqida-chi?
4. Hikoyada tasvirlangan voqeal Rojerning keyingi hayotiga qanday ta'sir qiladi deb o'ylaysiz? U yana o'g'irlikka qo'l uradimi?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Hikoyadan sizga eng kuchli ta'sir qilgan epizodni (kichik lavhani) tanlang. Shu epizodni Luella xonim yoki Rojer nomidan bayon qiling. Voqeani qahramon tilidan bayon qilganingizda nimalar o'zgardi? Nima uchun?

## IJODIY ISH

Sizga kuchli ta'sir qilgan, o'zgarishga majbur qilgan inson haqida o'ylab ko'ring. U real inson (masalan, qarindoshingiz, do'stingiz) yoki asar (kino, multfilm) qahramoni bo'lishi mumkin. Quyida berilgan reja asosida "O'zgarishimga sabab bo'lgan inson" mavzusida insho yozing:

- Bu inson kim edi?
- Siz undan nimani o'rgandingiz (qanday saboq oldingiz)?
- U qaysi so'zlari yoki harakatlari bilan sizga ta'sir qildi?

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: ASAR QAHRAMONLARI TAVSIFI

Mualliflar asar qahramonlarini, ularning xarakterini (rahmdil, shafqatsiz, rostgo'y, yolg'onchi, ...) va ijtimoiy holatini (masalan, boy yoki kambag'alligini) tasvirlash uchun turli vositalardan foydalanadilar. Shunday vositalardan biri – qahramon nutqi (gap-so'zlari) va xatti-harakatlari.

Sartarosh Qori Ishkambaning mo'ylovin qaychilab bo'lgani hamon u o'rnidan irg'ib turdi va sallasini supachadan olib, boshiga qo'ndirdi-da, sartaroshxonadan chiqdi.

– Qori amaki, soch oldirish puli nima bo‘ldi? – deb sartarosh uning orqasidan tovush berganda, u qayrilib qaramasdan va qadamini sekinlatmasdan:

- Maydam yo‘q, yana soch oldirganda ikkisini qo‘shib beraman,
- deb tezroq yurib ketdi va bir nafasda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Sadriddin Ayniy,  
“Sudxo‘rning o‘limi” qissasidan

Qori Ishkambaning o‘rnidan irg‘ib turib, sartaroshga pul to‘lamasdan chiqib ketishi, “maydam yo‘q” deb bahona qilishi – bu vositalar orqali muallif uning haddan tashqari ziqlanligini, pul sarflashni yoqtirmasligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, qahramonning yashash joyi, tegishli buyumlari orqali ham u haqida bilib olishimiz mumkin.

Hovlimizda sara gullar qulf urib ochilib yotar, marmar polli va keng oynali xonalarda eng qimmat gilamlar to‘shalgan, shiftda billur qandillar osilib turardi. ... Birinchi qavatdagи mehmonxonada otamning qirol Nodirshoh bilan tushgan surati bor edi.


Xolid Husayniy,  
“Shamol ortidan yugurib” romanidan

Bu parchadagi qahramonning uyi tasviri, otasining qirol bilan tushgan surati orqali uning badavlat va obro‘li xonadondan ekanini anglashimiz mumkin.

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Rahmat sizga, xonom” hikoyasi qahramonlarining xarakterini ko‘rsatishda muallif qanday vositalardan foydalangan? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring. So‘ng uni boshqa guruhlar to‘ldirgan jadvallar bilan solishtiring.

Luella xonim		Rojer	
Qanday inson?	Qanday bilib olamiz?	Qanday inson?	Qanday bilib olamiz?
Bosiq, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan	Royer sumkasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lganida o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi.	Zaif, nimjon	Sumkaning og‘irligidan muvozanatini yo‘qotib yiqlidi.



## FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA ONA TILI

Bu mavzuda biz:

- badiiy uslubga xos xususiyatlarni farqlashni o'rganamiz.

Darslik yoki ensiklopediyani nima uchun o'qisiz? Badiiy asarni-chi?  
Badiiy kitob o'qiganda his qilgan narsalaringizni darslik yoki ensiklopediya o'qiganda ham his qilasizmi?

*Matnlarni o'qing. Ulardagi bahor tasvirini solishtiring. Savol-larga javob bering. Javoblarining asosida ensiklopediyadan olingan matn va badiiy matnning asosiy farqlarini sanang.*

Yillar fasllarga bo'linadi. Fasllar o'zgarishi bilan ob-havo ham o'zgardi. Yerning ayrim hududlarida to'rt fasl: yoz – issiq, qish – sovuq va ikki o'tkinchi fasl – bahor va kuz mavjud. Yer sharining boshqa joylarida yil bo'yи issiq havo hukmronlik qiladi, ammo yarim yil yomg'ir yog'sa, yarim yil qurg'oqchilik bo'ladi. Demak, u yerlarda faqatgina ikki fasl mavjud.

Qishning ayozli kunlari tugab, bahor fasli keldi. Yilning bu faslida havo isiydi, kunlar uzayadi, tunlar qisqaradi. O'simliklar uyg'onadi, daraxtlar barg chiqara boshlaydi. Gullar ochiladi. Ko'p hayvonlar bolalaydi.

*"Yosh bilimdon" bolalar ensiklopediyasidan*

\* \* \*

Yana bahor keldi. Yana olamda  
 Ajib bir go'zallik, ajib bir bayot.  
 Men seni qutlayman shu ulug' damda,  
 Ulug' yelkadoshim, muzaffar hayot!..  
 Yellar ham uyg'ondi ishqalab kaftin,  
 Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh.  
 Tog'lar ham yuk tashlab ko'tardi kiftin,  
 Bezavol maysa ham silkitadi bosh.  
 Tarnovlar bo'g'zida lola ham ko'rkar,  
 Terak uchlarida izg'ir mavjudot.  
 Hattoki tuyg'usiz, chirik xazon ham  
 Yashil po'panakdan bog'labdi qanot...

**bayot** –  
 kuy nomi  
  
**bezavol** –  
 zavolsiz,  
 so'nmas

*Abdulla Oripov*

1. "Yilning bu faslida havo isiydi, kunlar uzayadi..." Bu holat she'rda qanday tasvirlangan?

2. Qaysi misralarda shoir bahorda o'simliklar uyg'onishini, gullar ochilishi ni tasvirlagan? Bu tasvirlar qaysi xususiyatlari bilan o'quvchiga bahordagi holatni aniq tasavvur qilishga yordam beradi?

3. "Terak uchlarida izg'ir mavjudot" misrasida qanday jarayon tasvirlangan? Nima uchun shoir "izg'ir" fe'lini tanlagan?

4. Qaysi matnda muallifning tasvirlanayotgan hodisaga munosabatini bilishimiz mumkin? Bu munosabat qanday namoyon bo'ladi?

5. Qaysi matn sizga ta'sir qildi? Nima uchun?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Tabiatda suvning aylanishini tasvirlab bir necha gapdan iborat badiiy matn yarating.



## TAKRORLASH

1–4. Quyida berilgan xalq qo'shiqlarini o'qing. Har bir qo'shiqning qaysi guruhga mansubligini aniqlang. Nega shu guruhga mansub deb o'ylishingizni izohlang. Javoblarni daftaringizga yozing.

- A) mehnat qo'shiqlari
- B) mavsum-marosim qo'shiqlari
- C) lirik qo'shiqlar

1. *Choy momo, choy, choy, choy,  
Chayilib qolsin quv shamol.*

*Bosa-bosa beringlar,  
Bosilib qolsin quv shamol.*

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Izoh:** \_\_\_\_\_

---

2. *Bug'doy soldim tegirmonning do'liga,  
Ikki ko'zim oshiq yorning yo'lida.  
Borib ayting oshiq yorning o'ziga,  
Kirmagay do'st bilan dushman so'ziga.*

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Izoh:** \_\_\_\_\_

---

3. *Beqasam to'nlar kiyib,  
Muncha meni kuydirasiz.  
Goh-gohida bir qarab,  
Voy, beajal o'ldirasiz.*

*Oq ilon, oppoq ilon,  
Oydinda yotganing qani?  
Men – yomondan ayrilib,  
Yaxshini topganing qani?*

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Izoh:** \_\_\_\_\_

---

4. *Yorg'uchaq yalpoqqina,  
Un qilar oppoqqina.  
Yorg'uchaq xir-xir etar,  
Mushtdakkina xamir etar.*

**Javob:** \_\_\_\_\_

**Izoh:** \_\_\_\_\_

---

**5–9. Alisher Navoiy ruboiylarini o‘qing. Savollarga javob bering.**

*Har kimgaki egrilikka ovoza durur,  
Tuz jodda ila yo‘lidin oza durur.  
Tuzlukda tarab behad-u andoza durur,  
Kim rost durur, yuzi oning toza durur.*

jodda – yo‘l  
tuz – to‘g’ri, rost  
tuzluk – to‘g’rilik  
tarab –  
shodlik, xursandlik

**5. Ruboiyning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang.****6. Ruboiyning qofiyalanish tartibini tuzing:** \_\_\_\_\_**7. Ruboiydagi radifni toping:** \_\_\_\_\_

*Til so‘z ila to qizitdi hangomimni,  
Bir ham tiya olmadim bu xudkomimni.  
Har necha itikroq ayladi xomimni,  
Ul xoma qaroroq ayladi nomimni.*

hangom – payt,  
fursat, vaqt  
**xudkom** – faqat o‘z  
manfaatini ko‘zlovchi  
**itik** – o‘tkir, tez  
**xoma** – qalam; ijod

**8. Ruboiyning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang.****9. Ruboiyning qofiyalanish tartibini tuzing:** \_\_\_\_\_**10–13. Matnni o‘qing. Umrinisa buvi va Nargis xarakterlariga xos ikki-ta xususiyatni daftaringizga yozing. Javobingizni matn asosida izohlang.**

Nargis to‘g‘nag‘ichini labiga qistirgancha oyna oldida soch tarar, uning salgina buralgan qalin sochlari nozik yelkalarini o‘rab turardi. U boshini yengilgina silkib, yuziga yaqin sochlarni orqaga oldi. Hozirgina kiygan xalatining bog‘ichlarini qayta bog‘lar ekan, kir taxlab o‘tirgan Umriniso buvining yoniga keldi.

– Zerikmadingizmi, buvijon? – dedi u yumshoqqina kulib. – Qo‘ying, o‘zim qilaman.

- Bekor ham o‘tribman-da, bolam. Choy qaynayapti. Damlab beraymi?
- O‘zim, – Nargis shunday deb oshxona tomonga chiqib ketdi...
- Qani, choyga chiqinglar, buvi! Babulya!

Umriniso buvi uning ketidan boshqa uyg‘a chiqdi. Ketma-ket To‘lqin ham kirdi. Tovada jizillab turgan go‘sht bilan kartoshkani Nargis o‘rtaga qo‘yarkan, buvisiga qarab jilmaydi:

– Rahmat, buvijon. Qovurib qo‘ygan ekansiz, isitdim. – U bitta taqsimchada to‘g‘ralgan piyoz bilan rediska ham olib keldi-da, tortmadan vilka olib ularning oldiga qo‘ydi.

Umriniso buvining qorni ochmagan bo‘lsa ham, bolalarning ko‘ngli uchun uncha-muncha yeb o‘tirdi. To‘lqin hech kimga qaramasdan shoshib ovqatlandi-yu, darsga ketdi. Nargis To‘lqin o‘tirgan joydagi non ushoqlari, g‘ijimlangan salfetka qog‘ozini yig‘ishtirib olar ekan:

- Buni qarang, doim ketidan yig‘ishtirib yurishim kerak. Biram palapartish,
- dedi.
- Qo‘yaver, o‘g‘il bola-da.



**"Momo". Nortoy Diyorov  
ishlagan surat**

– Dadam unaqa emaslar-ku! Uylansa, xotinining ham joniga tegadi bu! Biram g'o'daygan.

– Ko'ryapsan-ku, chizmakashligidan bo'shamayapti. Charchagandir bechora bolam.

– Shuncha bolani qanday katta qilgansiz-a, buvi?..

Umriniso buvi sekin xo'rsinib qo'ydi:

– Men ularning yaxshi tomonlarini ham, boshqaga bilinmaydigan kamchiliklarini ham bilaman, bolam.

– Mana, dadamni olaylik. Juda madaniyatli, to'g'ri, yana nima desa bo'ladi, – Nargis fikrini aytishga so'z topolmay qoldi. – Ha, halol odam. Ularni siz tarbiyalagansiz. Lekin pedagogikani bilmaysiz. Qiziq-a?

Umriniso buvi kulib qo'ydi. Ko'zlariga yana xayol cho'kdi. U eri Otajonni eslagan edi...

– Nega o'ylanib qoldingiz? Dedushkam esingizga tushib ketdimi? – dedi hazillashib.

... Nargis shipillaganicha taxlog'lik kirlarni ko'tarib chiqib ketdi. Bir nafasdan keyin uning ovozi balkondan eshitildi.

– Buvi, bu yoqqa chiqing! Yonimda o'tiring. Umriniso buvi o'rnidan turib ro'molini asta tuzatar ekan, nevarasining yoniga chiqdi...

Umriniso buvi oyog'i ostida yotgan bir varaq qog'ozni engashib olib, yozuviga tikildi.

– Ko'zim o'tmayapti. Bu nima ekan, o'qib ko'r. Dadangning xatiga o'xshayapti. Tag'in kerakli qog'ozni bo'lmasin.

Nargis dazmolni qo'yib, qog'ozni oldi. Qoshlarini chimirib, unga ko'z yugurtirdi-da, buvisiga qaytarib berdi.

– Tushunmadim. Qishloq xo'jaligi, daromad, yana nimalardir yozilgan. Dadamning gazetaga yozganlaridan bo'lsa kerak.

Umriniso buvining yuragi allanechuk bo'lib ketdi. Ha, dilini xira qilgan narsalarning biri mana shu edi. Lekin pedagogika degan darsda bu haqda aytilmaganmikan...

– Bilasanmi, – dedi Umriniso buvi o'ychanlik bilan, – sen qaynonangga yoqmasliging ham mumkin. Dazmolni ko'tar, kuydirasan!

Hang-u mang bo'lib qolgan Nargis shoshib dazmolni oldi-da:

– Nega endi birdaniga? – dedi hayronlik bilan.

– Seni kim boqib katta qildi?

Hech narsaga tushunmagan Nargis:

– Dadam, ayam, – dedi ko'zlarini pirpiratib.

– Qanday qilib, nima bilan boqishdi?

– Buvijon, nima demoqchisiz o'zi?

– Javob ber!

– Ishlab boqishdi-da, albatta.

– Dadangning topib kelgan nonini yeysan, olib kelgan ko'ylagini kiyasan.

Lekin qanday qilib bu pullarni topdi, nimalarni yozdi, buning senga qizig'i

yo‘q. Shundaymi? Dadang yozgan narsani hatto tushunmaysan, ammo puli yaxshi. Uyalmaysanmi, bolam? Ukang bo‘lsa, sendan battar.

– Voy, buvijon, umuman, tushunaman, lekin qiyin.

– O‘nta tilni bilsang ham mayli, bilaver. Lekin seni boqayotgan tilni bilmasang, odammisan sen? Agar qaynonang mening ko‘nglimdagidek xotin bo‘lsa: “Boring, bolam, avval onangizning tilini o‘rganib keling”, – deydi.

Nargis gap topolmay nuqlu: “Voy, buvijon...” – der edi.

Umriniso buvining shunday jahli chiqqan ediki, hatto Nargisni gapishtiga ham qo‘ymay, siltab-siltab tashladi. Nargis buni payqadi. U g‘alati, o‘ng‘aysiz ahvolda qoldi. Sevimli buvisi uni hech qachon bunchalik urishmagan edi.

– Tavba qildim, buvijon. Juda ham unchalik tushunmayman emas.

Kampir qog‘ozni silab, tekislab ikki bukladi-da, unga tikila-tikila o‘g‘lining stoliga qo‘yib chiqmoq uchun uyga kirib ketdi. Qo‘ng‘iroq jiringladi. Nargis yugurib chiqib eshikni ochdi. Bu Sultonxon edi.

– Namuncha qizarib ketibsan?

– Dazmol bosayotgan edim.

Neverasiga zimdan nazar tashlagan Umriniso buvi keliniga yuzlandi:

– Keldingizmi, bolam?

– Zerikmay o‘tiribsizmi? Yaxshiyamki, Nargis bor ekan. Siz bo‘lsangiz, Nargisning ham uydan chiqqisi kelmaydi.

– Endi uyga kirgisi kelmasa-chi?

– Nega? – Sultonxon javdirab ikkalalariga qaradi.

– Qo‘ysangiz-chi, buvijon. Hecham unday emas. – Nargis kulib, balkonga chiqib ketdi.

Hamon savol nazari bilan qarab turgan keliniga kampir:

– Ozroq urishdim, – dedi kulib. Sultonxon ham kulimsirab qo‘ydi.

*Saida Zunnunova*

	<b>Umriniso buviga xos xususiyat</b>	<b>Izoh</b>
<b>10</b>		
<b>11</b>		
	<b>Nargisga xos xususiyat</b>	<b>Izoh</b>
<b>12</b>		
<b>13</b>		

### O‘zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?

😊 12–13 taga: juda yaxshi!

🙁 9–11 taga: yaxshi, lekin sal ko‘proq ishlashim kerak!

☹ 9 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!



## 3-fasl. FANTASTIKA VA SARGUZASHTLAR OLAMI

Hojiakbar Shayxov. “Birinchi sinov”  
Rey Bredberi. “Bir kunlik yoz”  
Jyul Vern. “O’n besh yoshli kapitan”  
Artur Konan Doyl. “Mallalar uyushmasi”

### **Adabiy tushunchalar:**

- ilmiy-fantastik asar
- sarguzasht asar
- detektiv asar
- portret
- badiiy tasvir vositalari: sifatlash

### **Fanlararo aloqa:** adabiyot va texnologiya

# HOJIAKBAR SHAYXOV.

## “BIRINCHI SINOV”

Bu mavzuda biz:

- sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tishga yordam beradigan xususiyatlarni muhokama qilamiz;
- ilmiy-fantastik asarlarga xos jihatlarni tahlil qilamiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Hojiakbar Shayxov (1945–2002) – o'zbek adabiyotida ilmiy fantastika asoschilaridan biri. Toshkent politexnika institutini bitirgan. Asl kasbi – energetik. Bir necha ilmiy-fantastik asarlar yaratgan. Asarlari xorijiy davlatlarda ham chop etilgan. AQSHda nashr etilgan jahonning eng yetuk fantast yozuvchilari haqidagi adabiy ensiklopediya uning nomi ham kiritilgan.



### ILMIY FANTASTIKA NIMA?

Koinotdagi yoki olis sayyorallardagi sarguzashtlar, kelajakka yoki o'tmishga sayohat qilish, o'zga sayyoralliklar bilan uchrashish haqidagi kitoblarni o'qiganmisiz, badiiy filmlar yoki multfilmlarni tomosha qilganmisiz? Bunday asarlar ilmiy-fantastik asarlar deb ataladi.

“Fantastika” so'zi yunoncha bo'lib, “tasavvur qilish san'ati” ma'nosi anglatadi. Ilmiy-fantastik asarlarda yozuvchi qahramonlarni noodatiy makon va vaziyatlarda (masalan, o'zga sayyorada yoki olis kelajakda) tasavvur qiladi. Bunday vaziyatlar orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, burch,adolat singari masalar talqin qilinadi.

Ilmiy-fantastik asarlarda qahramonlar ilm-fandagi yangiliklar, yutuqlar, ixtirolardan foydalanishadi. Bunday asarlarda mualliflar fanning turli sohalariga oid ilmiy so'zlarni ko'p ishlatishadi, hatto hali ixtiro qilinmagan narsa-buyumlar uchun ham yangi so'zlar o'ylab topishiadi. Hozirda oddiy narsalarga aylangan televide niye, uyali telefon, suvosti kemasi yoki koinotga uchadigan raketa kabilar hali ixtiro qilinmasidan ancha oldin ilmiy-fantastik asarlarda tasvirlangan.

*Qanday ilmiy-fantastik asarlarni o'qigansiz, badiiy filmlarni tomosha qilgansiz? Ularda qanday ilmiy ixtiolar tasvirlangan?*



Mashhur ingliz yozuvchisi Herbert Uellsning "Dunyolar jangi" ilmiy-fantastik romanida Yerga marsliklar hujum qilishadi.



Rus yozuvchisi Yevgeniy Veltistovning "Elektronik – chamadondan chiqqan bola" asarida robot insonga aylanishni xohlaydi.

## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ


Biz o'qiydigan hikoya "Birinchi sinov" deb nomlanadi.

*Sinov nima? Qanday vaziyatlarni biz "sinov" deb ataymiz?*

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

O'ylab ko'ring: sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun inson qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? Bu xususiyatlarga ega bo'lish uchun nimalar qilish kerak? Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Xususiyat	Nima qilish kerak?



## BIRINCHI SINOV

Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan bu voqeal bu voqealda sodir bo'lgan. Iye, kelajakda bo'lsa, hali sodir bo'lmabdi-da, deb so'rarsiz. Yo'q, biz chindan ham kelajakda bo'lib o'tgan voqealar haqida hikoya qilmoqchimiz. Negaki ko'pchilik ilmiy-fantastik asarlarda kelajakdag voqealar xuddi o'tmishda bo'lib o'tgandek tasvirlanaveradi.

**ekipaj** – kemani boshqaruvchilar  
**fazogir** – fazoni, koinotni zabt etuvchi

Shunday qilib, 2279-yilning erta bahor kunlaridan birida Yerdan Qora Kit burjiga "Kamalak" kosmik kemasi yo'l oldi. Kema ekipaji bor-yo'g'i ikki kishi – u paytda hali dunyoga kelmagan hikoyamiz qahramoni jajji Shahnozaning otasi va onasidan iborat va ularning har ikkovi endi o'ttiz yoshga qadam qo'yishgandi. Ular ko'zlagan manzil olis, binobarin safar ham uzoqqa cho'zilishi mo'ljallangan. Bu davrda fazogirlar yo'lda farzand ko'rishlari, ularni o'qitib, tarbiya qilishlari va keyinchalik kemani boshqarishni ularga topshirishlari lozim edi.

Hali Quyosh sistemasidan chiqmay turiboq, fazogirlar farzand ko'rishdi. Qizchaga Shahnoza deb nom qo'yishdi. Butun bolalik va yoshligi fazoda o'tishi aniq bo'lgan bu qizaloq juda tez o'sa boshladi. U yarim yoshdayoq yurishni, bir yoshida bermalol gaplashishni o'rgandi. Ikki yoshida esa, hatto mayda-chuyda ishlarda ota-onasiga yordam beradigan ham bo'ldi.

Birga o'ynaydigan o'rtoqlari bo'lmasa ham, u zerikmasdi. Ertalab turib dadasi va onasi bilan birga badantarbiya qilar, nonushtadan so'ng zalga qo'yilgan zangori akvariumdagi tilla rangli baliqlarni qotgan non ushoqlari bilan boqar, tuvaklardagi ra'nogul, na'matak, tizimgul, se-

barga, lolaqizg‘aldoq kabi rang-barang gullarga o‘zining idishidan suv quyardi. Bu ishlari bitgach, onasi bilan birga alifbeni o‘rganishga kiri shardi. Otasi yordamida hisob ilmini o‘rganishga kirishganida esa butunlay jonlanib ketar, jajji barmoqlarini galma-gal bukib, otasining g‘alati savollari ustida rosa bosh qotirardi.

### Koinotda, kosmik kemada yashashni siz qanday tasavvur qilasiz?

Dam olish paytlarida onasi olisda qolgan zangori sayyora – ona Yer haqida hikoya boshlar, u yerda juda ko‘p odamlar xuddi ulardek oila-oila bo‘lib yashashlari, Shahnozaga o‘xshagan juda ko‘p qizchalar va o‘g‘il bolalar borligi haqida gapirib berardi. Shahnozani dunyodagi hamma narsa qiziqtirar, u hadeb savol yog‘diraverardi. Keyin otasi unga Yerdagi hayotni ko‘rsatuvchi kinofilmarni qo‘yib berardi.

Shu zaylda kunlar o‘taverdi. Bir kuni qiz otasidan:

- Yerda odamlar juda ko‘p ekan, nima uchun biz juda ozchilikmiz?
- deb so‘rab qoldi.

– Bilasanmi, qizim, – picha o‘ylanib turib javob berdi otasi, – bizing maqsadimiz Qora Kit burjiga yetib borib, inson yashay olishi mumkin bo‘lgan biror sayyorani izlab topish. Bu esa ancha xatarli vazifa. Uni bajarishga shu maqsad uchun o‘z hayotlarini ham qurban qili shga tayyor fidoyi insonlargina qodir. Bundaylarni qadimgi zamonda birinchilar deb atashgan. Birinchilar tarixda hech qachon ko‘pchilikni tashkil qilmagan. Masalan, fazoga ilk marta Gagarin, Titov singari fazogirlar bitta-bitta bo‘lib uchishgan. Quyosh burji sayyoralar o‘zlashtirilayotganda ham bu ishga ikki-uch nafardan ortiq fazogir jalb etilmagan. Sababi – ilgari sira ko‘rilmagan, insonga hali tilsimot bo‘lib tuyulgan narsalar aksari ana shu bilmaslik tufayli odamni halokatga duchor qilishi mumkin. Ana shu halokatga uchrash ehtimoli bo‘lgan odamlar soni iloji boricha kam bo‘lishi uchun birinchilar doimo ozchilikni tashkil qilishadi.

– Tushundim, dada. Demak, biz ilgari hech kim bormagan sayyora ga ketyapmiz, shundaymi?

- To‘ppa-to‘g‘ri, qizim. Aqlingga balli.
- O‘sha sayyora ga yetib borganda, men katta qiz bo‘lamani?
- Bo‘lmasam-chi!

Qizchaning chehrasiga tabassum yoyilib, ko‘zlari charaqlab ketdi.

– Eh, tezroq yetib borsak qaniydi!

Shahnoza olti yoshga to‘lganida otasi uni birinchi marta Bosh Pult joylashgan xonaga olib kirdi. Bu – tepasi gumbaz shaklida maxsus qalin shisha bilan yopilgan va aylana ko‘rinishidagi xona bo‘lib, o‘rtasida usti turli elektron va kibernetik asboblarga to‘la stol turar, gir aylanasi esa gravitometr, dozimetrik, barometr, radiatsiya schyotchigi kabi turli ko‘rinishdagi son-sanoqsiz asbob va anjomlar mahkamlangan odam bo‘yi baravar shchitlar bilan band edi. Shahnoza ichkariga kirdi-yu, beixtiyor:



**Yuri Gagarin** –  
kosmosga birinchi  
bo‘lib uchgan  
fazogir

**gravitometr,**  
**dozimetrik,**  
**barometrik,**  
**schyotchik** –  
turli hisoblovchi  
asboblar  
**shchit** –  
asboblar  
o‘rnataligan quти

– Voy, chiroylilagini! – deb yubordi. U shisha gumbaz orqali hayotida ilk marta ochiq fazoni ko'rgan, sokin va ulug'vor koinot, unda charaqlayotgan behisob katta-kichik yulduzlarga bolalik nigohi ilk marta qadalgan edi.

Dadasi allaqanday kitsimon yulduzlar turkumining pastki qismiga joylashgan kattaroq yulduzga qo'li bilan ishora qilib:

– Biz borayotgan Qora Kit yulduzi shu, – deb tushuntirdi. – Uning atrofida Yerga o'xshash yettita sayyora aylanadi. Shularning ikkitasida hayot bo'lishi mumkin, degan taxmin bor.

Shahnoza yulduzga zavq va hayajon bilan tikilib qoldi:

– Bo'lmasam, ularda ham odamlar bor ekan-da?

– Ha, qizim, odamlar ham bo'lishi mumkin. Biroq ular bizga o'xshagan bo'lishlari shart emas. Yulduzlarga ilk uchishlar boshlangan qadimgi zamonda ham odamlar koinotdan xuddi bizga o'xshagan – erkak va ayollardan iborat, ikki oyoqda yuruvchi, ikkitadan ko'z, qosh, qulqoq, bittadan og'iz va burunga ega oliy aql egalarini topishga juda ko'p kuch sarflashgan. Biroq dastlabki izlanishlarning o'ziyoq koinotda oliy bosqichda taraqqiy etgan hayot hayratda qoldirar darajada turlituman shaklda bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.

– Masalan, qanday?

– Masalan, yerliklar bir sayyorada xuddi mingoyoqqa o'xshagan oliy aql egalariga duch kelishgan. Ma'lum bo'lishicha, ular o'zaro og'iz va ovoz vositasida emas, balki ko'zlarining pastrog'ini turli-tuman rangga kiritish yo'li bilan gaplashishar ekan. Har bir rang biror fikrni anglatar ekan. Yo bo'lmasa, okean suviga o'xshash ko'rinishdagi oliy qardoshlarimiz bilan ham muloqot qilishga to'g'ri kelgan.

– Juda qiziq!

– Ha, koinotda hayot juda ajoyib ekan. Ayni paytda, uning sir va tilsimotlari hanuz behisob. Lekin olamdag'i ko'p jumboqlar odamzodning beqiyos jasorati, bu yo'lida berilgan ko'plab qurbanlar evaziga yechilgan...

Qizcha o'n yoshga to'lganida kema ekipajining aytarli mustaqil bir a'zosiga aylangandi. Endi u ona Yer, o'zлari uchib borayotgan olis yulduz, odamlar va umuman hayot haqida kattalardek jiddiy mulohaza yurita olardi. Lekin ota-onasiga savol berishni hali ham kanda qilmasdi.

Kunlarning birida u yerlik bolalarning hayotiga bag'ishlangan kinofilmni tomosha qilib bo'lgach, otasiga navbatdagi savolini berdi:

– Dada, biz Yerga qaytganimizda men necha yoshda bo'laman?

– Kema vaqt bilan hisoblaganda yigirma beshda, qizim.

– Demak, kap-katta qiz bo'lib qolarkanman-da?!

– Ha, qizim, – Shahnoza otasining ko'zlariga ma'yus bir ifoda balqiganini payqadi, ammo savol berishdan o'zini tiyolmadi:

– Lekin... men buni xohlamasam-chi?


Otasi bir kun emas, bir kuni Shahnozaning shunday deyishi ni bilardi. Biroq buni hozir emas, sal kattaroq bo'lganda aytadi,

deb taxmin qilgandi. Uning vazmin chehrasi battar ma'yuslashdi.

– Ona qizim, – dedi u Shahnozaning jajji yelkasi-dan ohista quchib, – sen onang ikkalamizning yurak parchamizsan. Shuning uchun mashaqqatli, olis safarimizga seni ham sherik qilarkanmiz, ozgina bo'lsa-da, bunga haqqimiz bor, deb hisobladik.

Bu javob Shahnozani qoniqtirmadi shekilli, u endi qizishib gapirdi:

– Axir nima uchun men yigirma besh yil umrimni mana shu kichik va diqqinafas kemada o'tkazishim kerak ekan? Nima uchun yerlik bolalar, o'rtoqlarim bilan birga o'ynashga, dengzlarda cho'milishga, tengdoshlarim qatori o'qishga haqqim yo'q?



*Nima deb o'ylaysiz, Shahnozaning ota-onasiga bunday savol berishi to'g'rimi?*

Otasining boshi quyi solindi. Ha, Shahnoza katta qiz bo'lib qolib-di! Shunday savollar beryaptiki, nima deb javob qaytarishni ham bilmaysan, kishi. Lekin gaplaridan qandaydir xudbinlik hidi kela-yotgandaymi? Nahotki ular qizni tarbiyalash jarayonida nimanidir nazardan chetda qoldirishgan bo'lsa? To'g'ri, u kemada istagan ishini qilishi mumkin. Xohlasa, soatlab kitob o'qiydi, filmotekada kinofilm-lar ko'radi, xohlasa, akvariumdagi oltin baliqlarni boqadi... Lekin bularning bari qizda xudbinlik hissini tug'diruvchi omil bo'lishdan uzoq-ku?

Biroq ota qizni xudbinlikda ayblab yanglishayotgandi. Shahnoza erkinlikka bo'lgan tabiiy talabini izhor qilish bilan birga bu mas'uliyatl-i safardagi o'z o'rnini, o'ziga ajratilgan rolni aniqroq bilib olmoqchi bo'layotgandi, xolos.

– Agar bilsang, qizim, – dedi nihoyat otasi horg'in ovozda, – Yer-dagi tengdoshlaringning har biri sening o'rningda bo'lishni juda-juda orzu qiladi!

– Dilingizni og'ritib qo'ygan bo'lsam, kechirasiz, dadajon. Fikrimni aniq tushuntirolmayotganga o'xshayman. Avvalo shuni aytmoqchimanki, bu olis safarga men o'z ixtiyorimsiz qo'shilib qolgan ekanman, bundan buyon o'zimni qanday tutishim kerak? Mustaqil fazogir singari biror aniq vazifani bajarishim kerakmi yoki robotlarday hamisha sizlarning irodangizga bo'ysunib ish tutaymi? Agar men ham sizlar qatori bir fazogir bo'lsam, nimadir ish qilishim kerak-ku, axir! Nazarimda hozir juda ko'p vaqtim behuda o'tayot-ganday. Qilayotgan hamma ishim asosan o'qish va o'rganishdan nariga o'tmayapti. Axir, qachon ekspeditsiyaga biror foyda keltira boshlayman?

**ekspeditsiya –**  
ilmiy maqsadda  
uyushtirilgan  
safar

Otasi endi qiziga uni ilk marta ko'rayotganday zavqlanib qaradi. Juda tez ulg'ayib qolibdi Shahnoza! Qonuniy mehnatga bo'lgan o'z haq-huquqini talab qilyapti-ya! Balli, ona qizim!

Shundan keyin u qizga Yerda yoshlari o'qish va o'rganishga o'n-o'n besh yillab vaqt sarflashlari, ana shundan keyingina mustaqil mehnat yo'liga kirishlari, Shahnoza esa, yaqin kelajakda ehtimol, olamshumul ahamiyatga ega bo'luvchi ko'plab ishlar qilishini, hali nihoyatda jiddiy sinovlardan o'tajagini tushuntirib berdi.

Darhaqiqat, oldinda naqadar jiddiy sinovlar turganini Shahnoza hali tasavvur ham qilolmasdi...

Shu suhbatdan so'ng yarim yil o'tar-o'tmas "Kamalak" ekipaji Somon yo'lida fazoning ilk ayovsiz sinoviga duch keldi.

### *Kemadagilar qanday sinovga duch kelishadi deb o'ylaysiz?*

Kema odatda tinch uchayotgan mahalda ortiqcha energiya sarf qilmaslik uchun uning atrofidagi himoyaviy kuch maydoni o'chirib qo'yilar, biror xavf yaqinlashayotgani sezilgandan keyingina u ishga solinardi.

Ammo bu xavf to'satdan keldi. Bu shunday kutilmagan xatar ediki, hatto kemada kuzatuvchi va navigatorlik vazifasini o'tovchi pozitron miyali robot ham g'aflatda qoldi.

Shahnoza bu paytda kema zalida gullarga suv quyish bilan band edi. To'satdan kemaning shifti o'ta shiddat bilan titray boshladi. Kemaning orqa bo'linmalaridan birida xo'jalik ishlari bilan g'imirlab yurgen onasining birdan qo'rquv va sarosimada qichqirib yuborganini eshitdi. Qizning vujudini allaqanday bir dahshatlgi g'ulg'ula qoplab oldi. Shu payt o'z bo'lmasida dam olayotgan otasi otilib chiqdi-yu, mikrofon orqali robotga:

– Darhol himoya maydonini ishga sol! – deb buyurdi-da, o'zi yugurganicha Shahnozaning yoniga yetib keldi. Qizga hech narsa qilmaganni ko'rgach, gandiraklaganicha, talmovsirab, hanuz allanimalar deb qichqirayotgan onasiga yordamga yugurdi. Onasi bu paytda homildor, otasining gapiga qaraganda, qizga chiroqli ukacha tug'ib berishga tayyorlanayotgan edi.

Shahnoza boshi aylanib, o'tirib qoldi. Shu chog' koridorda robot-navigator paydo bo'ldi. Ajabo, u ham xuddi mast odamday chayqalar, gandiraklar edi. Shunga qaramasdan u komandirning buyrug'ini bajarish maqsadida zo'r berib Bosh Pult sari intilardi. Birdan robot devorga zarb bilan urildi-da, gursillab yiqildi. Keyin yotgan joyida bosh qismidan ko'kimtir tutun ko'tarilib, gavdasi kemaga qo'shilib bilinar-bilinmas, xuddi bezgak tutgan odamdek titray boshladi.

Qiz dilidagi qo'rquv yanada kuchayganini his qilarkan, birdan o'zining kechikmay Bosh Pultga borishi lozimligini sezdi. Axir, dadasi himoya maydonini ishga sol, deb bejiz buyruq bermadi-ku.

Ha, kechikmasdan himoya maydonini ishga solish kerak! Onasining ahvoli og'irga o'xshaydi, otasi u bilan ovora. Hozir faqat Shahnozagina falokatning oldini olishi mumkin!

Qiz o'rnidan turishga urindi-yu, lekin gandiraklab, yana o'tirib qoldi. Dilida bezovtalik hissi tobora kuchayib borar, butun tanasi beto'xtov titrardi. U endi yo'lak bo'ylab emaklay boshladi. Robotning oldidan o'tayotganda, yana ko'z oldi qorong'ilashib, boshi aylandi. Nazarida qarshisida yotgan robot birdan butun tanasini uzun va qop-qora jun bosgan, to'rtta shoxli, boyqush ko'zli g'alati bir maxluqqa aylanadi-da, qizga allanimalar deb imlay boshladi. Shahnoza titrab-qaqshab yana oldinga – Bosh Pult tomonga emaklab ketdi. Qizcha goh polga mukkasidan tushar, goh gandiraklab yelkasi bilan devorga urilardi. Shunga qaramay, himoya maydonini tezroq ishga solish maqsadimi yoki orqadan jundor maxluq ta'qib qilib kelayotgani haqidagi vahimali hismi, qizchani tobora shoshirardi.

Shahnoza Bosh Pult joylashgan xonaning ostonasiga yetganda orqasiga ko'z qirini tashlab, haligi shoxdor va jundor maxluq ham ketma-ket unga ergashib kelayotganini payqadi. Ana, u hatto be-so'naqay tishli og'zini ham negadir sharaqlatib ochib yopyapti. U qizdan nima istaydi o'zi?!

Qizning tanasidagi titroq tobora avjga minib, dilidagi qo'rquv hissi dahshatga aylanib ketdi-yu, uni ichkariga boshladi. Shahnoza xonaga kirib, qanday eshikni berkitganini o'zi ham sezmay qoldi. Lekin qayergadir boshini zarb bilan urib oldi. Peshanasi birdan temirdek qizib, nam bo'lganini sezdi, uning yorilgan joyidan qon sizib chiqa boshlagan edi.

Shahnoza boshqaruv pultiga tiralganicha arang o'rnidan turdi. U endi pultdan himoya maydonini ishga soluvchi moslama – kuch maydoni tumblerini topishi kerak edi.

Voybo'!.. Bu yerda turli-tuman o'chirib-yoquvchi uskuna va moslamalar shunchalik ko'p ediki, qizning ko'zları qamashib ketdi. Ular turli shaklda: ba'zilari pianino klavishlarini eslatar, boshqalari oddiy elektr chirog'ini yoqadigan pereklyuchatellarga o'xshar, ayrimlari esa, dastak yoki tugmachalarga o'xshatib ishlangan edi. Ularning ba'zilari ko'k, ba'zilari qora, qizil, xullas, turli-tuman rangda edi.

Darrov himoya maydoni moslamasini topish kerak! Albatta topish kerak! Yo'qsa, ular halok bo'lishadi!

Butun ekipaj a'zolari halok bo'ladi!

Shahnoza har bir moslama va uskunalarning tagidagi kichik oq ramkadagi yozuvlarni zo'r berib ko'zdan kechira boshladi. Pultning





chetlariga qo'llari bilan osilganicha oyog'ida arang turarkan, butun vujudi qaltirar, buning ustiga yorilgan peshanasi qattiq achi-shardi. Yozuvlarga azbaroyi zo'r berib tikilganidan ko'zları yoshlanib ketdi. Lekin ko'z yosollarini yengi bilan artib, o'jarlik bilan kuzatishda davom etdi.

Himoya maydoni tumbleri qizil rangda bo'lishi kerak, deb o'yldi u. Negaki otasi bir gal, biror xavf tug'ilganda ishga tushirilishi lozim bo'lgan hamma tugma va moslamalar qizil rangga bo'yagan, deb aytgandi. Qiz qizil rangdagi moslamalarni ko'zdan kechirarkan, haligi jundor maxluq xayolini tobora ko'proq band qilayotganini his qilar, shu tufaylimi, dildagi qo'rquv va sarosima tobora ortib borardi. Birdan qiz o'ng ko'zi namlanib qattiq achisha boshlaganini sezdi. O'ng qo'lini bo'shatib, ko'zini artmoqchi bo'lgan edi, qo'qqisdan ikkinchi qo'li sirg'alib ketdi-da, u polga dumalab tushdi. Peshanasi dan sizib chiqqan qon ko'ziga tushgan edi. Qiz yotgan joyida yengi bilan ko'zini artdi-da, titrab-qaqshab o'rnidan turdi. Pultning chetlariga qo'llari bilan osilib, yana asbob-uskunalarga ko'z tikanida, orqasida eshikka bir nima taraqlab urilgani, keyin eshik zarb bilan ochilib ketganini payqadi. Bu – albatta, jundor maxluq, deb o'yldi qizcha.

U o'zini xuddi tanasiga chumoli yugurganday, badanidagi hamma tuklari tikka bo'lib ketganday his qilarkan, g'ujanak bo'lib olgan, hatto orqasiga qarashga ham yuragi dov bermasdi. Xuddi shu payt katta qizil tugmacha ostidagi "Himoya maydoni" degan yozuvga ko'zi tushgan Shahnoza hushi boshidan uchayozgan bo'lishiga qaramay, bor irodasini to'pladi, biroq... Hozir jundor maxluqning o'tkir tishlari orqasidan bo'yniga chang solishi yoki onasi aytib bergan ertakdag'i yalmog'iz kampirday o'zini yamlay boshlashini kutib, taxta bo'lib qotib qoldi.

U dadasidan qachon ekipajga naf keltiraman, deb so'ragandi. O'sha fursat mana, nihoyat, yetganga o'xshaydi. Butun ekipajning taqdiri hozir Shahnozaning qo'lida. Hozir u shunday ish qiladiki, u oddiy sharoitda yillar davomida qilinadigan ishlarga tatiydi! Ha, tarixiy kinofilmarda ko'rsatilganidek, hozir Shahnoza uchun qahramonlik, jasorat ko'rsatish fursati yetgandi! Qahramonlik yo'lida qurban bo'lish esa... Kutilmaganda orqadan dadasingin:

– Dadil bo'l, qizim! – degan xirillagan ovozini eshitdi-yu, bu mehribon tovush qizning yelkasidagi tog'ni ag'darganday bo'ldi. O'sha zahoti kuchga kirib, haligi katta qizil tugmaga ko'rsatkich barmog'ini bosdi, keyin holsizlanib orqasiga, polga ag'darilib tushdi. Bir lahzadayoq hamma yoq xuddi suv sepgandek jim-jit bo'lib qoldi. Qiz hushidan ketgan edi.

**naf –  
foyda**

...Shahnoza o'ziga kelganida, yotoqxonasida to'shakda yotgani ni, tepasida esa onasi boshini silab o'tirganini ko'rdi. U o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, onasi qo'yamdi.

– Vuy, oyi, meni shunaqangi dahshatli maxluq quvladi!... – dedi qiz shoshib.

– Tinchlan, qizim, u endi yo'q.

– O'zi nima bo'ldi, oyi? – so'radi Shahnoza.

– Biz fazoda infratovush to'lqinlari, ya'ni uzunligi juda qisqa bo'lga ni uchun biz eshita olmaydigan tovush to'lqinlariga duch keldik, – deb izohlay boshhladi onasi, – ular odamning miyasiga, psixikasiga qattiq ta'sir qilishi, uni hushdan ketkazishi, kuchliroq chastotaga ega bo'lgan lari esa, hatto halok etishi ham mumkin.

– Qiziq, u qayerdan paydo bo'lib qoldi?

– Menimcha, shu atrofdagi biror noma'lum sayyoradan kelyapti! Aniqrog'i, undan kelayotgan o'ta yuqori chastotali radioto'lqinlar kemamiz qobig'iga kelib urilyapti. Oqibatda kema ichida ultratovushlar hosil bo'lyapti.

– U hozir ham kemaga kelib urilyaptimi?

– Ha, hozir ham. Lekin sen bizni uning dahshatli ta'siridan xalos qilding. Sen katta jasorat ko'rsatding, qizim!

– Nima, hozir himoya maydoni ishlayaptimi?

– Sen tugmani bosgandan keyin u ishlab ketdi-da, bir ondayoq o'sha dahshatli tovush to'lqinlarining kemaga yo'lini qirqib qo'ydi. O'sha zahoti biz ham yengil nafas oldik.

– Bunday to'lqinlar Yerda ham mavjudmi?

– Ha, qizim. Yerda infratovush to'lqinlari asosan okeanlarda bo'ron bo'lgan paytlarda yuzaga keladi. Quloq bilan eshitib bo'lmaydigan busirli tovushlar ozmuncha paroxod va dengiz kemalarining ekipajini sarosima va tahlikaga solmagan.

– Dadam qayerdalar?

– Bosh Pultdalar. Dadangning sendan qanchalik xursand ekanlari ni bilsang edi!

Qiz bu gapdan negadir o'ng'aysizlanib, boshini burar ekan, xushbichim chehrasi shirin tabassumdan yorishib ketdi. U hayotda ilk marta o'zidan mamnun edi.

**paroxod –**  
bug' bilan  
yuradigan kema

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Shahnoza qanday qiz? U sizda qanday taassurot qoldirdi?
2. Hikoyani o'qishdan oldin sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tish uchun insonga kerak bo'ladigan xususiyatlarni yozgan edingiz. Shahnozaning o'zini qo'lga olib, qo'rquvni yengishiga qanday xususiyat yordam berdi deb o'ylaysiz?
3. Hikoya nima uchun "Birinchi sinov" deb atalgan? Hikoyaga yana qanday nom qo'yish mumkin?

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ

1. "Birinchi sinov" hikoyasi ilmiy-fantastik asar ekanini isbotlang. Buning uchun quyidagi jadvalni to'ldiring.

Ilmiy-fantastik asarlarga xos jihatlar	Hikoyadan misollar

2. Hikoya matnida qanday ilmiy-texnik so'zlar ishlatilgan? Bu so'zlarni muallif nima maqsadda ishlatgan?

## LOYIHA

Tasavvur qiling, hikoya asosida badiiy film yoki multfilm ishlamoqchisiz. Guruhlarga bo'lining.

1-guruh	Rassomlar	Film uchun dekoratsiyalar (atrof-muhitni ko'rsatuvchi rasmlar) chizing.
2-guruh	Libos ustalari	Qahramonlar uchun kiyimlar chizing.
3-guruh	Bastakorlar	Film uchun musiqa tanlang yoki bastalang.


Chizgan dekoratsiya va kiyimlaringizni hamda tanlagan (bastalagan) musiqangizni sinfda taqdimot qiling. Ular asar mohiyatini ochib berishda qay darajada yordam beradi deb o'ylaysiz?

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

Yozuvchi Otabek Quvvatovning “Olimjonning sarguzashtlari yoxud zamon va makon oralig‘ida” fantastik qissasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Assalomu alaykum, do‘stim! Ahvollaringiz qalay? Yaxshi yurib-sizmi? Keling, tanishib olaylik. Ismim – Olimjon. Oltinchida o‘qiyman. Men olamga mashhur bo‘lgan buyuklar yurti Buxoro tomon-danman, biz tomonlarni Qiziltepa deyishadi. Bu yerdan qadimda ko‘plab karvonlarga xizmat qilgan Buyuk ipak yo‘li otgan. Ha, biz tomondan-chi, Zarafshon daryosi ham oqib o‘tadi. Aytishlaricha, ana shu Zarafshon daryosining ostida oltin darvoza bor emish. Undan qadimiylar afsonaviy shaharga kirilarmish. Lekin bu shahar haqida hech kim hech narsa ayta olmaydi. Biznikiga mehmonga kelmoqchi bo‘lsangiz, Buyuk ipak yo‘lidan, katta-katta karvonlar qatnagan yo‘ldan o‘tasiz.

Jizzax tog‘laridagi dovondan tushganingizdan so‘ng, mashinada bir soat yursangiz, go‘zal Samarqandga yetasiz. So‘ng yo‘l ikkiga bo‘linadi, bir tomoni Samarqandga, ikkinchi tomoni esa Buxoroga boshlaydi. Esingizdamli, haligi, sehrli qalpoqchasi bilan turli sarguzashtlarni boshdan kechirgan Hoshimjon bor-ku, shu bolaga juda havasim keladi-da, dunyoga nomi ketgan mashhur bola...




Qissaning  
davomini o‘qish  
uchun havola

## REY BREDBERI. “BIR KUNLIK YOZ”

Bu mavzuda biz:

- hikoyaning asosiy g'oyasini muhokama qilamiz;
- badiiy asarda sifatlash ishlatalgan o'rnlarni topishni o'rganamiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ



Rey Bredberi (1920–2012) – amerikalik taniqli yozuvchi. Maktabda o'qib yurgan paytida Rey drama to'garagiga faol qatnashgan. Uning adabiyotga qiziqishi ham o'ziga xos, “sehrli” voqeal bilan bog'liq bo'lgan. Bir kuni bayram paytida Janob Elektriko degan tomosha ko'rsatuvchi o'n ikki yoshli Reyga “sehrli” qilichini tek-kizib: “Abadiy yasha!” – deydi. Bu voqeal Reyga qattiq ta'sir qiladi va har kuni o'z ustida ishlab, hikoyalalar yozishni mashq qiladi. O'rta maktabni tugatganidan keyin Bredberi oilasidagi qiyinchiliklar tufayli oliygohda o'qiy olmaydi. Vaqtini asosan kutubxonalarda o'tkazib, juda ko'p asarlarni o'qib chiqadi.

1950-yillarda chop etilgan asarlari unga mashhurlik olib keladi. Faoliyati davomida ko'plab hikoyalilar, qissalar, romanlar va kinosenariylar yozgan. Asarlari asosida badiiy filmlar suratga olingan. Adabiy faoliyati uchun bir qancha mukofotlar bilan taqdirlangan.

### ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qiydigan hikoya “Bir kunlik yoz” deb nomlanadi.

*Yoz siz uchun qanday fasl? O'ylab ko'ring-chi, yoz ham bir kun bo'lishi mumkinmi? Agar yoz bir kun davom etsa, shu kuni nima qilgan bo'lar edingiz?*

Biz o‘qiydigan hikoya voqealari Venera (Zuhro) sayyorasida bo‘lib o‘tadi. Bu sayyora haqida nimalarni bilasiz?

*Venera sayyorasi haqida “Bolalar ensiklopediyasi”dan olingan ma’lumotni o‘qib chiqing.*


Osmon tip-tiniq bo‘lgan kunlari tonggi yoki kechki shafaq nurlari-da juda yorug‘ yulduzni ko‘rish mumkin. Qadimgi olimlar uni Venera deb atashgan, bizning ota-bobolarimiz esa uni Zuhro, Cho‘lpon yulduzi deb nomlashgan. Aslida Venera yulduz emas, xuddi Yer kabi sayyoradir.

Venera Yerdan ko‘ra Quyoshga yaqinroq. U Quyosh atrofida o‘rta-cha 108 million kilometr masofada aylanib turadi va Quyosh atrofini 225 yer sutkasi davomida to‘liq aylanib chiqadi.

Venera bizga eng yaqin sayyoradir. Yer Quyosh atrofida cho‘ziqroq aylana bo‘yicha harakatlangani uchun ba’zan Yerga 40 million kilometrgacha yaqinlashadi. Venera Yerdan biroz kichikroq. Venerani quyuq bulut atmosferasi o‘rab turadi. Venera boshqa sayyoralar (masalan, Yer) kabi o‘z o‘qi atrofida g‘arbdan sharqqa qarab emas, balki teskari yo‘nalishda – sharqdan g‘arbga qarab aylanadi.

Venerada hatto kechasi ham harorat haddan tashqari yuqori (+500 °C) bo‘lar ekan. Veneraning atmosferasi zich, quyuq, deyarli butunlay karbonat angidrididan iborat bo‘lib, sayyorani doimiy bulut o‘rab turganidan uning sirtida abadiy yarimqorong‘ilik hukmronlik qiladi.

**shafaq –**  
quyosh botishi  
yoki chiqishi  
paytida ko‘rina-  
digan nurlar



Venera sayyorasining koinotda ko‘rinishi va sirti manzarasi

O‘ylab ko‘ring-chi, Venera sayyorasida inson yashay oladimi? Sababini izohlang.

Asarni o‘qish davomida muallif tasvirlagan Venera sayyorasining haqiqiy Venera sayyorasidan farqlarini daftaringizga yozib boring.



## BIR KUNLIK YOZ

- Tayyormisizlar?
- Ha!
- Bo'ldimi?
- Tez orada!
- Olimlar aniq bilisharkanmi? Bu aniq bugun sodir bo'larkanmi?
- Qara, qaragin, o'zing ko'rasan!

*Bolalar nima haqida gapirishyapti deb o'ylaysiz? Nima sodir bo'lishi kerak?*

So'lg'in o't-o'lan-u, rangpar gullar ichida g'uj bo'lib olishgan bolalar ko'kka tikilishardi – quyosh qayonga berkingan bo'lishi mumkin? Ezib yomg'ir yog'ardi. U uzlusiz yetti yil to'xtamay yog'ar, ming kunlab erta-yu kech tinmay shovqin bilan, do'mbira chalgandek billur tom-chilari jaranglab, daryodek mavj urib, o'zidan ming xil sohil-u dengiz tuzib yog'averardi. Sellaridan minglab o'rmonlar cho'kib, tag'in suv ostidan unib chiqaverardi.

Yomg'irlarga asir bo'lgan yovvoyi Zuhro sayyorasiga xizmat safari bilan kelib qolgan ota-onalarning farzandlari sinfxonalarni to'ldirishgan.

*"So'lg'in", "rangpar", "ezib" so'zlari o'quvchida qanday kayfiyat uyg'otadi?*

- Tinyapti! Tinyapti!
- Rostdan ham, rostdan ham!

Margo abadiy yomg'irlardan boshqa narsani bilmaydigan bu bolalardan chetroqda turardi. Ularning yoshi bor-yo'g'i to'qqizda bo'lib, agarda vaqt roppa-rosa yetti yil ortga qaytsa ham, o'sha soatlarda quyoshni ko'rganlarini baribir eslolmasdilar. Ba'zida kechalarli Margo ularning uyquda g'o'l dirashlarini, tushlarida qalam bilan chizilgandek sap-sariq, kattakon, butun olamni sotib olish mumkin bo'lgan tilla tangani ko'rishlarini his qilar, bu tarovat ularning sovuqdan qaltirayotgan qo'l, oyoqlari barmoqlarining uchigacha ajib bir harorat hadya qilar, ammo uyqudan turishlari bilan o'sha-o'sha tomda nog'ora chalish bilan ovora bo'lgan bemehr va sovuq yomg'irni ko'rishar va bu yorqin tushlar ham mana shu rutubatli tumanda erib ketardi.

Arafa kuni butun sinf quyosh haqida o'qib chiqishdi. Uning oltindek jilosi-yu issiq tafti haqida kichik-kichik hikoyachalar va she'rlar yozishdi.

- *Oftob – bir gul, menimcha,*
- Ochilar bir soatcha.*

*Margo quyoshni nega bir soat ochiladigan gulga o'xshatmoqda?  
Siz quyoshni nimaga o'xshatgan bo'lardingiz?*

Bunaqa she'rlardan Margo ko'p yozgan, jim bo'lib qolgan sinfonada uning sokin ovozda o'qib bergani eshitildi. Tashqarida esa ezib yomg'ir yog'ardi.

- Bu she'rni o'zing yozmagansan! – baqirib qoldi bir bolakay.
- Yo'q, o'zim yozganman, – javob berdi Margo. – O'zimning she'rim.
- Uilyam! – o'qituvchi bolakayni tinchlantirdi.
- Ammo bu kecha edi. Bugun esa yomg'ir tinishni boshlagan, bolalar qalin oynali katta deraza oldiga tiqilib olishgandi.
- Ustozimiz qani?
- Hozir kelib qolsa kerak.
- Tezroq kelsa edi, yo'qsa, ulgurmay qolamiz!

Ular charxpalakdek bir joyda tinmay aylanishar, faqat Margo yolg'iz o'zi bir chetda qaqqayib turardi. U shu qadar zaif va rangpar bo'lib qolgan ediki, bir paytlardagi chiroyini mana shu yomg'irlar yuvib ketgandek go'yo... Moviy ko'zlar, pushti lablar, olovrang sochlari – barchasi xira tortib qolgandek. U eski daftardan chiqib qolgan buklangan surat kabi sukutda edi, bexosdan tilga kirsa ham, ovozi zo'rg'a eshitilardi. Hozir u qalin oyna ortidagi namtob tashqi olamga ma'yus tikilib turardi.

- Hoy, sen, qayoqqa alanglayapsan? – so'radi Uilyam. Margo indamadi.
- Sendan so'ralganda javob ber!

namtob –  
namiqqa

Uilyam uni turtib yubordi. Ammo u joyida turaverdi – faqat mun-kib ketdi xolos.

*Sinfdag'i bolalarning Margoga munosabati qanday? Bunday mu-nosabatning sabablari nimada bo'lishi mumkin?*

Hamma undan o'zini chetga olar, uni tanholikka mahkum etishgan-di. Chunki u hech ham ular bilan zulmat yerto'lalarda berkinmachoq-quvlashmachoq o'ynamas, mabodo kimdir uni tutib, so'ng qochishga shaylansa ham, u ma'nosiz bir nazar bilan qochoqning izidan termilib qolar, ammo ortidan quvmasdi. Shu sababli u bilan birovning o'ynagi-si kelmasdi. Sinfda she'rlar va ashulalar yangragan vaqtlar ko'p bo'lar-di, "Yashash qanday yaxshi", yoki "Bu yorug" olamda raqsga tushib yayramoq kerak" kabi shiorlar aytilganda bor-yo'g'i lablarini ohista qimirlatib qo'yardi. Biroq oftob va yoz haqida kuylagudek bo'lishsa, osmonning ko'z yoshlariga cho'mgan derazadan ko'zini uzmay, jimgi-na ashulaga qo'shilardi.

**Ogayo –  
AQSHdagi  
shtat**

Uning yagona aybi bundan besh yil muqaddam Yer sayyorasidan bu yoqqa uchib kelgani hamda u vaqtłari Ogayo osmonida oftob qan-day charaqlab turishini to'rt yoshidayoq eslab qolgani edi. Bu bolalar esa – tug'ilganlaridan beri Zuhroda yashashga mahkumlar, oftobni ikki yoshlarida ko'rgan yo ko'rmaganlar, buni ham aniq eslasholmay-di. U qanday rangda, tafti qanchalik issiq – faqat Margoning yodida edi.

– Oftob xuddi tilla tangadek, – kunlardan bir kuni cho'chinqirab hikoya qilgandi u.

– Yolg'on gapiryapsan! – deya bolalar baqirib berishgan edi.

– U – xuddi o'choqdagi olov kabi, – deya so'zida qat'iy turgandi Margo.

– Aldayapsan, aldayapsan, sen bularni eslolmaysan! – deya tag'in baqirib berishgandi bolalar.

Ammo barchasi uning yodida edi, shu sabab bahsdan qochib, dera-za ortidagi yomg'ir shalolasiga termilib olgandi. Bir safar, bundan bir oy avval, ularni dushxonaga olib borishganini esladi. O'shanda u suv tomchilari tagiga kirishga aslo rozi bo'lmay, boshini yashirar, quloqla-rini kaftlari bilan berkitib olgan edi – ishqilib, suv boshidan oqma-sa bas! Va shunda u boshqalarga o'xshamasligini tushunib yetgandi. Boshqa bolalar ham buni anglab, undan o'zlarini chetga olishardi.

*Margo nima uchun dushni yoqtirmasdi deb o'ylaysiz?*

**dollar –  
AQSH pul  
birligi**

Mish-mishlarga qaraganda, kelasi yili uni ota-onasi Yerga qaytarib olib ketisharkan – garchi bu ularga minglab dollarga tushsa ham, yo'qsa, bu yerda qizlari so'lib xazon bo'lishi mumkin emish. Mana shunday katta va kichik "ayblari" sabab uni butun sinf yomon ko'rardi. Ular uchun ramaqijon va rangpar, doimo nimanidir kutganicha

Jim o'tiradigan, tezroq Yerga uchib ketishni orzu qiladigan bu qiz yoqimsiz edi...

– Yo'qol! – Uilyam yana turtkiladi. – Nimani kutyapsan?

Qiz bu safar ilk marta boshini ko'tardi va unga qaradi. Ehtimol, u javobni kutayotgandi. Bolakay oqarib ketdi.

– Bu yerda ivirshing shart emas! – baqirdi u. – Kutganing bilan hech narsa sodir bo'lmaydi!

Margo lablarini unsiz qimirlatdi.

– Hech narsa sodir bo'lmaydi! – baqirdi Uilyam. – Biz seni aldadik.

– U boshqalarga o'girildi. – Axir, bugun hech nima sodir bo'lmaydi, to'g'rimi?

Qolgan bolalar unga talmovsirab tikilib turishdi-yu, so'ngra nima-nidir tushunib qolgandek bosh irg'ab, bir ovozdan: "Rost, hech nima bo'lmaydi!" – deyishdi.

– Ammo... – Margo ularga ilinj bilan qaradi. – Bugun aynan o'sha kun emasmi? – pichirladi u. – Olimlar aytishibdi-ku, ular hamma narsani bilishadi, axir... Quyosh...

– Hazillashishgan, hazillashishgan! – kalxatdek kelib uni ushlab oldi Uilyam.

– Hoy, bolalar, kelinglar, ustoz kelgunicha uni qaznoqqa qamab qo'yamiz!

– Iltimos, kerak emas, – yalindi Margo va zolim qo'llardan chiqib ketishga behuda urindi.

Qolganlar ham unga tashlandi, uni tortqilab sudray boshlashdi, u esa tinmay ingrar, yolvorar, piqillab yig'lardi. Bolalar uni tunnel oxiridagi uzun xonaga itarib yuborishdi, qaznoq eshigini tambalashdi. Eshik esa titrardi: Margo sho'rlik bor kuchi bilan uni mushtlar, butun tanasi bilan o'zini eshikka urardi. Eshitilayotgan dod-voylar ancha paytgacha tinmadi. Bolalar unga birpas qulq solishdi, ovoz tingach esa, hiringlab nari ketishdi. Xuddi shu payt tunnel oxirida ustozlari ko'rindi.

– Tayyormisiz, bolalar? – soatiga qarab qo'ydi ustoz.

– Ha! – shodon hayqirishdi bolalar.

– Hamma shu yerdami?

– Ha!


Ular ulkan darvoza yonida tek qotishdi. Yomg'ir to'xtagandi. Bu holat go'yo bo'ron va vulqonlar, jala va toshqinlar haqidagi filmning ovozi o'chib qolishiga o'xshar, xuddi ovoz chiqaruvchi qurilma buzlib qolgandek – qaldiroq va gumburlash sadolari, shovqinlar to'satdan tingandi.

So'ng esa allakim boshqa bir tasvirni uzilgan yerdan ulagandek – sokin va yoqimli tropik manzara namoyon bo'ldi. Barcha tosh qotdi – na bir nafas va na titroq bor edi. Bu shunday bir kuchli sukunat ediki, hammaning qulog'i batang bo'lib qolgandek edi.

Eshik tabaqasi bir yonga surilganda, hammaning dimog'iga suknatga qorilgan toza havo urildi.

**qaznoq –**  
omborxona

**tambalashdi –**  
qulflashdi



Ana shunda quyosh ko'rindi. U tilla tangadek porlab turar va juda ham bahaybat edi. Osmon esa xuddi och zangori shishadek yaltirardi. O'zlariga kelgan bolalar quyosh nurida tovlanayotgan changalzor tomon shodon hayqiriqlar bilan yugurdilar.

*Ko'zingizni yuming. Bolalar ko'rgan manzarani tasavvur qiling. Nimalarni his qildingiz?*

– Faqat uzoqqa ketib qolmang! – ularning ortidan baqirib qoldi ustozlari. – Yodingizda bo'lsin, boryo'g'i ikki soat vaqtimiz bor, kechiksangiz, pana joy topolmay qolasiz!

Biroq ular hech narsaga qulq osishmas, olg'a yugurib ketishgan, oftob qaynoqqina tafti bilan ularning yonoqlarini silar, qizib ketganlaridan issiq liboslarini yechib tashlashganda esa qaynoq harorat yalang'och qo'llarini ham isitardi.

– Bu bizning sun'iy quyoshimizdan ming bora yaxshi-ya?

– Rost! Ming marta yaxshiroq!

Endi ular hech qayoqqa yugurishmas, chakalakzor o'rtasidagi tepalikda tek qotishgan. Zuhro sayyorasi yuzasini chirmab olgan o'tlar ko'z o'ngilarida ko'kka bo'y cho'zayotganiga tikilib qolishgandi. Chakalak o'tlar xuddi sakkizoyoq paypaslagichlari singari atrofга tarvaqaylab borar, qalin shoxlari o'tkinchi yozdan shodlangan gul-u chechaklar bilan qoplanib olgan edi. Axir bu yoz shu qadar qisqaki. Gul-lar xuddi kul kabi rangsiz va bo'z tusda, yillar davomida quyosh mehrini ko'rmagan toshlar kabi rangsiz va ko'mirrang edi. Xuddi oy kabi sovuq va tussiz.

Bolalar quvonch bilan qiyqirgancha oyoqlari ostidagi jonli gilamda sakray boshlashdi. Prujina kabi tebranayotgan bu mo'jaz ovunchoq ularni moviy osmonga itqitib, tag'in yerga tushirardi. Zangori bu samo uzra tillarang jilvani kaftlarida tutib qolishga behuda urinisharkan, o'ta yoqimli soflikdan hushdan ketishlariga bir baxya qolardi. Toki ko'zlaridan yosh sizib chiqmagunicha oftobga termilishar, naq yetti yilga yetgulik xotirani saqlab qolishga tirishardilar. To'satdan quvnoq qiyqiriqlar orasidan bir qizaloqning alamli va baland tovushi yangradi. Barcha jimb qoldi. Qizaloq ochiq kaf-tini yuqoriga ko'tardi.

– Qaranglar, – ingradi u va qaltiray boshladи. – Eh, qarasanglar-chi!

Hamma imillagancha unga yaqinlashdi. Ochiq kafti o'rtasida kat-tagina yomg'ir tomchisi do'ppayib turar edi. Qizaloq unga termilgan-chi hiqillab yig'lab yubordi. Bolalar og'ir sukutga cho'mgancha ko'kka qarashdi.

– Ehh...

Asta-sekin muzdek tomchilar yonoqlarga, burunlarga, lablarga tomchilay ketdi. Oftobni xira tuman to'sib oldi. Izg'irin shamol turdi. Bolalar jur'atsizlarcha ortlariiga, yerto'ladagi uylariga qayta boshlashdi, ular ortiq kulishmasdi.

Momaqaldiroq gumburlaganda bolalar qo'rquvdan cho'chib tushdilar, bir-birini itargancha bo'ronda qolgan xazondek duvva Yugura ketishdi. Yashin chaqnadi – ulardan o'n qadam berida yoki yarim qadam ortdamiga – yuraklarga cheksiz qo'rquv solib. Osmon birdan tundlashib, mangu zulmat eshik qoqib keldi. Negadir bir daqiqagina darvoza oldida tosh qotishdi. So'ng shiddat bilan yomg'ir quya boshladi. Eshik tabaqalari yopilganda samodan quyilayotgan suvning shovullashiga uzoq vaqt qulqoq turib qolishdi. Bu sado endi oxiri yo'q abadiyatdek tuyular edi.

– Endi yana yetti yil shunday bo'ladimi?

– Ha... Yetti yil...

Shu choq kimdir baqirib yubordi:

– Margo-chi?

– Nima?

– Axir biz uni qaznoqqa qamab qo'ygandik-ku, u hali ham o'sha yerda o'tiribdi.

– Margo...

Ular muzlab qolgan oyoqlarini poldan uza olmay haykaldek qotgandilar. Bir-birlaridan javob izlasharkan, derazaga termilib qolishdi – tashqarida tinmay yomg'ir yog'ar, unda tiyiqsiz bir g'azab yashirin edi. Bolalar bir-birlarining ko'zlariga qarashga botinisholmasdi. Bar-chasi birdan jiddiy va rangpar tusga kirgan, chehralardan baxtli bolalik jilvasi yo'qolgandi. Hamma zax polga cho'kkalab qolgandi.

– Bechora Margo...

Nihoyat bir qizaloq tilga kirdi:

– Nima qilib qo'ydik?..

Hech kim qimir etmadni.

– Ketdik... – pichirladi qizaloq.

*Sizningcha, bolalar nega o'zgarib qolishdi? Qizaloq: "Nima qilib qo'ydik?" – deganda nimani nazarda tutdi?*

Ular sovuq yomg'ir shovqini ostida yo'lak bo'ylab motamsaro qiyofada keta boshlashdi. Momaqaldiroq va bo'ron sadosi ham ularni tor va chuqur yerosti yo'llarida qo'rqita olmas, onda-sonda chaqnagan yashin yolqini ularning jonsiz chehralarini bema'no yoritardi. Asta qaznoqqa yaqinlashib, eshik oldiga tizilishdi.

Eshik ortini butkul sukunat qamrab olgandi. Ular mangulikka asir bo'lgan mahbusni ozodlikka chiqargandek qaznoq eshigini ochishdi.

*Margoga nima bo'lgan deb o'ylaysiz?*

*Zafar Tilovov tarjimasi*



## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Bolalar Margoni yoqtirmasligi sababi nimada? Fikringizni matn asosida izohlang.
2. Hikoya yakunida bolalarning Margoga munosabati qanday o'zgardi? Bu o'zgarishning sababi nimada?
3. Hikoya voqealari Zuhro (Venera) sayyorasida bo'lib o'tadi. Sizningcha, muallif voqealarni nega aynan o'zga sayyorani tanlagan? Bunday voqealarni Yer sayyorasida, oddiy mактабда ham sodir bo'lishi mumkinmi?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

1. Guruhlarga bo'lining. Birinchi guruh voqeani Margo nomidan, ikkinchi guruh Uilyam nomidan, uchinchi guruh esa qizaloq nomidan hikoya qilsin. Hikoyangizni sinfdoshlarining bilan birga muhokama qiling. Voqeaga turli ishtirokchilar ko'zi bilan qaraganda nimalar o'zgaradi? Nimalarni his qildingiz?
2. Tasavvur qiling, siz shu sinfda o'qisiz. Bolalarning Margoga munosabati noto'g'ri ekaniga sinfdoshlarining ishontirish uchun nutq tayyorlang. Nutqingiz qisqa va ta'sirchan bo'lsin.

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: SIFATLASH

Badiiy asar o'quvchiga ta'sir qilishi uchun mualliflar turli badiiy tasvir vositalarini ishlatishadi. Shunday vositalardan biri – sifatlash. Sifatlashda shaxs, narsa yoki voqealarni biron-bir jihatni, xususiyati ajratib ko'rsatiladi. Misol uchun:

*Margo abadiy yomg'irlardan boshqa narsani bilmaydigan bu bolalardan chetraqda turardi.*

Bu misolda “abadiy” so'zi yomg'irning bir jihatini – uning muttasil, tinmasdan yog'ishini ajratib ko'rsatyapti.

Muallif Margo va Zuhro sayyorasini tasvirlash uchun qanday sifatlashlardan foydalangan? Ularni topib, quyidagi jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Margoni tasvirlash uchun ishlatalgan sifatlashlar	Zuhro sayyorasini tasvirlash uchun ishlatalgan sifatlashlar

Bu sifatlashlar sizda Margo va Zuhro sayyorasini haqida qanday tasavvurlar hosil qiladi?

## LOYIHA

“Men qanday inson bo'lishni istayman?”  
piramidasini to'ldiring.

Buning uchun nimalar qilishim kerak?

Atrofimdagilar meni qanday inson sifatida ko'rishini istayman?

Men o'zimni qanday inson sifatida ko'rishni istayman?

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

*Amerikalik yana bir mashhur fantast yozuvchi Ayzek Azimovning "O'qituvchi odam bo'lgan ekan" hikoyasini o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.*

O'sha tunda Mari bu haqda hatto xotira daftarchasiga ham yozib qo'ydi. Daftarchaning 2155-yil 15-mayga tegishli sahifasida shunday deyilgan edi: "Bugun Tommi uydan kitob topib oldi!"

Kitoblar haqida Mari bobosidan eshitgan edi. Bobosiga ham o'z paytida o'zining bobosi aytib bergen emish. Bobosining aytishicha, bir paytlar yozuvlar qog'ozlarda chop etilgan!

Tommi topib olgan kitob juda eski edi. Aka-singil uni varaqlay boshlashdi. Kitobda qimirlamay turgan harflarni tomosha qilish ularغا haddan ziyod zavqli edi. Chunki ular so'zlarni ekranda o'qishga o'rganib qolishgan edi-da...

– Buni qara! – dedi Tommi, – esizgina... Bunday kitoblarni o'qib bo'lgach, tashlab yuborgan bo'lishsa kerak. Bizning elektron kutubxonamizda millionlab kitoblar bo'lsa ham, bunisi ulardan ming marta yaxshiroqqa o'xshaydi. Uni qo'lda ushslash, hatto yoningda olib yurishing ham mumkin. Men bunaqa kitoblarni tashlab yubormagan bo'lardim...



Hikoyaning davomini  
o'qish uchun havola



# JYUL VERN.

## “O‘N BESH YOSHLI KAPITAN”

Bu mavzuda biz:

- sarguzasht asar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz;
- badiiy asarda portret tushunchasini bilib olamiz;
- asarning davomini tasavvur qilishni mashq qilamiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ



Jyul Vern (1828–1905) – jahon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, ko'plab sarguzasht asarlar mualifi. Hisob-kitoblarga qaraganda, Jyul Vern asarlari dunyo tillariga eng ko'p tarjima qilingan adiblardan biridir.

Jyul Vern Fransiyaning dengiz bo'yida joylashgan Nant shahrida dunyoga kelgan. Uning maktabdagi o'qituvchisi Sambin xonim o'quvchilariga dengiz kapitani bo'lgan turmush o'rtog'i haqida ko'p gapirib berardi. Ustozining hikoyalari kichik Jyulda sayohat va sarguzashtlarga qiziqish uyg'otdi – u hatto o'n bir yoshida ota-siga bildirmay kemaga yordamchi bo'lib ishga kirmoqchi bo'ldi. “Men dengizchi bo'lib tug'ilgan bo'lsam kerak, lekin, afsuski, dengizchi bo'la olmadim”, – deya eslaydi keyinchalik yozuvchi.

Jyul Vernning dengiz sayohatlariga qiziqishi zoye ketmadi – keyinchalik u o'zining shaxsiy kemasida juda ko'p joylarga sayohat qildi. Bu sayohatlardan olgan taassurotlari adibning sarguzashtlarga boy ko'plab asarlarida o'z aksini topgan. Uning asarlarida geografiya, tabiatshunoslik, astronomiya va boshqa fanlarga oid qiziqarli faktlarni uchratishimiz mumkin. Keng qamrovli bilimga ega Jyul Vern haqida o'sha davrda “bir odam bunchalik ko'p bilimga ega bo'lishi mumkin emas, uning asarlarini katta jamoa yozsa kerak”, degan fikrlar ham bo'lgan edi.




Jyul Vern haykali (Ispaniya)

## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Jyul Vernning mashhur asarlaridan biri – “O'n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar o'qiyimiz. Unda Dik Send va uning do'stlari sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Aytishlaricha, Jyul Vern bu asarni o'g'li Mishelning o'n besh yoshiga sovg'a sifatida yozgan. U o'g'li asar qahramoni Dik Send obrazi yordamida o'zi uchun hayotiy xulosalar chiqarishini istagan.


*Asarning birinchi nashriga ishlangan muqova ko'ring. Unda nimalar tasvirlangan? Asarda Dik va uning do'stlari qanday sarguzashtlarga duch kelishi mumkin?*



Asarning birinchi nashriga  
ishlangan muqova.  
Rassom Anri Meyer

## SARGUZASHT ASAR NIMA?

Qahramonlar boshidan kechirgan sarguzashtlar, kutilmagan, qiziqarli voqealar haqida bayon qiluvchi asarlar sarguzasht asarlar deyiladi. Sarguzasht asarlardagi voqealar kundalik hayotdagi voqealardan farq qiladi. Ularda qahramonlar turli noma'lum o'lkalarga sayohat qilishadi, xavf-xatarlarni yengib, qahramonlik ko'rsatishadi. Sarguzasht asarlarning yana bir o'ziga xos xususiyati – ulardagi voqealar tez rivojlanadi. Sarguzashtlar vositasida bosh qahramon xarakteriga xos xususiyatlari takomillashib boradi.



*“O'n besh yoshli kapitan” romanini o'qish davomida sarguzasht asarlarga xos xususiyatlarni daftaringizga yozib boring.*



## O‘N BESH YOSHLI KAPITAN (romandan parchalar)

### IKKINCHI BOB. DIK SEND



**kayuta –**  
kemadagi xona

**matros –** kema  
jamoasining  
oddiy a'zosi

**kok –**  
kema oshpazi

Havo yaxshi edi, to‘g‘ri yo‘ldan biroz chetga chiqib ketilganini e‘ti-borga olmaganda safar juda yaxshi davom etmoqda edi. Missis Ueldon kapitan Gulning kemaning quyruq tomonidagi shinamgina kayutasiga joylashib oldi. Kemada eng yaxshi kayuta shu edi. Joy tor bo‘lsa-da, Jek bilan Nan kampir ham o‘scha yerga joylashishdi. Benedikt tog‘aga yondagi kichkinagini bir hujrani berishdi. Kapitan Gul esa o‘zining yordamchisi uchun tayyorlangan kema burnidagi kayutaga o‘tdi. Pulni tejash maqsadida “Pilgrim” jamoasining soni to‘ldirilmagan, kapitan esa yordamchisiz ish ko‘rar edi.

Kema jamoasidagi beshta mohir va tajribali matros juda inoq va hamjihat yashar edilar. Bu kishilar mana shu bilan to‘rtinchi ov mavsumida birga edilar. Matroslarning hammasi ham Kaliforniya shtatidan bo‘lib, bir-birlari bilan ko‘pdan beri tanish edilar.

Kemada faqat bir kishi amerikalik emas edi. “Pilgrim”da kok vazifasini o‘tovchi Negoro degan kishi Portugaliyada tug‘ilgan bo‘lsa-da, lekin u ham inglizchani yaxshi bilar edi. Kema Oklendda turgan ma-

halda avvalgi oshpaz qochib ketganidan keyin, Negoro o'zini kemaga oshpaz qilib olishlarini iltimos qildi. Qovog'i soliq va kamgap bo'lgan bu odam o'zini boshqalardan chetga olib yursa ham, o'z ishini yaxshi bilar edi. Uni ishga olgan kapitan Gul yanglismaganga o'xshaydi: chunki "Pilgrim"dagi xizmat davrida Negoro dakki eshitadigan hech qanday ish qilmadi.

Ammo shunga qaramay, kapitan Gul yangi oshpazning o'tmishi haqida biror ma'lumot olishga ulgurolmaganiga juda achinar edi. Portugaliyalikning tashqi qiyofasi va ayniqsa ko'zlarini javdiratib qarashlari kapitanga unchalik yoqmas edi. Kit ovlaydigan mittigina tor kemada har bir kishi hisobda turishi lozim, shuning uchun ham biror notanish kishini kemaga olishdan ilgari uning o'tmish hayotini tekshirib bilish zarur.

*Negoro qanday odam bo'lishi mumkin? Nega kapitan Gul uni yoqtirmay qoldi deb o'ylaysiz?*

Negoro qirq yoshlarga borgan edi. Qotma, juda chaqqon, qora soch va qoracha yuzli bu kishining bo'yি baland bo'lmasa-da, juda baquvvat odamday ko'rinar edi. Uning ma'lumoti qanday ekan? Ba'zi-ba'zida og'zidan chiqib ketadigan so'zlariga qaraganda, ma'lumoti ham bo'lsa kerak. Negoro o'zining o'tmishi va oilasi to'g'risida hech qachon og'iz ochmasdi. Uning "Pilgrim"ga xizmatga kirgunga qadar qayerda ya-shaganini va nima ish qilganini hech kim bilmasdi. Uning kelgusida maqsadi nimaligi haqida ham hech kim hech narsa bilmashdi. "Pilgrim"dagilar uning Valparaisoda sohilga tushib qolish niyatida ekanini bilardilar, xolos.

Negoro dengizchi bo'lmanan bo'lsa kerak. Buning ustiga kemadagi matroslar, aksari umrini dengizda suzib o'tkazgan boshqa koklarga qara-ganda dengiz ishlarini kam tushunayotganini bilib oldilar. Biroq u dengiz kasali bilan og'rimasdi, bu esa kema oshpa zi uchun juda katta fazilat edi.

Negoro hadeganda kema sahniga chiqavermasdi. U kun bo'yи ko'pgina joyini plita egallab yotgan torgina kambuzda band edi. Qorong'i tushishi bilan u plitadagi o'tni o'chirib, kemaning burnidagi o'z hujrasiga kirib yotar edi. U yerda birpasda dong qotib uxbab qolar edi.

"Pilgrim"da beshta eski matrosdan tashqari yana shu yili ishga olingan yoshgina bir matros ham bor edi. Bu yosh matrosning ota-onasi kim ekani noma'lum edi, chunki uni chaqaloqlik vaqtida birov larning eshigi oldidan topib olishgan va keyin tarbiyaxonada boqib o'stirilgandi. U yigitchaning oti Dik Send bo'lib, Nyu York shtatida yoki Nyu York shahrining o'zida tug'ilgan bo'lsa kerak.

Bu bolani topib olib, tarbiyaxonaga topshiruvchi rahmdil kishining oti Richard bo'lgani sababidan unga Dik nomini berishgan. Uning familiyasini Send deb qo'yishgan, chunki u topilgan Gudzon daryosining Nyu York portiga kelib quyiladigan joyi Sendi Guk (Qum tili) deb yuritilar edi.

**Valparaiso –**  
Janubiy Amerikadagi shahar

**dengiz kasali –**  
kemaning bir maromda tebranishidan ko'ngil aynishi

**kambuz –**  
kema oshxonasi

**Dik –** "Richard"  
ismining qisqartirilgan shakli  
**Send –**  
inglizcha "qum"

Dik Send o'rta bo'yli, baquvvat, qora soch bir yigit bo'lib, ko'm-ko'k ko'zlar uning hadsiz irodali bir kimsa ekanidan darak berardi. Dengiz-chining og'ir ishi uni kelgusidagi turmush qiyinchiliklariga bardoshli bo'lishga o'rgatdi. Uning oqilona chehrasida g'ayrat nafasi ufurib turar edi. Uning qiyofasi dovyurak odamninggina emas, hatto qahramon bir odamning qiyofasiga o'xshar edi.

U o'n besh yoshidayoq biron ishni niyat qilishga va qilgan niyati-ni oxirigacha yetkazishga qodir bir kimsa edi. Dik aksar tengqurlariga o'xshab hadeb gapiraverishni va har xil qiliqlar qilishni yoqtirmasdi. Boshqa bolalar hali o'z kelajagi haqida o'ylashga qodir ham bo'lman bir yoshda, Dik o'z qismati haqida o'ylar va kelgusida albatta "odam bo'laman" deb ahd qilgan edi.

*"Odam bo'lish" deganda nimani tushunasiz? "Odam bo'lish" uchun nimalar qilish kerak?*

Dik bu maqsadiga erishdi ham: uning tengqurlari hali bola bo'lgan paytda, u katta kishi bo'lib qolgan edi. Dik singari chaqqon, serharakat va baquvvat odamlarni ikkita o'ng qo'l va ikkita chap oyoq bilan tug'ilgan deyish mumkin; bunday kishilar nimaiki ish qilmasinlar – uddasidan chiqadilar, kim bilan birga yurmasinlar – baravar qadam tashlab keta oladilar.

Dik tarbiyaxonada o'sgan deb yuqorida aytib o'tilgandi. U to'rt yoshidayoq o'qishni o'rgandi. Sakkiz yoshida janubiy mamlakatlarga qatnaydigan kemaga yunga bo'lib ishga kirdi: u yoshligidanoq dengiza ishqiboz edi.

Kemada u dengizchilik hunarini o'rgana boshladi. Kemadagi ofitserlar bu tirishqoq bolaga yaxshi muomala qildilar va unga astoydil yordam berdilar.

Mehnat qilish hayotning qonuni ekanini, faqat peshona teri to'kib, non topish mumkinligini yoshligidanoq tushungan odamgina qahramonlik ko'rsatishga qodir bo'ladi; chunki buning uchun unda har bir kun, har bir soatda iroda va kuch topiladi.

Dik xizmat qilgan kemaga qo'mondonlik qiluvchi kapitan Gul bu qobiliyatli shogirdga e'tibor bera boshladi. Jasur kapitan bu dadil bolani yoqtirib qoldi. San Fransiskoga qaytganda u to'g'risida kemalar xo'jayiniga gapirib berdi. Jems Ueldon bolaning kelajagiga qiziqib, uni boshlang'ich maktabga o'qishga berdi va o'qishni bitirib olishiga yordam qildi.

Dik havas bilan o'qidi, u ayniqsa geografiya bilan sayohatlar tarixiga juda ko'ngil qo'ydi; maktabda oliy matematika bilan navigatsiya nazariyasini o'qitmaganliklariga juda-juda achinar edi. Maktabni tamomlagandan keyin Dik Ueldonning kit ovlovchi kemasiga matros bo'lib kirdi. Dik uzoq sayohat qilish kabi kit ovlashdek kat-takon kasb ham asl dengizchi tayyorlash uchun ko'p foydali bir ish ekanini tushunardi. Har qanday tasodifiy voqealarga uchraydigan

**yunga** –  
dengizchilik  
kasbini  
o'rganayotgan  
yordamchi

**ofitser** –  
harbiy xizmatchi

**navigatsiya** –  
kemalar  
harakatlanshi  
haqidagi fan

dengizchilik hunarini o'rganayotgan yosh o'smir uchun kit ovlov-chi kemada xizmat qilish eng yaxshi tajriba edi. Shu bilan birga, bu "Pilgrim" kemasiga o'zining homiysi kapitan Gul qo'mondonlik qilar edi. Shunday qilib, yosh matros uchun eng yaxshi sharoitlar mavjud edi.

Dik unga ko'p yaxshiliklar qilgan Ueldonlar oilasini samimiyl yaxshi ko'rishi haqida gapirib o'tirishning hojati bormikin? Missis Ueldon o'g'ilchasi bilan "Pilgrim"da sayohat qilmoqchi bo'lgani to'g'risidagi xabarni eshitgandan keyin suyunganidan Dikning og'zi qulog'iga yetdi. Keyingi yillar ichida u missis Ueltonni o'z onasiday, Jekni esa ukasiday yaxshi ko'rар edi. Missis Ueldon ham Dikka bemalol ishonaverish mumkinligini juda yaxshi bilar edi. U kichkina Jekni unga jon-dili bilan ishonib topshirib qo'yardi. Jek ham "akasi" yaxshi ko'rishini bilib, Dikning pinjiga kirgani kirgan edi.

Havo ochiq paytda, hamma yelkanlarni yozib ochiq dengizda suzayotganda, matroslarning bo'sh vaqt vaqt bo'lardi. Dik o'zining hamma bo'sh vaqtlarini doim kichkina Jek bilan birga o'tkazardi. Dik bolaga har xil ermaklar topib berar va dengizchilik ishidagi turli qiziq narsalarni ko'rsatar edi.

Missis Ueldon Jekning baland machta ustuniga o'rmalab chiqayotganini va yelkanlar orasidagi arqonlardan kemaga o'qday otilib tu-shayotganini hech qo'rmasdan tomosha qilib turar edi. Besh yashar Jekning kuchsiz qo'llari tolib qolguday bo'lsa, unga yordam berish uchun Dik Send doim uning yonida tayyor turardi. Endigina og'ir kalsadan tuzalgan bolaga ochiq havoda o'ynash foydali edi. Dengiz shabadasida o'ynash va har kuni gimnastika qilish natijasida bola ilgarigi holiga keldi va oqargan yuzlariga qizillik yugurdi.

**machta –**  
kemaning o'rta-sidagi yelkan osiladigan ustun

*Dik sizda qanday taassurot qoldirdi? Ueldonlar oilasi nima uchun uni yaxshi ko'rardi? Qaysi xislatlari bilan Dik kapitan Gulning nazariga tushdi?*

Yangi Zelandiyadan Amerikaga qilingan safar ana shunday sharoitda o'tmoqda edi. Agar sharq tomonidan shamol esmaganida, "Pilgrim" kemasasi komandasasi bilan yo'lovchilarning noroziligiga hech qanday sabab yo'q desa ham bo'lardi.

Ammo shamolning ro'paradan esishi kapitan Gulga sira yoqmasdi. U kemani hadeb oldinga haydar bora olmasdi. Bundan tashqari, kapitan Gul yo'lda Kozerog tropigiga tushib qolib, kemaning uzoq vaqt to'xtab qolishi mumkinligidan



## Yangi Dunyo – Amerika qit'asi

**reya** – machta  
o'rtaсидаги  
горизонтал таxта

**paluba** –  
kema sahni

**bizan-machta** –  
kemadagi  
kichik machta

**grot-machta** –  
kemadagi eng  
baland machta

**bushprit** – kema  
tumshug'идаги  
machta

**shtirbort** –  
kemaning  
o'ng tarafı

xavotirlanar edi; ekvatorдан esayotgan shamol oqimi kemani g'arb tomonga surib ketishi mumkinligi to'g'risida gapirib o'tirmasa ham bo'ladi.

Safarning cho'zilib ketganiga o'zining aybdor emasligini bilsa ham, kapitan Gul, ayniqsa, missis Ueldon to'g'risida tashvish tortar edi. Mabodo hozir "Pilgrim" yonidan Amerikaga ketayotgan biron okean paroxodi o'tib qolguday bo'lsa, kapitan Gul missis Ueldonni o'sha paroxodga o'tishga albatta ko'ndirgan bo'lar edi. Ammo, baxtga qarshi, "Pilgrim" shunday joyda ediki, Amerikaga boradigan paroxodlarning bu joydan o'tishiga hech qanday umid yo'q edi. Chunki u vaqt-larda Avstraliya bilan Yangi Dunyo o'rtasida kemalar hozirgidek ko'p qatnamas edi.

Kapitan Gul havoning o'zgarishini kutishga majbur bo'ldi. Ammo bu dengiz sayohatini hech narsa o'zgartira olmaydiganday tuyular edi.

Biroq 2-fevral kuni, kema shu hikoyaning boshida aytib o'tilgan joyga kelganda, kutilmagan bir voqeа yuz berdi.

O'sha kuni havo ochiq, quyosh nur sochmoqda edi. Ertalab soat to'qqizlarda Dik Send bilan Jek bizan-machtaning reyasi ustiga chiqib oldilar: bu yerdan ular kemaning palubasini va mavj urayotgan dengiz to'lqinlarini tomosha qilib o'tirar edilar. Ularning orqa tomonidagi grot-machtaga yonboshlatibroq tortilgan pastki yelkan-grot ufqning ancha joyini berkitib turar edi. Ularning oldidagi bushpirtga tortilgan yelkanlar – kliver bilan staksel xuddi qanotday yoyilib turardi. Oyoqlari tagida dumaloq bo'lib ochilib turgan fok yelkani, tepasida esa fokmarsel yelkani shamoldan yoyilib yotar edi. Kema shamolga mumkin qadar ko'proq qaratilar edi.

Dik Send hamma joyiga baravar yuk ortilgan "Pilgrim" shtirbortga biroz qiyshaysa ham, nima uchun ag'anamasligini Jekka tushuntirib o'tirgan edi, Jek to'satdan uning so'zini bo'lib:

- Huv anavi nima?.. – deb so'rab qoldi.
- Nima, biron narsa ko'rdingmi, Jek? – deb so'radi-da, Dik Send sakrab o'rnidan turdi.
- Ha, ha! Huv ana! – dedi Jek qo'lini yelkanlar orasidan dengiz bo'shilig'iga uzatib.


Dik Send Jek ko'rsatgan tomonga qayrilib qaradi-da:

- Kemaning chap tarafida, oldinda, shamol esayotgan tomonda bir kema ko'rinyapti! – deb qichqirdi.

*Jek va Dik ko'rib qolgan kema qanday kema bo'lishi mumkin? Asar-ning davomida qanday voqealar sodir bo'ladi deb o'ylaysiz?*

## BADIY T AHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: PORTRET

Badiiy asarda qahramonning tashqi qiyofasi, kiyimi, yuz ifodalari va xatti-harakatlari tasviri portret deyiladi. Portret bizga qahramonni tasavvur qilishga yordam beradi. Ko'p holatlarda portret orqali muallifning qahramonga munosabatini ham ko'rishimiz mumkin.



**“O'n besh yoshli kapitan” asaridan Dik va Negoro portretlarini toping. Jadvalni to'ldiring.**

	Dik	Negoro
Tashqi ko'rinishi		
Xarakteri		
Odatlari		
Muallifning munosabati		

**Qaysi so'zlar muallifning Dik va Negoroga bo'lgan munosabatini bilib olishimizga yordam beradi?**



“O'n besh yoshli kapitan” romani asosida ishlangan “Pilgrim” kapitani filmida (Rossiya, 1986-yil). Dik Send rolini Vyacheslav Xodchenko ijro etgan

**Ushbu suratdagi Dik Send asarni o'qib, siz tasavvur qilgan Dik Sendga qanchalik o'xshash?**

... Jek va Dik ko'rib qolgan kema halokatga uchragan "Valdek" kemasi bo'lib chiqadi. "Pilgrim" dagilar "Valdek" da omon qolgan besh qora tanli amerikalik – oltmis yashar Tom va uning o'g'li Bat, shuningdek, Ostin, Akteon va Gerkulesni qutqarib olishadi. Qutqarilganlar "Pilgrim" kemasi ekipaji bilan tezda chiqishib ketishadi. Ular bilan birga bo'yinbog'ida "S.V." harflari o'yib yozilgan Dingo laqabli bahaybat, kuchli it ham bor edi. Dingoni ham tez orada hamma yaxshi ko'rib qoladi. Faqat Negorogina undan qochgani qochgan edi. Dingo ham nima uchundir boshidanoq uni yomon ko'rib qolgan edi. Bir kuni kapitan dengizda bahaybat ola kitni ko'rib qoladi. Kapitan Gul va matroslar kichik qayiqda kitni ovlagani ketishadi va halok bo'lishadi.

## TO'QQIZINCHI BOB. KAPITAN SEND

Bu og'ir falokatni ko'rgan "Pilgrim" yo'lovchilari juda qattiq qayg'urdilar. Kapitan Gul bilan besh matrosning halok bo'lishi ularni butunlay dovdiratib qo'ydi.

Shunday yomon falokat bo'layotganini ko'rib turib, halok bo'layotgan o'rtoqlarga hech qanday yordam berolmay tursalar-a!.. Dik va uning hamrohlari yaradorlarni suvdan tortib chiqarib olishga ham ulgurolmay qoldilar. "Pilgrim" halokat joyiga yetib kelganida kapitan Gul bilan besh matrosni qutqarish uchun imkoniyat qolmagan edi.

Missis Ueldon, Dik, Benedikt tog'a va besh negr bosqlarini egib, ko'z yosqlarini duv oqizib, bo'm-bo'sh dengizga tikilib qarab turar edilar. Cheksiz, ulkan Tinch okeanning qoq o'rta bir joyida qolgan, quruq yerdan minglarcha mil narida turgan, kapitan hamda matroslaridan ajralgan bu kema endi dengiz oqimi bilan shamol uchun kichkina bir o'ynichoq bo'lib qolgandi.

*Sizningcha, "Pilgrim" dagilar endi qanday yo'l tutishadi? Dik Send nima qiladi?*

Qayoqdan ham bu la'nesi shum ola kit "Pilgrim" kemasiga uchrab qoldi? Doim ehtiyyotkor va tadbirli bo'lgan kapitan Gulni bu ov balosiga qaysi bir shum xayol yo'lladi ekan?

Kit ovida qayiqdagi hamma odamlarning halok bo'lishi hodisasi tarkida barmoq bilan sanarli darajada kam uchraydi.

Har holda, kapitan Gul va sheriklarining halok bo'lishi dahshatli bir falokat edi! "Pilgrim" komandasidan birontasi ham tirik qolmadidi. Yo'g'e, bittasi qolibdi. Bu ham bo'lsa Dik Send... Biroq Dik o'n besh yosli bir

negr –  
qora tanli

o'smir edi, uni hali bola desa ham bo'lardi. Ana shu bola ham kapitan, ham botsman, ham boshqa matroslarning o'rnini bosishi lozim edi!..

Kemada yana beshta sofko'ngil azamat negrlar bo'lsa ham, lekin ular dengizchilik hunaridan butunlay bexabar edilar.

Dik Send anchagina xayol surib palubada turib qoldi. U qo'llarini chalishtrib, o'z otasiday yaxshi ko'rgani – kapitan Gulni yutib yuborgan suvga qarab turar edi.

So'ngra u ufqqa nazar tashladi. U biron yordam olish yoki hech bo'lmasa, missis Ueldonni joylashtirish umidida bironta kema ko'rinnasmikin, deb qarar edi.

U "Pilgrim"ni tashlab ketmoqchi emas edi. Aslo! Avvalo, u keman niyaqin yerdagi biror portga olib borish chorasini ko'radi. Boshqa kemaga o'tirishsa, missis Ueldon bilan uning bolasi bexavotir bo'lishar, shunda bu ikki kishining hayoti uchun Dik tashvish tortmasdi.

Okean bo'm-bo'sh edi. Ola kit ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin, "Pilgrim" atrofida suv bilan havodan bo'lak hech narsa qolmagan edi.

"Pilgrim"ning savdo kemalari yuradigan odatdagi yo'ldan uzoqda ekanini va kit ovlovchi kemalar hammasi yilning bu fasilda uzoq janubiy dengizlarda ovchilik bilan bandligini Dik Send juda yaxshi bilardi. Xavf-xatarning kuchliligidan ko'z yummaslik, o'zini aldamaslik kerak edi.

"Nima qilish kerak?" – deb o'yADI u.

Shu mahal kema oshpazi palubaga chiqdi.

Negoro bu falokatli ovning borishini juda diqqat qilib kuzatgandi, lekin og'iz ochib gapirmas va hech qanday harakat qilmas edi. Bu dahshatli baxtsizlik unga qanday ta'sir qilganini hech kim aytib berolmasdi.

Hozir u kemaning quyrug'iga, Dik Send turgan joyga sekin yurib bordi-da, o'smirdan uch qadam berida to'xtadi.

– Men bilan gaplashmoqchimisiz? – deb so'radi Dik Send.

– Yo'q, – deb sovuqqina javob qaytardi oshpaz. – Men kapitan Gul bilan yoki hech bo'lmasa botsman Govik bilan gaplashmoqchi edim.

– Ularning halok bo'lganini bilasiz-ku, axir! – deb xitob qildi Dik.

– Endi kemaga kim kapitan bo'ladi? – deb hayosizlarcha so'radi Negoro.

– Men, – dedi yosh matros dadillik bilan.

– Siz-a?! – deb yelkasini qisdi Negoro. – O'n besh yoshli kapitan?!

– Ha, o'n besh yoshli kapitan! – deb javob qaytardi Dik va oshpaz tomonga bir qadam tashladi.

Oshpaz orqasiga tislandi.

– "Pilgrim"ning kapitani bor, – dedi missis Ueldon. – Bu Dik Send bo'ladi! Yangi kapitan har kimni o'z joyiga qo'ya oladi. Buni har kim bilib qo'yishi kerak.

Negoro ta'zim qildi va zaharxanda aralash bir nima deb ming'il-ladi-da, kambuziga qarab jo'nadi. Uning nimalar deganini hech kim tushunolmadi.

**botsman –**  
kemadagi jihoz-larning sozligiga javob beradigan shaxs

**port –**  
qirg'oqdagi kemalar turadigan joy

*Negoro nima sababdan o'zini bunday tutyapti deb o'ylaysiz? Uning maqsadi nima bo'lishi mumkin?*

Ana shunda Dik ma'lum bir qarorga keldi!

O'sha mahalda shamol ham kuchaya boshlagan va kema "kit sho'rva" sining qizil dog'li joylaridan o'tib ketgan edi.

Dik Send avvalo yelkanlarga bir qaradi-da, keyin palubaga ko'z tashladi. Bu o'smir zimmasiga olgan vazifasi qanchalik og'ir va mas'uliyatli bo'lishiga qaramasdan, undan bo'yin tovlashga o'zini haqli emas deb bilar edi. Hamma yo'ldoshlari endi unga tikilib, undan umidvor edilar. U ham ularning ko'z qarashlaridan ishonchli odamlar ekanini fahmlab, soddagina qilib, menga ham ishonaversalaring bo'ladi, deb qo'ydi.

Har holda Dik o'z kuchiga ortiqcha baho bermas edi. U Tom va uning sheriklari yordami bilan, zarur bo'lishiga qarab, yelkanlarni tushirish va ko'tarishga qodir edi. Ammo u kemaning turgan joyini aniqlash uchun kamroq ekanini tushunardi.

Yana to'rt-besh yil o'tsa, Dik Send qiyin bo'lsa ham, lekin qiziqarli dengizchilik hunarini astoydil egallab olgan, kapitan Gul har kuni ishlatadigan, kemaning okeanda turgan kengligini aniqlab beradigan sekstant nomli asbobni ishlatishni ham o'rgangan bo'lardi. Grinvich meridianining vaqtini ko'rsatuvchi xronometr degan asbob kapitan Gulga uzunlik nuqtasini ko'rsatib berardi. Quyosh uning yaxshi maslahatchisi edi. Oy bilan yulduzlar unga: "Kemangiz falon joyda turibdi!" deb aytardilar. Eng aniq va sira xato qilmaydigan soat bo'lgan osmon va undagi soat millari bo'lmish yulduzlar, har kuni qancha yo'l yurganini aytib berar edi. Astronomik kuzatishlar kapitan Gulga "Piligrim"ning turgan joyini bir milgacha aniqlikda aytib berar va, demak, qay tomonga yurish kerakligini ham ko'rsatar edi.

Dik Send esa kompas va lag yordamida kemaning turgan joyini faqat taxminangina aniqlay olar edi.

*O'ylab ko'ring-chi, astronomiya – osmon jismlari haqidagi fan qanday qilib dengizchilarga yordam beradi?*

Ammo Dik bundan cho'chimasdi.

Bu dovyurak bolaning ko'nglidan nimalar kechayotganini missis Ueldon fahmladi.

– Barakalla, Dik! – dedi jiddiy ovoz bilan u. – Kapitan Gul halok bo'ldi. Matroslar ham u bilan birga halok bo'lishdi. Kemaning hayot-mamoti sening qo'lingda. Men, Dik, sen kemani ham, hamamizni ham qutqarasan, deb ishonaman!

– Shunday, missis Ueldon, – deb javob qaytardi Dik, – qo'limdan kelganicha harakat qilaman...

– Tom bilan uning sheriklari yaxshi odamlar. Ularga bemalol ishonsang bo'ladi.

– Bilaman. Men ularni dengiz ishlariga o'rgataman-da, keyin ham-mamiz birga kemani boshqaramiz. Havo yaxshi bo'lib turganda bu qiyin ish emas. Basharti, havo aynib qolsa... nima qipti, hech gap emas, missis Ueldon, yomon havoda ham ishning uddasidan chiqamiz, sizni ham, kichkina Jekni ham, boshqalarni ham qutqaramiz! Bu ish qo'lim-dan keladi!

– Bilasanmi, hozir "Pilgrim" qayerda turibdi ekan? – deb so'radi missis Ueldon.

– Ha, buni bilish qiyin emas, – dedi Dik. – Xaritaga qaralsa, bas, kapitan Gul kecha qayerdaligimizni xaritaga belgilab qo'ygan edi.

– Kemani qay tomonga olib borish kerakligini ham bilasanmi?

– Bilaman, deb o'ylayman. Men avvalo Amerika sohilidagi o'zimiz to'xtaydigan joyni mo'ljallayman, keyin kemani shunga qarab haydayman.

– Sen, Dik, bu falokat boshida mo'ljallangan yo'limizni o'zgartirishini va albatta o'zgartirishi kerakligini bilasanmi? Endi "Pilgrim" Valparaisoga borishining hojati bo'lmasa kerak. Bizning eng zarur orzumiz shuki, sen kemani Amerikaning eng yaqin portiga olib borishing kerak!

– Xo'p bo'ladi, missis Ueldon, – deb javob qaytardi Dik. – Xotir-jam bo'ling. Amerika qit'asi janub tomonga qarab shunchalik uzoqqa cho'ziladiki, biz albatta unga duch kelamiz.

– Amerika qit'asi qaysi tomonda? – deb so'radi missis Ueldon.

– Hov ana... u yoqda! – Dik sharq tomonni ko'rsatdi.

– Gap bunday, Dik, kema Valparaisoga boradimi yoki Amerikaning boshqa biror portigami – men uchun baribir. Bizning birdan bir maqsadimiz quruqlikka yetib olishdir!


– Yetib olamiz ham, missis Ueldon! – deb dadil javob berdi Dik.

– Men sizni xavf-xatarsiz yerga olib borib qo'yishga va'da beraman. Quruqlikka yaqinlashganimizda o'z portlari orasida suzayotgan biror kemaga uchrab qolishimiz ham ehtimoldir. Ana ko'ring, missis Ueldon, shimoli-g'arbiy shamol esyapti. Agar shamol shunday esib tur-sa, hash-pash deguncha quruqlikka yetib olamiz. Hamma yelkanlarni ko'tarib, o'qday uchamiz!

Yosh matros o'z kemasini juda yaxshi bilgan va uni har qanday sharoitda ham o'zi istagancha yurgiza oladigan juda tajribali dengizchiday gapirar edi.

Dik yelkanlarni ko'tarib, shturval oldiga kelganida missis Ueldon dastavval "Pilgrim"ning turgan joyini aniqlash zarurligini uning esiga soldi.

Haqiqatan ham, dastlabki vazifa ana shu edi. Dik kapitan Gulning kayutasiga qarab ketdi va kemaning kecha turgan joyi belgilab qo'yil-gan xaritani ko'rdi. Endi u missis Ueldonning oldiga kelib, "Pilgrim"  $43^{\circ} 35'$  janubiy kenglikda va  $144^{\circ} 13'$  g'arbiy uzunlikda turgan ekan, deb xabar berdi. Shundan beri o'tgan bir kun ichida kema joyidan hech qo'zg'almagan desa ham bo'lardi.



shturval



**infuzoriya** – suvda yashovchi bir hujayrali mikroskopik jonivor

Missis Ueldon engashib xaritani ko'ra boshladi. U quruq yerni ko'rsatuvchi jigarrang dog'larga juda ko'p tikildi. Bu dog'lar Tinch okeanni Atlantika okeanidan ajratib turuvchi kattakon Janubiy Amerika qit'asi edi. Janubiy Amerika qit'asi bilan birga bepoyon okeanni ham sig'dirgan xaritaga qaraganda quruq yer juda yaqin ko'rinar va unga yetib olish juda osonday edi. Xaritaning masshtabiga odatlanmagan har bir kimsaga doim ana shunday bo'lib ko'rindi.

Qog'ozdag'i yerni ko'rgan missis Ueldon, yer rostdan ham shunday yaqin bo'lsa kerak, deb o'yladi. Holbuki, agar "Pilgrim" to'g'ri masshtabi bilan o'sha xaritaga tushirilganida edi, mikroskop bilan ko'rindigan eng mayda infuzoriyadan ham kichikroq bo'lar edi. Ana shunda bu matematik nuqta bepoyon okeanda ko'zdan yo'qolgan "Pilgrim" singari o'sha qog'ozda ham ko'zga ko'rinasdan yo'qolib ketgan bo'lardi.

Dik esa missis Ueldondan ko'ra boshqacha fikrda edi. U yerning kema turgan joydan necha yuz millab uzoqda ekanini bilardi. Ammo, shunga qaramasdan, uning shashti sira bo'shashmadi. Odamlarni qutqarish mas'uliyati Dikni ulg'aytirib qo'ygan edi.

Harakat qiladigan payt keldi. Shimoli-g'arbdan esgan shamol soat sayin kuchayar va bundan foydalanish kerak edi. Juda balandlikdan uchayotgan parsimon oq bulutlar shamolning tez orada to'xtamasligini bildirar edi.

Dik Send Tom bilan uning sheriklarini o'z oldiga chaqirdi.

– Do'stlar, – deb so'z boshladi u, – "Pilgrim"da sizdan bo'lak matroslar yo'q. Siz yordam bermasangiz, bir o'zim hech nima qilolmayman. Albatta, sizlar dengizchi emassizlar, ammo qo'llaringiz kuchli. Siz kuchingizni ayamasangiz, "Pilgrim"ni bemalol boshqara olamiz. Hayot-mamotimiz ana shunga bog'liq.

– Kapitan Dik, – deb javob qaytardi Tom, – biz hammamiz, o'zim ham jon deb sizning matroslaringiz bo'lamiz. Jon deb sizga yordamlashamiz. Besh kishining qo'lidan nimaiki ish kelsa, sizning rahbarlingiz ostida ishlayveramiz!

– Yashang, Tom ota! – deb xitob qildi missis Ueldon.

– Biroq juda ehtiyyot bo'lishimiz kerak, – dedi Dik Send. – Men tavakkaliga ish qilmayman, yelkanlarning ham hammasini ko'tarmayman. Biroz kechiksak kechikarmiz, lekin bexavotir bo'lamiz. Sharoit shuni talab qilayotir. Hozir men har biringizga o'z vazifangizni tushuntirib va ko'rsatib beraman. Mening o'zim kuchim boricha shturval oldida turaman. Goho bir-ikki soat uxlab olaman. Men ozgina bo'lsa ham uxlagan vaqtimda bittalaring mening o'rnimda turishlaring lozim. Bunga sizni o'rgatsam deyman, Tom, nima deysiz? Kemani kompasga qarab boshqarib borish unchalik qiyin ish emas. Agar xohishingiz bo'lsa, kemani kerakli tomonga haydashni tez o'rganib olasiz.

– Men bu ishga tayyorman, kapitan Dik, – deb javob qaytardi keksa negr.

– Juda soz, – dedi Dik. – Bugun kechgacha men bilan shturval yoni-da turasiz, ana shunda basharti charchab qolsam, biroz dam olgunim-chi kemani boshqarishga bugunoq kirishasiz.

– Men-chi? – deb so'radi kichkina Jek. – Men Dikka hech qanaqa yordam bera olmaymanmi?

– Albatta yordam bera olasan, o'g'ilcham! – deb javob berdi missis Ueldon o'g'lini bag'riga bosib. – Seni ham kemani boshqarishga o'rgatishadi. Ishonamanki, sen rul oldida turganingda, shamol ham o'ng-dan esadi.

– Xo'p, oyijon, xo'p! – deb xitob qildi bola chapak chalib. – Men bu ishni qoyil qilaman!

– Shunday. Qari dengizchilar: "Yosh dengizchi kemaning ishini o'ngidan keltiradi, shamol o'ngdan esadi", – deyishadi, – dedi Dik jilmayib.

Keyin Tomga va boshqa negrlarga qarab qo'shimcha qildi:

– Qani, endi ishni boshlaymiz, do'stlar! Hozir grotni ko'tarish kerak. Nima qilishni o'zim aytib turaman. Aytganlarimni esa aniq qilib bajarishlaring zarur.

– Buyuravering, kapitan Send, – dedi Tom, – biz tayyormiz!

*Sizningcha, Dik kemani boshqarish mas'uliyatini o'z bo'yнiga olib to'g'ri ish qildimi?*



... Dik kompas va lagdan foydalanishni bilsa ham, kemaning joyi va yo'nalishini aniq bilishga yordam beradigan astronomik kuzatishlarni hali bajara olmas edi. Bir kuni kapitan kayutasida-gi kompas tushib ketadi. Kemada qolgan yana bir kompas tagiga Negoro bildirmasdan bir bo'lak temir qistirib qo'yadi. Bu temir kompasning strelkasini o'ziga tortar va kemaning yo'nalishni no-to'g'ri olishiga sabab bo'lar edi. Bir hafta davom etgan bo'rondan keyin qandaydir orol ko'rindi. Dik bu orolni Janubiy Amerikada-gi Pasxi oroli deb o'ylaydi. Dingo kema burniga yugurib borib, go'yo qirg'oqni taniganday va bu qirg'oq uning boshidan kechgan qandaydir og'ir tashvishlarni esiga solganday cho'zib-cho'zib uv-lay boshlaydi. To'lqindan baland ko'tarilgan kema qars etib toshga uriladi. Falokatdan o'n daqiqa o'tgandan keyin "Pilgrim" dagi hamma yo'lovchilar tik qirg'oqqa chiqib to'planadilar.

## O'N TO'RTINCHI BOB. NIMA QILISH KERAK?



Yetmish to'rt kunga cho'zilgan safardan, osoyishta dengiz, teska-ri esgan shamol va bo'ron bilan qattiq kurashlardan keyin, "Pilgrim" endi qirg'oqqa yetay degan paytda suvosti toshlariga urilib pachaqlanib ketsa-ya!

Missis Ueldon va uning hamrohlari quruqlikka chiqib olgandan keyin o'zlarini juda baxtli deb hisobladilar. Ular Janubiy Amerikaning biror joyiga kelib qolgan bo'lsalar ham ko'p mashaqqat chekmasdan o'z vatanlariga bemalol yetib borishlari mumkin bo'ladi.

"Pilgrim" esa pachaq-pachaq bo'lib ketdi. To'lqin bir necha soat ichida uning siniqlarini har qayoqqa surib ketadi. Undagi yukni qutqa-zib olish to'g'risida o'ylamasa ham bo'ladi.

Dik Send kemani qutqara olmagan bo'lsa ham, lekin hamma yo'lov-chilarni sog'-salomat asrab qoldi; shu bilan faxrlansa arzirdi.

"Pilgrim" halok bo'lgan yer Janubiy Amerika qirg'og'ining qaysi joyida ekan? Dik Send o'ylaganidek, Peru qirg'og'idamikin?

Shunday bo'lishi ham ehtimol, chunki kema Pasxi orolidan o'tib ketgandan keyin okeanning ekvator oqimi bilan shamol uni shimoli-sharqqa qarab haydadi. Shuning uchun kemaning qirq uch gradus janubiy kenglikdan o'n besh gradusga kelib qolishi ham ajab ish emas.

Eng zaruri imkon qadar tezroq "Pilgrim"ning qayerda falokatga uchraganini aniqlash edi. Peru sohilida portlar, shaharlar va qish-loqlar juda ko'p. Shuning uchun, agar Dikning fikri to'g'ri bo'lsa,

yo'lovchilar ko'p ham qiyalmasdan birorta aholi turadigan joyga yetib olishlari mumkin.

Falokat joyidagi unchalik baland bo'limgan tik qirg'oqda jon egasi yo'qqa o'xshaydi. Torgina qumloq joyda qop-qora qoyatoshlar yotar edi. Qoyaning ba'zi joylari yorilib ketgan. Ba'zi yoriq joylardan o'rma-lab tog'ning tepasiga chiqsa bo'lardi.

Yarim kilometr shimolda qoyalar orasidan soy yorib o'tgan. Soy ustida ko'pdan ko'p rizoforlar osilib turar edi.

Qirg'oq yonidan boshlangan ko'm-ko'k qalin o'rmon juda uzoqlarda ko'rinyotgan havorang tog'gacha cho'zilib ketgan. Mabodo Benedikt tog'a botanik bo'lganda edi, bundagi xilma-xil daraxtlarni ko'rib hayron qolgan bo'lardi. Bu yerda bir necha ming yil umr ko'radigan baland baobab daraxtlari, dengiz qarag'aylari, hind xurmosi, murch daraxti va Yangi Dunyoning shimol tomonida uchraydigan yuzlab xil boshqa o'simliklar bor edi.

Qirg'oq ustida baqiroq qushlar va aksari qoramtil ko'k tusli hamda bo'z kallali qaldirg'ochlar galasi uchib yurardi. Ba'zi joylarda sergo'sht, kichik kallali, parsiz oyoqli kakliklar ham ko'rinish qolar edi.

Missis Ueldon bilan Dik Send qushlarning odamlardan unchalik qo'rwmaganini sezib qoldilar. Ular odamlarning yaqin kelishidan sira hayiqmas edilar. Nahotki ular odam zotini sira ko'rman bo'lsalar va odamdan qochish degan narsani bilmasalar-a? Nahot hech qanday miltiq ovozi bu qirg'oqning tinchligini sira buzmagan bo'lsa?

Suvdan chiqib turgan toshlar ustida bir necha katta saqoqushlar cho'nqayib o'tirar edi. Ular tumshuqlari ostidagi xaltalariga mayda baliqlarni to'ldirib olgan edilar.

Dengiz tomondan uchib kelgan baliqchi qushlar "Pilgrim" parchalari ustida aylanib uchardilar.

Qushlar qirg'oqning bu joyidagi birdan bir jon egalari bo'lsalar kerak. Albatta, bu yerlarda Benedikt tog'ani qiziqtiradigan ko'pgina hasharotlar ham bor edi.


Ammo na qushlarga va na hasharotlarga qarab bu yerning qayer ekanini bilib bo'lmash edi. Bu yerning nomini shu yerda yashovchi biror kishigina aytib berishi mumkin edi. Ammo bu yerda hech qanday aholi yo'q edi. Bironta ham odamzod ko'rinasdi.

Na qo'rg'on, na uylar va na bironta chayla ko'rinsaydi. Na shimol tomondagi soy orqasida, na janub tomonda va na qit'aning ichkarisiga kirib ketgan qalin o'rmon orasida, xullas, hech qayerda tutun chiqqan joy ko'rinasdi. Ilgari bu qirg'oqqa odamzod kelganini ko'rsatadigan biror nishona ham yo'q edi.

Dik Send bundan juda hayron qoldi.

– Biz qayerdamiz? Qayerga kelib qoldik? Nahot buni aytib beradigan birorta odam topilmasa-ya?

*Sizningcha, Dik va uning hamrohlari o'zlari o'ylagan manzilga kelishdimi?*



rizofor

Rostdan ham bunday kishi yo'q edi, yaqin joyda birorta yerlik odam bo'lganda, Dingo darrov darak berardi. It esa boshini egib olib va dumini sudrab qumloqda u yoqdan bu yoqqa yurgani yurgan edi. U hadeb g'alati uvullardi. Uning qiligi juda ajoyib edi, ammo na odam va na hayvon borligidan xabar bermas edi.

- Dik, Dingoga bir qarasang-chi! – dedi missis Ueldon.
- Qiziq-a! Biron iz qidirayotganga o'xshaydi-ya, – dedi Dik.
- Rostdan ham qiziq, – deb shivirladi missis Ueldon.

Keyin birdan esiga tushib:

- Negoro nima qilyaptiykin? – deb so'radi.
- U ham Dingo singari qirg'oqni kezib yuribdi, – dedi Dik Send.
- Aytgandek, bu yerda ixtiyor o'zida, nima qilsa qilaveradi. Endi men unga buyruq bera olmayman. "Pilgrim" falokatga uchragandan keyin uning vazifasi tugadi.

Negoro ilgarilari bu yerlarni bilib, keyin esidan chiqarib yuborgan odam singari qumloqni, soyni va qirg'oqdagi qoyalarni sinchiklab tekshirib yurar edi. Yo bu yerlarda bo'lganmikin? U bunday savolga javob berishdan bosh tortishi ham mumkin edi. Ammo bu odamsuymas portugaliyalikka parvo qilmasa ham bo'ladi. Dik Send Negoroning soy tomonga ketayotganini kuzatib turdi, lekin Negoro qoyalar orasiga kirib ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin, o'smirning u bilan ishi bo'lmadi.

*Dingo va Negoroning o'zini bunday tutishi sabablari nimada bo'lishi mumkin?*

Falokatga uchragan odamlar endi nima qilish kerakligi to'g'risida o'ylashlari lozim edi. Biroz dam olish hamda ovqatlanish uchun dastlab biror pana joy topish kerak edi. Ana shundan keyingina nima qilish to'g'risida kengashsa bo'lardi.

Ovqat masalasi oson hal bo'ldi. Bu yerda qushlar va mevalar juda serob edi. Falokatga yo'liqqanlar, bundan tashqari, kemaning omborlarida qolgan oziq-ovqatlarni ham yeyishlari mumkin edi. Dengiz toshqini qaytgandan keyin to'lqinlar bir necha bochka suxari, bir necha quti konserva va qoq go'sht solingan yashiklarni qirg'oqqa chiqarib tashlagandi. Dengiz suvi hali ularni buzib ulgurmagan edi. Odam yashaydigan biror joyga yetib olgunlaricha oziq-ovqat bemalol yetardi. Oziq-ovqatlarni to'lqin chiqmaydigan balandroq bir joyga taxlab qo'ydilar.

Totli suvdan ham kamchilik yo'q edi. Dik Send soydan suv olib kelişni Gerkulesdan iltimos qildi. Azamat negr bir bochka suvni yelkasisga qo'yib olib keldi. Dengiz toshqini mahalida to'lqinlar soyga urib kirsa ham, lekin uning suvi chuchuk bo'lib, ichishga yayar edi.

Olov to'g'risida g'am yemasa ham bo'ladi: gulxan yoqish kerak bo'lsa, tevarakda shox-shabba to'lib yotibdi. Kashanda Tomning suv kirmaydigan tunuka qutichaga solingan qovug'i bor ekan. U qirg'oqdan

**suxari** –  
qotirilgan non

**qovug'** –  
o't yoqish uchun  
tayyorlangan  
maxsus pilik, pilta

topib olgan chaqmoqtoshi bilan istagan mahalida qo-vuqni olib olov yoqishi mumkin edi.

Endi safarga jo'nashdan oldin biroz dam olish hamda tunash uchun birorta pana joy topish qolgan-di, xolos.

Kichkina Jek "musofirxonasi" topib berdi. U qoya tagida o'ynab yurganida, ittifoqo, toshlari yo'nilgan keng bir g'orga ko'zi tushib qoldi. Bu dengiz to'lqinlari qattiq urilishidan hosil bo'lgan g'orlardan biri edi.

Buni ko'rib suyungan bola darrov onasini chaqirib keldi.

– Yasha, Jek! – dedi missis Ueldon. – Agar Robinzon singari bu yerda uzoq yashab qolganimizda edi, bu g'orga sening nomingni qo'yari edik.

G'or ko'p ham katta emasdi: uzunligi ham, eni ham o'n-o'n to'rt fut kelardi, ammo Jekning ko'ziga u juda katta bo'lib ko'ri-nibdi. Falokatga uchraganlar unga bemalol joylasha olardilar. Missis Ueldon bilan Nan kampir g'orning ichi quq-quruq ekanini ko'rib juda xursand bo'lishdi. Oyning birinchi choragi ekan, demak, dengiz tosh-qini kuchli bo'ladi deb qo'rmasa ham bo'lardi.

Shunday qilib, dam olish uchun kerakli bo'lgan hamma narsa tayyor edi.

O'n daqiqadan keyin "Piligrim" dagi yo'lovchilar suv o'simligi poxoli solingan g'orda yonboshlab yotishardi. Hatto Negoro ham ularga qo'shib nonushta qilgani keldi. Ehtimol, u ichidan egri-bugri soy o'tgan qalin o'rmonda yolg'iz o'zi yurishga yuragi dov bermagan bo'lsa kerak.

Kunduzi soat bir edi. Ular suxari hamda qoq go'sht bilan nonushta qildilar. Choy o'rniغا yangi olib kelingan suvdan ichdilar.

Negoro hamma bilan baravar nonushta qilsa-da, lekin kelgusi ishlar to'g'risida qilinayotgan suhbatga sira aralashmasdan o'tirardi. Ammo u hamrohlarining gapini diqqat bilan tinglab o'tirardi, aftidan, bundan o'ziga zarur bo'lgan xulosani chiqazardi.

*Negoro o'zi uchun qanday xulosalar chiqarayotgan bo'lishi mumkin?*

O'z tegishini yeb olgan Dingo g'or og'zida qorovul bo'lib yotdi. Bunday azamat qorovul borida bemalol dam olaverish mumkin edi. Qumloq qirg'oqqa qanday maxluq kelmasin, vafodor it darrov darak berishga tayyor edi.

Missis Ueldon mudrayotgan Jekni o'z tizzasiga yotqizib gap boshladi:

– Ukam Dik, – dedi u, – shu qiyin kunlarda qilgan jonbozlik-laring uchun hammamiz sendan minnatdormiz. Ammo seni o'z vazifangdan hozircha ozod qilolmaymiz. Dengizda qanday kapitan



Dengiz suvining  
juda baland  
ko'tarilishi  
odatda oy to'lgan  
paytlarda yuz  
beradi.

bo'lsang, quruqlikda ham bizlarga shunday boshchilik qilishing kerak. Biz hammamiz senga ishonamiz. Endi nima qilishimiz kerakligini ayt.

Missis Ueldon, Nan, keksa Tom va boshqa negrlar – hammalari Dik Senddan ko'zlarini uzmasdan, unga qarab turardilar. Hatto Negoro ham unga tikilib turgan edi. Portugaliyalik Dik Send bu gaplarga nima der ekan, deb qiziqsinib turgan bo'lsa kerak.

Dik Send birpas o'ylanib olgandan keyin dedi:

– Dastavval, missis Ueldon, biz qayerdaligimizni bilib olishimiz kerak. Men kemamiz Peru qirg'og'ida falokatga uchragan bo'lsa kerak, deb o'layman. Shamol bilan dengiz oqimi kemani xuddi mana shu kengliklarga qarab olib ketib qolgan bo'lishi kerak edi. Ehtimol, biz Peruning birorta aholisi kam, ya'ni pampaslar bilan yondosh bo'lgan janubiy viloyatlaridan biridadirmiz. Menimcha, xuddi shunday bo'lsa kerak, chunki qirg'oqda hech odam zoti yo'q. Agar mening taxminim to'g'ri bo'lsa, odamlar yashaydigan joyga yetib olishmiz uchun ancha-muncha yo'l yurishimiz kerak bo'ladi.

– Xo'sh, unday bo'lsa, endi nima qilmoqchisan? – deb so'radi missis Ueldon.

– Menimcha, qayerdaligimizni aniq bilmasdan turib, g'orni tashlab ketmasligimiz kerak. Ertaga, dam olgandan keyin, ikkitamiz atrofni tekshirib, aniqlab kelgani kuzatuvga jo'nasin. Ular bu yerdan uncha uzoqqa ketib qolmasliklari kerak va yerlik aholini qidirib topib, biz uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olgandan keyin qaytib kelishlari lozim. O'n-o'n ikki mil atrofdagi joylarda ham odam topilmasligi mumkin emas.

– Nahotki ajralishsak? – dedi missis Ueldon.

– Shunday qilmasak bo'lmaydi, – dedi o'smir. – Bordi-yu, hech narsani bilolmasak, agar atrofda haqiqatan ham odamzod asari bo'lmasa, nachora.. U mahalda boshqa biror chorasini topamiz!

– Kuzatuvga kimlar boradi? – deb so'radi missis Ueldon birpas o'ylab turgach.

– Buni hozir hal qilamiz, – dedi Dik Send. – Har holda siz, missis Ueldon, janob Benedikt, Jek hamda Nan g'orni tashlab ketmasliklaring kerak. Bat, Gerkules, Akteon hamda Ostin sizlar bilan qolishi mumkin. Tom bilan ikkimiz kuzatuvga ketamiz. Ehtimol, Negoro ham bu yerda qolishni istar, – deb qo'shib qo'ydi Dik, kema oshpaziga qarab.

– Ehtimol, – deb mujmal javob qaytardi Negoro.

– Biz Dingoni birga olib ketamiz. U bizga yaxshi ish berishi mumkin, – dedi Dik.

O'z ismini eshitgan Dingo rozilik bildirganday, bir vovullab qo'ydi.

Missis Ueldon chuqr o'yga toldi. Ozgina vaqtga bo'lsa ham ajralib ketish uni tashvishga solar edi.

*Nima deb o'ylaysiz, Dikning taklifi bu vaziyatda to'g'ri edimi? Siz uning o'rnida bo'lsangiz, nima qilar edingiz?*

“Pilgrim”ning falokatga uchragani to‘g‘risidagi xabar yaqin o‘rtada yashovchi yerlik xalqlarning qulog‘iga yetgan bo‘lsa, ular halok bo‘lgan kemadagilardan biror o‘lja olish maqsadida har onda ularga hujum qilib qolishlari mumkin. Shuning uchun guruhni bo‘lishdan nima foyda?

Missis Ueldonning bu fikrini yaxshilab mulohaza qilib ko‘rish kerak edi.

Ammo Dik Sendda bunga qarshi keskin dalillar tayyor edi.

– Bu yerlarda yashovchi yerlik hindularni yovvoyi afrikaliklar yoki polineziyaliklar bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas, – dedi Dik, – ular bosqinchilik qiladilar deyishga ham hech qanday asos yo‘q.

Holbuki, qayerda turganlarini, eng yaqin qishloq qay tomonda ekanini va uning uzoq-yaqinligini bilmasdan turib yo‘lga chiqish behuda sarsongarchilik bo‘lar edi. O‘tib bo‘lmaydigan qalin o‘rmon orqali guruh bo‘lib tavakkaliga yo‘lga chiqqandan ko‘ra ajralib kuzatuvga borib kelish, garchi bu ko‘ngilsiz bo‘lsa-da, yaxshiroq edi.

– Undan keyin, – deb so‘zini tamomladi Dik, – men uzoq ajralishib ketishni xayolimga ham keltirayotganim yo‘q. Basharti, Tom bilan ikkovimiz ikki kun ichida biror qishloqni yoki biror yerlik odamni uchrata olmasak, g‘orga qaytib kelamiz. Ammo bunday qilmasmiz! Men ishonamanki, mamlakatning ichkarisiga tomon yigirma mil yo‘l yurmasdanoq bu yerning qayer ekanini bilib olsak kerak. Hisobda adashgan bo‘lsam ham ehtimol, chunki men astronomiya hisobi qilganim yo‘q. Basharti “Pilgrim” men mo‘ljallagandan butunlay boshqa qirg‘oqqa kelib urilgan bo‘lsa, unda nima bo‘ladi?...

– Ha... bu gaping to‘g‘ri, ukam, – deb javob qaytardi missis Ueldon xafaroq bo‘lib.

– Mening taklifimga siz nima deysiz, janob Benedikt? – deb so‘radi Dik Send.

– Menmi? – deb qayta so‘radi Benedikt tog‘a.

– Ha, siz bu to‘g‘rida nima deb o‘ylaysiz?

– Bu haqda menda hech qanday fikr yo‘q, – deb javob berdi Benedikt tog‘a, – menga nima desangiz, shunga xo‘p deyaveraman, nimani buyursangiz, bajaraveraman. Agar siz bu yerda bir-ikki kun qolaylik desangiz, men uchun qayta yaxshi, chunki men bundan foydalaniib, entomologiya nuqtayi nazaridan qirg‘oqdagi hasharotlarni tekshirardim.

– Mayli, Dik, bilganiningni qilaver. Tom bilan birga kuzatuvga bora-ver, biz esa bu yerda sizlarni kutib turamiz, – dedi missis Ueldon.

– Masala hal! Men esa bu yerning hasharotlari bilan tanishgani jo‘nay, – dedi Benedikt tog‘a soddagina qilib.

– Shunisi borki, janob Benedikt, tag‘in uzoqqa ketib qolmang, sizdan iltimos shu, – dedi Dik Send.

– Xotirjam bo‘l, uka.

– Ishqilib, chivnlarni bezovta qilib biz tomonga yubormasangiz bo‘lgani! – deb qo‘sib qo‘ydi Tom.

Birpasdan keyin entomolog qadrdon tunuka qutichasini bo‘yniga osib, “ovga” jo‘nab ketdi.

Negoro ham xuddi shu vaqtida g‘ordan chiqib ketdi. Bu odam hamma vaqt faqat o‘z g‘amini yer edi. Benedikt tog‘a toshlardan o‘rmalab



hindular –  
Amerikaning  
tub aholisi

entomologiya –  
hasharotlarni  
o‘rganuvchi fan

chiqib o'rmon tomon jo'nar ekan, Negoro asta-asta yurib soy bo'yiga tushdi, keyin soyni yoqalab yuqoriga qarab ketdi.

Missis Ueldon uqlab qolgan o'g'ilchasini Nan kampirning tizzasi-ga yotqizib qo'yib, o'zi qumloqqa chiqdi. Dik Send bilan negrlar uning ketidan chiqishdi.

Dengizda toshqin yo'qligidan foydalanib, pachaqlangan kema oldiga borish kerak edi, chunki unda sayohatchilar uchun kerak bo'ladigan ancha narsalar qolib ketgandi.

"Pilgrim" borib urilgan tosh endi ochilib qolgandi. Kema esa o'z bo'laklari orasida yonboshlab yotar edi. Kema urilib ketgan suvosti toshlari dengiz toshqinidan keyin aniq ko'rinish qolgandi. Bu holdan Dik Send juda hayron qoldi, chunki u Amerikaning Tinch okean qirg'og'ida bunday qattiq toshqinlar bo'lmasligini bilar edi. Dik bunga keyingi kunlarda bo'lgan qattiq shamol sababchidir, deb o'yaldi.

Missis Ueldon bilan uning hamrohlari majag'i chiqib yotgan kema-ni ko'rib juda xafa bo'ldilar. "Pilgrim"da ular ko'p kunlarini o'tkazgan, ko'p mashaqqatlar tortgan edilar axir! Hamma ustun va yelkanlaridan ajralib, o'lik hayvondek ag'anab yotgan kemani ko'rgach, yuraklari tuz sepgandek achidi.

Har holda, dengizda butunlay xarob bo'lib ketgunicha kemaga bir borish zarur edi.

Dik Send bilan besh negr hash-pash deguncha palubaga chiqib olishdi, Tom, Gerkules, Bat va Ostinlar esa kemaning chekkasida osilib qolgan arqonlarga tirmashib, oshxonada qolgan oziq-ovqat hamda ichimliklarni tashib olish bilan band bo'ldilar. Dik katta omborga kirib ketdi. Yaxshiyamki, garchi falokatdan keyin suv ostida qolgan bo'lsa ham, kemaning quyruq tomoniga suv kirmagan ekan.

Dik Send bu yerdan to'rtta yaxshi karabin miltiq va yuztacha o'q topib oldi. Mabodo yerlik hindular hujum qilib qoladigan bo'lsa, ular-ga qarshi turish uchun endi sayohatchilar qo'lida yaxshi qurol bor edi.

Dik Send cho'ntak fonarini olishni ham esidan chiqarmadi. Afsuski, kema burnidagi kayutada qolgan geografik xaritalar suv ichida qolib, yaroqsiz holga kelgan edi.

Dik Send kit to'shlarini ajratish uchun ishlatiladigan oltita katta pi-choqni ham oldi. Pichoqlar hamrohlari uchun qo'shimcha qurol edi. Shu bilan birga u Jekning kichkina o'yinchoq miltiqchasini ham topib oldi.

Kemadagi qolgan jihozlarning bir qismi falokat vaqtida yo nobud bo'lgan, yo suvda ishdan chiqqan edi. Yaqin oradagi odam turadigan joyga bir necha kunda yetib borish mumkin bo'lgandan keyin ortiqcha yuk ko'tarib yurishning hojati ham yo'q edi. Shunday qilib, oziq-ovqat bilan qurol-aslaha sayohatchilar uchun yetarli edi.

Dik Send endi ketay deb turganida, missis Ueldonning kemadagi pullarni olish kerak, degan maslahati esiga tushib qoldi. Dik atigi besh yuz dollar pul topdi, xolos, holbuki, missis Ueldonning o'ziga qarashli puli ham bundan ko'ra ancha ko'proq edi.

Bu yerga Dik Senddan oldin faqat Negoro kelishi mumkin, missis Ueldon bilan kapitan Gulning yig'ib yurgan pullarini ugina olishi mumkin edi. Bu o'g'irlikda bo'lak hech kimdan gumonsirash mum-

**karabin –**  
qisqa stvolli  
ov miltig'i

kin emasdi. Shunday bo'lsa ham, Dik Send boshda ikkilanib turdi. Bu kishi to'g'risida Dik nima bilardi? Shunigina bilardiki, Negoro odamlarga aralashmay yolg'iz yurishni yaxshi ko'rardi va boshqalarning boshiga tushgan kulfatdan miyig'ida kulib qo'yardi, xolos. Ammo buning uchun uni jinoyatchi deb bo'larmidi? Dik nima deyishini ham bilmas edi. Xo'p, bo'lmasa o'g'irlilikda kimdan gumonsirash mumkin edi. Negrlardan biridanmi? Ammo ular juda halol odamlar edi va shu bilan birga qirg'oqqa chiqqandan keyin missis Ueldon bilan Jekning yonidan hech qayoqqa jilmagan edilar. Negoro esa qirg'oqda anchagini o'ralishib yurdi. Yo'q, Negorodan bo'lak hech kim o'g'irlagan emas, o'g'ri xuddi o'shaning o'zi!

Dik Send qaytib kelishi bilanoq Negoroni so'roq qilishga va zarur bo'lsa, hatto uni tintishga ham qaror berdi. Dik bu masalani bir yoqlik qilishga astoydil kirishmoqchi bo'ldi!

### *Sizningcha, Dik Negorodan gumonsirab to'g'ri ish qilyaptimi?*

Kun botay deb qolgandi. Birpasdan keyin quyosh ufq orqasiga ya-shirindi. Oz-moz qosh qoraygan payt bo'lib turdi-da, keyin birdaniga qorong'i tushdi. Bu narsa Dik Sendning, Kozerok tropigi bilan ekvator orasi-dagi hududda falokatga uchralgani haqidagi taxminini tasdiqlar edi.

– Kechasi bo'ron bo'ladi! – dedi keksa Tom, osmonda uymalashgan qora bulutlarni ko'rsatib.

– Ha, shunday bo'lishi ehtimol, hazilakam shamol bo'lmaydiganga o'xshaydi, – deb Dik ham uning gapiga qo'shildi. – Bo'lsa bo'laversin, bizning nima ishimiz bor! Kemamiz falokatga uchragan bo'lsa, endi shamol bizlarga nima zarar yetkazardi.

Shunday qarorga kelishdiki, qorong'i tushganidan negrlar g'or og'zida navbatma-navbat qorovullik qildilar. Buning ustiga Dingoning ziyrakligi ham sayohatchilar uchun bir dalda edi.

Missis Ueldon, Dik va negrlar g'orga qaytib kelishdi. Benedikt tog'a haligacha kelmagan ekan.

Pahlavon Gerkules bor kuchi bilan bir hay-haylab chaqirgan edi, entomolog tik qoyadan shoshib-pishib tushayotganida boshini toshga urib olishiga sal qoldi.

Benedikt tog'aga juda alam qilgan edi. U kuni bo'yi sargardon bo'lib yurib, kolleksiyasiga qo'sha oladigan birorta ham yangi hasharot topolmadi. Mingoyoq va boshqa shu singari ko'poyoqlilardan boshqa hech gap yo'q ekan! Ma'lumki, Benedikt tog'aga ko'poyoqlilarning sira keragi yo'q edi!

– Esizgina, – deb achindi u, – besh ming milcha yo'l yurib, qatiq bo'ronlarga, falokatga uchrab, qanchadan qancha azob-uqubatlar chekib, hasharot muzeyini bezaydigan bitta ham oltioyoqli amerika hasharoti topilmasa-ya? Bir miri hayon, uch miri ziyon degan gapning o'zginasi bo'ldi-ya!

Shundan keyin Benedikt tog'a bu la'nati qirg'oqda bir daqiqa ham turmaganim bo'lsin, dedi va hammaning darrov yo'lga chiqishini talab qildi.

hayon –  
foyda

Missis Ueldon bu soqolli go'dakni zo'rg'a ovutdi. Missis Ueldon bugun bo'lmasa, ertaga topilib qolar o'sha oltioyoq, deb uni umidvor qilar va tinchitar edi. Keyin kun chiqqanga qadar mizg'ib olish uchun hammalari g'orga kirib ketishdi.

Tom qarasa, Negoro hali ham kelmabdi.

– Qayoqqa yo'qoldi ekan! – deb so'radi missis Ueldon.

– Bizning nima ishimiz bor, – dedi Bat.

– Menimcha, bu kishi doim ko'z o'ngimizda bo'lgani yaxshiroq, – dedi missis Ueldon.

– Rost aytasiz, missiz Ueldon, – dedi Dik Send unga, – lekin o'z ixtiyori bilan bizdan ajrab ketgan bo'lsa, uni qaytib kelishga majbur qilib bo'larmidi? Kim biladi deysiz, bizdan qochib ketishiga, ehtimol, biror sabab bordir?

Dik missis Ueldonni bir chekkaga chaqirib, unga pul to'g'risida o'z shubhasini aytdi. Missis Ueldon Dikning gaplariga sira ajablanmadni, chunki missis Ueldonning o'zi ham Negorodan gumon qilar edi.

– Basharti, Negoro qaytib kelsa, – dedi missis Ueldon, – demak, u o'g'irlagan pullarni biror joyga yashirib qo'ygan bo'ladi. Menimcha, biz uni jinoyat ustida qo'lga tushira olmaganimiz uchun, yaxshisi, shubhamizni bildirmasdan, o'zimizni bilmaganga solib yuraverishimiz kerak.

Missis Ueldonning gapi to'g'ri edi, shuning uchun Dik ham bunga qo'shildi.

Shu payt Gerkules Negoroni bir necha marta hay-haylab chaqirdi, lekin Negorodan dom-darak bo'lmasdi. Ehtimol, u uzoqlab ketib qolib, Gerkulesning ovozini eshitmagandir yoki qaytib kelishni xohlamagandir.

Negrlar portugaliyalikning ketib qolganiga sira ham achinmas edilar. Ammo, missis Ueldon aytganidek, Negoroning yiroqda yurganidan ko'ra yaqinda turgani xavfsizroq edi.

Shunisi qiziqliki, qanday qilib Negoro bunday notanish joylarda yolg'iz o'zi yurishga qo'rqmadiykin?

Adashib qolmaydimikan? Balki, u qorong'ida g'orning qayerdaligini topolmay yurgandir?

Missis Ueldon bilan Dik Send nima deyishlarini ham bilmasdilar. Nima bo'lsa ham, Negoroni deb shuncha odamning shirin uyqudan qolishi to'g'ri emasdi.

Qumloqda chopib yurgan Dingo birdaniga qattiq vovullay boshladni.

– Dingo nimaga vovullayapti ekan? – deb so'radi missis Ueldon.

– Hozir bilib kelaman, Negoro qaytib kelayotgandir, – dedi Dik Send.

Shu ondayoq Dik, Gerkules, Ostin va Bat g'ordan tashqariga chiqishdi. Lekin qirg'oqda hech kim yo'q edi. Dingo ham boshqa vovullamadi.

Dik Send bilan uning hamrohlari g'orga qaytib kirishdi. Negrlar navbatchilikni o'zaro taqsim qilishdi, shundan keyingina yo'lovchilar uyquga ketishdi.

Faqat missis Ueldonning ko'ziga uyqu kelmasdi. Zoriqib kutilgan yer nechukdir umidlarni puchga chiqardi, yo'lovchilar uchun xavfsiz sharoit tug'dirmadi va osoyishtalik keltirmadi.

*Malik Rahmon tarjimasi*

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Asar boshidagi Dik va Negoro haqidagi taassurotlaringiz keyinchalik qay darajada mustahkamlandi yoki o'zgardi? Nima uchun?
2. Asarni o'qishdan oldin muallif bu asarni o'g'li Mishelga sovg'a siyatida yozganini bilib olgan edik. Sizningcha, Jyul Vern o'g'lining qanday xislatlarga ega bo'lishini istagan? Asar Mishelning bu xislatlarga ega bo'lishida qay jihatdan yordam berishi mumkin?
3. Asardan dengizchilar hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz? Dengizchilar uchun qanday bilimlar muhim? Dengizchi bo'lish uchun qanday xislatlarga ega bo'lish kerak? Sizningcha, Dikdan yaxshi dengizchi chiqadimi?
4. Muallif asarni yozishda qaysi sohadagi bilimlariga suyangan? Sizningcha, bu bilimlar asarning qiziqarli va ishonarli chiqishiga qay darajada yordam bergen?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Ba'zan yozuvchilar asar davomida kutilmagan voqealar sodir bo'lishiga ishora qiladilar. Bunday ishoralar o'quvchini qiziqtirib, asarning davomini o'qishga undaydi. Misol uchun, "Pilgrim" kemasidagilar orolni ko'rib qolganlarida Dingo o'zini g'alati tutadi. Keyinchalik asarda bu orol itga tanish ekani oydinlashadi.

"Nima qilish kerak?" bobida yana qanday ishoralarini ko'rdingiz? Sizningcha, bu ishoralar bilan yozuvchi nima demoqchi? Guruhlarda ishlang. Jadvalni daftaringizda to'ldiring va sinfdoshlariningiza taqdimot qiling.



Ishora	Asar davomida qanday voqealari bo'lishi mumkin?

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

"O'n besh yoshli kapitan" romanini to'liq o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.



# ARTUR KONAN DOYL. “MALLALAR UYUSHMASI”

**Bu mavzuda biz:**


- detektiv asarlarga xos jihatlarni o'rganamiz;
- hikoyadagi voqealar rivojiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

## MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Artur Konan Doyl (1859–1930) – ingliz yozuvchisi, turli yo‘nalishlardagi (detektiv, tarixiy, ilmiy-fantastik, sarguzasht) ko‘plab asarlar muallifi. Adabiyot tarixiga u eng avvalo detektiv asarlar muallifi va dunyodagi eng mashhur izquvarlardan biri – Sherlok Xolmsning “otası” sifatida kirdi.

Arturning inson sifatida shakllanishida onasining xizmati katta edi. Ona farzandlarida bolaligidan halollik, or-nomus, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish singari xislatlarni shakllantirishga harakat qildi. “Onam birontamizning qing‘ir ish qilganimizni eshitgandan ko‘ra o‘limni afzal bilardi”, – deb eslaydi keyinchalik yozuvchi. Kichkinligidan onasi singdirgan xislatlar bir umrga Konan Doylning hamrohi bo‘ldi va asarlari qahramonlariga ham ko‘chib o‘tdi. Oilasini boqish, uka va singillariga yordam berish va kasal otasini davolash maqsadida Artur tinimsiz mehnat qildi, shifokorlik bilan birga (u tibbiyot oliygohini bitirgan edi) asarlar yozdi. Artur hatto bir necha marta o‘zi o‘ylab topgan qahramoni singari izquvarlik bilan shug‘ullanib, jinoyatlarni fosh qildi va begunoh insonlarni asossiz jazodan qutqarib qoldi.

Kitobxonlar Artur Konan Doylni eng avvalo Sherlok Xolms haqidagi asarlar muallifi sifatida tanishadi. Yozuvchi boshqa janrlarda ham asarlar yaratish maqsadida Sherlok Xolms obrazidan qutulishga harakat qilib, hikoyalaridan birida uni “o‘ldiradi”. Keyinchalik esa kitobxonlarning qat’iy talabi bilan uni “tiriltirishga” va u haqidagi asarlarini davom ettirishga majbur bo‘ladi.



## DETEKTIV ASARLAR HAQIDA BILIB OLAMIZ

Detektiv (inglizcha “detective” – “izquvar” so‘zidan) – sirli jinoyat-larning fosh qilinishi haqidagi asar. Bunday asarlarda biron jinoyat sodir qilinadi yoki unga tayyorgarlik ko‘riladi. Bosh qahramon – izquvar esa bu jinoyatni fosh qiladi. Asar davomida o‘quvchiga tushunarsiz yoki ahamiyatsiz tuyulgan barcha detallar, ikir-chikirlar jinoyatni fosh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Detektiv asarni o‘qir ekanmiz, “Bu ishni kim qildi?” degan savol asar oxirigacha bizni hayajonda ushlab turadi. Shuning uchun ham ingliz tilida bunday asarlar “whodunit” (ya’ni “Who has done it?” – “Buni kim qildi?”) deb ham ataladi.

*Detektiv asarlar o‘qiganmisiz? O‘ylab ko‘ring-chi, bunday asarlar o‘quvchi diqqatini oxirigacha ushlab turish uchun qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?*

## ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Angliya poytaxti Londondagi Beyker strit ko‘chasida 221-B raqamli uy bor. Sherlok Xolms shu uyda “yashagan”. Aslida, Konan Doyl davrida Beyker strit ko‘chasida bunday raqamli uy mavjud bo‘lma-gan, bu uy ham, unda yashovchi, sirli jinoyatlarni ochadigan va qiyin vaziyatlarga tushib qoladigan insonlarga yordam beradigan izquvar Sherlok Xolms ham, Xolmsning do’sti doktor Uotson ham mavjud bo‘lмаган – bularning bari Konan Doyl tomonidan o‘ylab topilgan. Biroq Sherlok Xolms shu darajada mashhur bo‘lib ketdiki, ko‘pchilik undan yordam yoki maslahat so‘rab bu manzilga xatlar yozishni bosh-ladi. Beyker strit ko‘chasidagi uylardan biriga 221-B raqami berilib, Sherlok Xolms muzeyi ochildi.

*Sizningcha, to‘qima (o‘ylab topilgan) obrazning bu qadar mashhurligi sabablari nimada bo‘lishi mumkin?*

*Siz bilan Sherlok Xolms haqidagi asarlar turkumidan “Mallalar uyushmasi” hikoyasini o‘qiymiz.*



Sherlok Xolms muzeyi, London



Hikoya asosidagi  
radiodramani  
tinglang

## MALLALAR UYUSHMASI

### I

Bu voqeа о‘тган yili kuzda bo‘lgan edi. Sherlok Xolmsning huzurida allaqanday juda semiz, о‘rta yoshlardagi qizg‘ish-malla kishi o‘tirardi. Men ichkariga kirmoqchi bo‘ldim-u, lekin ikkovilarini qizg‘in suhabat ustida ko‘rib, chiqib ketishga shoshildim. Ammo Xolms meni xonaga sudrab olib kirib, eshikni berkitdi.

- Kelganingiz ayni muddao bo‘ldi, azizim Uotson, – dedi u muloyimgina.
- Sizlarga xalal bermay dedim. Nazarimda, banddek ko‘rindingiz.
- Ha, bandman. Juda ham bandman.
- Narigi xonaga chiqib, kutib tura qolsam bo‘lmasmikin?
- Yo‘q, yo‘q... Mister Uilson, – dedi u semiz kishiga murojaat qilib,
- bu jentlmen muvaffaqiyatlari chiqqan tadqiqotlarimning ko‘pchiligidan menga ancha-muncha do’stona yordam ko‘rsatgan. Aminmanki, sizning ishingizda ham foydasi tegsa kerak.

Semiz kishi o‘tirgan yeridan sal qo‘zg‘alib menga bosh irg‘adi; uning semizlikdan qisilib ketgan kichkina ko‘zları menga sinchkovlik bilan tikildi.

- Mana bu yerga, divanga o‘tiring, – dedi Xolms.

U kresloga o‘tirdi va o‘yga toladigan vaqtlaridagi odatiga ko‘ra, ikkala qo‘lining uchlarini chirmshtirdi.

**jentlmen** –  
yaxshi tarbiya  
ko‘rgan kishi;  
Angliyada erkak-  
lar bir-birlariga  
shunday murojaat  
qilishadi

– Bilamanki, azizim Uotson, – dedi u, – siz mening hamma g‘ayrioddiy narsalarga, kundalik hayotimizning maromini buzadigan hamma narsaga ishqiboz ekanimni ma’qullaysiz. Agar sizda shu g‘ayrioddiy voqealarga ishqibozlik bo‘limganda mening kamtarona sarguzashtlarimni shu qadar zavq-shavq bilan yozib bormas edingiz... Zotan, sidqidandan aytishim kerakki, sizning ba’zi hikoyalaringizda mening faoliyatim bir qancha bo‘rttirib ko‘rsatiladi.

– Rostini aytganda, sizning sarguzashtlaringiz menga hamisha ni-hoyatda qiziq tuyulardi, – deb e’tiroz bildirdim men.

– Kuni kechagina sizga eng zo‘r xayol kuchi ham kundalik hayotimizda uchraydigan g‘ayrioddiy va alomat hodisalarini tasavvur etish-dan ojiz, degan edim shekilli.

– Men o’sha zahotiyoy bu fikringiz unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa kerak, degan edim.

– Shunga qaramay, doktor, meni haq deyishga majbur bo‘lasiz, aks holda, sizni shu qadar son-sanoqsiz, ajoyib va g‘aroyib faktlarga ko‘mib tashlaymanki, fikrimga qo‘shilishga majbur bo‘lib qolasiz. Mana, aqallli hozir menga mister Jebez Uilson aytib bergen voqeani olaylik. Bu voqea bo‘lib o‘tgan vaziyat mutlaqo sodda, oddiy, holbuki, umrim bino bo‘lib bunday voqeani eshitgan emasman... Mumkin bo‘lsa, mister Uilson, hikoyangizni takrorlasangiz. Buni sizdan do‘stim doktor Uotson hikoyanining boshini eshitsin, debgina iltimos qilayotganim yo‘q, men o‘zim ham har bir ikir-chikir tafsiloti bilan mumkin qadar yaxshiroq tanishib chiqsam. Odatda menga biron hodisani hikoya qila boshlanganlarida shunga o‘xshagan minglab hodisalar esimga tushadi. Ammo e’tirof etishga majburman, men hech qachon bunga o‘xshagan voqeani eshitgan emasdim.

Semiz mijoz biroz g‘ururlangannamo ko‘kragini kerib, paltosining ich cho‘ntagidan g‘ijimlangan kir gazeta oldi-da, uni tizzasiga yozib qo‘ydi. U bo‘ynini cho‘zib bosilgan e’lonlarga ko‘z yogurtirarkan, men boshdan oyoq razm solib, Sherlok Xolmsga taqlidan, uning kiyimi va tashqi qiyofasiga qarab kim ekanini bilib olishga tirishdim.

Afsuski, mening kuzatishlarim deyarli hech qanday natija bermadi. Bir ko‘rishdayoq uning o‘ziga bino qo‘yan, befarosat, tepsa tebranmas, oddiygina bir mayda do‘kondor ekanini payqash mumkin edi. Katak kulrang shimi beo‘xshov, kirgina qora syurtugining tugmalari solinmagan, qora nimchasi ustida tilla suvi yuritilgan yo‘g‘on mis zanjir yiltirar, uning uchida jevak o‘rnida parma bilan teshilgan allaqanday bir to‘rburchak metall parchasi osilib turar edi... Nimdoshgina silindri va g‘ijim baxmal yoqali, o‘ngib ketgan qo‘ng‘ir paltosi yonginasidagi stulda yotardi. Xullas, bu odamga qancha razm solmay, uning qizg‘ish sochidan boshqa ko‘zga tashlanadigan joyini ko‘rmadim. Uning qandaydir xunuk bir voqeadan sarosimada ekani ko‘rinib turardi.

Mening mashg‘ulotim Sherlok Xolmsning sinchkov nazaridan chetda qolmadi.

**syurtuk** –  
erkaklar kiyadigan  
uzun, kostyumga  
o‘xshagan kiyim

**jevak** –  
taqinchoq, bezak

**silindr** –  
erkaklar kiyadigan  
uzun shlyapa

**frankmason**  
(mason) –  
yashirin jamiyat  
a'zosi

**ser –**  
Angliya va  
inglizzabon  
mamlakatlarda  
erkaklar bir-  
birlariga shunday  
murojaat qilishadi

**tatuirovka –**  
badandagi surat  
yoki yozuv

\* "Hamma  
noma'lum  
narsalar bizga  
ajoyib bo'lib  
ko'rindi"  
(lotincha)

– Albatta, har kimga ayonki, – dedi u tabassum bilan, – bizning mehmonimiz bir vaqtlar jismoniy mehnat bilan shug'ullangan, u burunaki iskaydi, frankmasonlardan, Xitoyda bo'lgan, so'nggi oylarda ko'p xat yozishiga to'g'ri kelgan. Bu ayon-oshkor faktlardan boshqa hech narsani payqayolmadim.

*O'ylab ko'ring-chi, Sherlok Xolms mister Uilson haqidagi bu ma'lumotlarni qayerdan aniqladi?*

Mister Jebez Uilson kreslodan sapchib turdi va shahodat bar-mog'ini gazetadan olmay, oshnamga tikilib qoldi.

– Siz bularning hammasini qanday qilib bilib oldingiz, mister Xolms? – deb so'radi u. – Masalan, siz mening jismoniy mehnat bilan shug'ullanganimni qayoqdan bilasiz? Ha, darhaqiqat, men o'z faoliyatimni kemasoz duradgorlikdan boshlaganman.

– Buni qo'llaringiz aytib turibdi, muhtaram ser. O'ng qo'lingiz chap qo'lingizdan kattaroq. Siz shu qo'lingiz bilan ishlaganingiz uchun uning mushaklari baquvvatiroq bo'lib qolgan.

– Burunaki iskashimni-chi? Frankmasonligimni-chi?

– Frankmasonligingizni payqash qiyin emas, chunki siz jamiyatizingizning qat'iy nizomiga amal qilmay, yarim doira va doira tasviri bor ilgakli tugma taqib yuribsiz.

– E, ha! Bu esimga ham kelmabdi... Ko'p yozishga to'g'ri kelganini qanday payqadingiz?

– Yiltirab ketgan o'ng yengingiz bilan chap yengingizning tirsagi atrofidagi taqir bo'lib qolgan movut yana nimadan guvohlik bera olishi mumkin?

– Xitoyda bo'lganimni-chi?

– O'ng bilagingizda ko'rinish turgan baliqcha tasviri Xitoydagina chekilgan bo'lishi mumkin. Men tatuirovkalarni o'rganganman, ular haqida hatto maqolalar yozganman. Baliq tangachalarini nafis pushtirang bilan bo'yash odati faqat Xitoygagina xos. Soatingizning zanjiridagi Xitoy tangasini ko'rganimdan so'ng Xitoyda bo'lganingizga uzil-kesil qanoat hosil qildim.

Mister Jebez Uilson qah-qahlab kulib yubordi.

– Shunaqa deng?! – dedi u. – Men avvaliga siz bularni allaqanday alomat yo'llar bilan topasiz shekilli, deb o'ylagan edim, endi bilsam, osongina topayotgan ekansiz.

*Mazkur parchada tasvirlangan Sherlok Xolmsning aqliy qobiliyatlarini sizda qanday taassurot qoldirdi?*

– Fikrimcha, Uotson, bunday xulosaga qanday yo'l bilan kelganimni tushuntirib xato qildim shekilli, – dedi Xolms, – o'zingizga ma'lumi, "Omne ignotum pro, magnifico"\*, agar men rostgo'y bo'lsam, kam-

tarona shuhratimga putur yetadiganga o'xshaydi... E'ltonni topdingizmi, mister Uilson?

– Topdim, – deb javob berdi u yo'g'on, qizil barmog'ini gazeta us-tunining o'rtasiga nuqib turarkan. – Hamma ish shundan boshlandi. O'zingiz o'qib ko'ring, ser.

Men gazetani olib, o'qidim:

*MALLALAR UYUSHMASI. Lebanonlik (AQSH, Pensilvaniya) marhum Iezekiya Xopkinsning vasiyatiga binoan Uyushmaga yana bir kishi ishga olinadigan bo'ldi. Haftasiga muayyan ish uchun to'rt funt-sterling naqd maosh beriladi. Es-hushi joyida, zehni o'tkir, yigirma bir yoshdan kam bo'lmaning har bir malla tusli kishi bu ishga yaroqli topilishi mumkin. Uyushmaning Flit-strit, Pops-koortdag'i idorasiga, dushanba kunlari soat o'n birda shaxsan Dunkan Rossiga murojaat qilinsin.*

– Jin ursin, bu nima degani o'zi? – deb yubordim men, ana shug'alati e'ltonni ikkinchi bor o'qib chiqarkanman.

Xolms sassizgina kului-da, kresloda o'tirgan joyida g'ujanak bo'lib oldi, bu uning rosa huzur qilayotganidan dalolat berguvchi edi.

#### Gazetadagi e'lon nimasi bilan g'alati edi?

– Chakana e'lon emas-a, nima deysiz? – dedi u. – Xo'sh, mister Uilson, hikoyangizni davom ettirib, o'zingiz haqingizda, uyingiz haqida, bu e'lon sizning hayotingizda qanday rol o'ynagani haqida gapirib bering. Siz esa, doktor, mumkin bo'lsa, bu qaysi gazeta ekanini, qachon chiqqanini yozib qo'ysangiz.

– "Ertalabki xronika". 1890-yil 27-apreldagi soni. Roppa-rosa ikki oy burun chiqqan ekan.

– Juda soz. Davom ettiring, mister Uilson.

– Ilgari aytganimdek, mister Sherlok Xolms, – dedi Jebez Uilson peshonasini artib, – Siti yaqinidagi Saks-Koburg-skverda kichkinagina bo'nak kassam bor. Ishlarim ilgari ham uncha yaxshi emas edi, so'nggi ikki yil davomida esa undan keladigan daromad amal-taqal bilan tirik-chilik o'tkazib turishgagina yetardi. Bir vaqtlar ikki yordamchim bor edi, hozir esa bitta: unga haq to'lashim og'ir edi-yu, ammo u mening ishimni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish uchun yarim maosh evaziga ishlashga rozi bo'ldi.

– O'sha qimmatli yigitchaning oti nima? – deb so'radi Sherlok Xolms.

– Nomi Vinsent Spolding, uni yigitcha deb bo'lmaydi. Yoshi nechalaligini aytish qiyin. Undan epchilroq yordamchini topishim mahol. Uning mensiz ham kuni o'tib, ikki barobar ortiq pul topa olishini ham juda yaxshi tushunaman. Modomiki, u mamnun ekan, unga o'z manfaatlаримга putur yetkazadigan fikrlarni uqtirishimning nima hojati bor?

**funt-sterling –**  
Angliya pul birligi.  
O'sha paytda  
4 funt-sterling  
yaxshi pul bo'lgan.

**Siti –**  
Londonning mar-kaziy qismi, asosan tashkilotlar  
va idoralar joylashgan

**plastinka** –  
fotoplyonkalar  
va keyinchalik  
raqamli fotog-  
rafiya ixtiro  
qilinishidan oldin  
fotosuratlar bosil-  
gan material

– Darhaqiqat, nima hojati bor? Nazarimda, juda omadingiz kelgan ekan: siz yordamchingizga boshqalarga qaraganda ikki barobar kam haq to'larkansiz. Bizning davrimizda bunday betama xizmatchilar kamdan kam uchraydi.

– O, yordamchimning kamchiliklari ham bor! – dedi mister Uilson.  
– Surat olishga bunaqangi ishqiboz odamni hech qachon uchratmagan edim. Ish vaqtida apparatini shaqillatgani-shaqillatgan, keyin esa xuddi quyon iniga urib ketgandek yerto'laga sho'ng'iysi-da, plastinkalarni doriga solib ochiltiradi. Uning katta nuqsoni shu. Umuman esa chakki xizmatchi emas.

– U hozir ham xizmatingizni qilib turgan bo'lsa kerak?

– Ha, ser. O'sha-yu amal-taqal qilib ovqat pishirib, uyni supurib-sidirib turadigan o'n to'rt yashar qizaloq, boshqa hech kimim yo'q, xotinim o'lib ketgan, bolalarim ham yo'q. Uchalovimiz tinchgina turmush kechirayotibmiz, ser, uyning chirog'ini yoqib, ijara haqini to'lab turamiz – ko'rgan-kechirganimiz shu... Bu e'lon bizni yo'ldan adashtirdi, – deb gapini davom ettirdi mister Uilson. – Bugun roppa-rosa sakkiz hafta bo'la-di Spolding qo'lida shu gazeta bilan idoramga kirib kelganiga.

“Qani endi meni ham xudo malla qilib yaratgan bo'lsa, mister Uilson”.

“Nega?” – deb so'radim men.

“Mana, – dedi, – Mallalar uyushmasida yangi o'rinn tayin qilinibdi. Bu o'rinni egallagan odam hazilakam daromadga ega bo'lmaydi. U yerda ishga kirmoqchi bo'lgan talabgorlardan ko'ra bo'sh o'rinnlar ko'proq bo'lsa kerak, vasiylar ham pullarni nima qilishlarini bilmay rosa boshlari qotayotgandir. Agar sochimning rangi o'zgarib qolganida bormi, albatta o'sha serdaromad o'rinni egallardim”.

“Mallalar uyushmasi nima degani o'zi?” – deb so'radim men.

– Bilasizmi, mister Xolms, men yurimsak emasman, ish ketidan quvmayman, ish o'zi meni qidirib keladigan bo'lgani uchun ba'zan haftalab ostona hatlab ko'chaga chiqmayman. Shuning uchun ham olamda bo'layotgan ishlardan bexabar qolaman, yangiliklarni hamisha maroq bilan eshitaman...

“Siz nahotki Mallalar uyushmasi haqida hech qachon eshitmagan bo'lsangiz?” – deb so'radi taajjub bilan Spolding ko'zlari chaqchayib.

“Hech qachon”.

“Bu meni juda ham taajjublanadir, chunki siz o'sha bo'sh o'rinni egallahsha haq-huquqi bo'lganlardan birisiz-ku”.

“Bu qancha daromad keltirishi mumkin?” – deb so'radim.

“Yiliga ikki yuz funt-sterlingga yaqin, ortiq emas, juda ham yengil ish, buning ustiga ayni vaqtida har qanday boshqa ish bilan ham bemalol shug'ullanaversa bo'ladi”.

Tabiiyki, quoqlarimni ding qildim. Chunki mening muassasam so'nggi vaqtarda juda oz daromad keltirmoqda, yiliga qo'shimcha ikki yuz funt esa ancha kunimga yarashi mumkin edi.

“Bu uyushma haqida bilganlaringizni aytib bering”, – dedim.

“O’zingiz ko’rib turibsizki, – deb javob berdi Spolding menga e’lonni ko’rsatib, – Mallalar uyushmasida bo’sh o’rin bor ekan, mana bu adresi, tafsilotlarini bilmoqchi bo’lsangiz, shunga murojaat qilishingiz mumkin. Bilishimcha, bu uyushmaga Iezekiya Xopkins degan amerikalik bir dovdir tabiatli millioner asos solgan. Uning o’zi qizg’ish-malla tusli bo’lib, dunyodagi hamma mallalarga xayrixoh ekan. U o’layotganida o’z vasiylariga katta mablag’ qoldirib, bu mablag’ni sochlari to’q malla tusdagi odamlarning qismatlarini yengillatishga ishlatishni vasiyat qilgan ekan. Aytishlaricha, bu baxtiyor odamlarga tappa-tuzuk maosh to’lasharmish, ulardan deyarli hech qanday ish talab qilishmasmish”.

“Axir malla odamlar million-million-ku, – dedim men, – ularning har biri ham bo’sh o’rinni egallagisi keladi”.

“Siz o’ylaganchalik ko’p emas ular, – deb javob berdi u. – Ko’rib turibsizki, e’lon faqat londonliklarga, shunda ham katta kishilarga qaratilgan. O’sha amerikalik Londonda tug’ilib, yoshligini shu yerda o’tkazgan, o’zi tug’ilib o’sgan shaharga valine’matlik qilmoqchi bo’lgan. Bundan tashqari, eshitishimga qaraganda Mallalar uyushmasiga sochlari och mallarang yoki to’q mallarang shaxslarning murojaat qilishlari foydasiz – u yerda sochlari yorqin, ko’zni qamashtiradigan, qizg’ish-malla tusdagi kishilarnigina ishga olisharkan. Agar siz bu taklifdan foydalanmoqchi bo’lsangiz, mister Uilson, Mallalar uyushmasining idorasiga kirib borsangiz kifoya. Ammo bir necha yuz funt deb asosiy mashg’ulotingizdan chalg’ib yurishingizing ma’nosи bormikan?..”

*Sizningcha, Mallalar uyushmasining maqsadi nima bo’lishi mumkin?*

O’zlarining ko’rib turibsizlarki, jentlmenlar, mening sochim yorqin, serjilo tusga ega bo’lgan to’q mallarang soch, mallalar raqobat qilib qolganlarida ham baribir men bu bo’sh o’rinni egallasam kerak, deb o’ylagan edim. Vinsent Spolding bu ishdan har tomonlama xabardor bo’lgani uchun menga katta yordam berishi mumkin edi, shuning uchun ham darchalarni kechgacha yopib, meni uyushma binosiga ku-zatib borishini buyurdim. U bugun ishdan ozod bo’lganiga juda sevinib ketdi. Biz idorani berkitib, e’londa ko’rsatilgan manzilga qarab jo’nadik. U yerda shunday bir tomoshani ko’rdimki, mister Xolms, bunday tomoshani endi sira ham ko’rolmasam kerak. Shimoldan, janubdan, sharqdan, g’arbdan kimningki sochi sal-pal malla tusli bo’lsa, e’lonni o’qiboq Sitiga yopirilib kelaveribdi. Flit-stritda mallalar tirband bo’lib ketgan. Pops-koort esa apelsinfurushning g’altak aravasiga o’xshar edi. Men hech qachon Angliyada shuncha malla bor, deb o’ylamagan edim.

Bu yerda mallarang tusning har xil turlari bor, poxolrang, limonrang, qizg’ishrang, g’ishtrang, irland setterlari tusidagi, safro tusidagi, loy tusidagi ranglar bor; ammo Spolding aytganidek, chi-



irland setteri

nakam yorqin, qizg'ish-mallarang tusdagi boshlar bu yerda juda oz edi. Shunga qaramay, bu yerga to'plangan olomonni ko'rib, umidim puchga chiqay deb qoldi. Spolding esa bo'sh kelmadi. Qanday evini qilganini bilmayman-u, u jon-jahdi bilan tiqilib-suqilib meni xaloyiq orasidan olib o'tdi, biz idora zinapoyasi oldiga yetib bordik. Odamlar turnaqator tizilib zinapoyadan chiqib-tushib turar edi; ba'zilari umid-ishtiyooq bilan chiqib borishar, ba'zilari esa ma'yuslik bilan tushib kelishar edi. Biz oldinga yorib o'ta-o'ta tez orada idoraga kirib bordik...

– Siz juda qiziq voqeaga duch kelib qolib siz! – dedi Xolms mijozи xotirlab olish uchun bir chimdim burunaki iskab indamay qolganda. – Marhamat, hikoyangizni davom ettiring.

– Idorada ikkita yog'och stul bilan oddiygina qarag'ay stoldan boshqa hech narsa yo'q, unda mendan ham mallaroq kichkina bir odam o'tirardi. U stol oldiga kelgan nomzodlarning har qaysisi bilan bir-ikki og'iz so'zlashib, ularning har qaysisidan qanday bo'lmasin bir nuqson topardi. Aftidan, bo'sh o'rinni egallah uncha oson emas edi. Biroq biz o'z navbatimizda stolga yaqinlashib borar ekanmiz, kichkina odam meni boshqa nomzodlarga qaraganda anchagina xushmuomalaroq qarshi olib, ichkariga kirgan zahotimizoq biz bilan xoli gaplashish uchun eshikni ichkaridan berkitib qo'ydi.

“Bu kishi mister Jebez Uilson, – dedi yordamchim. U uyushmadagi bo'sh o'rinni egallamoqchi edi”.

“U bu o'ringa juda munosib, – deb javob berdi haligi odam. – Men ko'pdan beri bunday ajoyib sochni ko'rishga muyassar bo'limgan edim!”

U bir qadam orqaga tashlab, boshini bir tomonga qiyshaytirdi-da, sochlaringma shu qadar uzoq tikilib qoldiki, men juda o'ng'aysizlandim. Keyin birdan oldinga tashlanib qo'llarimga yopishdi-da, qizg'in tabrikladi.

“Men hardamxayollik qilsam insofdan bo'lmas, – dedi u. – Biroq ishonamanki, ba'zi ehtiyot choralarini ko'rsam, meni kechirasiz”.

U ikkala qo'li bilan sochimni changallab shunday tortdiki, og'riqdan dodlab yubordim.

*Uyushma vakili nima maqsadda mister Uilsonning sochidan tortdi deb o'ylaysiz?*

“Ko'zlariningizdan yosh chiqib ketdi, – dedi u sochimni qo'yib yuborib. – Demak, hammasi joyida. Kechirasiz, ehtiyot bo'lmasak bo'lmaydi. Chunki bizni ikki marta parik kiyib kelib, yana bir marta sochini bo'yab kelib aldashgan. Sizga ba'zilarning shunday vijdonsizlarcha ishlatgan hiylayi nayranglarini aytib berishim mumkinki, odamlarga nisbatan nafratingiz oshib ketadi”.

U deraza oldiga borib, bo'sh o'rin band qilinganini qichqirib aytdi. Pastdan oh-voh, o'kinch sadolari eshitildi, xaloyiq har tomonga tarqa-

lib ketdi, tez orada bu atrofda meni yollayotgan haligi odam bilan ikkavimizdan boshqa malla qolmadi.

“Mening otim mister Dunkan Ross, – dedi u, – men ham saxovatli valine’matimiz qoldirgan o’sha fonddan nafaqa olaman. Siz uylanganmisiz, mister Uilson? Oilangiz bormi?”

Men befarzand, so’qqabosh odam ekanimni aytdim. Uning chehrasida qayg’u izlari ko’rindi.

“Yo rabbiy! – dedi u tundlik bilan. – Axir bu juda ham jiddiy to’siqku! Afsuslar bo’lsinki, siz uylanmagan ekansiz! Fond mallalarni boqish uchungina emas, ularning nasl-nasabini ko’paytirib, tarqatish uchun barpo qilingan edi. Afsus, bo’ydoq ekansiz-da!”

Bu so’zlarni eshitarkanman, tarvuzim qo’ltig‘imdan tushib ketdi. Mister Xolms, nega desangiz, meni olishmas ekan, deb xavotirga tushib qoldim: ammo u o’ylab ko’rib, yo’lini topishini aytdi.

“Sizdan boshqa har qanday odam bo’lganda ham qoidadan chekinmasdik, ammo shunday sochi bor odamni qo’llab-quvvatlash mumkin. Yangi vazifangizni qachondan e’tiboran ado eta boshlashingiz mumkin?”

“Bu biroz mushkulroq, chunki men boshqa bir muassasada bandman”, – dedim.

“Bunisidan tashvishlanmang, mister Uilson! – dedi Vinset Spolding. – U ishni sizsiz o’zim ham eplayveraman”.

“Bu yerda qaysi soatlarda band bo’laman?” – deb so’radim men.

“O’ndan ikkigacha”.

Bo’nak kassalarida asosiy ish kechqurunlari, ayniqsa, maosh berilishi arafasida payshanba, juma kunlari bo’ladi, shuning uchun uncha-muncha pul ishlasak, chakki emas, degan qarorga keldim. Qolaversa, yordamchim ishonchli odam, kerak bo’lganda bemalol o’rnimda ishlayveradi.

“Bu soatlar menga to’g’ri keladi, – dedim. – Qanday maosh to’laysizlar o’zi?”

“Haftasiga to’rt funt”.

“Qiladigan ishim nimadan iborat bo’ladi?”

“Muayyan ishdan iborat bo’ladi”.

“Muayyan ish deganingiz nima?”

“Ish vaqtida siz idoramizda yoki, aqalli, idoramiz joylashgan binda bo’lishingiz kerak. Bordi-yu, biron marta ish vaqtida ketib qolar-kansiz, bu xizmatdan umrbod mahrum bo’lasiz. Vasiyat qiluvchi ayniqsa shu moddaga qattiq rioya qilishni talab etgan. Agar biron marta ish vaqtida idoramizdan chiqib ketsangiz, talablarimizni bajarmagan hisoblanasiz”.

“Agar gap kuniga to’rt soat vaqt haqida ketayotgan bo’lsa, idoradan chiqib ketishni xayolimga ham keltirmayman”, – dedim.

“Shuni bilib qo’yingki, – deb takrorladi mister Dunkan Ross, – biz keyin hech qanday afv-o’tinchlarining qulog solmaymiz. Hech qanday kasal, hech qanday ish bahona bo’lolmaydi. Xizmat vaqtida idora-da bo’lishingiz shart – bo’lmasa xizmatdan ketasiz”.

**“Ishim nimadan iborat bo‘ladi?”**

“Siz “Britaniya qomusi”ni ko‘chirib yozasiz. Birinchi tomi – mana shu shkafda. Siyoh, patqalam, qog‘oz bilan bosma qog‘ozni o‘zingiz olib kelasiz: biz esa sizga stol bilan stul beramiz. Ertadan ish boshlay olasizmi?”

“Albatta”, – deb javob berdim.

“Unday bo‘lsa, xayr, mister Jebez Uilson. Shunday yaxshi o‘rinni egallahsga muvaffaq bo‘lganingiz bilan sizni yana bir marta tabriklashga ruxsat eting”.

U menga bosh silkidi. Xonadan chiqib, omadim kelganidan quvon-gancha yordamchim bilan uyga qarab jo‘nadim.

Men bu hodisa haqida uzzukun o‘yladim, kechga borib hafsalam pir bo‘layozdi, chunki miyamga bu ishlarning hammasi shunchaki bir qalloblik bo‘lsa kerak, degan fikr keldi, ammo bu tadbirdan maqsad nima ekanini o‘ylay-o‘ylay sira tushunolmadim. Shunday vasiyatnomaning borligiga, “Britaniya qomusi”ni ko‘chirib yozishga odamlar shu qadar ko‘p pul to‘lashga rozi ekanlariga aql bovar qilmasdi.

Vinsent Spolding jon-dili bilan menga dalda berishga urinardi, ammo men yotayotganimda bu ishdan voz kechishga qat’iy qaror qildim. Biroq ertalab miyamga har ehtimolga qarshi u yerga bir borib ko‘ray-chi, degan fikr keldi. Bir penniga siyoh sotib olib, g‘oz pati bilan yetti taxta katta qog‘ozni ko‘tarib Pops-koortga jo‘nadim. Taajjubki, u yerda hamma ishlar joyida edi. Juda sevinib ketdim. Stol ishlashim uchun tayyor qilib qo‘yilgan, mister Dunkan Ross meni kutib turgan ekan. U menga “A” harfidan boshlashni buyurib chiqib ketdi, ammo vaqtı-vaqtı bilan ido-raga qaytib kirib, ishlayotgan-ishlamayotganidan xabar olib turardi. Soat ikkida u men bilan xayrlasharkan, shuncha ko‘p ko‘chirib yozganimni maqtadi-da, orqamdan idoraning eshigini berkitib oldi.

Kunlar shu yo‘sinda o‘taverdi, mister Xolms. Shanba kuni xo‘jayi-nim stolga bir haftalik haqim – to‘rtta oltin soverenni olib kelib qo‘ydi. Ikkinchи hafta ham shunday o‘tdi, uchinchi hafta ham. Men u yerga har kuni roppa-rosa o‘nda borib, roppa-rosa ikkida qaytardim. Bora-bora mister Dunkan Ross idoraga faqat ertalablari kiradigan, keyinroq esa mutlaqo kirmaydigan bo‘lib qoldi. Shunga qaramay, tabiiy, men xonadan bir daqiqaga ham chiqishga jur‘at qilolmasdim. Chunki uning kelmasligiga amin emasdim, shunday foydali ishdan ajralib qolishdan qo‘rqardim ham.

*Mallalar uyushmasining maqsadi oydinlashdimi? Mister Uilsonni ishga olib, unga kitobni ko‘chirtirish zamirida qanday mantiq bo‘lishi mumkin?*

Sakkiz hafta o‘tdi; men “Abbatlar”, “Artilleriya”, “Arxitektura”, “Attika” maqolalarini ko‘chirib, tez orada “B” harfiga o‘taman, deb umid qilgan edim. Ancha-muncha qog‘oz sarf qilgan edim, ko‘chirib

penni –  
chaqa pul

soveren –  
oltin tanga

raf –  
tokcha

yozganlarim rafga arang sig'ardi. Ammo ishim birdan adoyi tamom bo'ldi-qoldi.

– Tamom bo'ldi-qoldi?

– Ha, ser. Bugun ertalab. Odadagidek, soat o'nda ishga borsam, eshik qulfloqliq, unga bir parcha karton qoqib qo'yilibdi. Mana u, o'zingiz o'qib ko'ring.

U bizga qo'yin daftarchaning bir varag'icha keladigan karton uzatdi. Kartonda quyidagi so'zlar yozilgan edi:

*MALLALAR UYUSHMASI 1890-YIL 9-OKTYABRDA TAR-QATIB YUBORILDI.*

Sherlok Xolms ikkovimiz bu qisqa yozuvga ham, Jebez Uilsonning ma'yus qiyofasiga ham uzoq tikilib o'tirdik; nihoyat, o'zimizni tiyolmay qahqahlab yubordik.

– Buning hech kuladigan joyi yo'q – deya qichqirib o'rnidan sap-chib turgan mijozimizning qizg'ish sochlari taglarigacha qizarib ketdi.  
– Agar siz yordam berish o'rniliga ustidan kulmoqchi bo'lsangiz, yordam so'rab boshqa odamga murojaat qilaman.

– Yo'q, yo'q! – deb xitob qildi Xolms, uni yana kresloga o'tqazar-kan. – Sizning ishingizdan o'la qolsam ham voz kechmayman. Bu ishning yangiligidan dilim bahra oladi. Ammo uning, meni kechirasiz, har qalay, qandaydir alomat jihatli bor... Eshikka qoqib qo'yilgan bu yozuvni topganingizdan keyin nima chora ko'rdingiz?

– Hang-mang bo'lib qoldim, ser. Nima qilishimni bilmadim. Qo'shni idoralarning hammasiga kirib chiqdim, lekin u yerdagilar-ning birontasi ham hech narsa bilmas ekan. Nihoyat pastki qavatda yashaydigan uy egasining oldiga kirib, Mallalar uyushmasiga nima bo'lganini bilmaysizmi, deb so'radim. U bunaqa tashkilotni sira ham eshitmaganman, deb javob berdi. Shundan keyin undan mister Dunkan Ross kim bo'ladi, deb so'radim. U bu ismni birinchi eshitshim, deb javob berdi.

“Men to'rtinchı raqamli kvartirangizni ijara ga olgan jentlmenni aytyapman”, – dedim.

“Mallani aytyapsizmi?”

“Ha”.

“Uning oti Uilyam Morris. U yurist, joyimni vaqtincha ijara ga olgan edi – uning doimiy idorasasi remont qilinayotgan ekan. Kecha ko'chib ketdi”.

“Uni qayerdan topsa bo'ladi?”

“Doimiy idorasidan. Adresini tashlab ketgan. Mana: “King-Eduard-strit, 17, avliyo Pavel jomesining yaqinida”.

Men o'sha adresga qidirib bordim, mister Xolms, u yer yog'och oyoq ustaxonasi ekan; u yerdagilarning birontasi ham hech qachon na mister Uilyam Morrisning, na mister Dunkan Rossning nomini eshitgan ekan.

– Shundan keyin nima qildingiz? – deb so‘radi Xolms.

– Keyin Saks-Koburg-skverga, uyimga qaytib keldim, yordam-chim bilan maslahatlashdim. U menga hech qanday yordam berol-madi. U kutib tura turing-chi, pochta orqali biron xabar berishar, dedi. Menga bu to‘g‘ri kelmaydi, mister Xolms. Men shunday ajoyib joyni osonlikcha qo‘ldan berib qo‘ymoqchi emasman. Sizning mush-kul ahvolga tushib qolgan kambag‘al odamlardan o‘z maslahatingizni ayamasligingizni eshitib yurardim, shuning uchun to‘ppa-to‘g‘ri oldingizga kelaverdim.

– To‘g‘ri qilgansiz, – dedi Xolms. – Siz aytgan hodisa – ajoyib hodisa, men u bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lganimdan baxtiyor-man. So‘zlariningizni eshitib shunday xulosaga keldimki, bu ish birinchi qarashda tuyulishi mumkin bo‘lganidan ko‘ra jiddiyroq.

– Ha, hazilakam ish emas! – dedi mister Jebez Uilson. – Men haf-tasiga tushib turgan mo‘maygina to‘rt funtdan mahrum bo‘ldim.

– Shaxsan sizning to‘g‘ringizda gapiradigan bo‘lsak, – dedi Xolms, – bu g‘ayrioddiy uyushmadan nolishingiz o‘rinsiz. Aksincha, fahm-lashimcha, u tufayli o‘ttiz funtcha boylik orttiribsiz, bundan tashqari “A” harfidan boshlanadigan narsalar haqida chuqur bilim orttirga-ningizni aytmasa ham bo‘ladi.

– To‘g‘ri, darhaqiqat shunday, ser. Ammo men ularni qidirib top-moqchi edim, ularning kimligini, agar bu qilmishlarini hazil deb bilsa, nega men bilan shu tariqa hazillashganlarini bilmoqchi edim. Bu er-mak ularga juda qimmatga tushdi: ular o‘ttiz ikki funtlaridan ajradilar.

– Biz bularning hammasini aniqlashga urinib ko‘ramiz. Ammo av-val sizga bir necha savol berishga ruxsat etsangiz, mister Uilson. O‘sha e’lonni ko‘rsatgan yordamchingiz sizda qachondan beri xizmat qiladi?

– O‘sha vaqtda bir oycha bo‘lib qolgan edi.

– Siz uni qayerdan topgan edingiz?

– U mening oldimga gazetada e’lon berganimdan keyin kelgan edi.

– E’loningizni o‘qib, o‘shaning o‘zingga kelganmidi?

– Yo‘q, o‘ntacha odam keldi.

– Nima uchun o‘shaning o‘ziningga oldingiz?

– Qarasam chaqqonroq, haqni ham kam oladigan.

– Yarim maosh olib ishslashga rozi bo‘lganiga uchdingizmi?

– Ha.

– O‘sha Vincent Spolding deganining qiyofasi qanaqa?

– Kichik jussali, g‘o‘labur, serharakat. O‘ttizga borib qolgan bo‘lsa ham, iyagida bironta tuk yo‘q. Peshonasida kislota kuydirgan oppoq dog‘ bor.

Xolms qaddini rostladi. U juda hayajonlangan edi.

– O‘zim ham shundaydir deb o‘ylagan edim! – dedi u. – Uning qu-loqlaridagi zirak taqadigan teshiklarga ko‘zingiz tushmadimi?

*Xolms nima sababdan hayajonlangan bo‘lishi mumkin?*

g‘o‘labur –  
to‘ladan kelgan,  
baquvvat

- Ko‘rganman, ser. U menga qulog‘imni bolaligimda allaqanday lo‘li xotin teshgan, deb tushuntirdi.
- Himm! – deb qo‘ydi Xolms va chuqur o‘y surgancha o‘zini kreslo-ning suyanchig‘iga tashladi. – U hali ham siznikidami?
- Ha, albatta, ser, uni hozirgina ko‘rdim.
- Uyda yo‘qligingizda u ishlaringizni durust eplab turadimi?
- Nolisam bo‘lmas, ser. Zotan, ertalablari bo‘nak kassamda deyarli hech qanday ish bo‘lmaydi.
- Bas, mister Uilson. Bir-ikki kundan keyin bu voqeа to‘g‘risidagi fikrimni sizga bajonidil xabar qilaman. Bugun shanba... Umid qila-manki, dushmanba kuni biz hamma gapdan voqif bo‘lsak kerak.
- Xo‘sh, Uotson, – dedi Xolms mijozimiz ketgach, – siz bularni nima deb o‘ylaysiz?
- Hech narsa deb o‘ylayotganim yo‘q, – deb ro‘yirost javob berdim men. – Bu ish menga g‘oyatda sirli tuyulmoqda.
- Taomil shuki, – dedi Xolms, – hodisa qanchalik g‘alati bo‘lsa, uning sirli tomonlari shu qadar kam bo‘ladi. Olomon orasidan oddiy qiyofali odamni topish nechog‘li qiyin bo‘lsa, oddiygina jinoyatlarni aniqlash ham shu qadar mushkul. Ammo bu hodisani mumkin qadar tezroq bartaraf qilish kerak.

*“Hodisa qanchalik g‘alati bo‘lsa, uning sirli tomonlari shu qadar kam bo‘ladi”. Xolms bu bilan nima demoqchi? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi?*

taomil –  
odatiy  
tartib-qoida

- Xo‘sh, endi nima qilmoqchisiz? – deb so‘radim.
- Chekmoqchiman, – deb javob berdi u. – Bu uch marta trubka chekkuncha o‘ylab mag‘zini chaqsa bo‘ladigan masala, shuning uchun meni o‘n minutcha gapga solmay tursangiz.

U ozg‘in tizzalarini yig‘ishtirib qirg‘iy burniga yaqin olib borgancha kresloda g‘ujanak bo‘lib oldi va ko‘zlarini yumib, allaqanday g‘alati bir qushning tumshug‘iga o‘xshagan qora sopol trubkasini tishlagancha uzoq o‘tirdi. Men uni uxbab qoldi, deb o‘ylab o‘zim ham mizg‘iy bosh-lagan edimki, qat‘iy bir qarorga kelgan odamdek o‘rnidan sakrab tur-di-da, trubkasini kaminga qo‘ydi.

- Sarasate bugun Sent-Jeyms-xollda chaladi, – dedi u. – Siz bun-ga nima deysiz, Uotson? Bemorlaringiz bir necha soatgina sizsiz tura olisharmikan?

- Bugun bo‘shman. Ishim uncha ko‘p vaqt ni olmaydi.
- Unday bo‘lsa, shlyapangizni kiying, ketdik. Men avval Sitiga bo-rishim kerak. Yo‘l-yo‘lakay biron joyda ovqatlanarmiz.

Biz metroda Oldersgetgacha borib, u yerdan ertalab eshitgan voqealarimiz yuz bergen Saks-Koburg-skverga yayov jo‘nadik.

Sarasate –  
mashhur ispan  
bastakori,  
skripkachi

## MUHOKAMA QILAMIZ


1. Sherlok Xolms sizda qanday taassurot qoldirdi? Mister Uilson-chi? Ularni qanday sifatlar bilan tasvirlash mumkin? Fikringizni matndan misollar bilan dalillang.
2. Sizningcha, asar davomida qanday voqealar sodir bo'ladi?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Sherlok Xolms biron kishi, narsa yoki voqeа haqida xulosa chiqarishda deduktiv usuldan foydalanadi. Jadvalni daftaringizda davom ettiring. Deduktiv usul qanday ekanini topishga harakat qiling.

Mister Uilson haqida Sherlok Xolms xulosasi	Nima uchun Xolms shu xulosaga keldi?
Bir vaqtlar jismoniy mehnat bilan shug'ullangan	O'ng qo'l mushaklari chap qo'l mushaklaridan baquvvatroq

Deduktiv usulni qo'llagan holda atrofingizdagи narsalar yoki voqealar haqida xulosa chiqarib ko'ring. Qaysi guruhning xulosalari eng qiziq va ishonarli chiqdi?



## II

Saks-Koburg-skver oqsuyaklarga xosroq, g'aribgina xilvat bir maydoncha. To'rt qator kir-iflos ikki qavatli g'isht uylarning derazalari o't-alaf bosgan kichkinagina bog'chaga qaragan, bog'chaning o'rtasida bir necha tup urvoqqina lavr butalari qurum bosgan havo bilan kurashib jon talashib yotibdi. Zarhal yuritilgan uchta shar va muyulishga osilgan oq harflar bilan "Jebez Uilson" deb yozilgan jigarrang lavha malla mijozning muassasasi shu yerda ekanini bildirib turardi.

Sherlok Xolms eshik oldida to'xtab, yuminqiragan mijjalari orasidan chaqnoq ko'zlarini unga tikdi. Keyin ko'chadan asta yurib borib, uylarni diqqat bilan ko'zdan kechirgancha yana muyulishga qaytib keldi. Bo'nak kassasining oldida hassasi bilan toshko'chani uch marta qattiq urib ko'rdi, so'ngra eshikka yaqin borib, uni taqillatdi. Eshikni shu ondayoq soqol-mo'ylovi qirtishlab olingen chaqqon yigit ochdi-da, bizni ichkariga taklif qildi.

– Tashakkur, – dedi Xolms. – Men faqat Strengda qanday borsa bo'ladi, deb so'ramoqchi edim.

– Uchinchi ko'chaga borganda o'ngga burilasiz, keyin to'rtinchiko'chaga borganda chapga, – deb darhol javob berdi mister Uilsonning yordamchisi va eshikni taq etib yopdi.

– Epchil yigit ekan! – deb qo'ydi Xolms biz yana ko'cha bo'ylab borarkanmiz. – Menimcha, u epchillikda London bo'yicha to'rtinchio'rinda tursa kerak, dovyuraklikda esa uchinchi o'rinda bo'lsa ham ajab emas. Uning to'g'risida uncha-muncha ma'lumotlar bor.

– Nazarimda, – dedim men, – mister Uilsonning yordamchisi Malla lar uyushmasida hazilakam rol o'ynamasa kerak. Aminmanki, siz undan yo'lni faqat o'zini ko'rish uchungina so'radingiz.

- O'zinimas.
- Nimani bo'lmasa?
- Tizzalarini.
- Xo'sh, tizzalarida nimani ko'rdingiz?
- Kutgan narsamni ko'rdim.

*Sherlok Xolms Uilsonning yordamchisi tizzalarida nimani ko'rgan bo'lishi mumkin? Nima uchun toshko'chani hassasi bilan urib ko'rdi?*

– Ko'cha toshlarini nimaga urib ko'rdingiz?  
 – Muhtaram doktor, hozir gap sotishning fursati emas, kuzatish kerak. Biz – dushman qarorgohidagi ayg'oqchilarimiz. Biz Saks-Koburg-skverda ba'zi bir narsalarni bilib olishga muvaffaq bo'ldik. Endi ular ga narigi tomondan kelib tutashadigan ko'chalarni ko'zdan kechirib chiqamiz.



**vegetarianlar –**  
go'sht  
yemaydiganlar

Saks-Koburg-skver tuyulishidan burilganimizdan keyingi manzara orasida yer bilan osmoncha farq bor edi. Muyulishdan burilgach, shaharning Sitini shimol va g'arb bilan bog'lab turadigan asosiy qon tomirlaridan biri o'tar edi. Bu katta ko'cha boshdan oyoq ikki oqim hosil qilib o'ngga va so'lga qatnab turgan ekipajlar bilan to'lgan, yo'lkalarda esa g'uj-g'uj o'tkinchilar, qator ajoyib magazinlar va hashamatli mahkamalarga qarab xuddi shu uylarning orqasida naqadar g'arib, kimsasiz maydon borligini tasavvur qilish mahol edi.

– Ijozat bering, to'yib tomosha qilib olay, – dedi Xolms tuyulishda to'xtab, har bir uyni birma-bir diqqat bilan ko'zdan kechirarkan.  
– Binolarning qay tartibda joylashganini eslab qolmoqchiman. Londonni aylanishga juda ishqibozman... Avval Mortimerning tamaki magazini, keyin gazeta do'koni, uning yonida shahar va shahar atrofi bankining Koburg bo'limi, so'ngra vegetarianlar restorani, undan keyin Mak-Ferlen kareta deposi. Undan u yog'ida narigi kvartal boshlanadi... Xo'p, doktor, ishimiz tamom bo'ldi hisob. Endi biroz ko'ngilxushlik qilsak ham bo'ladi: buterbrod yeb, chinni oyog'dan qahva ichamiz-u huzur-halovat, orom, dilrabo kuylar sultanatiga ravona bo'lamiz, u yerda malla mijozlar boshimizni qotirib, g'ashimizga tegmaydi.

Do'stim musiqani ehtiros bilan sevar, u iste'dodli sozandagina emas, tappa-tuzukkina bastakor ham edi. Butun kecha davomida ingichka uzun barmoqlarini musiqa ohangiga monand asta-asta qimirlatgancha kresloda yayrab o'tirdi. Uning tabassum qalqqa chehrasi, nimxush xumor ko'zları intizor Xolmsni, o'g'ri-muttahamlarning kuşandasi, shafqatsiz, ayyor Xolmsni hech eslatmas edi. Ajoyib xarakteri ikki narsadan tarkib topgan edi. Uning puxtaligi hamda kishini lol qoldiradigan o'tkir zehni bu kishi fazilatining asosini tashkil etadigan shoirona o'ychanligi bilan kurashda tug'ilgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim o'qtin-o'qtin. Har doim tamoman holdan toyganiga ham qaramay g'ayrat bilan ishga kirishib keta olardi. Uning kechqurunlari o'z navozishlari va notalariga nechog'li xotirjamlik bilan berilib ketishini yaxshi bilardim. Ammo ishqibozlik ehtirosi uni birdan chulg'ab olib, o'ziga xos bo'lgan yorqin tafakkur kuchi savqi tabiiy darajasiga yetib borar, uning uslubidan bexabar odamlar qarshimizda oddiy bir odam emas, allaqanday g'ayritabiyy bir jondor turibdi, deb o'ylay boshlar edilar.

Sent-Jeyms-xollda kuzatib o'tirarkanman, Xolmsning musiqaga naqadar berilib ketganini ko'rib, u iziga tushgan odamlarning omon qolmasliklarini sezdim.

– Siz, doktor, uyga ketmoqchidirsiz, – dedi u konsert tamom bo'lgach.  
– Uyga ketaman, albatta.  
– Mening yana bir ishim bor, bu uch-to'rt soat vaqtimni oladi. Koburg-skverdag'i hodisa – juda jiddiy narsa.  
– Juda jiddiy deng?  
– U yerda katta jinoyatga tayyorgarlik ko'rilmoxda. Men ishonch bilan aytamanki, biz uning oldini olib qolamiz. Ammo bugun shan-

ba bo'lgani sababli ish ancha mushkullashadi. Kechasi menga yorda-mingiz kerak bo'lib qolishi mumkin.

- Soat nechada?
- Soat o'nlardan keyin.
- Roppa-rosa o'nda Beyker-stritda bo'laman.
- Juda soz. Bilib qo'ying, doktor, bu nihoyatda xatarli ish. Cho'nta-gingizga revolveringizni solib oling.

U menga qo'l silkib, keskin burildi-da, bir lahzada xaloyiq orasiga kirib g'oyib bo'ldi.

Men o'zimni boshqalardan ko'ra ahmoqroq deb hisoblamayman-u, ammo qachon Sherlok Xolms bilan to'qnash kelib qolsam, zehnimning pastligini tan olib qiynalib ketaman. Axir, mana, men ham u nimani eshitgan bo'lsa, shuni eshitdim, u nimani ko'rgan bo'lsa, shuni ko'rdim, biroq gapiga qaraganda, u bo'lib o'tgan voqeаниgina emas, endi sodir bo'ladiganigacha tushunib, payqab turibdi, menga esa bu ish hamon dudmol, tuturiqsiz bir narsaga o'xshab tuyulmoqda.

Uyga qaytayotib yo'l bo'yi "Britaniya qomusi"ni ko'chirgan o'sha malla kotibning g'alati hikoyasini ham, Saks-Koburg-skverga borganimizni ham, xayrlashayotganimizda Xolms aytgan vahimali so'zlar-ni ham yana bir bor esladim. Bu tungi safar nimani bildiradi va nima uchun qurollanib borishim kerak? Biz u bilan qayoqqa boramiz va nima ishlar qilamiz? Xolms menga bo'nak kassa egasining ko'sa yordamchisi katta jinoyatlarga qodir, g'oyatda xavfli odam ekanini shama qilib qo'ydi.

Bu jumbojni yechish uchun rosa bosh qotirdim, ammo hech bir ish chiqarolmadim, kechasigacha sabr qilishga qaror qildim, hamma gap o'shanda ayon bo'ladi.

*Sherlok Xolms va doktor Uotson qanday jinoyatning oldini olishga harakat qilishadi deb o'ylaysiz?*

To'qqizdan chorak oshganda uydan chiqdim. Gand-park va Oksford-stritdan o'tib, Veyker-stritga chiqdim. Eshik oldida ikkita keb turardi, dahlizga kirarkanman, g'ala-g'ovur tovushlarni eshitdim. Xolmsning huzurida ikki odam bor ekan. Xolms ular bilan quyuq suhbatlashmoqda. Ularning birini tanirdim – bu politsiyaning rasmiy agenti Piter Jons. Ikkinchisi esa yaltiroq silindr, g'oyatda bejirim frak kiygan ozg'in, novcha, badqovoq odam edi.

– Ha, ana, jamoat jam bo'ldik! – dedi Xolms matroscha kurtka-sining tugmalarini qadab, rafdan vazmin sopli ovchilar qamchisini olarkan. – Uotson, siz Skotland-Yardda ishlaydigan mister Jons bilan tanish bo'lsangiz kerak? Ruxsat eting, sizni mister Merriuezerga tanishtiray. Mister Merriuezer ham bizning so'nggi sarguzashtimizda ishtirot etadi.

– Ko'rib turibsizki, doktor, biz mister Xolms bilan yana birga ovga chiqayotibmiz, – dedi Jons odatdagidek sipolik bilan. – Do'stimiz be-

revolver –  
to'pponcha

keb –  
ot qo'shilgan ustı  
yopiq arava, ekipaj

baho odam. Ammo ovning eng boshida yirtqichni ta'qib qilishi uchun unga qari tozining yordami kerak.

— Yirtqich emas, o'rdak otib yurmasak hali, deb qo'rqaman, — dedi tundlik bilan mister Merriuezer.

— Mister Xolmsga bemalol ishonishingiz mumkin, ser, — deb qo'ydi jamiyat bilan politsiya agenti. — Uning yaxshi ko'rgan uslublari bor. Ular, ruxsatingiz bilan qayd etsam, biroz mavhum va xayoliyoq, lekin, har qalay, juda yaxshi natijalar beradi. E'tirof etishim kerak, u haq bo'lib chiqib, rasmiy politsiya esa yanglishgan hollar ham bo'lgan.

— Modomiki, siz shunday deyotgan ekansiz, mister Jons, demak, hammasi joyida bo'ladi, — dedi takalluf bilan notanish odam. — Lekin, har qalay, rostini aystsam, bugun odatdagidek robber o'ynashdan mahrum bo'lganimga achinayotibman. Bu yigirma yetti yil davomida men karta o'ynamay o'tkazadigan birinchi shanba oqshomi bo'ladi.

— Bugungi o'yindagi dov sizning karta o'yiningizdagи dovdan kattaroq, o'yinning o'zi ham qiziqroq bo'ladi, — dedi Sherlok Xolms. — Siz tikadigan dov, mister Merriuezer, o'ttiz ikki ming funt-sterlingga teng keladi. Sizning dovingiz esa, Jons, allaqachonlardan beri tutib olish umidida yurgan odamingiz.

— Jon Kley — qotil, o'g'ri, qulfbuzar, firibgar, — dedi Jons. — U hali yosh, mister Merriuezer, ammo mamlakat bo'yicha eng mohir o'g'ri: men hammadan ko'ra ham o'shaning qo'llariga jon-jon deb kishan urardim. Jon Kley degan bu yigit ajoyib odam. Uning bobosi gersog edi, o'zi bo'lsa Iton va Oksfordda o'qigan. Qo'li qanchalik mohir bo'lsa, miyasi shunchalik o'tkir, garchand biz uning iziga har bir qadamda duch kelayotgan bo'lsak ham, u hamon tutqich bermaydi. Bu haftada u Shotlandiyada biron kimsaning bor-yo'g'ini o'marib kelsa, keyingi haftada Kornvallisda yetimxona qurish uchun pul yig'ishga kirishadi. Necha yillardan beri uning izidan quvaman-u, lekin haligacha o'zini ko'rgan emasman.

— Bugun kechasi uni sizga tanishtirishga tuyassar bo'laman. Men ham ikki marta mister Jon Kleyning jasoratiga to'qnash kelganman, sizning u mamlakat bo'yicha eng mohir o'g'ri degan fikringizga batamom qo'shilaman... Soat o'ndan oshib qoldi. Yo'lga tushsak ham bo'lar. Ikkovingiz birinchi kebda jo'nanglar, Uotson bilan men ikkinchisida jo'naymiz.

Sherlok Xolms uzoq cho'zilgan safarimiz davomida uncha ochilib gapirmadi: u o'zini orqaga tashlab o'tirgancha bugun konsertda eshitgan kuylarini xirgoyi qilardi. Biz gaz fonuslar bilan yoritilgan son-sanoqsiz egri-bugri ko'chalardan yura-yura, nihoyat Farringdon-stritga yetib bordik.

— Endi juda yaqinlashib qoldik, — dedi oshnam. — Anavi Merriuezer — bank direktori, bu ishdan shaxsan manfaatdor. Bizga Jons ham ish berib qoladi. U ma'qul yigit, o'zining ixtisosiga sira uquvi yo'q. Birdan bir yaxshi fazilati bor: xuddi bulldog itdek dovyurak, xuddi qisqich-

robber –  
karta o'yini

Iton, Oksford –  
mashhur o'quv  
yurtlari

baqadek yopishqoq. Bitta-yarimta panjasiga tushib qolgudek bo'lsa, aslo qo'yib yubormaydi... Yetib keldik. Mana ular.

Biz yana ertalab ko'rgan o'sha gavjum va g'ala-g'ovur ko'chamizga kelib to'xtadik. Izvoshchining haqini to'lab, mister Merriuezerning orqasidan qandaydir tor yo'lakka kirib bordik va u yonboshdag'i eshik-chani ochishi bilan o'zimizni darhol ichkariga oldik. Eshikcha ortida juda qisqa boshqa yo'lak bor ekan. Yo'lakning oxirida vazmin temir eshik ko'rini turardi. Bu eshikni ochib aylanma zinapoyaning g'ishtin bosqichlaridan pastga tushdik va yana boyagidek haybatli bir eshikka yaqinlashdik. Mister Merriuezer to'xtab fonarni yoqdi-da, bizni zax hidi anqib turgan qorong'i yo'lakdan boshlab ketdi. Biz yana bir eshikdan o'tib savatlar va og'ir-og'ir yashiklar qalab qo'yilgan g'or yoki yerto'laga o'xshagan kenggina joyga kirib bordik.

– Bu yerga yuqorida tushish juda qiyin, – deb qo'ydi Xolms, fonarni ko'tarib shiftni ko'zdan kechirarkan.

– Pastdan kirish ham qiyin, – dedi mister Merriuezer yerga yotqizilgan taxta toshlarni hassasi bilan urib ko'rib. – Jin ursin, xuddi tagi bo'shdek gumburlaydi-ya! – deb xitob qildi u hayrat bilan.

– Men sizdan shovqin solmasligingizni iltimos qilishga majburman, – dedi jahl bilan Xolms. – Sizning kasringizga butun reja puchga chiqishi mumkin. Marhamat qilib, mana bu yashiklardan biriga o'tir-sangiz-da, bizga xalal bermasangiz.

Basavlat mister Merriuezer malol kelmagandek savatga borib o'tirdi. Xolms esa cho'kkalab fonar va lupa yordamida toshlarning ora-lig'idagi tirqishlarni sinchiklab tekshira boshladи. Bir necha sekunddan so'ng tekshirishlarining natijasidan mammun bo'lib, o'rnidan turdi-da, lupani cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Hali kamida bir soat vaqtimiz bor, – deb qo'ydi u, – chunki ular muhtaram bo'nak kassa egasi uyquga ketmaguncha ishga kirishishlari mahol. Xo'jayin uyquga ketgach esa ular bir daqiqa fursatni ham qo'ldan berishmaydi, negaki ishni qanchalik tez tugatishsa, qochib qolishlari uchun shuncha ko'p vaqt qoladi. Biz hozir, doktor, shubhasiz, o'zingiz ham allaqachon payqagan bo'lsangiz kerak, Londondagi eng boy banklardan biriga qarashli bo'limning omborida turibmiz. Mister Merriuezer – bank boshqarmasining raisi: u g'oyatda dovyurak jinoyat-chilarining xususan hozirgi vaqtida bu omborga alohida diqqat-e'tibor bilan qarashlariga nima majbur qilayotganini bizga tushuntirib beradi.

– Biz bu yerda Fransiyadan olib kelingan oltinlarni saqlamoqdaimiz, – dedi pichirlab direktor. – Bizni bu oltinni o'g'irlash uchun urinib ko'rishadi, deb bir necha bor ogohlantirishgan.

– Fransiyadan olib kelingan oltinlarni dedingizmi?

– Ha. Bir necha oy muqaddam bizga oshiqcha mablag' darkor bo'lib qoldi. Biz Fransiya bankidan o'ttiz ming napoleondor qarz oldik. Bu pullarning hali taxini ham buzmaganmiz, ularning hamon ombori-mizda turgani keyinchalik hammaga ma'lum bo'lib ketdi. Men o'tirgan qavatda ikki ming napoleondor bor, ular qavat-qavat zar qog'oz ora-

**napoleondor –**  
o'sha davrdagi  
Fransiya oltin puli

sigalari terilgan. Bankning bir bo'limida hozirgi vaqtida biz saqlayotgan-chalik miqdordagi oltin kamdan kam saqlanadi, bu narsa direktorlarni tashvishlantirmoqda.

– Tashvishlanishga to'la asoslari bor, – deb qo'ydi Xolms. – Xo'p, endi tayyorlansak ham bo'lar. O'ylaymanki, biror soat ichida hamma ish tamom bo'lsa kerak.

Bu fonarni, mister Merriuezer, biron qora narsa bilan to'sishga to'g'ri keladi...

– Qorong'ida o'tiramizmi?

– Qo'rquamanki, shunday qilishga to'g'ri keladi. Men odatdag'i robbingizni o'ynayolmay qolmang, deb karta ola kelganman, chunki biz to'rt kishimiz. Ammo ko'rib turibmanki, dushman juda jiddiy tayyorlanganga o'xshaydi, chiroqni yoniq qoldirish xatarli bo'lar edi. Bundan tashqari, bir-birimiz bilan joylarimizni almashtirishimiz kerak. Ular dovyurak odamlar, garchand biz ularga qo'qqisidan hujum qilsak-da, agar ehtiyyot bo'lmasak, ular bizga shikast yetkazishlari mumkin. Men mana bu savatning orqasida turaman, siz manavilarning orqasiga yashirining. Men chiroqni talonchilarga to'g'rilashim bilanoq ularni shartta ushlang. Agar o'q otishsa, Uotson, ularga tap tortmasdan o'q uzing.

Men o'qlangan revolverimni yog'och yashik qopqog'iga qo'ydimda, yashik orqasiga o'tib biqindim. Xolms fonar eshikchasini yopdi, biz zimziyo qorong'ida qoldik. Qizigan metall hidi bizga fonar o'chirilmaganini, chiroq istagan daf'ada yarq etib ketishi mumkinligini eslatib turardi. Sabr bilan kutishdan sergaklangan asablarim qo'qqisidan hamma yoqni chulg'agan bu zulmatdan, zax yerto'laning sovuq nafasidan qaqshayotgan edi.

– Ularning qochib chiqib ketishlari uchun faqat bir yo'l bor – izlari ga qaytib, uy orqali Saks-Koburg-skverga chiqishlari mumkin, – deya shivirlab qo'ydi Xolms. – Ishonamanki, iltimosimni bajo keltirgan bo'lsangiz kerak, Jons?

– Inspektor bilan ikki ofitser ularni ko'cha eshik oldida kutib turibdi.

– Demak, biz hamma teshiklarni berkitibmiz. Endi churq etmay kutishimiz kerak, xolos.

Vaqt shu qadar imillab o'tardiki! Aslida atigi bir-u chorak soat vaqt o'tgan bo'lsa-da, nazarimda tun nihoyasiga yetib, tepada tong otayotgan-dek tuyuldi. Qimir etgani qo'rqqanimdan oyoqlarim uvishib tolib ketdi, asablarim tarang edi. Birdan pastda g'ira-shira shu'la ko'rib qoldim.

Dastlab bu yerdagi toshlardan birini yoritib turgan g'ira-shira uchqun edi. Hademay uchqun sarg'ish shu'laga aylandi. Keyin hech qanday shovqinsiz tuynuk ochildi, yorug' bo'lib turgan bo'shliqning o'rtasida xotinlarnikiga o'xshagan oppoq qo'l ko'rilib, qandaydir buyumni paypaslayotgandek bo'ldi. Barmoqlari qimirlayotgan bu qo'l bir minutcha pastda ochilgan tuynukdan chiqib turdi. So'ngra qanday qo'qqisidan paydo bo'lgan bo'lsa, shunday tez g'oyib bo'ldi, yana hamma yoqni qorong'ilik chulg'adi, faqat ikki tosh orasidagi torgina tirqishdan xiragina yorug' chiqib turardi.

serbar –  
keng enli

Biroq bir daf'adan keyin serbar oq toshlardan biri g'ichirlagancha ag'darilib tushdi-da, uning o'rnida chorqirra chuqur o'ra paydo bo'lib, undan yarq etib fonar yorug'i tushdi. O'ra ustida soqol-mo'ylovi qirtish-lab olingan yigitcha ko'rindi; noma'lum odam har tomonga sinchiklab ko'z yogurtirdi: ikki qo'li o'ra labiga yopishdi, o'rada yelkasi ko'rindi, keyin butun gavdasi ko'tarildi, tizzasini yerga tiradi. Bir lahzadan so'ng notanish odam tamoman bu yoqqa chiqib, endi o'rtog'ini tortib olmoq-da edi. O'rtog'i ham o'ziga o'xshagan kichkina va chaqqon, oq yuzli, jingalak qizg'ish-malla sochli edi.

– Hammasi joyida, – deb shivirladi u. – Iskana bilan qoplar senda-mi?.. Ming la'nat! Sakra, Archi, sakra, men o'zimni qutqaraman.

Sherlok Xolms uning yoqasidan bo'g'ib oldi. Ikkinchisi o'g'ri kovakka urib qoldi; Jons uni ushlab olmoqchi bo'lgan edi, ammo uddalay olma-di chamasi: tarillagancha latta yirtilayotganini eshitdim. Revolverning milida shu'la yiltiradi, ammo Xolms ovchilar qamchisi bilan asirning qo'liga bir urdi, revolver jaranglaganicha toshga tushdi.

– Foydasi yo'q, Jon Kley, – dedi Xolms muloyimlik bilan. – Siz qo'lga tushdingiz.

– Ko'rib turibman, – deb javob berdi u mutlaqo xotirjam. – Ammo o'rtog'im qochib qoldi, sizlar pidjagini barinigina ushlay oldinglar.

– Uni eshikning orqasida uch kishi poylab turibdi, – dedi Xolms.

– E, shunaqami! Qoyilman. Tabriklayman sizni.

– Men ham sizni tabriklayman. Mallalar haqidagi uydirmangiz beqiyos va muvaffaqiyatli chiqqan.

– Oshnangizni hozir ko'rasiz, – dedi Jons – U iniga urib ketishda mendan chaqqonroq ekan. Mana endi qo'llaringizga kishan uraman.

– Iflos qo'llaringizni tegizmang, mumkin bo'lsa! Menga tegmang! – dedi bandimiz qo'liga kishan urilgach. – Siz hoynahoy mening tomirlarimda qirollar qoni oqayotganidan bexabar bo'lsangiz kerak. Mumkin bo'lsa, menga murojaat qilayotganingizda “ser” deb atab, “mumkin bo'lsa” deb iltimos qiling.

– Juda soz, – dedi Jons zaharxanda bilan. – Mumkin bo'lsa, ser, yuqoriga chiqib, kebga marhamat qilsangiz, u siz tabarruklarini politsiyaga olib boradi.

– Ha, bu boshqa gap, – dedi Jon Kley xotirjam.

U bizga salobat bilan bosh irg'ab, iztopar qo'riqchiligidida bamay-lixotir chiqib ketdi.

– Mister Xolms, – dedi Merriuezer bizni ombordan boshlab chiqayotib, – bankimiz sizning bu xizmatlaringizga qay tariqa minnat-dorchilik bildirishi kerakligini bilolmay turibman, gapning rosti. Siz kattakon bir o'g'irlikning oldini olib qoldingiz.

– Mening o'zim ham mister Jon Kley bilan orani ochiq qilib qo'yishim kerak edi, – dedi Xolms. – Bugungi ishga sarflagan xara-jatlarim unchalik ko'p emas, sizning bankingiz ularni shak-shubhasiz to'lasa kerak, zotan, rostini aytganda, men Mallalar uyushmasi haqidagi ajoyib qissani eshitarkanman, beqiyos bir sarguzashtni boshim-dan kechirib, yaxshigina bir mukofotga sazovor bo'ldim...

– Bilasizmi, Uotson, – deb tushuntirdi erta nahorda Sherlok Xolms, biz Beyker-stritda bir stakandan sodali viski ichib o'tirarkanmiz. – Mallalar uyushmasi haqidagi aql bovar qilmaydigan bu e'lon bilan "Britaniya qomusi"ni ko'chirib yozishdan kuzatilgan birdan bir maqsad kaltafahm bo'nak kassa egasining har kuni bir necha soat uyidan chiqarib yuborish uchungina kerak bo'lgani menga avval boshdanoq aniq ma'lum edi. Ular tanlagan vosita g'alati-yu, biroq bu vositaga amal qilib maqsadlari ga erishishibdi. Boshdan oyoq bu rejani tuzishda Kleyning serishtiyoy zehniga sherigi sochining rangi turtki bo'lgan. Haftasiga to'rt funt Uilson uchun tuzoq vazifasini bajargan, ular minglarcha funtdan umidvor ekan, to'rt funtning betiga qarasharmidi! Ular gazetaga e'lon berishgan; bir firibgar idora uchun vaqtincha ijaraga joy olgan, ikkinchi firibgar o'z xo'jayinini u yerga borishga ko'ndirgan, ikkovlari har kuni ertalab uning yo'qligidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Yordamchi yarim maoshga rozi bo'lib, shu bilan qanoatlanganini eshitishim bilanoq buning tagida biror gap borligini payqadim.

– Ammo ularning niyatlarini qanday bildingiz?

*Sherlok Xolms o'g'rilarining niyatini qanday bildi deb o'ylaysiz?*

– Malla mijozimizning muassasasi – qashshoq, uning butun kvartirasida shu qadar murakkab o'yinga arzigulik hech narsa yo'q. Binobarin, ular kvartiradan tashqaridagi biron narsani ko'zda tutishgan. Bu nima bo'lishi mumkin edi? Men yordamchisining surat olishga ishqiboz ekanini, bu ishqibozlik bahonasida nima uchundir yerto'лага tushib turishini esladim. Yerto'la! Mana chigal ipning ikkinchi uchi. Men Uilsondan uning sirli yordamchisini surishtira-surishtira, Londondagi eng sovuqqon, dovyurak jinoyatchilardan biriga to'qnash kelib qolganimni payqadim. U yerto'lada qandaydir murakkab ish bilan band, nega deganda ikki oydan beri yerto'lada har kuni bir necha soatlab ishlarkan. U yerda nima qilishi mumkin? Faqat bir ish: allaqanday boshqa binoga olib boradigan lahim qaziyotgan bo'lishi kerak. Shunday xulosaga kelgach, men sizni boshlab shu voqealar bo'layotgan joy bilan tanishgani jo'nadim. Hassam bilan toshko'chani urib ko'rganimda siz taajjublandingiz. Men esa lahimning qay tomonga qarab qazilayotganini – ko'cha tomongami yoki orqa tomongami, shuni bilmoqchi edim. Ma'lum bo'ldiki, lahim ko'cha tomondan qazilmayotgan ekan. Men borib qo'ng'iroqni chal-dim. Kutganimdek, eshikni yordamchisi ochdi. Shungacha u bilan uncha-muncha to'qnash kelgan bo'lsak-da, ammo bir-birimizning yuzimizni ko'rmagan edik. Bu gal ham men uning yuziga qaramadim. Tizzalarinigina ko'rmoqchi edim. Tizzalarining iflos, g'ijimlangan, qirilganini ko'rsangiz siz ham payqashingiz mumkin edi. Bu ko'p soatlар davomida lahim qazish bilan band bo'lganidan guvohlik berib turardi. Endi bu lahimni qayoqqa ketayotganini aniqlashgina qolgan edi. Men muyulishdan burilishim bilan shahar va shahar atrofi banking lavhasini ko'rdim-u masala hal bo'lganini fahmladim. Kon-

sertdan so'ng, siz uyingizga ketgach, men Skotlend-Yardga bordim, u yerdan esa bank boshqarmasi raisining huzuriga qarab jo'nadim.

– Ular bankni xususan shu kecha talashga urinishlarini qayoqdan bildingiz? – deb so'radim men.

– Mallalar uyushmasining idorasini yopish bilan ular mister Jebez Uilsondan xoli bo'lishga ortiqcha muhtoj emasliklarini, boshqa so'z bilan aytganda, lahimni qazib bo'lganlarini bildirishdi. Bundan shu narsa ma'lum ediki, ular lahimdan tezroq foydalanib qolishga harakat qiladilar, chunki, birinchidan, uni ko'rib qolishlari, ikkinchidan esa oltinni boshqa joyga olib borib qo'yishlari mumkin edi. Shanba ular uchun ayniqsa qulay kun edi, negaki qochishlari uchun bir kecha-kunduz ortiq vaqt berar edi. Mana shu mulohazalarning hammasi asosida men o'g'irlilik yaqin bir kechada sodir bo'ladi, degan xulosaga keldim.

– Bu mulohazalaringiz g'aroyib! – dedim zavq bilan samimiyl. – Siz o'z fikrlaringizni uzun zanjirdek shunday tizgansizki, uning har bir bo'g'ini mustahkam.

– Bu hodisa meni diqqatbozlikdan xalos qildi, – deb qo'ydi Sherlok Xolms esnab. – Attang, yana zerikib, diqqatim oshib kelayotibdi shekilli! Mening butun umrim – kundalik hayotimizning bir xilda diqqinafaslik bilan o'taverishiga chap berishga harakat qilishdan iborat. Ba'zan men hal qiladigan kichkina jumboqlar shu maqsadga erishishimga yordam beradi.

– Siz insoniyatning chinakam valine'matisiz, – dedim men.

Xolms kiftini qisdi:

– Darhaqiqat uncha-muncha foya keltirsam kerak. “L homme c'est rien – l'oeuvre c'est tout”\*, degan ekan Gyustav Flober Jorj Sandga yozgan xatida.

*Vahob Ro'zimatov tarjimasi*

Gyustav Flober,  
Jorj Sand –  
mashhur  
fransuz adiblari

\* “Odam hech  
narsa emas,  
hamma gap –  
ishda”  
(fransuzcha)

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sherlok Xolms haqidagi asarlardan birida “u inson emas, mashina” degan fikr yangraydi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi?

2. Sherlok Xolms haqidagi aksar hikoyalar doktor Uotson tilidan bayon qilinadi. Voqeani doktor Uotson nomidan bayon qilishda qanday maqsad ko'zlangan bo'lishi mumkin? Xolms va Uotson obrazlarining farqli jihatlari nimada?

3. Hikoya qanday tuzilgan? Unda detektiv janriga xos qanday xususiyatlarni ko'rdingiz?

4. Artur Konan Doyl bu hikoyani mashhur izquvar haqidagi asarlari ichidan eng saralari ro'yxatiga kiritgan edi. Siz muallifning bu bahosiga qo'shilasizmi? Nima uchun?

5. Ayrimlar detektiv janridagi asarlarni haqiqiy adabiyot qatoriga qo'shishmaydi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Sizningcha, detektiv janridagi asarlardan nimalarni o'rganish mumkin?



## FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TEXNOLOGIYA

Bu mavzuda biz:

- adabiyot va texnologiya o'rta-sidagi bog'liqliknini o'rganamiz.

Fantastik va sarguzasht asarlar mualliflari o'z asarlari uchun g'oyalarni qayerdan olishadi deb o'ylaysiz? Qanday qilib ular ko'pincha kelajakdagi ixtirolarni oldindan bashorat qila olishadi?

**Ensiklopediyalardan olingan matnlarni o'qing. Ularda nimalar haqida yozilgan?**

“Mexanik odam” to‘g‘risidagi fikr odamzodni qadimgi vaqtlardan beri bezovta qilib keladi. Odamning xatti-harakatini bajarla oladigan “mexanik odam” yaratish ustida o‘tgan asrdayoq ishlari olib borilgan, lekin ularning eng takomillashganlari ham qo‘pol bo‘lgan, imkoniyatlari cheklangan edi. XX asrda texnika rivojlanishi bilan ular qat’iy dastur bo‘yicha ishlaydigan, odam-operator boshqaradigan, odam ishtirokisiz aniq ishlarni bajaradigan turlarga bo‘lingan. Mashinasozlikning rivojlanishi, avtomatika va avtomatik boshqarishning takomillashishi bilan ular odam bilan tashqi o‘xshashligini yo‘qota boshladи, lekin ularning harakati xilma-xillashdi va ularda “ixtisoslik” paydo bo‘ldi.

*“Bolalar ensiklopediyasi”dan*

\* \* \*

U Yerning tabiiy yo‘ldoshi bo‘lib, yaqin qo‘srimiz hisoblanadi. Bu yirik tosh chang qatlamlari bilan qoplangan. Unda havo, suv, shamol va Yerdagi kabi tabiat yo‘q. Unda birorta ham tirik jonzot yoki o‘simlik o’smaydi. Kunduzlari holdan toydiruvchi issiq bo‘lsa, kechalari o‘ta sovuq. U aslida o‘zidan nur chiqarmaydi, balki Quyosh nurini qaytaradi. 1969-yil 20-iyulda amerikalik Nil Armstrong va Edvin Oldrin insoniyat tarixida birinchi bo‘lib unga qadam qo‘ydilar.

*“Siz bilgan, bilmagan dunyo”  
ensiklopediyasidan*

**Guruhlarga bo'lining. Quyida berilgan parchalardan birini tanlang va davom ettiring. Bunda ensiklopediyalardan olingan ma'lumotlarga va boshqa fanlardan olgan bilimlaringizga suyaning.**

Genri Kuper xato bo'lgan nimanidir topmasidan oldin ikki hafta Oyda bo'ldi. Dastlab unda tushuntirib bo'lmaydigan noma'lum bir tuyg'u paydo bo'ldi, biroq u o'ylab ish qiladigan, aqli ilmiy muxbir edi, shuning uchun ham bundan ko'p xavotirga tushmadi. Uni bu yerga kelishini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Fazoni tadqiq etish ma'muriyati so'ragan edi. Fazoni tadqiq etish ma'muriyati hamisha aqli, mas'uliyatlari odamlarni Yerga axborot jo'natish uchun Oyga yuborar edi.

*Artur Klark,  
"Oydagi sinoat" hikoyasidan*



\* \* \*

Siz android nima, aniqrog'i, kim ekanini bilasizmi? Ishonaman, bilasiz. Lekin, iltimos, faqat eng zamonaviy qo'l telefonlarining elektron aql qismi deb o'ylamang. Tasavvuringizni yuqoriroqqa ko'taring. Iloji bo'lsa, inson darajasiga. Chunki siz uni har kuni ko'rasiz va oddiy odam sifatida qabul qilasiz. Ista sangiz, ular haqidagi bor haqiqatni aytib beraman. Lekin bir shartim bor! Bu gaplarning hammasi o'rtamizda qolsin. Hech kimga churq etmang! Kelishdikmi? Bo'pti, eshititing.

Android – odamsifat aqli robot. Mutaxassis bo'lmagan kim-sa uning tashqi qiyofasidan, yurish-turishidan, gap-so'zlaridan "homo sapiens"dan, ya'ni ongli insondan farqlay olmaydi. Biroq biron-bir yeridan terisini ko'chirib, vujudiga nazar tashlasangiz, yurak, mushak, tomir, jigar yoki miyani emas, balki turli simlar, mitti sxemalar, chiplar, mexanizmlar va murvatlarni ko'rasiz. U juda aqli, yuksak ong egasidir. Hasharotni eslatuvchi sanoat robotlari bu android oldida bir hujayrali jonivorga monand, men sizga aytsam.

*Ozod Mo'min Xo'ja,  
"Robot-android" hikoyasidan*



**Tuzgan hikoyangizni sinfdoshlaringizga o'qib bering. Qaysi guruhning hikoyasi eng ishonarli chiqdi? Sizningcha, qaysi omillar hikoyaning ishonarli chiqishiga yordam berdi?**

## TAKRORLASH

**annotatsiya –**  
kitob yoki kinoga  
qisqacha shart

**1–5.** Quyida berilgan annotatsiyalarni o'qing va har bir kitobning qaysi janrga mansubligini aniqlang. Nega shu janrga mansub deb o'ylishingizni izohlang. Javoblarni daftaringizga yozing.

- A) ilmiy fantastika
- B) sarguzasht
- C) detektiv

**1.** O'zbek olimlari yangi ilmiy ixtiro tufayli tarixni o'rganishning yangi usulini topib, o'tmishni "jonlantiradilar", buyuk olim Ulug'bek zamonasining yana bir sahifasini o'qishga muvaffaq bo'ladilar... Ushbu kitobda ana shu haqda hikoya qilinar ekan, ayni paytda oddiy xalqdan chiqqan kimyogar va tabib yigitning hayoti, taqdiri, unga homiylik qilgan Ulug'bekning ma'naviy dunyosi nechog'li go'zal ekani tasvirlanadi.

Javob: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

**2.** Mazkur asar ikki asrki, dunyo bolalarining eng sevimli kitoblaridan biri hisoblanadi. Kimsasiz orolga tushib qolgan kishining tabiat kuchlariga qarshi matonat bilan olib borgan kurashi, benihoya mehnatkash, g'ayratli, tadbirkorligi har qanday odamni ham hayratga soladi. Bu kitobni o'z vaqtida otalaringiz qanday haya-jon, qiziqish bilan o'qigan bo'lsalar, sizlar ham xuddi shunday hayajon bilan o'qishingizga ishonchimiz komil.

Javob: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_  
 \_\_\_\_\_

**3.** Ushbu to'plamga adibaning qiziqarli hikoyalari kiritilgan. Bu hikoyalardan sirli voqealarga boyligi bilan ajralib turadi. Hikoyalardagi izquvar qahramonlar fikri tiniqligi, jinoyatlarni fosh

qilishda yaqindan ishtirok etishi bilan kitobxon diqqatini tortadi. Ayniqsa, qo'ng'izmo'ylov Puar o yoki miss Marplning jinoyatlar-ni ochishi, masala yechimidagi yorqin, aniq xulosalari o'quvchi-ni hayratlantiradi.

Javob: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**4. Bu kitobda Janubiy Amerika changalzorlarida, Amazonka daryosi yuqorisidagi odam oyog'i yetmagan yassitog'lar bag'rida saqlanib qolgan bir guruh maymunlar va bahaybat yirtqich maxluqlar bilan uchrashgan, ko'p qiyinchiliklarni yengib, necha-necha o'limdan qolib, fanni yangiliklar bilan boyitgan fidoyi kishi-larning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.**

Javob: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

skvayr –  
qurolbardor

**5. Siz ushbu kitobdan “Admiral Benbou” qovoqxonasi-dagi voqealar, Jim Xokins degan bolaning hayoti, uning skvayr Treloni va doktor Livsi bilan birgalikda sirli Xazinalar Oroliga borgani, u yer-dagi boyliklarni qanday topgani, qaroqchilar to'dasi bilan qanday jang qilganlari va boshqa juda ko'p qiziqarli sarguzashtlari haqida bilib olasiz.**

Javob: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**6. Quyidagi parchada portret berilgan qismni toping. Unda tasvirlangan shaxs o'quvchida qanday taassurot uyg'otishini izohlang.**

Zinadan vazmin oyoq tovushi eshitildi, bir daqqa o'tar-o'tmas, baland bo'yli, soqol-mo'ylovi silliq qilib olingan, ikki yuzi anordek qip-qizil bir jentlmen xonaga kirdi. Chaqmoqdek ko'zları va gul-gul yashnagan chehrasidan uning tumanli Beyker-stritdan olisda ya-

shashi ko‘rinib turardi. Hozir u go‘yo xonamizga sharqiy sohilning shiddatli va sof nafasini o‘zi bilan olib kirgandek tuyuldi. U biz bilan qo‘l siqishib, endi kursiga o‘tirmoqchi bo‘lgan edi, birdan ko‘zi hozirgina men ko‘rib, stol ustiga qo‘ygan alomat belgilari chizilgan qog‘ozga tushdi.

– Bu haqda siz qanday fikr dasiz, mister Xolms? – dedi u. – Menga sizning har xil sirli voqealarga qiziqishingizni aytishuvdi, bu naqa alomat narsani uchratmagan bo‘lsangiz kerak deb o‘ylab, yetib kelgunimcha bosh qotirib ko‘rarsiz degan umidda pochta orqali yubordim.

*Artur Konan Doyl,  
“Raqqos odamchalar” hikoyasidan*

Portret: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

### **7–8. Quyidagi parchani o‘qing. Savollarga javob bering.**

Shahrimiz o‘zining ulug‘vorligi bilan emas, ko‘rkam va sarish-taligi tufayli og‘izga tushgan. Bir-birini shaxmat kataklariday kesib o‘tuvchi ravon ko‘chalari ulkan chinorlarning tarvaqaylagan shoxlari ostiga ko‘milib yotadi. Markazdagi o‘rmonsimon bog‘ga kirsangiz, yurtimizda o‘stiriladigan gullardan istalgan namunani topishingiz mumkin. Bog‘ yonidan oqib o‘tadigan soyning uloqchi suvi sara-tonda ham tishingizni qaqshatadi. Shahar shimol yoqdan yaydoq dashtga borib taqalsa, g‘arbi – tog‘ etaklariga, sharq tarafi chuch-moma-yu yakkam-dukkam giyohlargina o‘sadigan sertosh adirlarga tutashgan. Janubiy qismini esa o‘rkachdor yaylovlar, buloqlarga boy chakalakzorlar tashkil etadi.

Adirga yondosh tomondagi chakalakzor tepasidan o‘tuvchi soyning shoxobchasi hisoblanmish kichik anhor yoqasida baland toshdevor bilan qurshalgan mo‘jazgina qo‘rg‘on bor. Bu qo‘rg‘on bir davrlarda pax-tachi boyning chorbog‘i bo‘lgan ekan.

*Anvar Obidjon,  
“Oltin yurakli avtobola” qissasidan*

**7. “Mo‘jazgina qo‘rg‘on” birikmasida “mo‘jazgina” so‘zi sifat-lash vazifasini bajaryapti. “Mo‘jazgina” so‘ziga qanday sinonim (ma‘nodosh) so‘zlarni bilasiz?**

Sinonimlar: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Muallif qo'rg'onga ta'rif berish uchun nega aynan "mo'jazgina" so'zini tanlagan bo'lishi mumkin? Bu so'z o'quvchida qanday taassurot qoldiradi?**

\_\_\_\_\_

**8. Matnda yana qanday sifatlashlar ishlatilgan? Misol toping. Ularning nima maqsadda ishlatilganini izohlang.**

Sifatlashga misol: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**O'zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?**

- 😊 7–8 taga: juda yaxshi!
- 😐 5–6 taga: yaxshi, lekin sal ko'proq ishlashim kerak!
- ☹️ 5 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!



## 4-fasl. RANGIN TUYG‘ULAR

Rahmat Fayziy. “Hazrati inson”  
Ibroyim Yusupov.  
“Qadron so‘qmoqlar”  
Xurshid Davron. “Vatan devorlari”  
Oskar Uayld. “Baxtli Shahzoda”  
Azim Suyun. “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi...”  
Omon Matjon. “Osmon sog‘inch kabi...”

### **Adabiy tushunchalar:**

- nasr va nazmnинг farqlari
- badiiy tasvir vositalari:  
metafora, jonlantirish

### **Fanlararo aloqa:**

adabiyot va tasviriyl san’at

# RAHMAT FAYZIY.

## “HAZRATI INSON”

Bu mavzuda biz:


- asar sarlavhasi va mazmuni o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qilamiz;
- qahramonlar nutqi va xatti-harakatlari orqali ularga ta’rif berishni o’rganamiz;
- nasriy va she’riy asarlarni qiyoslaymiz.

### MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Rahmat Fayziy (1918–1988) – o’zbek yozuvchisi, xalqimiz orasida mashhur badiiy filmlar muallifi. U Toshkentda kosib oilasida tug‘ilgan. O’rta maktabni tamomlab, Toshkent temir yo’llari qoshidagi Fabrika-zavod o’quvchilik mакtabida, so’ng elektromexanika texnikumida tahsil olgan. Hikoya va qissalari, romanlari bilan o’zbek adabiyoti tarixida o’chmas iz qoldirgan.

Rahmat Fayziy ijodiy faoliyati davomida qator gazeta va jurnallarda, obro’li tashkilotlarda ishlagan, davlat muhofotlari bilan taqdirlangan.

Yozuvchi 1988-yili vafot etgan. Hozirda Toshkent shahridagi ko’chalardan biri Rahmat Fayziy nomi bilan ataladi.



## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Ikkinchı jahon urushi va undan keyingi yillarda xalqimiz hayoti haqida hikoya qiluvchi asarlarini mutolaa qilgan edik. Biz o'qishga tayyorlandigan "Hazrati inson" asari ham Ikkinchı jahon urushi davri haqida hikoya qiladi.

*Rasmdagi haykalni ko'rganmisiz? Unda kimlar tasvirlanganini bilasizmi?*



Ikkinchı jahon urushi davrida uyidan, ota-onasidan ayrılgan ko'p bolalar urush bo'layotgan joylardan O'zbekistonga olib kelingan. Ko'pchilik yurtdoshlarimiz qatori toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri Akramova turli millat bolalarini o'z tarbiyalariga olishgan. Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romani Shoahmad ota va Bahri aya singari kishilar haqida hikoya qiladi.

*O'ylab ko'ring-chi, "inson", "insoniylik", "insonparvarlik" so'zlari qanday ma'no anglatadi? Asar nima uchun "Hazrati inson" deb atalgan bo'lishi mumkin?*

## BILASIZMI?

Ba'zan badiiy asar qahramonlari uchun real, haqiqatda yashab o'tgan shaxslar asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday shaxslar **prototip** deyiladi. "Hazrati inson" asaridagi Mahkam aka obrazi uchun Shoahmad Shomahmudov prototip qilib olingan.





Roman  
asosidagi  
radiospektaklini  
tinglang

## HAZRATI INSON (romandan parcha)

**to'rsayib** –  
qovoq solib,  
tumshayib

**et-beting** –  
u yer-bu yering  
(shevada)

Ular bolalar uyiga yaqinlashib qolishganda dadasining qo'lidan ushlab borayotgan Vitya taqqa to'xtadi. Qo'lini tortib oldi. Mahkam aka hayron bo'lib unga qaradi. Qovoqlari osilgan, to'rsayib turardi. Hozirgina javrab kelayotgan bolaga o'xshamasdi avzoyi.

- Ha, nega to'xtading?
- O'zingiz... – dedi-yu yig'lab yubordi.
- Gapir. Et-beting og'rivottimi?
- O'zingiz haydamayman demabmidingiz?
- Kim seni haydadi?
- Nega bu yerga olib kelasiz bo'lmasa? – dedi Vitya bolalar uyining darvozasini ko'rsatib.

Mahkam aka gapning tagiga endi yetdi. Kulib yuborishiga sal qoldi. Vityaning yuzidan uydan umidini uzgan, ko'chada qolib, nima qilarini bilmay shalpayib tushgani shundoqqina sezilib turardi. Mahkam aka-ning rahmi keldi.

- Manga qara, o'g'lim, – tiz cho'kib Vityaning ko'z yoshlarini arta boshladи, – o'zing shu yerga kelgan kuning esingdami? – Vitya bosh irg'ab javob berdi. – Ha, omon bo'l. Bugun ham sanga o'xshagan bolalar kelibdi, shular orasida o'rtoqlaring ham bo'lsa, nima deysan?

- Baxtiyormi?
  - Yo‘-o‘q! Bog‘chadagi o‘rtoqlaring-chi, aytuvding-ku otlarini.
  - Vova, Valyalarmi?
  - Ha, o‘shalar kelgan bo‘lsa-chi.
  - Kelib bo‘pti, – kattalardek kerilib gapirdi, – Vovani oyisi bilan fashistlar olib ketgan.
  - Boshqalari kelgandir. Qani, yur-chi.
- Vitya yoqinqiramay dadasi ketidan ergashdi.

*Mahkam aka bolalar uyiga nima maqsadda keldi? Nima uchun bu joyga kelganda Vityaning kayfiyati o‘zgardi?*

**fashist** –  
o‘z xalqini boshqa  
xalqlardan ustun,  
hukmronlik qili-  
shga haqli deb  
hisoblaydiganlar.  
Fashizm tarafdo-  
lari Ikkinchiji jahon  
urushi boshla-  
nishiiga sababchi  
bo‘lishgan.

Havo ochiq. Quyoshning iliq taftidan, tungi yomg‘irdan so‘ng hovli yuzi selgib, yengil hovur ko‘tarilib turardi. Yaqindagina keltirilgan bolalar hali xonalarga joylashmagan. Katta oshxonasi yonida to‘da-to‘da bo‘lib turishardi. Aftidan, har bir bola o‘z vagonidagilar to‘dasida edi. Ularning shovqin-suroni, bir-birini yig‘latgan, qichqirib chaqirishgan ovozlari hovlini boshiga ko‘tarib, qulqoni qomatga keltirardi. Usti qalinroq bolalar issiqliqdan burqsib, kiyimlarini yechib yerga tashlagan, esliklari qo‘llarida ushlab turardi. Yoqasi qolsa ham beqasam, deyilganidek, duch kelgan narsani ilib olishgan, birontasining egnidagini kiyim qatoriga qo‘sib bo‘lmashdi. Bir to‘da bo‘yi tikroq bolalar hovlining chap tomonida aravalardan tushirilayotgan yuk atrofida o‘ralashib turishardi. Har xil eski kiyimlar, adyol, yostiqlar uyumi tom baravar bo‘lib ketgandi.

*Bu parchadan urush davridagi bolalar haqida nimalarni tasavvur qil dingiz? “Yoqasi qolsa ham beqasam, deyilganidek, duch kelgan narsani ilib olishgan, birontasining egnidagini kiyim qatoriga qo‘sib bo‘lmashdi” jumlesi bilan muallif nima demoqchi?*

**hovur** –  
bug‘

Mahkam akaga o‘xshaganlar bolalar yoniga borib, ularni gapga solishar, erkalashar, turli narsalar berib, ko‘nglini ko‘tarishardi. Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. Darvozadan birin-ketin qari-qartanglar, bola ko‘targan ayollar kirib turishibdi.

Mahkam aka Vityaning ra‘yiga qarab, anchagacha uning yonidan jilmay turdi. O‘ziga qo‘yib berdi. Qani, nima qilarkan, boshidan o‘tganlarini eslarmikin?

- O‘rtoqlaring, tanishlaring ko‘rinmaydimi, o‘g‘lim?
- Yo‘q, – dedi qovog‘ini solib, gerdayib turgan Vitya, – borib so‘rab ko‘raymi? – dedi ketidan.
- Mayli, bora qol.

**juvon –  
yosh ayol**

Vitya dadasing qo'lini qo'yib, unga cho'chibroq bir qarab oldi-da, bolalar tomon yurib ketdi. Yurgandayam shoshmay, salmoq bilan, odimini sanab tashlardi. Mahkam aka orqasidan tikilib qoldi. Qani, nima qilarkan?

– Assalomu alaykum, – dedi yoshgina, xushbichim kiyingan juvon Mahkam akaning yoniga kelib, – keling, amaki, xizmat.

Mahkam aka juvonga o'girildi, alik oldi. O'tgan safar bu ayolni ko'rmagandi. Tanimadi.

– Bizam birontasini bag'rimizga olsakmikin, deb keluvdik, – dedi Mahkam aka.

– Juda yaxshi o'ylabsiz, ota. Kennoyimlar ham shu yerdamilar?

– Ishi chiqib qoldi. O'zim kelaverdim.

– O'g'il bolami yo qizcha olmoqchimisiz?

– Baribir.

– Yoshroq bo'lsinmi yo eslikrog'im?

– Baribir, qizim.

– Qaysi millat bolasi bo'lgani ma'qul?

Mahkam akaning a'zoyi badani titrab ketdi. Rangi oqardi. Juvon buni payqadimi, yo'qmi, qo'lidagi daftarga allanimalarni yozishdan to'xtamadi.

– Qizim, – dedi zo'rg'a o'zini bosib Mahkam aka, – men mol bozoriga kelganim yo'q. Tushundingizmi?

– Axir, otaxon...

– Axir-paxiri yo'q! Indamasam, origmi-semizmi, kemshikmi-puchuqmi, qorami-sariqmi, deb so'raydiganga o'xshaysiz?

– Voy, otaxon, millatini so'rasam siz...

– Hamma millat bolasi bir! Hammasini Xudo yaratgan! Hammasi odam bolasi! Tushundingizmi?

– Kechirasiz, – juvon Mahkam akaning vajohatidan qo'rqib ketganiman qo'lidagi daftar qaltirardi.

– Odam bolasini oq-qoraga ajratmang. Dunyoda bitta shunaqa ablah chiqib, ne kunlarnisovotti odamlar boshiga. Hali jazosini tortadi. Bularning ko'z yoshi ko'r qiladi...



Urush bo'layotgan joylardagi bolalarning Toshkentga olib kelinishi

*Ayol va Mahkam aka suhbatidan nimalarni uqdingiz? Nima uchun Mahkam akaning a'zoyi badani titrab ketdi? Ayol sizda qanday taas-surot qoldirdi?*

Juvonning gapishtiga holi qolmagandi. Shu topda Mahkam aka bolalar to'dasida turgan o'g'liga ko'zi tushdi, juvonga ham qaramay o'sha tomonga ketdi. Juvon ag'rayganicha qarab qoldi. Mahkam aka to'daga yaqinlashgan ham ediki, birdan bolalar Vityani o'rav, do'pposlay ketdi. Vityaning ovozi chiqmasdi. Mahkam aka burgutday o'zini to'daga urdi. Vityani azot ko'tarib oldi. G'uj bo'lib turgan to'da yoyildi. Bir qiz yerda tuproqqa qorilib, bosilib yotgan do'ppini olib, Mahkam akaga uzatdi. Vitya yuzlarini bekitib, hansirab, liqillab yig'lardi, chopib kelgan tarbiyachilar nima bo'lganini surishtira boshlashdi. Bolalar chekka-chekkadan chug'urlashib ketishdi:

- O'zi nega dadam bor, deb maqtanadi? – dedi nariroqda turgan bo'ydon bola.
- Dadasi bo'lganidan keyin maqtanadi-da, – dedi to'rt yoshlar chamasidagi sap-sariq sochlari to'zg'igan qizcha, – dadam bo'lsa, meniyam... – gapirolmay yig'lab yubordi u.

Mahkam aka yalt etib qizga qaradi.

- Do'pping chiroyli ekan desam, tegma, harom qilasan, deydi, – qalpog'ini g'ijimlab turgan to'ladan kelgan bola xo'mrayib gapirdi.
- Axir, shunga urish kerakmidi? – dedi yotig'i bilan tarbiyachilar-dan biri.
- Nega fashist deydi?
- Nuqlu kiyimlari ko'pligini maqtaydi. Kim fashist?

azot –  
tik

*Vityaning dadam bor, deb maqtanishi bolalarga nima uchun yoqmadi?*

Qo'yib bersa, bolalarning bahsi tugamasdi. Birontasiga hozir qattiq-qurum gapirib ham bo'lmasdi. Tarbiyachilar yotig'i bilan tu-shuntirib, ularni tinchita boshlashdi. Mahkam aka avval kelganida nutq so'zlagan juvon uni tanib qolib, chekkaroqqa olib chiqdi. Hech narsa bo'lmaganday, dadasining ko'kragiga boshini tiqib, bo'ynidan quchoqlab olgan Vityaning yelkasiga qoqdi.

- Oti nimaydi?
- Vitya.
- Buni qarang-a, kap-katta bo'lib qolibdimi? Qani, menga qara-chi. Vitya to'rsayib juvonga qaradi.
- O'ho', yasantirib yuboribsiz-ku.
- Ammam olib kelib bergenlari bu, o'zimniki boshqa.
- Shunaqami? Qani, bo'ldi endi, tush. Dadangni charchatib qo'ya-san-u bunaqada, – bolani ko'tarib olib, yerga qo'ydi va Mahkam akaga yuzlandi: – Qalay, uyingiz to'lib qoldimi, xursandmisiz?

– Shular xursand bo'lsa, bizam xursand-da, singlim. Hali ko'chada bularning kelayotganini ko'rib, uyda o'tirolmadim. To'g'ri kelaverdim.

– Ajab qilibsiz. Vityani bir o'ynatay debsiz-da, shunaqami? – Vitya gapni eshitmadi, dadasing etagiga yashiringancha, ko'zini bolalar-dan olmay turardi.

Tarbiyachini kimdir o'rtoq Nazarova deb chaqirib qoldi. "Men shu yerdaman", deganicha qo'lini ko'ksiga qo'yib, Mahkam akaga iltifot qildi-da, o'sha tomonga ketdi. "Odamdan odamning farqi bor deyish-gani shu-da. Boyagining muomalasi qayoqda-yu, buniki qayoqda?"

*Mahkam aka: "Odamdan odamning farqi bor", – deganda nimani nazarda tutgan edi? Mahkam akadan qanday bola olmoqchiligini so'ra-gan ayol bilan Nazarova o'rtasida qanday farqlarni sezdingiz?*

U boyatdan beri o'ziga tikilib turgan boyagi sariq sochli qizcha yoniga bordi. Tiz cho'kib, to'zg'igan sochlarini siladi.

– Oting nima, qizim?

– Galya, – dedi kulib.

– Manga qiz bo'lasanmi?

Galya Mahkam akaning orqasida qovog'ini solib turgan Vityaga cho'chibroq qarab oldi.

– O'g'lingiz... – dedi-yu, gapirolmay qoldi.

– Bu o'g'lim, san qizim bo'lasan-da, xo'pmi?

– Mayli, – dedi boshini egib Galya.

– Juda yaxshi, oppoq qiz, shirin qiz, – deya bag'riga olib erkaladi Mahkam aka, – qani, akang bilan tanishinglar-chi.

Galya kattalardek Vityaga otini takrorlab, qo'lini uzatuvdi, Vitya yoqinqiramay ko'rishdi.



Shoahmad Shomahmudov tarbiyasiga olgan bolalari bilan

– Galya, – degan ovoz eshitildi shu payt nariroqdan va chaqirgan bola ovozi boricha qichqirib, chopib ularning oldiga keldi.

– Galya, nima, sen ketyapsanmi? – so‘radi nafasi og‘ziga tiqilib.

– Ha, – dedi xursand bo‘lib Galya va Mahkam akani ko‘rsatdi, – sen-chi, Abram?

– Bilmayman, – dedi Abram o‘ksinib, – endi ko‘rishmaymizmi, Galya?

Galya bir Mahkam akaga, bir Vityaga, bir Abramga qarardi. Indamay turardi.

– Nega ko‘rishmaysizlar, – dedi Mahkam aka qop-qora sochlari o‘sgan, charosdek ko‘zlari yonib turgan kichkina, oppoq kulcha yuzli Abramga qarab, – biznikiga borib tursang, ko‘rishaverasan-da.

Abram indamay, boshini eggancha orqasiga burilib keta boshladı. Mahkam aka bir xil bo‘lib ketdi. Abram to‘rt-besh qadam yurib to‘xtdi. Orqasiga o‘girildi. Imlab Galyani chaqirdi. Galya ikki sakrab uning yoniga bordi. Bordi-yu, Abramning shivirlab gapirganini chala-chulpa eshitib, orqasiga chopdi.

### *Abram Galyaga nima degan bo‘lishi mumkin?*

– Amaki, – dedi shirinlik so‘rab erkaklik qilganday boshini egib, – Abramni ham olib keta qolaylik, o‘zi judayam yaxshi bola.

– Mayli, – dedi Mahkam aka o‘ylab turmay, – beri kel, Abram.

Abram o‘qday otolib keldi. Kela solib, Galyani quchoqlab oldi.

– Salom qani? – dedi kulib turib Abramga Mahkam aka.

– Zdravstvuyte.

– Barakalla.

– Amaki, – kiyimining baridan ushlab erkalandi Galya, – dada desam maylimi?

– Mayli, qizim, mayli.

– Men-chi? – ko‘zlarini javdiratdi Abram.

– Sanam.

– Voy, maza.

Vitya o‘sha tumshayganicha hech yorishmadı. Abram bilan ham sovuqqina ko‘rishdi.

### *Nega Mahkam aka Galya bilan Abramni ham o‘z qaramog‘iga olishni istadi? Vityaga bu nima uchun yoqmadi?*

– Sizlar shu yerda turinglar, hozir kelaman, – dedi Mahkam aka va Nazarovaning oldiga ketdi. Eshigi ochiq xonada ust-boshi durustgina, ko‘rinishidan bugun kelganlarga o‘xshamagan, Vityadan tikroq bola yig‘lab turardi. Nazarova unga allanimalarni uqtirardi. Mahkam akani ko‘rdi-yu, gapini to‘xtatdi:

– Kiravering, kiravering, – dedi stoli yonidan chiqib, – bo'lmasa sen o'ynab tur, ketib qolma, xo'pmi? Men o'zim chaqiraman, – bolanning yelkasiga qo'lini qo'yib chiqarib yubordi. – Buni qarang, ota, nima bo'lishi mumkin? To'qqiz kun bo'luvdi, er-xotin kelib, olib ketishuvdi. Qaytib kelibdi.

- Haligi bola-ya?
  - Ha. O'shandayam yig'lab xunob qilgandi. Hozir ham shu.
  - Sababini aytmadimi?
  - Topgan gapi bitta. Singlisini yo'qotib qo'ygan. Shuni topib bering deydi.
  - Uydagilarga aytmay kelibdimi?
  - Shunaqaga o'xshaydi. Qaytib bormayman deydi.
  - Tavba. Zap kunlarga qoldik-da. Qaytib bormayman deydimi?
  - Urishdimi, qattiq gapirishdimi, desam, yig'laydi, xo'rligi kelib yig'laydi, ketidan nuqul ukam deydi.
  - Endi, jigar, bilmay-netmay birovning xonadoni to'g'risida gapi-rib bo'lmaydi. Kim biladi, qanaqa odamlar. Tag'in surishtirib ko'ring... Man xayrashgani kiruvdim, ana bizning jujuqlar, – u ochiq derazadan bolalarni ko'rsatdi.
  - O'ho', jamoat jam-ku, – xursand bo'lib kului Nazarova, – qani, yuring-chi.
- Ular hovliga chiqib, bolalar yoniga borishdi. Nazarova shu yerdan turib, "Sanobar" deb tarbiyachilardan birini chaqirdi. Boya Mahkam aka bilan gaplashgan juvon yugurib keldi.
- Mahkam otamni ovora qilmang, shu yerda mana bu ikkovini yozib oling, hujjatlarini keyin o'zim uylariga eltib beraman.



"Shomahmudovlar oilasi". Lutfulla Abdullayev

Mahkam aka Nazarova bu juvонни atay chaqirganini payqab qoldi. Bu boyagi qo‘pollik uchun узр so‘rash edi aslida.

– Sizni ovora qilsam, qandoq bo‘larkan, qizim, yo biroz kutay, yo ertaga o‘zim kelay.

– Hech xijolat bo‘lmang. O‘zim olib borib beraman.

– Hay, mayli. Man boyagi bolani o‘ylab qoldim, – dedi bolalar eshitmaydigan darajada sekin gapirib Mahkam aka, – aftidan qattiq xo‘rlanganga o‘xshaydi-da, bola bechora. Surishtiring, ilojini qilolmasangiz, xabar bering, zora dardiga davo topolsak.

– Rahmat, otaxon. Ammo usiz ham...

– Bu yog‘ini o‘ylamang. Dunyodan nima olib ketamiz?.. Zarur bo‘lsa, hech tortinmay biznikiga yuboravering.

– O‘zim borarman.

– Juda yaxshi. Hech tortinmang. Topganimizni o‘rtaga qo‘yamiz, – dedi kulib.

Mahkam aka u bilan xayrlashib, Galyani ko‘tarib oldi. Nazarova eshikkacha kuzatib qo‘ydi.

Abram bilan Vitya yonma-yon borishardi-yu, gaplashishmasdi. Galya sevinganidan Abramga qo‘lini silkib qo‘yardi. Katta ko‘chaga chiqishganda, Vitya Galyaga dedi:

– Tush endi, dadamni charchatib qo‘yanan.

Mahkam aka o‘g‘lining gapini hazilga burib, Galya tilidan:

– Charchatmayman. Qushdek yengilman, o‘zim zo‘rg‘a dadamni topib oldim-u, – dedi-da, Galyaga ko‘zini qisib qo‘ydi. Qizcha sevinib, Mahkam akaning bo‘ynidan qattiq quchoqlab oldi.



Rahmat Fayziy asari asosida suratga olingan “Sen yetim emassan” filmidan lavha (“O‘zbekfilm”, 1962-yil). Mahkam aka rolida – Obid Jalilov

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Urush yillaridagi og‘ir sharoitga qaramay, Mahkam akaning ota-onasidan ayrılgan bolalarni o‘z oilasiga qabul qilishi sababi nimada deb o‘ylaysiz?
2. Vitya, Galya va Abram xarakterlari o‘rtasida qanday farqlarni sezdingiz? Sizningcha, ular bir-birlari bilan do‘splashib ketishi uchun Mahkam aka nima qilishi kerak?
3. Asar nima uchun “Hazrati inson” deb nomlangan? “Hazrati inson” deganda muallif kimni yoki kimlarni nazarda tutgan? Asarni o‘qishdan oldingi va keyingi xulosalarining qiyoslang.
4. Yon-atrofingizda Mahkam akaga o‘xshash insonlar bormi? Ularning qaysi jihatlarini asardagi Mahkam akaga o‘xshatish mumkin?

## JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

Yozuvchilar ko‘p holatlarda badiiy asar qahramonlari xarakterini ularning nutqi, harakatlari orqali ko‘rsatadilar. Misol uchun, Vitya Galyaga: “Tush endi, dadamni charchatib qo‘ysan” – deganda Mahkam aka gapni hazilga burib, bolalari o‘rtasidagi kelishmovchilikning oldini olishga harakat qilishidan uning sezgir va topqirligini ko‘rshimiz mumkin.

Biz o‘qigan parchada Mahkam akaga xos yana qanday xususiyatlarni ko‘rdingiz? Fikringizni asardan misollar keltirib, dalillang.

Mahkam akaga xos xususiyatlar	Asardan misollar

## BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: NASR VA NAZMNING FARQLARI

**Nasriy asarlarda** (ertak, hikoya, qissa, roman va hokazo) ko‘p holatlarda qahramonlar, obrazlar xatti-harakatlari bilan bog‘liq tugal voqealar tasvirlansa, **nazmiy asarlarda** (she’rlarda) asosan kechinmalar, his-tuyg‘ularga e’tibor qaratiladi. She’r nasrdan yana quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- qofiyadosh so‘zlarning qo‘llanishi (masalan, yoz – soz);
- ohang (musiqiylik)ning mavjudligi;
- fikrning ixcham ifoda etilishi;
- har bir qatordagi (yoki har toq va juft qatorlardagi) bo‘g‘inlar sonining tengligi.

**Masalan:**

*Donalarim marjoncha,  
Bir boshim – naq bir jomcha.  
Quritsangiz mayizman,  
Dasturxonga fayzman.*

*Kuzda yeb-yeb to'yishar,  
Qishga osib qo'yishar.  
Boqar shod yosh-qarilar,  
Maqtar hatto arilar.*

*Anvar Obidjon,  
"Uzum" she'ridan*

**G'afur G'ułomning Ikkinchı jahon urushida ota-onasiz qolgan go'daklarga bag'ishlab yozilgan "Sen yetim emassan" she'ridan parchani o'qing. Savollarga javob bering.**

*Sen yetim emassan,  
Tinchlan, jigarim.  
Quyoshday mehribon  
Vataning – onang,  
Zaminday vazmin-u  
Mehnatkash, mushfiq  
Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
Xalq bor – otang bor.  
Cho'chima, jigarim,  
O'z uyingdasan,  
Bu yerda  
Na g'urbat, na ofat, na g'am.  
Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat  
Va mehnat nonini ko'ramiz baham,  
Sen yetim emassan,  
Uxla, jigarim.*

1. She'r kimning nomidan aytilgan? Shoir kimga murojaat qilyapti?
2. She'rda qaysi so'zlar ko'p qaytarilgan? Bu so'zlarni shoir nima maqsadda qaytargan deb o'ylaysiz?
3. Qaysi so'zlar she'rdagi ohangni ta'minlashga xizmat qilyapti?
4. She'rda qanday qofiyadosh so'zlar mavjud?
5. "Hazrati inson" romanidan biz o'qigan parchada Mahkam akaning Vitya, Galya, Abram bilan muomalasi berilgan o'rinnlarni topib qayta o'qing. "Sen yetim emassan" she'ridan parcha bilan solishtiring. Mahkam akaning gaplari va shoir nutqi orasida qanday farqlarni sezdingiz? Bu farqlarning sabablari nimada bo'lishi mumkin?

# IBROYIM YUSUPOV. “QADRDON SO‘QMOQLAR” XURSHID DAVRON. “VATAN DEVORLARI”

Bu mavzuda biz:

- ikki she’riy asardagi bir g’oyaga xizmat qilgan obrazlarni solishtiramiz;
- badiiy matndan metafora va o’xshatishlarni topishni o’rganamiz.

## MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ

**Ibroyim Yusupov (1929–2008)** – tarjimon, adabiyotshunos, jamoat arbobi, qoraqalpoq so‘z san’atining taniqli vakili, Qoraqalpog‘iston davlat madhiyasi muallifi. U Qoraqalpog‘istonning Chimboy tumanida tug‘ilgan. Bolaligidan adabiyotga mehr qo‘yib, xalq og‘zaki ijodi, sharq adabiyoti namunalarini sevib mutolaa qilgan. G‘afur G‘ulom, Oybek, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon kabi O‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillari bilan muntazam ijodiy aloqada bo‘lgan. Uning ilk asari “Vatanim” deb nomlangan, she’rlari bir qancha tillarga tarjima qilingan.



**Xurshid Davron** – 1952-yili Samarqand viloyatida tavallud topgan. Shoир, yozuvchi, dramaturg va tarjimon sifatida o‘zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘sib kelayotgan ijodkorlardan biri. O’rta maktabdan keyin Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan. “Mening bolaligim, muayyan ma’noda, Samarqand taassurotlari bilan to‘yingan. Ayni shu sababdan ijodimning ildizlari ham shu tabarruk zaminga chuqur yoyilgan. Bolalikdan ertaklar, afsonalar ichida yashaganman”, – deb eslaydi shoир.

## MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

*Nima uchun odatda “Ona Vatan” deymiz? Ona va Vatan o’rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o’ylaysiz?*

Vatan deganda ko‘z oldingizga nima(lar) keladi? Siz ulg‘ayayotgan zaminda ko‘nglingizga yaqin narsalar nima? Jumlanı daftaringizda davom ettiring.

*Men uchun Vatan – \_\_\_\_\_, chunki \_\_\_\_\_.*

**Ibroyim Yusupov**

## QADRDON SO‘QMOQLAR

*Har kimning tug‘ilgan yeri – Misr shahri.  
Maqol*

Qizil kendir bilan shivirlashar tol,  
Turna uchib borar olis yoqlarga.  
Talay yo‘llar bosib misoli shamol  
Yana qaytib keldim bu so‘qmoqlarga.

Ushbu tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda,  
Qaytadan men bola bo‘lib ketaman.  
Intiqqan yuragim kengayib shunda,  
Chamamda qush bo‘lib parvoz etaman.


Mosh paykalda gala chumchuq chug‘urlar,  
She‘r o‘qishib turgan yosh shoirlarday.  
Burilishda tanish qo‘srig‘in kuylab,  
Qo‘sni qiz oldimdan chiqib qolarday.

Biroq u bunda yo‘q, u yiroqlarda...  
Bizning joylar o‘rni hozir paxtazor.  
Nechog‘lik monandsiz bizning yoqlarda,  
Deb doim maqtayman, so‘rashsa agar.


Gul terib, kapalak quvgan sho‘x vaqtim,  
Anov bedazorda yurgan toy dersan.  
Yo tavba, shu bitta qiyshiq so‘qmoqning  
Dilga yaqinligin qanday aytarsan!



kendir (qizilquray) –  
pushti gulli o’simlik



“Tog‘dagi qishloq”.  
Rassom Vladimir Petrov  
ishlagan surat



\* \* \*

**Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda,  
"Kimsan?" deb tanimay menga qaradi.  
Bir bola uchrasa sal nariroqda:  
– Kimning o'g'lisan? – deb men ham so'radim.**

\* \* \*

**– Ota, narvon bo'pti anov qo'sh terak!  
– Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu!  
– Inim, bog'ga nega bog'lading eshak?  
– E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!**

*Muhammad Ali tarjimasi*

### MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Har kimning tug'ilgan yeri – Misr shahri” maqolini siz qanday tushundingiz? Nima uchun she’rga shu maqol epigraf qilib olingan deb o‘ylaysiz?
2. Vatan sog‘inchi bilan bog‘liq tasvirlarda shoir o‘zini nimalarga qiyos qilyapti? Nima uchun?
3. “...tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda,  
Qaytadan men bola bo‘lib ketaman...”  
“Bola” va “so‘qmoq” so‘zlari orasida qanday bo‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Nima uchun shoir aynan “qiysiq so‘qmoqlar”ning dilga yaqinligi haqida kuylamoqda?
4. “Intiqmoq” so‘zi “shoshmoq” ma’nosini beradi. “Intiqqan yurak”ni siz qanday tasavvur qilasiz? Shoirning “intiqqan yuragi” nima sababdan kengayadi? Siz ham mana shunday holatga tushganmisiz?
5. Qo‘sni qiz qanday “tanish qo’shiq”ni kuylashi mumkin? Bu qo’shiqning shoirga ham daxldorligi bormi?
6. Shoir oxirgi ikki to‘rtlikni (“Cholga salom bersam...” va “Ota, narvon bo‘pti...”) she’rga nima maqsadda qo’shgan deb o‘ylaysiz? Bu to‘rtliklar qanday g‘oyaga xizmat qilyapti?
7. “Qadrdon so‘qmoqlar” she’rida sizni o‘ylashga majbur qiladigan qanday jihatlarni ko‘rdingiz? Fikrlaringizni matn va shaxsiy tajribalarining asosida izohlashga harakat qiling.

**Xurshid Davron****VATAN DEVORLARI**

Bu devorlar – bizning yelkamiz,  
 Bu devorlar – oyoqlarimiz.  
 Yelkamizda ona o'lkamiz –  
 Kuy-u bayot, qir, bog'larimiz.

So'zimizdir – devorda har tosh,  
 Ko'zimizdir – toshdagi bo'yoq.  
 Izimizdir – yurtdagi har bir  
 Qal'a, qasr, madrasa, chortoq.

Minoralar – qaddimiz bizning,  
 Sardobalar – bizning ko'z yoshlar.  
 Bitiktoshdir har biri, o'qing,  
 Poydevorga taxlangan toshlar.


Bo'limganda gar Shohizinda,  
 Yo Xivaning Kalta minori –  
 Yurak degan qutlug' zaminda  
 Yuksalmasdi G'urur chinori.

Bo'limganda Go'ri Amirning  
 Toshlariga bitilgan ko'klam –  
 Hayratlanib qoshida sirning,  
 Viqor bilan to'lmasdi ko'krak.


Yurmas edik bunchalar tetik,  
 Bo'lmas edi tanda ruh obod.  
 Bor bo'lardi yurakda kemitik –  
 Bo'limganda oddiy Ruhobod.

Imom Buxoriy-u Shohi Naqshband,  
 Imom Termiziy-u Najmuddin Kubro –  
 Bobolarning ravshan imoni  
 Yuraklarga beradi oro.

Biz ularni bilmasak agar,  
 Porlamasdi buncha ko'zimiz.  
 Osmonlarni titratmas edi  
 She'r aytganda sas, ovozimiz.



**sardoba** – ichimlik suvini  
 saqlash uchun qurilgan inshoot



"Samarqanddagi ko'cha".

Rassom Ulug'bek Muhamedov  
ishlagan surat

Ona deymiz Vatanni!  
Vatan –  
Shu Registon, shu Ichonqal'a.  
Bolalikdan ular bizlarning  
Boshimizda ayt mishlar alla.

Vatandir – yer ostidan birdan  
Qadim qo'shiq parchasi kabi  
Sellor o'tib, ko'zga tashlangan  
Bitiktoshlar – bobolar qalbi.

Qal'alarning ko'ksiga botgan  
O'qlar izi – yarasiga boq!  
Ular – dilda og'riq uyg'otgan  
Bujur yara, iztirob, ingroq.

Ularni sen o'yilgan ko'z deb  
O'ylamagin – ko'radi ular.  
Ular yashar dunyoda biz deb,  
Qadamimiz tuzatib turar.

Ular qaddi bukilsa agar,  
Yelkamizni tutaylik darrov.  
Qulayotgan minor oldidan  
Befarq o'tgan ajnabiymas, yov!

Zilzilani kutgan asbobdek  
Sergak bo'lsin doimo yurak.  
Aldamasin xuddi sarobdek  
Aldoqchi his, o'tkinchi ermak.

Yelkalarni tutaylik, toki  
Qudrat bilan to'lsin yelkamiz.  
Yelkamizda ko'zimiz oq-u  
Qorasi – yurt, ona o'lkamiz.

Yelkalarni tuting... Devorlar  
Cho'kib borar – vaqt qilmas shafqat.  
Qulaganda... Qulaydi ular  
Bolalarining ustiga faqat.

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Vatanning ham devorlari bo'lishi mumkinmi? Sizningcha, "devor" so'zi yana qanday ma'nolarni berishi mumkin?
2. "Bu devorlar – bizning yelkamiz, Bu devorlar – oyoqlarimiz... So'zimizdir – devorda har tosh, Ko'zimizdir – toshdagi bo'yoq". Ushbu satrlarda shoir nima demoqchi? Shoir Vatanga muhabbatini mana shunday o'ziga xos o'xshatishlar orqali ifodalashini qanday izohlaysiz?
3. She'rning uchinchi bandida "Sardobalar – bizning ko'z yoshlar" deganda shoir qanday ko'z yoshlarni nazarda tutyapti?
4. "Yurak degan qutlug' zaminda Yuksalmasdi g'urur chinori". Sizningcha, "yurak" va "zamin"ni qanday jihatlar umumlashtirib turadi?
5. "Ular (o'qlar izi) yashar dunyoda biz deb, Qadamimiz tuzatib turar". Bu satrlar bilan shoir nima demoqchi?
6. She'rning birinchi va oxirgi misralaridagi bir-biriga zid tushunchalarni toping. Bunday qarama-qarshiliklar she'rning umumiylarini mazmunini ochishda qanday ahamiyat kasb etmoqda?

## SOLISHTIRAMIZ

Har ikki ijodkorning Vatan haqidagi qarashlarini diagrammada aks ettiring. "Qadrdon so'qmoqlar" va "Vatan devorlari" she'rlari mualliflari Vatanni qanday tushunchalar bilan bog'laydilar? Ularni o'zingizdag'i Vatan tushunchasi bilan solishtiring. Diagrammani daftaringizda to'ldiring.



O'ylab ko'ring-chi, agar sizda ikki ijodkordan biri bilan uchrashish imkonи bo'lganda, qaysi biri bilan uchrashgan bo'lardingiz? Nima uchun?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Guruhlarga bo'lining. Birinchi she'rdagi "Qadrdon so'qmoqlar" va ikkinchi she'rdagi "Vatan devorlari"ni ranglarda aks ettiring. Ijod namunalaringizni boshqa guruhlarda muhokama qiling.

## BADIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: METAFORA

Badiiy adabiyotda qo'llanadigan badiiy tasvir vositalaridan biri **metaforadir**. Metafora ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Bu o'xshashlik asosida so'z o'z ma'nosida emas, yangi ma'noda ishlataladi.

Misol uchun:

*Yayrab o'sdim gulbog'laringda,  
Onamdirsan, men senga farzand.  
(Zurafo Narzullayeva)*

Bu misolda shoira tug'ilib o'sgan joyini "onamdirsan" deb atamoqda, ya'ni "ona" so'zi "vatan" ma'nosida qo'llangan. Metafora ikki tushuncha o'rtasidagi o'xshashlikka (onaning bag'rida o'sish – tug'ilgan yeri, Vatani bag'rida o'sish) asoslangan.

Metafora fikrni jozibali, ta'sirchan va aniq ifoda etishga yordam beradi.

O'xshatish ham ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi umumiy belgiga asoslanadi, lekin bunda har ikki tushuncha o'z nomi bilan ataladi ("onadek muqaddas Vatan", ya'ni "ona muqaddas, Vatan ham muqaddas").

*Onadek ko'rgaymiz seni, O'zbekiston,  
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!  
(Muhammad Yusuf)*

Bu misolda "onadek ko'rgaymiz" deb Vatan onaga o'xhatilmoqda, ya'ni o'xshatish qo'llangan.

## GURUHLarda ISHLAYMIZ

"Qadrdon so'qmoqlar" va "Vatan devorlari" she'rlaridan metafora va o'xshatishga misollar topping. Topilgan metafora yoki o'xshatish qanday umumiy belgiga asoslanganini aniqlang.

Metafora va o'xshatishga misol	Qanday umumiy belgiga asoslangan?
Chumchuqlar chug'urlar yosh shoirlarday (o'xshatish)	Qushlarning va yosh shoirlarning shovqini

# MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Quyidagi she'rlarni o'qing. Ularda mualliflar qanday obrazlarga murojaat qilgan? Bu obrazlar qanday g'oyaviy maqsadlarga xizmat qilmoqda? Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Ibroyim Yusupov		Xurshid Davron	
Obraz	Obrazdan ko'zlangan maqsad	Obraz	Obrazdan ko'zlangan maqsad

## Ibroyim Yusupov IZLANISH

Umr – izlanishdan iborat ekan,  
Izlanarman, kunduz – qo'limda chiroq.  
Naql bor: “Izlasang – topasan” degan,  
Rostmi-yolg'on, sinab ko'rmadim biroq.

Izlayman, tinmasdan varaqlab kitob,  
Elning so'zlariga qulq solaman.  
Cho'lda shamollarga qilaman xitob,  
Yulduzlarga qarab o'yga tolaman.

Izlayman kun bo'yi naq quduq qazib,  
Terim – yomg'ir kabi ho'l etgunicha.  
Izlayman tun bo'yi qo'shiqlar yozib,  
Tong uyqusi kelib yiqitgunicha.

Ovchi cho'lga chiqar shikor o'yida,  
Turna yolg'iz qolsa, turnasin izlar.  
Tong saharda qizlar buloq bo'yidan  
Oqshom tushib qolgan sirg'asin izlar.

Aslo sabrim yetmas, aslo to'zmayman,  
Yo'g'in yo'qtganday qilaman so'roq.  
Bir narsani umrim bo'yi izlayman,  
U axir nimadir – bilmayman biroq...

*Jonibek Subhon tarjimasi*

## JAYXUN SHAMOLLARI

*Otajon Xudoyshukurovga*

Qayda yursam sog‘intirar  
Ona yurtim tomonlari.  
Xayolimda sahar-sahar  
Esar Jayxun shamollari.

Atirgul terib cho‘llardan,  
Gulirayhon chamanlardan.  
Bizning bul go‘zal ellardan  
Esar Jayxun shamollari.

Paxtakor xalq mehnat ahli,  
Martabali idrok, aqli.  
Hayot jo‘s sh ursa ne chog‘li,  
Esar Jayxun shamollari.

O‘zbekiston – shonli diyor,  
Bulbullar ishqinda yonar,

Hamma faslinda navbahor,  
Esar Jayxun shamollari.

Umr qisqa, manzil uzoq,  
Yillar bizdan ketar yiroq.  
Mangu qo‘sish kabi yangroq  
Esar Jayxun shamollari.

El mehri so‘nmas yuzingdan,  
Ulug‘ daryoyi azimdan,  
Qoraqalpoq, Xorazmdan  
Esar Jayxun shamollari.

Ibroyim der, el nafasi,  
Amuning sirli sharpasi,  
Umrimming boqiy sabosi,  
Salom, Jayxun shamollari!

**Xurshid Davron**

## O‘G‘LIM TEMURGA

O‘g‘lim, bu yer –  
Bizning yerimiz.  
O‘zimizning yerimiz.  
Qo‘rqmasdan qadam tashla.  
Yer juda qattiq –  
Bobolarning qoni qotirgan uni,  
Momolarning ko‘zyoshi qotirgan.  
O‘g‘lim, bu yer –  
O‘zimizniki,  
Hadiksirama, ishongin otangga,  
Hadeb qarayverma orqangga.  
Yiqilsang, ko‘tarar  
Seni bu tuproq.  
Yiqilsang, turmoqni o‘rganasan,  
Turmoqni o‘rgan, o‘g‘lim.  
Yiqilsang, emaklama,  
Emaklaganim yetar, o‘g‘lim,  
Qad tiklashni o‘rgan,  
Shuning uchun bizga berilgan  
Bu yer – bu Vatan.

## SHOIR, QUSH VA QISH

Kimsasiz bog‘,  
Qorga cho‘mgan bog‘,  
Derazadan qarasam – oppoq...  
“Chirq-chirq” etar  
Qaydadir bir qush –  
Dilim bejo qilar bu tovush.

Tashqariga  
Chiqib boqaman –  
Bog‘im bo‘m-bo‘sh, bo‘m-bo‘shdir samo.  
“Chirq-chirq” etar  
Qaydadir bir qush –  
Ko‘zlarimga ko‘rinmas, ammo.

Qayta-qayta  
Chiqaman yana,  
“Chirq-chirq” etar qaydadir bir qush.  
Chorbog‘ sovuq,  
Sovuqdir xona,  
Bu yil juda sovuq keldi qish.

“Chirq-chirq” etib  
Yangrar ma‘yus sas  
Va ko‘ksimda uyg‘onar titroq.  
Men sovuqdan  
“Qalt-qalt” titrayman,  
Yopolmayman eshikni biroq...



# OSKAR UAYLD. “BAXTLI SHAHZODA”

**Bu mavzuda biz:**

- “Baxtli Shahzoda” ertagiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
- badiiy matnda jonlantirish haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

## MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Oskar Uayld (1854–1900) – jahon adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri. U Irlandiyaning Dublin shahrida tug'ilgan. U ziyolilar oilasida tug'ilgan bo'lib, otasi shifokor, onasi esa shoira edi. Uayldlar xonadonida san'at yuqori darajada qadrlanar va o'z davrining ko'zga ko'ringan san'atkorlari tez-tez mehmon bo'lishar edi. Bunday muhitda ulg'aygan Oskar bolaligidan adabiyotga, san'atga mehr qo'ydi.

O'rta maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, Oskar Uayld dastlab Dublin universitetida qadimgi adabiyotni o'rgandi. So'ngra jahonning eng mashhur oliygohlaridan biri – Oksford universitetida tahsil olish uchun maxsus stipendiyani qo'lga kiritdi. Oksfordda o'qib yurgan paytida universitet jurnallarida uning dastlabki she'rlari nashr etildi. Oliygohni bitirgach, Oskar Uayld Londonga ko'chib o'tib, yozuvchilik faoliyatini davom ettirdi.

Oskar Uayld she'rlari va nasriy asarlaridan tashqari o'ziga xos uslubda yozilgan ertaklari bilan ham mashhur.



## ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Oskar Uayldning “Baxtli Shahzoda” ertagini o‘qiyimiz.



“Baxtli Shahzoda” ertagi asosida ishlangan multfilmdan lavha.  
“O’zbekfilm”, 1992-yil

## GURUHLarda ISHLAYMIZ

Siz shu paytgacha qanday ertaklar o‘qigansiz yoki eshitgansiz? Ularda qanday umumiy xususiyatlarni kuzatgansiz? Jadvalni davom ettiring.

Ertaklarga xos umumiy xususiyatlari	Misollar
Yaxshi (ijobiy) va yomon (salbiy) qahramonlar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi	“Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri”
Hayvonlar ham insonlardek harakat qilishi, gapirishi mumkin	“Susambil”, “Qizil qalpoqcha”

“Baxtli Shahzoda” ertagi siz shu paytgacha o‘qigan ertaklardan farq qiladi. U nima haqida bo‘lishi mumkin? Unda qanday voqealar sodir bo‘ladi deb o‘ylaysiz?



Ertakning  
audio variantini  
tinglang

## BAXTLI SHAHZODA

**zabarjad, la'l –**  
qimmatbaho  
toshlar



**xo'roz-parrak**  
(flyuger) –  
bino tomidagi  
shamolning  
yo'nalishini  
ko'rsatuvchi  
moslama

**omilkor –**  
ishbilarmon  
**peshgir –** fartuk  
**serbar –** eni keng

**riyoziyot –**  
matematika

Shahar uzra bo'y cho'zgan baland ustunda Baxtli Shahzodaning haykali turardi. U boshdan oyoq oltin yaproqchalar bilan qoplangan, ko'zlari o'rnidagi bir juft nurafshon zabarjad va qilichining dastasidagi yirik la'l yal-yal tovlanardi.

Shahzodaga butun shahar maftun edi.

– U xo'roz-parrakdek ajoyib! – xitob qildi Shahar Maslahatchilari dan biri san'atni naqadar nozik tushunishini namoyish qilish uchun.  
– Ammo xo'roz-parrakdek foydali emas, albatta, – shu zahoti qo'shib qo'ydi u ishbilarmonligi shubha ostida qolishidan qo'rqib. Maslahatchi o'zini g'oyat omilkor deb bilardi.

– Baxtli Shahzodadan o'rnak olsang bo'lmaydimi? – dedi Oqila Ona "oymomani olib ber", deb xarxasha qilayotgan bolasiga. – Baxtli Shahzoda hech qachon injiqlik qilmaydi!

– Qarang-a, dunyoda to'la baxtga erishgan kimsa ham bor ekan, bu juda quvonarli hol! – g'ulduradi hayotdan alamzada bo'lgan bir kishi g'aroyib haykalga oshufta tikilarkan.

– Xuddi farishtaning o'zi-ya! – deb xitob qilishdi oppoq peshgirli serbar och-qizil ko'ylak kiygan bolalar.

– Qayerdan bila qoldilaring? – e'tiroz bildirdi Riyoziyot Muallimi.

– Axir bironta farishtani ham ko'rmagansiz-ku.

– O, biz ularni tushimizda ko'ramiz! – javob berishdi bolalar. Riyoziyot Muallimi ularga xo'mrayib qarab qo'ydi: bolalarning tush ko'rishi lari unga aslo ma'qul emasdi.

*Shaharda nima uchun hamma Baxtli Shahzodadan hayratlanar, uni o'rnak qilib ko'rsatar edi?*

Bir kuni tunda o'sha shaharning tepasidan bir Qaldirg'och uchib ketayotgandi. Do'stlari olti oy burun Misrga uchib ketishgan, u esa qamishpoyaga oshiq bo'lib, ulardan orqada qolgandi. Qaldirg'och uni erta bahorda, katta sariq kapalakning ketidan quvib ketayotganida ko'rib qolgandi...

Qaldirg'och uning ustida charx urib ucha boshladi, ba'zan qanotlari tegib, suvning yuzida jimir-jimir kumush halqalar hosil bo'lardi. Bu o'yin yoz bo'yi davom etdi.

– Topgan tengini qaranglar! – chug'urlashdi boshqa qaldirg'ochlar. – O'zi sariq chaqaga arzimaydi, buning ustiga, qancha qarindoshi bor!

Chindan ham daryoni qamishzor tutib ketgandi. Kuz kelgach, qaldirg'ochlar uchib ketishdi. Ular ketishlari bilan Qaldirg'och yakkalandi, yetimchadek his qildi o'zini.

– Xo'sh, men bilan uchib ketishni xohlaysanmi? – so'radi u nihoyat Qamishdan. Ammo Qamish boshini chayqadi: u uyiga shunday o'rganib qolgandiki!

– U holda men ehromlarga uchib ketaman, alvido!

Shunday deb, Qaldirg'och uchib ketdi.

Qaldirg'och kunbo'yi uchdi, nihoyat tunda bir shaharga yetib keldi.

– Qayerga qo'nsam ekan? – o'ylanib qoldi u. – Meni kutib olish uchun shaharda tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim.

Bir payt baland ustun tepasida turgan haykalga ko'zi tushdi.

– Juda soz. Shu yerda qolganim bo'lsin: qulay joy va toza havo – jonning rohati-ku!

Shunday deya Qaldirg'och Baxtli Shahzodaning oyoqlari ostiga qo'ndi.

– Endi mening oltin yotoqxonam bor! – g'ururlanib qo'ydi u atrofiga nazar solarkan va boshini qanotlarining ostiga olib endi uyquga chog'lanib turgandi hamki, ustiga yirik bir tomchi kelib tushdi.

– Ajabo! – hayratlandi Qaldirg'och. – Osmonda bir parcha ham bulut yo'q: tiniq va charog'on yulduzlar parpirab turgan bo'lsa, yomg'ir qayoqdan paydo bo'ldi ekan? Shimoliy Yevropaning ob-havosi juda rasvo-da. Yomg'ir Qamishginamning joni-dili edi, ammo u shunday xudbin ediki.

Shu payt yana bir tomchi kelib urildi.

– E, o'rgilib qo'ydim: yomg'irdan saqlolmaydigan haykaldan nima naf?! Bironta soyabonli mo'ri topmasam bo'lmaydi, shekilli.

Shunday deb, Qaldirg'och parvozga shaylandi. Ammo qanotlarini yoyishga ulgurmasidan yana bir tomchi kelib tushdi. Qaldirg'och tepega qaradi va nimani ko'rди deng!



Baxtli Shahzodaning ko‘zlari jiqla yoshga to‘lib, zarrin yonoqlaridan oqib tushardi. Oy nurlari tushayotgan yuzi shu qadar fusunkor ediki, buni ko‘rib Qaldirg‘ochning ko‘ngli buzilib ketdi.

*Baxtli Shahzoda nima sababdan yig‘layapti deb o‘ylaysiz?*

- Sen kimsan? – deb so‘radi Qaldirg‘och.
- Men Baxtli Shahzodaman.
- Unda nega yig‘layapsan? Shalabbo qilib yubording-ku!
- Tiriklik paytimda, San-Susi saroyida yashagan chog‘larimda yuragim odamlarnikidek jonli edi, – xo‘rsinib qo‘ydi haykal. – Ko‘z yoshi nima ekanidan mutlaqo bexabar edim. Chunki bu saroyning eshiklari g‘am-alam uchun taqa-taq yopiq edi. Kunni do‘stilarim davrasida o‘yin-kulgi bilan o‘tkazardim, kechqurunlari esa muhtasham Tanobiy uyda raqs tushardim. Bog‘ni baland devorlar o‘rab turardi; uning ortida nimalar borligini so‘rash esa xayolimga ham kelmasdi. Atrofimdagi narsalar shunday go‘zal, shunday go‘zal edi-ki! Meni Baxtli Shahzoda deb atashardi yaqinlarim. Chindan ham baxtli edim, agar baxt o‘yin-kulgidangina iborat bo‘lsa, albatta. Shu taxlit yashadim, shu taxlit vafot etdim. Mana, endi o‘lganimdan so‘ng, meni shunday yuskak joyga o‘rnatishdiki, bu yerdan turib shaharimning hamma g‘urbat va ayanchlarini yaqqol ko‘rib turibman va garchi yuragim endi qalaydan bo‘lsa ham, yoshimni tiyib turolmayapman.

“Ah-ha, demak, hamma yog‘i oltindan emas ekan-da?” – xayolidan o‘tkazdi Qaldirg‘och: bu so‘zlarni ichida aytishga uning farosati yetardi har holda.



Potsdam shahridagi (Germaniya) San-Susi saroyi (XVIII asr).  
Saroy nomi “g‘am-tashvishsiz” ma’nosini bildiradi

– Uzoqda, huv anavi tomonda, jinko‘chada derazasining bir tabaqasi ochiq turgan kulbani ko‘ryapman, – deb so‘zida davom etdi haykal shivirlab. – Ochiq derazadan stol oldida o‘tirgan bir ayol ko‘rinmoqda. Yuzi so‘lg‘in, qo‘llari dag‘al va igna sanchilaverganidan qontalash bo‘lib ketgan. Chunki u chevar-da. Qirolchaning eng sohibjamol dugonasi ning navbatdagi saroy bazmiga atab tiktirayotgan ipak ko‘ylagiga gul chatimoqda. Xona burchagidagi to‘sakda bolasi betob yotibdi. U isitmada yonib, “apelsin beringlar”, deb alahsirayapti. Ammo onasining daryo suvidan boshqa beradigan narsasi yo‘q. Shuning uchun ham bola yig‘layapti. Qaldirk‘och, Qaldirk‘och, jajjigina Qaldirk‘och! Qilichimning dastasidagi la’lni olib, o’sha ayolga eltil bersang-chi? Oyoqlarim supaga mahkam qotirilgan, o‘zim joyimdan qimirlolmayman.

– Meni Misrda intizorlik bilan kutmoqdalar, – dedi Qaldirk‘och.  
– Do‘stilarim Nil uzra charx urib, ulkan nilufarlar bilan suhbat qurishmoqda. Tez orada ular Ulug‘ Shohning daxmasiga tunagani ketishadi. U serhasham tobutda: sariq matoga chulg‘anib, xushbo‘y ko‘katlar bilan mumiyolanib yotibdi. Bo‘yniga och zangor yashmdan zanjir o‘ralgan, qo‘llari esa kuzgi xazondeklariga za’faron.

– Qaldirk‘och, Qaldirk‘och, jajjigina Qaldirk‘och! Bir kechagina qola qol, mening vakilim bo‘lib. Bolakay shundoq chanqaganki, onasi ham shundoq g‘amginki.

– Bolakaylarni unchalik jinim suymaydi. O‘tgan yoz, daryoning tepasida yashagan chog‘imda tegirmonchining battol zumrashalari toshbo‘ronga tutganlari tutgan edi. Albatta, menga tekkizishga yo‘l bo‘lsin ularga. Biz Qaldirk‘ochlar chapdast qushlarmiz; boz ustiga, kamina ep-chillikda dong taratgan qaldirk‘ochlar avlodidanman. Shunday bo‘lsada, buni menga nisbatan juda hurmatsizlik deb bilaman.

Ammo Baxtli Shahzoda shunday iltijo bilan tikilayotgandiki, Qaldirk‘ochning unga rahmi keldi.

– Bu yer juda sovuq ekan, – dedi u, – ammo aytganingcha bo‘lsin, topshirig‘ingni bajarish uchun bir kecha qolishga roziman.

– Minnatdorman, jajji Qaldirk‘och! – xitob qildi Baxtli Shahzoda. Shunday qilib, Qaldirk‘och haykalning qilichidagi la’lni cho‘qib oldi-da, shahar tomlari uzra uchib ketdi. Qirol saroyi uzra o‘tayotib musiqa sadolarini eshitdi. Go‘zal bir qiz yigit bilan peshayvonga chiqib keldi.

– Naqadar ajib bu yulduzlar, – dedi yigit qizga.  
– Ko‘ylagim saroy bazmigacha tayyor bo‘lar degan umiddaman,  
– javob berdi qiz. – Men ko‘ylagimga gul chatishni buyurdim, biroq shunday yalqovki bu chevarlar.

Qaldirk‘och daryo uzra uchayotib, kema machtalaridagi chiroqlar ni ko‘rdi. Nihoyat, u boyagi kulbaga yetib keldi va ichkariga boqdi. Bola isitmada to‘lg‘anar, onasi esa toshdek qotib uxbab yotardi: axir u qattiq charchagandi-da. Qaldirk‘och xonaga kirib, la’lni stolda yotgan angishvonaning yoniga qo‘ydi. So‘ng to‘sak uzra qanot qoqib, bolasining cho‘g‘dek yuziga shabada tarata boshladi.

daxma –  
maqbara

yashm –  
bezak sifatida  
ishlatiladigan tosh

– Qanday maza! Endi tuzalib ketsam kerak, – deb shivirladi bola va uyquga ketdi.

Shundan so'ng Qaldirg'och Baxtli Shahzodaning oldiga qaytib kelib ko'rganlarini so'zlab berdi.

*Bolalarni jini suymaydigan Qaldirg'och nima uchun chevar ayolning betob bolasi yuziga shabada taratdi ?*

– Qizig'i shundaki, – dedi u so'zining oxirida, – ayozligiga qaramay, endi sovqotmayapman.

– Chunki sen savobli ish qilding-da! – deb tushuntirdi unga Shahzoda. Qaldirg'och bu so'zning mag'zini chaqish uchun o'yga toldi va shu zahoti uxlab qoldi. Biron narsa to'g'risida bosh qotirdi deguncha, uni uyqu elta boshlardi.

Tongda Qaldirg'och cho'milib olgani daryo tomon parvoz qildi.

– Qanday g'aroyib hodisa!? – ajablandi shu paytda ko'prik ustidan o'tib borayotgan Qushshunos Olim. – Qish faslida qaldirg'och nima qilib yuribdi?!

Olim ishni paysalga solmay, mahalliy matbuotda uzundan uzoq maqola chop ettirdi. Maqolada tushunarsiz so'zlar qalashib yotgan bo'lsa-da, u hammaning diqqatini o'ziga tortdi.

– Bas, shu tundayoq Misrga jo'nab ketaman, – deb qaror qildi Qaldirg'och va bu o'ydan badani yayrab ketdi.

U barcha yodgorliklarni ziyorat qilib keldi va uzoq vaqt ibodatxona qo'ng'iroqxonasing tomida o'tirdi. Qayerga bormasin, chumchuqlar "bu zot kim bo'ldiykin", deb chiriqlashar, Qaldirg'och bundan cheksiz g'ururlanib ketardi.

Osmonga oy qalqib chiqqanda Qaldirg'och Baxtli Shahzodaning yoniga qaytdi.

– Misrga doir nima topshirig'ing bor? – deb so'radi Qaldirg'och. – Men hoziroq jo'nab ketyapman.

– Qaldirg'och, Qaldirg'och, jajjigina Qaldirg'och! Yana bir kechagini qola qol, – deb iltijo qildi haykal.

– Misrda yo'limga nigoron bo'lib o'tirishibdi, – dedi Qaldirg'och. – Ertaga do'stlarim Nilning ikkinchi shovvasiga parvoz qiladilar. U yerda, qamishzorlarda gippopotamlar yashaydilar, ulkan marmar taxtda esa Memnon o'tiradi. Tunbo'yi u yulduzlarga termiladi, tong shafag'i jilvalanishi bilan esa quvonch bilan uni olqishlaydi, so'ng yana soqov bo'lib oladi. Tush payti sariq sherlar daryo bo'yiga chanqoqlarini qondirgani tushib kelishadi. Ularning ko'zлари zumrad kabi yashil, o'kiriklari esa sharsharaning tovushini bosib ketadi.

– Qaldirg'och, Qaldirg'och, jajjigina Qaldirg'och! – dedi Shahzoda. – Huv anovi tomonda, shahar chetidagi chordoqda men bir yigitni ko'ryapman. U stolda yotgan qog'ozlarga tikilib o'tiribdi; yonidagi shisha idishda turgan binafshalar esa so'lib yotibdi. Sarg'itmish sochlari to'zigan, katta-katta ko'zлари esa xayolchan boqadi. U Teatr Di-

shovva –  
sharshara

rektori uchun yozayotgan pyesasini tugallashga shoshilyapti, ammo sovuq qotgan barmoqlari arang qimirlayapti. O'chog'ida allaqachon olov so'ngan, o'zi ochlikdan ko'ngli ozib, hushidan ketay-ketay deb turibdi.

**pyesa –  
sahna asari**

– Bo'pti, ertalabgacha qolganim bo'lzin! – dedi chindan ham ko'ngilchan Qaldirg'och. – Unga ham la'l olib boramanmi?

– Evoh, menda endi la'l yo'q! – ingradi Shahzoda. – Ko'zlarimdan boshqa hech narsam qolmadi. Ular ming yil muqaddam olis Hindistondan keltirilgan g'oyat noyob zabarjadlardan yasalgan. Ularning birini cho'qib ol va o'sha yigitga eltit bergin, uni zargarga pullab, o'tin sotib oladi va pyesasini ham nihoyasiga yetkazadi.

– Azizim, men bunday qilolmayman! – deb yig'lay boshladi Qaldirg'och.

– Qaldirg'och, Qaldirg'och, jajjigina Qaldirg'och! – iltijo qildi Shahzoda. – Iltimosimni bajo keltirgin.

Qaldirg'och nochor Baxtli Shahzodaning ko'zini cho'qib oldi va shoirning chordog'i tomon parvoz qildi. Tom teshik bo'lgani uchun u shu yerdan qiyinchiliksiz chordoqqa kirib oldi. Yigit yuzini qo'llari bilan berkitib o'tirardi. U hatto patirlagan qanot tovushini ham eshitmadidi. Necha daqiqadan so'nggina, boshini ko'tarib so'lg'in guldastaning ustida yotgan qimmatbaho toshga ko'zi tushdi.

– Nihoyat qadrimga yeta boshlashibdi! – quvonch bilan xitob qildi yigit. – Bu bironta ashaddiy muxlisimning sovg'asi bo'lsa kerak. Endi pyesamni ham tugatsam bo'ladi.

Yigit o'zini juda baxtiyor his qilayotgandi.

Ertasiga ertalab Qaldirg'och bandargohga parvoz qildi. Katta bir kemaning machtasiga qo'nib, tagxonasidan qandaydir yuklarni arqon bilan tortib chiqarayotgan dengizchilarining ishini tomosha qila boshladi.

– Ol-dik! Ol-dik! – qichqirishardi ular yuk ko'rinishi bilan.

– Men Misrga ketyapman! – deb qichqirdi ularga Qaldirg'och. Birroq hech kim unga e'tibor bermadi.

Oy chiqqan mahaldagina Qaldirg'och Baxtli Shahzodaning yoniga qaytib keldi.

– Sen bilan xayrashgani keldim! – dedi u yetib kelishi bilan.

– Qaldirg'och, Qaldirg'och, jajjigina Qaldirg'och! – iltijo qildi Shahzoda. – Yana bir kecha qolgin.

– Hozir qish, – javob berdi Qaldirg'och. – Tez orada izg'irin qor yog'ib beradi. Misrda esa quyosh charaqlab, xurmo daraxtlarining yashil yaproqlarini ilitmoqda. Timsohlar loyqaga cho'zilib, erinchoqlik bilan atrofga boqishmoqda. Do'stlarim allaqachon Baalbek ibodatxonasiga uya solishmoqda. Oppoq va pushti kabutarlar esa ularga tikilib, bir-birlari bilan g'uv-g'uvlashmoqdalar. Qadrli Shahzoda, seni tashlab ketishga majburman; ammo hech qachon seni unutmayman va albat-ta bahorda yoningga qaytib kelaman. Misrdan boyagi toshlar o'rniga atirguldan ham qizilroq la'l va dengiz to'lqinlaridek moviy zabarjad keltirib beraman.

**bandargoh –  
kemalar  
to'xtaydigan joy**

**Baalbek –  
Livandagi  
qadimiy shahar**

– Pastda, maydon chetida gugurtfurush qizcha turibdi. U gugurtlarini ariqqa tushirib yuborib, yaroqsiz qilib qo'ydi. Endi, uyiga pulsiz borsa, otasi uni o'lguday do'pposlaydi. Shuning uchun ham qizcha yig'layapti. Oyog'ida na kavushi, na paypog'i bor; buning ustiga boshi ham yalang. Narigi ko'zimni ham o'yib olgin-da, qizchaga eltil ber. Shunday qilsang, otasi uni jazolamaydi.

– Sen bilan yana bir kecha qolishga roziman, – dedi Qaldirg'och. – Ammo ko'zingni o'yib olishni xohlamayman. Axir butunlay ko'r bo'lib qolasan-ku!

– Qaldirg'och, Qaldirg'och, jajjigina Qaldirg'och! – iltijo qildi Shahzoda. – O'tinaman, iltimosimni rad etma.

*Baxtli Shahzoda nima uchun Qaldirg'ochdan ikkinchi ko'zini ham o'yib olib, qizchaga berishni iltimos qilmoqda? U butunlay ko'r bo'lib qolishdan qo'rqlaydimi?*

Noiloj qolgan Qaldirg'och Shahzodaning ikkinchi ko'zini ham o'yib, qizchaning tepasiga uchib keldi va jajji qo'lchasiga g'aroyib zabarjadni tashladi.

– Qanday ajoyib shishacha! – quvonib ketdi qizaloq va sevinchini yashirolmay, kulgancha uyiga chopqilladi.

Qaldirg'och Baxtli Shahzodaning qoshiga qaytib keldi.

– Endi butunlay ko'zlarining ko'r maydigan bo'lib qoldi; shunday ekan, umrbod sen bilan qolaman.

– Yo'q, jajji Qaldirg'och, – dedi sho'rlik Shahzoda. – Sen Misrga uchishing kerak.

– Umrbod sen bilan qolaman, – so'zini qaytardi Qaldirg'och va haykalning oyoqlari ostiga yotib, uyquga ketdi.

*Qaldirg'ochning endi butunlay Shahzoda bilan qolish qaroriga qanday baho berasiz? U to'g'ri yo'l tutyaptimi?*

Ertasiga kunbo'yi Qaldirg'och Shahzodaning yelkasida o'tirib, uzoq yurtlarda ko'rgan g'aroyib narsalari haqida so'zlab berdi: Ning sayoz qirg'oqlarida saf tortib, uzun tumshuqlari bilan oltin baliqchalarni tutib yeydigan pushti qushlar haqida, sahroda yashaydigan va hamma narsadan voqif, dunyo kabi ko'hna Sfinks haqida, kahrabo tasbeh donalarini bitta-bitta tashlab tuyalarining yonida ohista yurib boradigan savdogarlar haqida, xurmo daraxtida uxdig'an va yigirma nafar kohin asal kulchalar bilan boqadigan ulkan Zangori Ilon va mudom kapalaklar bilan jang qilib yuruvchi, yassi va keng yaproqlarda ko'l bo'ylab suzib yuradigan mitti odamlar haqida so'zladи.

– Qadrli Qaldirg'och! – dedi Baxtli Shahzoda, – sen hayratomuz narsalar haqida so'zlayapsan. Ammo odamzod kulfatidan ham lol qiladigan narsa bormi? Dunyoda eng mushkul jumboq – nochorlikdir.

Jajji Qaldirg'och, shahrimni kezib chiqib, ko'rgan-eshitgan narsalaring haqida so'zlab bergen.

*Nima uchun Shahzoda Qaldirg'ochdan Misrdagi hayratomuz narsalar haqida emas, shahardagi hayot haqida eshitishni istamoqda?*

Qaldirg'och parvoz qilib, ulkan shaharni boshidan oxirigacha uchib o'tdi: muhtasham saroylarda ziyofat-bazm qilayotgan davlatmandlar ni va ularning ostonalarida o'tirgan kambag'allarni ko'rди; qorong'i va tor ko'chalar ustidan o'tayotib qop-qora ko'chalarga g'amgin boqayotgan qoqsuyak bolalarning za'faron yuzlarini ko'rди. Ko'prik ostida ikki bolakay bir-birining pinjiga kirib, sovuqdan qaqshab yotardilar.

– Qornimiz ochqab ketyapti! – deb zorlanishardi ular.

– Bu yerda yotish mumkin emas! – o'dag'ayladi mirshab va bokaylarni yana yomg'irli ko'chaga haydab chiqardi.

Qaldirg'och haykalning yoniga qaytib, ko'rgan narsalari haqida gapirib berdi.

– Meni asl oltindan yasashgan, – dedi Baxtli Shahzoda. – Ustimgagi hamma oltinni qavatma-qavat ko'chirib olgin-da, beva-bechoralar ga ulashib bergen. Nachora, odamlar baxt – oltinda, deb o'ylashadi-da.

Qaldirg'och bu safar ham haykalning istagiga qarshi borolmadı; oltin qavatlarni birma-bir ko'chirib olgani sayin haykal xiralashib, ni-hoyat qop-qora tusga kirdi. Qaldirg'och oltin parchalarni g'ariblarga ulashib berdi va bolalarning yuziga qizil yugurib, ko'chalarni to'ldirib, o'yin-kulgi qila boshladilar.

– Endi bizning nonimiz bor! – deb qichqirishardi ular.

Keyin qor yog'ib berdi: qattiq sovuq boshlandi. Ko'chalar kumush-dek yaltirab, uylarning bo'g'otlaridan billur xanjarlarga o'xshash su-malaklar osilib tushdi; odamlar po'stinlariga burkanib, qizil qalpoqcha kiygan bolalar muz ustida sirpana boshladilar.

Bechora Qaldirg'och esa sovuqdan titrab-qaqshab, badani tobra muzlab borardi. Biroq Shahzodani tashlab ketishni xayoliga ham keltirmasdi; uni juda ham yoqtirib qolgandi-da. U novvoy ko'rib qolmasin, deb biqingancha do'kon atrofida non ushoq terib yer, qizib olish uchun ora-sira qanotlarini patirlatib qo'yardi.

Nihoyat, Qaldirg'och vaqtisi-yetganini fahmladi; zo'r qiyinchilik bilan so'nggi marta Shahzodaning yelkasiga qo'nib oldi.

– Alvido, azizim! – deb shivirladi u. – Qo'lingni o'pishga ijozat et.

– Xayriyat, oxiri Misrga uchib ketayotganidan juda xursandman, – javob berdi Baxtli Shahzoda. – Anchagina hayallab qolding o'zi.

– Misrga emas, marhumlar diyoriga ketayotibman, – dedi Qaldirg'och. Shunday deya Qaldirg'och Baxtli Shahzodaning oyoqlari ostiga yiqilib, jon berdi.

Xuddi shu paytda haykalning ichidan qandaydir narsaning singan tovushiga o'xshash ovoz eshitildi. Bu – cho'rt bo'lingan qalay yuraking tovushi edi. Haqiqatan havo juda sovuq edi-da.

*Shahzodaning yuragi havo sovuqligi tufayli bo‘linib ketdi, deb o‘ylaysizmi?*

Ertasiga ertalab Shahar Hokimi xiyobonda Maslahatchilar bilan sayr qilib yurardi. Shahzodaning ustuni yonidan o‘tib borarkan, boshini ko‘tarib, haykalga qaradi.

– E xudo! – deb qichqirib yubordi Hokim. – Baxtli Shahzoda juldurvoqiga aylanib qolibdi-ku!

– To‘ppa-to‘g‘ri, juldurvoqining xuddi o‘zi! – deb tasdiqlashdi hamma sohada Hokimning fikriga qo‘shiladigan Shahar Maslahatchilar. So‘ng yaxshiroq qarab chiqish uchun haykalga yaqinlashishdi.

– Qilichiga qadalgan la'l g‘oyib bo‘libdi, – dedi Hokim. – Ko‘zlar o‘yib olinibdi, endi u oltin ham emas; tilanchidan farqi qolmabdi!

– To‘ppa-to‘g‘ri, tilanchidan ham beshbadtar! – bir ovozdan tasdiqlashdi Maslahatchilar.

– Oyog‘ining ostida esa qandaydir o‘lgan qush yotibdi, – so‘zida davom etdi Hokim. – Darhol qushlarning bu yerda o‘lishlari qat’iyan man qilinadi, degan qaror chiqarishimiz lozim.

Shahar Kengashining Kotibi shu zahoti qarorni daftariga yozib qo‘ydi.

Shunday qilib, Baxtli Shahzodaning haykali bu yerdan olib tashlandi.

– U endi go‘zallikdan butunlay mahrum! – der edi Estetika Professori universitetda.

Haykalni otashdonda eritib yuborishganidan so‘ng, Hokim Shahar Kengashini chaqirib, metallni nima qilish xususida maslahat soldi.

– Undan yangi haykal yasash lozim va u albatta mening haykalim bo‘lishi kerak! – deb taklif kiritdi Hokim.

– Mening haykalim bo‘lsin! – deb qichqirishdi Shahar Maslahatchilar va bir-birlari bilan yoqalasha boshladilar. Eshitishimcha, ular hozir ham bir fikrga kelolmayotgan emishlar.

– Ajabo, bu singan qalay yurakni otashdonda eritib bo‘lmayapti-ku! – dedi Po‘lat Quyuvchilar Boshlig‘i va uni o‘lik Qaldirg‘och yotgan chiqindilar orasiga uloqtirdi.

– Bu shahardagi ikkita eng noyob narsani keltirgin, – farishtalaridan biriga amr qildi Xudo. Farishta unga qalay yurak bilan o‘lik qushni keltirdi.

– Juda to‘g‘ri tanlabsan, – dedi Tangri. – Zotan, bu qushcha mening jannat bog‘larimda abadulabad xonish qiladi, Baxtli Shahzoda esa oltin ko‘shkimda menga madhiyalar to‘qiydi.

*Ertakning yakuni sizda qanday taassurot qoldirdi? Nega Estetika Professori tomonidan “go‘zallikdan butunlay mahrum” deb baho berilgan haykalning singan yuragi va o‘lik qaldirg‘ochni farishta eng noyob narsalar sifatida tanladi?*

*Mahkam Mahmudov va  
Abduhakim Muhammadiyev tarjimasi*

## MUHOKAMA QILAMIZ

1. Ertakdan qanday saboq chiqardingiz? Uning asosiy g'oyasini bir gap bilan ifodalang.
2. Ertak nima uchun "Baxtli Shahzoda" deb nomlangan? Shahzodani haqiqatdan ham baxtli deya olamizmi? Fikringizni matn asosida dalillang.
3. Qaldirg'ochning ertak boshidagi va oxiridagi harakatlarni qiyoslang. Unda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi? Bu o'zgarishlarning sababi nima edi?
4. Nega har safar Shahzoda Qaldirg'ochdan yana bir kecha qolishni iltimos qilganida Qaldirg'och Misrdan gap ochadi? Muallif asarga Misr bilan bog'liq tasvirlarni kiritish orqali qanday maqsadni ko'zlagan deb o'ylaysiz?
5. Shahardagi hayot tasvirlangan o'rnlarni topib, qayta o'qing. Bu manzaralar asarning g'oyasini ochib berishda qanday ahamiyat kasb etadi?

## GURUHLARDA ISHLAYMIZ

"Baxtli Shahzoda" ertagi siz o'qigan boshqa ertaklardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? Bu asarda boshqa ertaklarga o'xshamaydigan qanday jihatlarni kuzatdingiz?

Ertakning o'ziga xos xususiyatlarini jadval ko'rinishida daftaringizda aks ettiring.

<b>"Baxtli Shahzoda" ertagiga xos xususiyatlar</b>	<b>Matndan misollar</b>
Ertak g'amgin yakun topadi	... Xuddi shu paytda haykalning ichidan qandaydir narsaning singan tovushiga o'xhash ovoz eshitildi. Bu – cho'rt bo'lingan qalay yurakning tovushi edi.

## BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: JONLANTIRISH

Insonlarga xos xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvonlarga ko'chirish, ularni gapiradigan, insonlardek harakatlanadigan qilib tasvirlash **jonlantirish (tashxis)** – "shaxsga aylantirish") deyiladi. Jonlantirish o'ziga xos, takrorlanmas badiiy obraz yaratishga, tasvirlanayotgan voqe-a-hodisa yoki narsaga muallifning munosabatini aks ettirishga yordam beradi. Misol uchun:

*"Shitir-shitir o'ynar shabboda, Barglar musiqasi bir shirin..." (Usmon Nosir)*

Bu misolda shabbodaning "shitir-shitir o'ynashi" o'ynoqilik, quvnoqlik kayfiyatini yaratmoqda. Boshqa bir misol:

*"Maysalar lol egdi boshini, Qizg'aldoqlar to'kdi yoshini..." (Azim Suyun)*

**"Baxtli Shahzoda" ertagida ishlatalgan jonlantirishlarni toping. Qaysi narsalar insonlarga xos xususiyatlar bilan ifodalangan? Nima uchun?**

## MUSTAQIL O'QISH UCHUN

Oskar Uayld qalamiga mansub yana bir asar – "Yulduz-bola" ertagini tinglashni tavsiya qilamiz.




# AZIM SUYUN. “YOMG‘IR YOG‘IB O‘TDI...” OMON MATJON. “OSMON SOG‘INCH KABI...”

**Bu mavzuda biz:**

- “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi...” va “Osmon sog‘inch kabi...” she’rlarida ifodalangan tuyg‘ularni solishtiramiz;
- sinkveyn (besh qatorli she’n) tuzishni mashq qilamiz.

## MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ



**Azim Suyun** (1948–2020) Samarqand viloyatida tug‘ilgan. Bolaligi Nurota tog‘larining go‘zal tabiatini orasida kechgan. Kasbi cho‘pon bo‘lgan otasi bilan tog‘-u tosh, dala-dasht, qir-adir kezib, baxshilarning, cho‘ponlarning g‘aroyib hikoyalarini eshitib katta bo‘lgan. Maktabdan keyin Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) o‘qigan. Bir qancha nashriyotlarda, gazeta va jurnallarda ishlagan. Oliy Majlis deputatligiga saylangan.

**Omon Matjon** (1943–2020) Xorazm viloyatida tug‘ilgan. Shoirning eslashicha, kechalari moychiroq yorug‘ida kattalar aytgan ertaklar, xalq qo‘shiqlari, she’rlarni hayrat bilan tinglab ulg‘aygan. Dastlabki she’ri maktabda o‘qib yurgan paytda gazetada bosilib chiqqan. Samarqand davlat universitetini bitirib, bir qancha nashriyotlarda va davlat tashkilotlarida ishlagan.



## MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

*Oila a’zolaringiz, do’stlaringiz bilan tabiat qo‘yniga dam olishga chiqqanmisiz?  
Shunday paytlarda o‘zingizni qanday his qilgansiz?*

### Guruhlarda ishlang.

Tabiat biz uchun nimasi bilan muhim? Chizmani daftarda davom ettiring.

**Tabiat biz uchun  
muhim, chunki ...**

... biz ham tabiatning  
bir bo‘lagimiz.

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_


**Azim Suyun**

\* \* \*

Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi,  
 Osmon yuzidan  
 Nafarmon bulutlar yig‘di etagin.  
 Oftob ham ko‘rindi ko‘hna izidan  
 Va boshlab yubordi dilbar ertagin.

Men yo‘lga tushaman,  
 Namli qoyalar  
 Qizg‘ish shu'lalarda tovlanar mayin.  
 Yon-verdan chekinib borar soyalar  
 Quyosh tik, junbishga kelgani sayin.

Charchash nima – bilmas vafodor otim,  
 Zerikish menga ham begona butkul.  
 Tog‘lar atrofimda jilmayadi jim,  
 Jilmayar qarshimda yolg‘izoyoq yo‘l.



“Yomg‘irdan so‘ng”.  
 Rassom Y. Bazarov ishlagan surat

**MUHOKAMA QILAMIZ**

1. She’nda qaysi rang yoki ranglar ustunlik qilyapti? Bu ranglar inson-ga qanday kayfiyat bag‘ishlaydi?
2. “... bulutlar yig‘di etagin”, “oftob ... boshlab yubordi dilbar ertagin”, “tog‘lar atrofimda jilmayadi jim” satrlariga e’tibor bering. Bulut etagini yig‘ishi, oftob ertak aytishi, tog‘lar jilmayishi mumkinmi? Shoир bu satrlarda qaysi badiiy tasvir vositasini ishlatgan? Bu tasvir vositasini qo’llashdan maqsadi nima?
3. Shoир kunning qaysi paytini tasvirlagan? Nega aynan shu paytni tasvirlagan deb o‘ylaysiz?
4. Sizningcha, lirik qahramon qayerga boryapti? Uning borar yeri uzoqmi? Maqsadi nima?

**Lirik qahramon** – lirik asarda (she’nda) his-tuyg‘ulari, kechinmalari, o‘y-xayollari tasvirlangan qahramon.

**nafarmon** –  
 och, qizg‘ish  
 binafsharang

**junbish** –  
 harakat

***Omon Matjon***

\* \* \*

Osmon sog‘inch kabi poyonsiz, yashil,  
 Qirlar lahza sayin o‘zga turlanar.  
 “Qur-qur”lar to‘lmoqda ko‘kka muttasil,  
 Qaytib kelayotir yurtga turnalar.

arg‘uvon –  
 qirmizi  
 mujda –  
 xushxabar

Tomlarda qizg‘aldoq – arg‘uvon mujda,  
 Tog‘larda lolalar – qirmizi xabar.  
 Osmoni falakda – shoshqin bir mavjda  
 Qaytib kelayotir yurtga turnalar.

Qishning zardalari oxir chekildi,  
 Ko‘klam deb kim o‘zi solayotgan jar?!  
 Borliq nigoh bo‘lib ko‘kka tikildi,  
 Qaytib kelayotir yurtga turnalar.

Ana, ana ular! Safbasta, mumtoz,  
 Barisi bir jon-u bir tan-u bir par.  
 Izidan olamni etkizib parvoz,  
 Qaytib kelayotir yurtga turnalar.



“Turnalar”.  
 Rassom Nikolay Belov ishlagan surat

## MUHOKAMA QILAMIZ

- “Osmon sog‘inch kabi poyonsiz, yashil...”. Sog‘inch ham yashil bo‘ladimi? Shoir nega osmonni sog‘inchga o‘xshatmoqda?
- Tomlardagi, tog‘lardagi lolalar nimadan xabar bermoqda?
- Turnalarning kelishi nega lirik qahramon uchun muhim? Nega uning borlig‘i “nigoh bo‘lib ko‘kka tikildi”?
- Shoir osmonda parvoz qilayotgan turnalarni qanday tasvirlaydi? “Izidan olamni etkizib parvoz” misrasini siz qanday tushundingiz?

## SOLISHTIRAMIZ

- She’rlarni o‘qiganingizda ko‘z oldingizda qanday manzara gavdalandi? Ko‘nglingizdan nimalar o‘tdi? Bu ikki she’rni o‘qiganda his qilgan tuyg‘ularingiz qaysi jihatdan bir-biriga yaqin va qaysi jihatdan farq qiladi?
- E’tibor bering, har ikki she’rga ham sarlavha qo‘yilmagan. She’rlarga sarlavha qo‘ying. Tanlagan sarlavhalariningizni izohlang.

## IJODIY ISH

Guruhlarda ishlang. She’rlarda ishtirok etgan tabiat bilan bog‘liq obrazlardan (yomg‘ir, osmon, bulut, tog‘, lola va hokazo) birini tanlang va uning asosida sinkveyn tuzing. Tuzgan sinkveynlaringizni sinfda muhokama qiling.

**Sinkveyn** (fransuzcha “besh” so‘zidan) – besh qatorli she’r (misralar qofiyalanishi shart emas). XX asr bosqlarida Amerika shoirasi Adelaida Krepsi tomonidan ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda sinkveynning bir qancha shakllari keng tarqalgan bo‘lib, shulardan biri didaktik sinkveyn deb ataladi. Didaktik sinkveynning tuzilishi:

- birinchi qator – bitta ot yoki olmosh (she’r mavzusi);
- ikkinchi qator – birinchi qatordagi ot yoki olmoshni xarakterlaydigan ikkita sifat;
- uchinchi qator – birinchi qatordagi ot yoki olmoshni xarakterlaydigan uchta fe’l yoki ravishdosh;
- to‘rtinchi qator – mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi, to‘rt so‘zdan iborat birikma yoki gap;
- beshinchi qator – mavzuni xulosalaydigan bitta so‘z (birinchi qatorda ishlatilgan so‘z qaytarilmasligi lozim).

### Namuna:

*Tabiat –*

*Musaffo, sokin.*

*Ilhomlantiradi, tinchlantiradi,  
hayratlantiradi.*

*Quchog‘ingga talpinaman  
men mudom,*

*Go‘zallik.*



## FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TASVIRIY SAN'AT

Bu mavzuda biz:

- kechinmalarning tasviri san'at va adabiyotda tasvirlanishini solishtiramiz.

Biron ta fandan “ikki” baho olib, uydagilardan dakki eshitganmisiz? Shunday paytda o'zingizni qanday his qilgansiz? Ko'nglingizdan nimalar kechgan?

### GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Rasmda qanday voqeasini tasvirlangan? Rassom ona va o'g'ilning ayni paytdagi kechinmalarini tasvirlash uchun qanday vositalardan foydalanan? Jadvalni daftaringizda to'ldiring.



“Yana yiqildi”. Rassom  
Aleksey Korin ishlagan surat (1894-yil)

ONA	
Ayni paytdagi kechinmalari	
Rassom qo'llagan vositalar	

O'G'IL	
Ayni paytdagi kechinmalari	
Rassom qo'llagan vositalar	

**Matnni o'qing. Unda tasvirlangan holat rasmdagi holatga qaysi jihatlari bilan o'xshash va qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Ona va o'g'il kechinmalarini tasvirlash uchun yozuvchi qanday vositalardan foydalangan?**

Uchalamiz ovqatlangani o'tirdik. Tomog'imdan hech narsa o'tmasdi. Aytay desam, oyimning avzolaridan qo'rqaman, aytmay desam, ichimda sira gap saqlolmayman, nimadir yuragimni tirnayotganga o'xshaydi. Gap eshitsam eshita qolay, qutulib olaman, dedim-u dangal yorildim.

– Oyi, ertaga olti yarimda maktabga borarmishsiz, – ovozim xirillab zo'rg'a chiqdi, – Nasiba opa aytdilar.

– Nima? – oyimning ranglari o'zgardi, – yana “ikki” oldingmi? A?! Men boshimni xam qilgancha yerga tikildim.

– O'v, sen qachon odam bo'lasan, lapashang? Qachongacha sening dastingdan gap eshitaman, – xuddi o'ylaganimdek oyimning jahllari chiqib ketdi. – Kap-katta odam o'qituvchining oldida qizarib, izza bo'lib o'tirish jonimga tegdi. Nega sira joningni achitmaysan? Sendan so'rayapman, bez bo'lib o'tirmasdan javob ber! Nega sira dars tayyorlamaysan?

– Tayyorlayman, – dedim ming'illab.


– Go'rni tayyorlaysanmi? Tayyorlasang, har kuni shunaqa “ikki” olib kelarmiding?

– Har kuni olmayman, bu haftada birinchi olishim, – yana ming'illab qo'ydim.

*Farhod Musajonov,*

*“Bo'sh kelma, Alikulov” qissasidan*


**Rasm asosida hikoya tuzing. Qahramonlar kechinmalarini tasvirlashga alohida e'tibor qarating.**



“Buvi va nevara”.

Rassom Abdulhaq Abdullayev  
ishlagan surat (1960-yil)

## TAKRORLASH



**She'rni o'qing. Savollarga daftaringizda yozma javob bering.**

\*\*\*

Ko'rinmas olovdan erib borar tun,  
Burgutlar qoyada potirlashmoqda.  
Ona qornidagi go'dakday beun  
Tuman g'imirlamoqda.

Tong otdi, eng so'nggi yulduz ko'zlarin  
Qudratli pahlavon – uyqu eltmoqda.  
Qo'radan chiqishgan suruvdek vazmin  
Tuman ko'tarilmoqda.

Kumush cho'qqilardan ohista oshib,  
Quyosh sim-sim qo'shiq kuylab kelmoqda.  
Osmon qozonida sut kabi toshib  
Tuman tarqalmoqda.

*Azim Suyun*

**1. She'rda qanday manzara tasvirlangan? Fikringizni asoslang.**

---

---

---

**2. Bandlarning (har to'rt qatorning) oxirida ishlatilgan fe'llarni solishtiring. Shoir nima maqsadda bandlarni har xil fe'llar bilan yakunlagan?**

---

---

---

**3–4. She'rda o'xshatishga ikkita misol toping. Bu o'xshatish-larning nima maqsadda qo'llanganini izohlang.**

O'xshatish: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_

---

---

O'xshatish: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**5–6. She'r dan metaforaga ikkita misol toping. Bu metaforalar orqali shoir nimalarni tasvirlagan? Metaforalar qanday o'xshashlik asosiga qurilgan?**

	Metafora	Nimani ifodalayapti?	Qanday o'xshashlik asosiga qurilgan?
1			
2			

**7–8. She'r dan jonlantirishga ikkita misol toping. Bu jonlantirishlarning nima maqsadda qo'llanganini izohlang.**

Jonlantirish: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Jonlantirish: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

### Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

Kechagina o'tqazilgan olicha ko'chati muncha ham kekkayib tebranadi. Shabi yaldoning bo'ydoq shabadasi u bilan o'ynaydi. Tola-tola yaproqlarini silkitib qochadi, sarv qomatlarini qitiqlaydi. Oy ham bularga sitoyishkor – olicha qiz ko'rimli ko'rinsin deb quchoq-quchoq kumush nurlarini uning ko'ksiga sochadi, ... olicha qizning soyasini ikki marta cho'zibroq ko'rsatadi.

... Oy tikkadan og'gan, boyagi sho'x-shotir shabada qo'shni bog'larga devor oshgan. Qo'rg'onchani tumanli og'ir jimgitlik bosgan, xas-cho'plargacha shitir etmay salmoqli nafas oladilar. Hamma yoq uyduda.

*G'afur G'ulom, "Soyalar" hikoyasidan*

**shabi yaldo –**  
yilning eng  
uzun kechasi  
(21-dekabrdan  
22-dekabrga  
otar kecha)  
**sarv –** (bu yerda)  
kelishgan, tik  
**sitoyishkor –**  
madh qiluvchi

**9. Parchada qanday manzara tasvirlangan? Fikringizni asoslang.**

---

---

**10. Parchadagi manzara qaysi badiiy tasvir vositasiga asoslangan?**

---

---

**11–12. Parchadan sifatlashga ikkita misol topping. Bu sifatlashlarning nima maqsadda qo'llanganini izohlang.**

Sifatlash: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_

---

Sifatlash: \_\_\_\_\_

Izoh: \_\_\_\_\_

---

**13. Berilgan she'r va nasriy parchanining ikkita farqini ko'rsating.**

Birinchi farq: \_\_\_\_\_

---

Ikkinci farq: \_\_\_\_\_

---

**O'zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?**

😊 12–13 taga: juda yaxshi!

😐 9–11 taga: yaxshi, lekin sal ko'proq ishlashim kerak!

☹️ 9 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!


## LUG'AT

**Detektiv asar** (inglizcha “izquvar” so‘zidan) – sirli jinoyatning turli xil usullar bilan ochilishi haqida hikoya qiluvchi asar. Jahon adabiyotida Edgar Po, Artur Konan Doyl, Agata Kristi, Jorj Simenon singari adiblar yaratgan detektiv asarlar mashhur. O‘zbek adiblaridan O‘limas Umarbekov, Omon Muxtor, Tohir Malik singari mualliflar detektiv asarlar yozgan.



.....

**Fantastika** (yunoncha “tasavvur qilish san’ati” so‘zidan) – haqiqatda mavjud bo‘lmagan, muallif tasavvuri mahsuli bo‘lgan narsalar, voqeal-hodisalar tasviri. Misol uchun, ingliz yozuvchisi Jonatan Swiftning “Gulliverning sayohatlari” asarida bosh qahramon kema halokatidan keyin mitti odamchalar – liliputlar yashaydigan mamlakatga tushib qoladi va ular tomonidan asir olinadi.



.....


**Folklor** (inglizcha “xalq donoligi” so‘zidan) – xalq og‘zaki ijodi, muallifi noma'lum bo‘lgan, avloddan avlodga og‘zaki yo‘l bilan o‘tib kelgan asarlar (maqollar, topishmoqlar, qo’shiqlar, ertaklar, dostonlar va hokazo).

.....

**Ilmiy-fantastik asar** – ilm-fan va texnikaning qanday taraqqiy etishiga oid tasavvurlar asosida yaratilgan asar. Bunday asarlarda voqealar sehrli yoki g‘ayritabiyy kuchlar yordamida emas, balki fandagi ixtiolar yoki yangi ilmiy tajribalar bilan bog‘liq hodisalar asosida rivojlanadi. Misol uchun, ingliz yozuvchisi Herbert Uellsning “Ko‘rinmas odam” ilmiy-fantastik asari bosh qahramoni Griffin ilmiy tajribalar orqali “ko‘rinmas odam”ga aylanish yo‘lini topadi. Xudoberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida Hoshimjon sehrli qalpoqcha yordamida ko‘rinmasga aylangani uchun uni ilmiy-fantastik asar deya olmaymiz. Bolalar yozuvchisi Sa’dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” qissasi zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyotidagi ilmiy-fantastik asarga misol bo‘la oladi.



**Jonlantirish** – badiiy tasvir vositasi, insonlarga xos xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvonlarga ko‘chirish, ularni “jonli” qilib tasvirlash. Misol uchun:



*Pastak hovli chetida dilxun  
Bir bola yig‘laydi –  
qo‘lida kitob.  
Bahodirning qilichi sindi,  
Bahodirning qilichi sindi.  
Yovniki butun!  
Qayga ketdi yaproqdek bola,  
Bo‘ta kabi qayda bo‘zlaydi?  
Uchib yurgan varaqlar, ana,  
Shamollarga ertak so‘zlaydi.  
Bola qani?.. Bilmayman, ammo,  
Ishonaman, qaylardadir u  
Bahodirga qilich izlaydi...*

*Azim Suyun*

Ushbu parchada kitob varaqlari “jonlantirilgan”: ular inson kabi “shamollarga ertak so‘zlaydi”.

.....

**Lirk qahramon** – she’rda o‘ylari, his-tuyg‘ulari, kechinmalari tasvirlangan qahramon, she’rdagi “men” ortida turgan obraz. Misol uchun:

*Parchagina bulut,  
Cheksiz osmon,  
Adir ortidagi yolg‘izoyoq yo‘l.  
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,  
Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.*

*Abdulla Oripov*

Ushbu parchada lirk qahramon o‘ziga qadron joylarga qaytishni istamoqda.

.....

**Metafora** (yunoncha “ko‘chirish” so‘zidan) – badiiy tasvir vositasi, bir narsani boshqa nom bilan atash. Metafora ikki narsa yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Misol uchun:

*Bulutning orasidan  
Quyosh kulib qaraydi.  
Majnuntolning yuvilgan  
Sochlarni taraydi.*

*Erkin Vohidov*

Ushbu parchada majnuntolning shoxlari “sochlар” deb atalgan. Majnuntol shoxlari va uzun sochlarning pastga osilib turishidagi o‘xshashlik metaforani yuzaga keltirgan.

**Prototip** – badiiy asar qahramoni yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan real shaxs. Misol uchun, Tohir Malikning "Qaldirg'och" ("Savohil") qissasidagi Asadulla Mira'zam obrazi uchun XX asr o'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy prototip bo'lib xizmat qilgan. Ayrim tadqiqotchilar Artur Konan Doyl bilan birga kasalxonada ishlagan, noyob aqliy qobiliyatlarga ega bo'lgan Jozef Bellni Sherlok Xolmsning prototipi deb hisoblashadi.



.....

**Qofiya** – she'riy asarlarda misralar oxirida ohangdosh so'z yoki so'z birikmalarining takrorlanishi. Misol uchun:

*O'zimni tanidim, ko'klarda **uchdim**,  
Momiq bulutlarning havosin **ichdim** –  
Ko'zlarim to'yjadi, ko'zlardan **kechdim**.  
Vatan! Ont ichmayman, qasam **ichmayman**,  
Lekin ikki dunyo sendan **kechmayman!***

*Xurshid Davron*

Ushbu parchada birinchi uch misradagi ohangdosh bo'lgan "uchdim", "ichdim" va "kechdim" so'zlari, oxirgi ikki misrada esa "ichmayman" va "kechmayman" so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan.

.....

**Radif** (arabcha "mingashib keluvchi, izma-iz boruvchi" so'zidan) – mumtoz she'riyatda baytlar yoki misralar oxirida qofiyadan keyin takrorlanigan bir xil so'z yoki so'z birikmasi. Misol uchun:

*Ochinglar, millati vayronni obod **etgusi maktab**,  
O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod **etgusi maktab**.*

Avaz O'tar


Ushbu parchada "obod" va "shod" so'zlari qofiyadosh bo'lib, ulardan keyingi "etgusi maktab" birikmasi esa radif bo'lib kelmoqda.

.....

**Ruboiy** (arabcha "to'rtlik" so'zidan) – mumtoz adabiyotda keng qo'llangan lirik janrlardan biri. To'rt misradan iborat bo'ladi. Ikki xil (a-a-a-a yoki a-a-b-a shaklida) qofiyalanishi mumkin. Misol uchun:


*G'urbatqa tushub zaif-u bemor o'ldum,  
Dard-u g'am-u mehnat ilgida zor o'ldum.  
Sartosar ajal toshidin afgor o'ldum,  
Sensiz ne balolarg'a giriftor o'ldum.*

*Alisher Navoiy*



*Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Zahiriddin Muhammad Bobur



**Sarguzasht asar** – qahramonlar boshidan kechirgan qiziqarli sarguzashtlar haqida hikoya qiluvchi asar. Sarguzasht asarda voqealar tez rivojlanadi, qahramonlar tushgan vaziyatlar ham tez o'zgaradi. Bu voqealar asnosida bosh qahramon xarakteri shakllanadi. O'zbek adabiyotida Xudoyberdi To'xtaboyev, jahon adabiyotida esa Aleksandr Dyuma, Jyul Vern, Fenimor Kuper, Mayn Rid singari adiblar sarguzasht asarlarning ajoyib namunalarini yaratganlar.

**Sifatlash** – badiiy tasvir vositasi, shaxs, narsa yoki voqe-a-hodisaning biron-bir jihatni, xususiyatini ajratib ko'rsatadigan, uni obrazli tasvirlaydigan aniqlovchi. Misol uchun:

"Hech esimdan chiqmaydi. Bir kuni o'sha totli tushlikni yeb bo'lib, may-salar ustiga chalqancha yotib oldim. **Tubsiz** osmonning bir chekkasida ko'pikday oppoq bulutlar ohista suzib yurar, baland-balandlarda **jajjigina** bir to'rg'ay turgan yerida tipirchilab, shodon sayrardi..."

O'tkir Hoshimov, "Hurkitilgan tush" hikoyasidan

Ushbu parchada "tubsiz", "jajjigina" so'zlari sifatlash bo'lib kelgan.

**Yumor** (inglizcha "kayfiyat" so'zidan) – badiiy asarda hayotdagisi yoki ayrim kishilardagi kamchiliklar, nuqsonlar ustidan yengil kulish, tanqid qilish. Yumor orqali muallif tanqid qilinayotgan illatlarning bartaraf qilinishini istaydi. O'zbek adabiyotida Muqimiy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va boshqa ijodkorlar asarlariда yumorini kuzatishimiz mumkin.



**O'xshatish** – badiiy tasvilaridan biri, shaxs, narsa yoki holating boshqa bir narsaga o'xshatilishi, qiyoslanishi. O'xshatish uchun ikki narsa o'rtaсидаги umumiyy xususiyat asos qilib olinadi. Misol uchun:

"Sentyabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganimiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, **ona chumchuqday** qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar".

G'afur G'ulom, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidan


Ushbu parchada voqeani hikoya qilib berayotgan bola buvisini ona chumchuqqa o'xshatmoqda: ona chumchuq jo'jalarini qanoti ostiga olib, himoya qilib yotganday, buvi ham nevaralarini himoya qilib yotmoqda.

# MUNDARIJA

*Kirish. Badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari* ..... 3


## 1-FASL. HAR BIR KUN – SABOQ

Abdulla Qahhor. “O‘g‘ri” .....	10
G‘afur G‘ulom. “Shum bola” .....	18
Odil Yoqubov. “Yaxshilik” .....	32
O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” .....	46
Fanlararo aloqa: adabiyot va tarix .....	54
Takrorlash.....	56



## 2-FASL. SO‘ZDA SEHR BOR

Xalq og‘zaki ijodi: xalq qo‘schiqlari .....	62
Alisher Navoiy. Ruboilar.....	68
Abay. “Yoshlikdan bilim izlab...”	
Avaz O‘tar. “Har tilni biluv emdi...” .....	74
Lengston Hyuz. “Rahmat sizga, xonim” .....	80
Fanlararo aloqa: adabiyot va ona tili.....	88
Takrorlash.....	90



## 3-FASL. FANTASTIKA VA SARGUZASHTLAR OLAMI

Hojiakbar Shayxov. “Birinchi sinov” .....	96
Rey Bredberi. “Bir kunlik yoz” .....	108
Jyul Vern. “O‘n besh yoshli kapitan” .....	118
Artur Konan Doyl. “Mallalar uyushmasi” .....	142
Fanlararo aloqa: adabiyot va texnologiya.....	166
Takrorlash.....	168





#### 4-FASL. RANGIN TUYG'ULAR

Rahmat Fayziy. "Hazrati inson" .....	174
Ibroyim Yusupov. "Qadrdon so'qmoqlar"	
Xurshid Davron. "Vatan devorlari" .....	186
Oskar Uayld. "Baxtli Shahzoda" .....	196
Azim Suyun. "Yomg'ir yog'ib o'tdi..."	
Omon Matjon. "Osmon sog'inch kabi..." .....	208
Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriyan san'at .....	212
Takrorlash .....	214
Lug'at .....	217



*O'quv nashri*

# ADABIYOT

*Umumiy o'rta ta'lif maktabalarining  
6-sinfi uchun darslik*

**Muharrir** Xurshidbek Ibrohimov  
**Badiiy muharrir** Sarvar Farmonov  
**Rassom** Ilhom Xolxo'jayev  
**Dizayner** Kamola Ahmedova  
**Texnik muharrir** Akmal Sulaymonov  
**Musahhih** Orifjon Madvaliyev  
**Sahifalovchi** Xurshidbek Abdulboqiy o'g'li

Bosishga \_\_\_\_\_. 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.  
Georgia garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 26,04. Nashriyot-hisob tabog'i 17,73.  
Adadi \_\_\_\_\_ nusxa. Buyurtma \_\_\_\_.

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

Nº	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi	Darslikning topshiril- gandagi holati	Sinf rahbari- ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda  
yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi  
baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

<b>Yangi</b>	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
<b>Yaxshi</b>	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
<b>Qoniqarli</b>	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
<b>Qoniqarsiz</b>	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.